

**BMTNING JINOYATCHILIKKA
QARSHI KURASHISH
VA ODIL SUDLOVGA OID
XALQARO SHARTNOMALARI
TO'PLAMI**



INSON HUQUQLARI BO'YICHA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY MARKAZI

BMTNING JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHISH VA ODIL SUDLOVGA OID XALQARO SHARTNOMALARI TO'PLAMI

Тошкент – 2024

UO'K 341.24(08)+343.36(08)
KBK 66.7

B11 **BMTning jinoyatchilikka qarshi kurashish va odil sudlovga oid xalqaro shartnomalari to'plami.** – T.: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2024. – 136 b.

Mazkur qo'llanma Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi huzuridagi Ilmiy-muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan nashrga tavsiya etilgan (2024-yil 19-avgust, 9-sonli bayonnoma).

ISBN 978-9943-4309-7-6

Mas'ul muharrir: akademik A.X. Saidov

Tuzuvchilar: M. Tillabayev,
M. Palnova,
L. Ruzikulova

Ushbu to'plamga BMTning jinoyatchilikning oldini olish va jinoiy odil sudlov sohasidagi odil sudlovni amalga oshirish jarayonida inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda ularga rioya qilishga qaratilgan standartlarini aks ettiruvchi xalqaro shartnomalar kiritilgan.

To'plam davlat organlari, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari, ta'lim muassasalarining professor va o'qituvchilari, tadqiqotchilar, talabalar, fuqarolik jamiyati institutlari vakillari hamda inson huquqlarini himoya qilish va qonun ustuvorligini mustahkamlash masalalari bilan qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.

ISBN 978-9943-4309-7-6

UO'K 341.24(08)+343.36(08)
KBK 66.7

MUNDARIJA

Genotsid jinoyatining oldini olish va uning uchun jazolash to'g'risidagi konvensiya	6
Odam savdosiga va uchinchi shaxslar tomonidan tanafurushlikdan foydalanilishiga qarshi kurashish to'g'risidagi konvensiya va Yakunlovchi bayonnoma	10
Chet el arbitrajleri qarorlarini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi konvensiya	17
Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyani to'ldiruvchi Odam savdosining, ayniqsa, ayollar va bolalar savdosining oldini olish hamda unga chek qo'yish va uning uchun jazolash haqidagi bayonnoma	22
Korrupsiyaga qarshi konvensiya	31
Birlashgan Millatlar Tashkilotining Mahbuslar bilan muomala qilish bo'yicha minimal standart qoidalar (Mandela qoidalari)	75
Mahbuslar yoki hibsga olingan shaxslarni qiynoq hamda jazolashning boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlaridan himoya qilishda sog'liqni saqlash xodimlarining, ayniqsa, shifokorlarning roliga taalluqli tibbiyot etikasi prinsiplari	104
Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari	106
Yuristlarning roliga oid asosiy prinsiplar	110
Sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslarning roliga taalluqli rahbariy prinsiplar	115
Huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslarning kuch va o'qotar qurol ishlatishining asosiy prinsiplari	120
Sudyalar axloqining Bangalor prinsiplari	125
Huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslarning axloq kodeksi	131

TUZUVCHILARDAN

XX asr oxiri – XXI asr boshlarida xalqaro xarakterdagi yangi jinoyatlarning (terrorizm, odam savdosi, daromadlarni legallashtirish, kontrabanda, giyohvand moddalar savdosi, kiberjinoyatchilik va boshqalar) paydo bo'lishi, xalqaro jinoyatchilikning an'anaviy shakllarining rivojlanishi davlatlardan qonunchilikni birlashtirish, jinoyatlar kvalifikatsiyasining yagona mezonlarini ishlab chiqishni, xalqaro xarakterdagi jinoyatlarga qarshi kurashishning umumiy tamoyillari va yagona strategiyasini ishlab chiqish kabi aniq harakatlarni talab qiladi.

Ushbu omillarga asosan, jinoyatchilikka qarshi kurashish zamonaviy xalqaro huquqda xalqaro hamkorlikning ustuvor yo'nalishlariga tegishlidir hamda mazkur yo'nalishda barcha davlatlarning o'zaro hamkorligi zaruriyati bilan belgilandi. Shunday qilib, jinoyatchilikka qarshi kurashishning xalqaro standartlari kontseptual qoidalardan xalqaro-huquqiy standartlar maqomiga o'tdi hamda milliy darajada joriy etilmoqda.

BMT jinoyatchilikning turli shakllariga qarshi kurashish uchun huquqiy bazani yaratadigan xalqaro konvensiyalar va boshqa normativ hujjatlarni ishlab chiqish bo'yicha sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirishda asosiy rol o'ynaydi. Ushbu hujjatlar nafaqat yagona standartlarni belgilaydi, balki xalqaro jinoiy odil sudlovning samarali tizimini yaratishda muhim qadam hisoblangan milliy qonunchilikni uyg'unlashtirishga yordam beradi.

1955-yildan boshlab BMTning Jinoyatchilikning oldini olish va jinoiy odil sudlov bo'yicha kongresslari jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha xalqaro-huquqiy bazani shakllantirishda, mazkur sohada xalqaro standartlarni ishlab chiqishda alohida rol o'ynay boshladi. BMT Kongresslari tomonidan ishlab chiqilgan hujjatlar barcha davlatlar uchun amal qiladigan standartlarni o'z ichiga oladi. Aksariyat ma'lumotlar BMTning asosiy organlari rezolyutsiyalarida tasdiqlangan va tavsiya etilgan. Shu bilan birga, BMT Kongresslari ma'lumotlarining alohida ifodalanishi xalqaro shartnomalarga ham kiritilgan.

Inson huquqlarining va jinoyatchilikka qarshi kurashishning xalqaro standartlari ham davlat, ham jamiyat uchun bu huquqlarni ta'minlashning yo'riqnomasi va mezonidir. Ular davlat organlari, sudlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va fuqarolik jamiyati o'z harakatlari va siyosatini baholashda tayanishi mumkin bo'lgan asosdir.

Inson huquqlarining xalqaro standartlari va jinoyatchilikka qarshi kurashish standartlarini bilish inson huquqlarini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Standartlar milliy darajada moslashtirilishi va joriy etilishi mumkin bo'lgan eng yaxshi amaliyotlar asosida ishlab chiqiladi. Ushbu standartlarni tushunish va qo'llash inson huquqlari buzilishining oldini olishga yordam beradi, adolatli va samarali odil sudlovni ta'minlaydi hamda davlat institutlarining shaffofligi va hisobdorligiga ko'maklashadi, shuningdek davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi. Oxir-oqibat, bu har bir

insonning huquqlari hurmat qilinadigan hamda himoya qilinadigan yanada adolatli va xavfsiz dunyoni yaratishga yordam beradi.

Zamonaviy xalqaro huquq davlatlarga inson huquqlari sohasidagi o'z zimmalariga olgan majburiyatlarni bajarish uchun qonunchilik, ma'muriy va boshqa choralarni ko'rishni buyuradi. Shunday qilib, xalqaro majburiyatlarga muvofiq yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar kiritildi hamda "O'zbekiston-2030" strategiyasida qonun ustuvorligini ta'minlash bo'yicha vazifalar belgilandi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, jinoyatchilikning oldini olish va jinoiy odil sudlov sohasidagi sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirish inson huquqlarini himoya qilish masalasi bo'lishi bilan birga, barqaror rivojlanishni, ayniqsa, hamma uchun odil sudlovdan foydalanish imkoniyatini ta'minlash, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash hamda eng kam rivojlangan mamlakatlarning huquqiy tartib va odil sudlovni yaxshilash bo'yicha sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan BRMning 16 va 17-maqсадlarini ta'minlash uchun strategik ustuvorlikka ham egadir.

Shu sababli, faqat xalqaro miqyosdagi sa'y-harakatlarni birlashtirish orqali biz tenglik, adolat va inson qadr-qimmatini hurmat qilish tamoyillarini amalga oshirishda muvaffaqiyatga erishishimiz mumkin.

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi tomonidan tayyorlangan mazkur to'plam inson huquqlari bo'yicha xalqaro hujjatlarni davlat tiliga tarjima qilish va nashr etish yuzasidan so'nggi yillarda olib borilayotgan ishlarning davomi hisoblanadi: "Xotin-qizlar huquqlarini himoya qilishga oid xalqaro shartnomalar va O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to'plami", "Sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslarning roliga taalluqli Rahbariy prinsiplar", "Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalari to'plami" va boshqalar.

Ushbu nashr jinoyatchilikka qarshi kurashish va odil sudlovni amalga oshirishda asosiy xalqaro standartlarning o'zbek tiliga tarjimasi hisoblanadi. Ushbu hujjatlarning o'zbek tiliga tarjimasi ularning O'zbekiston Respublikasida kengroq tushunilishi va qo'llanilishida yordam beradi. Albatta, normativ hujjatlarni tanlab olish ular hajmining kattaligi tufayli mukammal bo'lmasligi mumkin. Ammo nazariy va amaliy nuqtai nazardan eng muhim hujjatlar ushbu to'plamga kiritilgan.

Umid qilamizki, mazkur to'plam xalqaro hamkorlikni chuqurlashtirish va O'zbekiston Respublikasining jinoyatchilikka qarshi kurashishida huquqiy asoslarni mustahkamlash, shu bilan birga, har bir insonning huquq va erkinliklarini himoya qilish uchun foydali vosita bo'ladi.

GENOTSID JINOYATINING OLDINI OLISH VA UNING UCHUN JAZOLASH TO'G'RISIDAGI KONVENSIYA

*BMT Bosh Assambleyasining 1948-yil 9-dekabrda
260 (III)-sonli rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1999-yil 20-avgustda
835-I-sonli Qaroriga muvofiq ratifikatsiya qilingan*

Ahdlashuvchi tomonlar,

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi o'zining 1946-yil 11-dekabrda 96 (I)-rezolyutsiyasida genotsid xalqaro huquq normalarini buzadigan hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining ruhi va maqsadlariga zid bo'lgan jinoyat ekanligini hamda madaniyatli olam uni qoralashini e'tiborga olib,

butun tarix davomida genotsid insoniyatga katta talafotlar yetkazganini e'tirof etib, va insoniyatni ana shu jirkanch ofatdan qutqarish uchun xalqaro hamkorlik zarurligiga ishonch hosil qilib,

quyida nazarda tutilganidek kelishib oldilar:

I modda

Ahdlashuvchi tomonlar genotsid u tinch yoki urush davrida sodir etlishidan qat'i nazar, xalqaro huquq normalarini buzadigan va unga qarshi ogohlantirish choralarini ko'rishga hamda uni sodir etganligi uchun jazolashga majbur bo'lgan jinoyat ekanligini tasdiqlaydilar.

II modda

Ushbu Konvensiyada genotsid deganda biron bir milliy, etnik, irqiy yoki diniy guruhni to'liq yoki qisman yo'q qilish istagida sodir etilgan quyidagi harakatlar tushuniladi:

- a) shunday guruh a'zolarini o'ldirish;
- b) shunday guruh a'zolariga jiddiy jismoniy yoki aqliy shikast yetkazish;
- c) biron bir guruhni to'liq yoki qisman jismoniy yo'q qilishga mo'ljallangan shunday hayotiy shart-sharoitlarini yaratish;
- d) shunday guruh muhitida bola tug'ilishining oldini olishga mo'ljallangan chora-tadbirlar;
- e) bolalarni bir insonlar guruhidan boshqasiga majburlab o'tkazish.

III modda

Quyidagi harakatlar jazolanadi:

- a) genotsid;

- b) genotsidni sodir etish maqsadida til birlashtirish;
- c) genotsid sodir etishga to'g'ridan-to'g'ri va oshkora ig'vogarlik qilish;
- d) genotsid sodir etishga suiqasd qilish;
- e) genotsidda birga qatnashish.

IV modda

Genotsid yoki III moddada sanab o'tilgan biror-bir boshqa xatti-harakatlarni sodir etadigan shaxslar, ular konstitutsiya bo'yicha javobgar hukmdorlar, mansabdor yoki xususiy shaxslar bo'lishidan qat'i nazar, jazolanishi kerak.

V modda

Ushbu Konvensiya qoidalarini kuchga kiritish uchun Ahdlashuvchi tomonlar har biri o'z konstitutsiyaviy tartib-taomiliga muvofiq zarur qonunchilikni yuritishi va, xususan, genotsid yoki III moddada keltirilgan boshqa jinoyatlarni sodir etishda aybdor shaxslarni jazolashning samarali choralarni nazarda tutish majburiyatini oladilar.

VI modda

Genotsid yoki III moddada sanab o'tilgan boshqa xatti-harakatlarni sodir etishda ayblanayotgan shaxslar, hududida ushbu xatti-harakat sodir etilgan davlatning vakolatlisudi yoki shunday sud qilish huquqini tan olgan mazkur Konvensiya tomonlariga nisbatan yurisdiksiyaga ega bo'la oladigan xalqaro jinoyat sudi tomonidan sud qilinishlari lozim.

VII modda

Aybdorlarni berishga nisbatan genotsid va III moddada sanab o'tilgan boshqa xatti-harakatlar siyosiy jinoyat sifatida ko'rilmaydi.

Bunday hollarda Ahdlashuvchi tomonlar o'z qonunchiligi va amaldagi shartnomalarga muvofiq berish majburiyatini oladi.

VIII modda

Ushbu Konvensiyaning har bir ishtirokchisi Birlashgan Millatlar Tashkilotining tegishli organiga, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavining qoidalariga muvofiq uning fikriga ko'ra, genotsid harakatlarini yoki III moddada sanab o'tilgan boshqa harakatlardan birini oldini olish va to'xtatish maqsadida barcha zarur choralarni ko'rishi talabi bilan murojaat qilishi mumkin.

IX modda

Ahdlashuvchi Tomonlar o'tasidagi ushbu Konvensiyani talqin qilish, qo'llash yoki bajarish masalalariga oid bahslar, jumladan genotsid yoki III moddada sanab o'tilgan boshqa xatti-harakatlardan birini sodir etganlik uchun u yoki bu davlatning javobgarligiga taalluqli bo'lgan bahslar, bahsdagi tomonlardan birining talabiga binoan ko'rib chiqishi uchun Xalqaro sudga yuboriladi.

X modda

Ingliz, xitoy, ispan, fransuz va rus tili matnlari asliga to'g'ri bo'lgan mazkur Konvensiyaga 1948-yil 9-dekabr sanasi qo'yiladi.

XI modda

Ushbu Konvensiya 1949-yilning 31-dekabrigacha uni Birlashgan Millatlar Tashkilotining har qanday a'zosi va Konvensiyani imzolashga Bosh Assambleyaning

taklifini olgan Tashkilotga a'zo bo'lmagan har qanday davlat nomidan imzolash uchun ochiq bo'ladi.

Ushbu Konvensiya ratifikatsiya qilinishi kerak va ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibida saqlanadi.

1950-yil 1-yanvardan boshlab Birlashgan Millatlar Tashkilotining har qanday a'zosi va yuqorida ko'rsatilgan taklifni olgan bu Tashkilotning a'zosi bo'lmagan har qanday davlat ushbu Konvensiyaga qo'shilishi mumkin.

Qo'shilish to'g'risidagi hujjatlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibida saqlanadi.

XII modda

Ahdlashuvchi Tomonlardan biri istalgan vaqtda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi nomiga yuborilgan bildirishnoma orqali ushbu Konvensiyaning qo'llanilishini u tashqi munosabatlarni olib borish uchun javobgar bo'lgan barcha yoki ayrim hududlarga tatbiq etishi mumkin.

XIII modda

Bosh kotibiga ratifikatsiya qilish yoki qo'shilish to'g'risidagi daslabki yigirmata akt saqlash uchun topshirilgan kuni Bosh kotib nusxalarini Birlashgan Millatlar Tashkilotining barcha a'zo davlatlariga va XI moddada nazarda tutilganidek, Tashkilotga a'zo bo'lmagan barcha davlatlarga yuborish uchun bayonnoma tayyorlaydi.

Ushbu Konvensiya ratifikatsiya qilish yoki qo'shilish to'g'risidagi yigirmanchi hujjat saqlash uchun topshirilgan kundan boshlab to'qsoninchi kuni kuchga kiradi.

Ushbu Konvensiya kuchga kirgandan keyin olingan ratifikatsiya qilish va qo'shilish to'g'risidagi hujjatlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga saqlash uchun topshirilgan kundan boshlab to'qsoninchi kuni kuchga kiradi.

XIV modda

Ushbu Konvensiya kuchga kirgan kundan boshlab o'n yil mobaynida amal qiladi.

U tegishli amal qilish muddati tugashidan kamida olti oy oldin uni denonsatsiya qilmaydigan Ahdlashuvchi Tomonlarga nisbatan keyingi besh yil davomida o'z kuchida qoladi.

Denonsatsiya Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi nomiga yozma ravishda xabar berish yo'li bilan amalga oshiriladi.

XV modda

Agar denonsatsiya natijasida ushbu Konvensiya ishtirokchilarining soni o'n oltitadan kam bo'lsa, oxirgi denonsatsiya kuchga kirgan kundan Konvensiyaning amal qilishi to'xtaydi.

XVI modda

Ushbu Konvensiyani qayta ko'rib chiqish to'g'risidagi talab Ahdlashuvchi Tomonlardan birining istalgan vaqtda Bosh kotib nomiga yozma ravishda xabar berish orqali taqdim etilishi mumkin.

Bunday talabga nisbatan qanday choralar ko'rish lozimligini, Bosh Assambleya, agar u qandaydir choralar ko'rishni lozim deb topsa, hal etadi.

XVII modda

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Birlashgan Millatlar Tashkilotining barcha a'zolariga va XI moddada nazarda tutilganidek, Tashkilotga a'zo bo'lmagan davlatlarga:

a) XI moddaga muvofiq olingan imzolash, ratifikatsiya qilish va qo'shilish to'g'risida hamma aktlar haqida;

b) XII moddaga muvofiq olingan hamma arizalar haqida;

c) XIII moddaga muvofiq ushbu Konvensiya kuchga kirgan kun haqida;

d) XIV moddaga muvofiq olingan denonsatsiyalar haqida;

e) XV moddaga muvofiq Konvensiyani bekor qilish haqida;

f) XVI moddaga muvofiq olingan arizalar haqida xabar qiladi.

XVIII modda

Ushbu Konvensiyaning asl nusxasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti arxivida saqlash uchun topshiriladi.

Konvensiyaning tasdiqlangan nusxalari Birlashgan Millatlar Tashkilotining barcha a'zolariga va XI moddada nazarda tutilganidek, Tashkilotga a'zo bo'lmagan davlatlarga yuboriladi.

XIX modda

Ushbu Konvensiya Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi tomonidan u kuchga kirgan kundan ro'yxatga olinadi.

ODAM SAVDOSIGA VA UCHINCHI SHAXSLAR TOMONIDAN TANAFURUSHLIK DAN FOYDALANILISHIGA QARSHI KURASHISH TO'G'RISIDAGI KONVENSIYA VA YAKUNLOVCHI BAYONNOMA

*BMT Bosh Assambleyasining 1949-yil 2-dekabrda 317 (IV)-sonli
rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2003-yil 12-dekabrda
576-II-sonli Qaroriga muvofiq qo'shilgan*

MUQADDIMA

Fohishalik va uning bilan birga sodir bo'luvchi fohishalik maqsadlarini ta'qib qiluvchi odamlar savdosi kabi illat inson shaxsining qadr-qimmatini va qadriyatiga nomunosib bo'lib, inson, oila va jamiyat farovonligiga xavfli ekanligini e'tiborga olib, ayollar va bolalar savdosiga qarshi kurashishga nisbatan quyidagi xalqaro hujjatlar o'z kuchida ekanligini e'tiborga olib:

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yil 3-dekabrda tasdiqlangan Bayonnomaga asosan kiritilgan o'zgartishlar bilan 1904-yil 18-maydagi Oq tanli cho'rilar savdosiga qarshi kurashish to'g'risidagi xalqaro shartnoma;

2. Yuqorida qayd etilgan Bayonnomaga asosan kiritilgan o'zgartishlar bilan 1910-yil 4-maydagi Oq tanli cho'rilar savdosiga qarshi kurashish to'g'risidagi xalqaro konvensiya;

3. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 1947-yil 20-oktyabrda qabul qilingan Bayonnomaga asosan kiritilgan o'zgartishlar bilan 1921-yil 30-sentyabrda Ayollar va bolalar savdosiga qarshi kurashish to'g'risidagi xalqaro konvensiya;

4. Yuqorida qayd etilgan Bayonnomaga asosan kiritilgan o'zgartishlar bilan 1933-yil 11-oktyabrda Balog'atga yetgan ayollar savdosiga qarshi kurashish to'g'risidagi xalqaro konvensiya,

1937-yilda Millatlar Ligasi tomonidan yuqorida ko'rsatilgan hujjatlarning harakat doirasini kengaytiruvchi konvensiya loyihasi tuzilganini e'tiborga olib,

1937-yildan boshlab paydo bo'lgan yangi omillar o'zida yuqorida ko'rsatilgan hujjatlarni birlashtiradigan hamda unga aynan kerakli tuzatishlarni bo'lgani kabi 1937-yilgi Konvensiya loyihasining asosiy qoidalarini mujassam etgan Konvensiyani tuzishga imkon berishini e'tiborga olib,

shuning bilan Ahdlashuvchi Tomonlar quyidagilarga kelishib oldilar:

1-modda

Ushbu Konvensiyada Tomonlar boshqa shaxsning hirsini qondirish uchun quyidagilarni amalga oshiradigan har kimni jazolash majburiyatini oladilar:

- 1) fohishalik maqsadida boshqa shaxsni, hattoki bu shaxsning roziligi bilan qo'shib qo'ysa, undasa yoki yo'ldan urgan bo'lsa;
- 2) boshqa shaxsning, hattoki bu shaxsning roziligi bilan fohishaligidan foydalansa.

2-modda

Ushbu Konvensiyada Tomonlar quyidagilar bo'yicha har kimni jazolash majburiyatini oladilar:

- 1) fohishaxona yuritgan yoki uni boshqargan yoki ongli ravishda fohishaxonani moliyaviy ta'minlagan yoki moliyaviy ta'minlashda ishtirok etgan;
- 2) uchinchi shaxslar tomonidan fohishalik maqsadida foydalanilishini bilib, bino yoki boshqa joyni yoki uning bir qismini ijaraga topshirgan yoki olgan.

3-modda

Modomiki, bu ichki qonunchilik talablariga mos tushgan ekan, 1 va 2-moddalarda nazarda tutilgan huquqbuzarliklardan birini sodir etishga suiqasd qilish, shuningdek ularni sodir etishga tayyorgarlik ko'rish harakatlari ham jazolanadilar.

4-modda

Bu ichki qonunchilik talablariga mos tushgan ekan, 1 va 2-moddalarda nazarda tutilgan aktlarda ongli ravishda ishtirok etish ham jazolanadi.

Bunga ichki qonunchilik talablariga ko'ra yo'l qo'yilgan ekan, sheriklik aktlari, agar bu jazolamaslikni oldini olish uchun zarur bo'lsa, alohida jinoyatlar sifatida ko'rib chiqiladi.

5-modda

Jabrlangan kishilar ichki qonunchilikka asosan ushbu Konvensiyada nazarda tutilgan istalgan jinoyatlarga doir ishlarda da'vogarlar sifatida ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan hollarda, chet elliklar bu huquqdan ushbu davlat fuqarolari teng ravishda foydalanadilar.

6-modda

Ushbu Konvensiyada har bir tomon fohishalik bilan shug'ullanuvchi yoki shug'ullanishda gumon qilinayotgan shaxslar yo alohida ro'yxatga olinishi kerak bo'lgan yoki maxsus hujjatga ega bo'lishlari kerak bo'lgan yoxud o'z maqsadiga ko'ra nazorat yoki ogohlantirishdan iborat favqulodda talablarga bo'ysunadigan har qanday amaldagi qonun, qaror yoki ma'muriy farmoyishni rad etish yoki bekor qilish uchun barcha zarur choralarini ko'rish majburiyatini oladilar.

7-modda

Ushbu Konvensiyada nazarda tutilgan jinoyatlar uchun ilgari boshqa davlatlarda chiqarilgan hukmlar e'tiborga olinadi, chunki bunga quyidagilar uchun ichki qonunchilikda yo'l qo'yiladi:

- 1) ashaddiy jinoyatchilik faktini aniqlash;
- 2) jinoyatchini siyosiy va fuqarolik huquqlaridan mahrum qilish.

8-modda

Ushbu Konvensiyaning 1 va 2-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar qaytarib berishga olib keladigan jinoyatlar sifatida ko'rib chiqiladi va ularga mazkur Konvensiyada har qanday tomonlar o'rtasida tuzilgan yoki tuziladigan jinoyatchilarni qaytarib berish to'g'risidagi har qanday shartnoma tatbiq etiladi.

Ushbu Konvensiyada jinoyatchilarni qaytarib berishni bu haqida shartnomalar mavjudligi bilan shart qilib qo'ymaydigan tomonlar bundan buyon o'zlarining o'zaro munosabatlarida mazkur Konvensiyaning 1 va 2-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni qaytarib berishga olib keladigan jinoyatlar deb tan oladilar.

Qaytarib berish qaysi davlatga qaytarib berish to'g'risidagi talab bilan murojaat qilingan bo'lsa, o'ha davlat qonuniga muvofiq amalga oshiriladi.

9-modda

O'z fuqarolarini qaytarib berish prinsipi qonunida tan olinmaydigan davlatlarda o'z davlatiga ular tomonidan boshqa davlatda ushbu Konvensiyaning 1 va 2-moddalarida ko'rsatilgan jinoyatlardan istalgani sodir etilgandan keyin qaytadigan fuqarolar ularning o'z davlat sudi bo'yicha ta'qib qilinadilar va jazoga tortiladilar.

Agar ushbu Konvensiya tomonlari o'rtasida paydo bo'ladigan shunga o'xshash ishlarda xorijlikni berish talabini qondirish iloji bo'lmasa, qoida qo'llanilmaydi.

10-modda

Agar jinoyat sodir etishda ayblanayotgan shaxs boshqa davlatda sudlangan bo'lsa va ayblov hukmi bo'yicha jazo muddatini o'tagan yoki jazodan ozod qilingan yoki uning jazo muddati ushbu davlat qonunlariga muvofiq qisqartirilgan bo'lsa, unda 9-moddaning qoidalari qo'llanilmaydi.

11-modda

Ushbu Konvensiyada hech narsa undagi u yoki bu tomonning xalqaro huquq normalariga muvofiq jinoyat yurisdiksiyasi chegaralari to'g'risidagi umumiy masala bo'yicha munosabatini aniqlash sifatida talqin qilinmasligi kerak.

12-modda

Ushbu Konvensiya har bir alohida davlatda Konvensiyada nazarda tutilgan jinoyatlarni ularni sodir etishda aybdor shaxslar shu davlat qonunlariga ko'ra ta'qib qilish va jazolash singari aniqlash prinsipini buzmaydi.

13-modda

Ushbu Konvensiyaning Tomonlari Konvensiyada nazarda tutilgan jinoyatlarga nisbatan sud topshiriqlarini o'zlarining xususiy qonunlari va amaliyotiga muvofiq bajarishga majburiyat oladilar.

Sud topshiriqlarini topshirish quyidagicha amalga oshiriladi:

- 1) sud hokimiyatlari o'rtasida bevosita aloqalar yo'li bilan;
- 2) ikki davlat Adliya vazirlari o'rtasida bevosita aloqalar o'rnatish yoki topshiriq kelib chiqadigan boshqa tegishli davlat hokimiyatlarining u murojaat qiladigan davlat Adliya vaziriga bevosita murojaat qilishi yo'li bilan;
- 3) topshiriq kelib chiqadigan davlatning u murojaat qiladigan davlatga diplomatik yoki konsullik vakillari vositachiligi orqali. Ko'rsatilgan vakil sud topshiriqlarini bevosita

tegishli sud hokimiyatlariga yoki topshiriq berilgan davlat hukumati tomonidan ko'rsatilgan hokimiyatlarga yuboradi, shuningdek u ushbu hokimiyatlardan bevosita sud topshiriqlarining bajarilishi akti bo'lgan hujjatlarni oladi.

1 va 3-bandlarda nazarda tutilgan hollarda, sud topshiriqlari nusxasi u murojaat qilingan davlatning oliy hokimiyatlariga yuboriladi.

Agar biron bir boshqa bitim bo'lmasa, sud topshiriqlari topshiriq yuborilgan davlatning o'z tiliga qilingan tarjimani topshiriq kelib chiqadigan hokimiyatlar tomonidan tasdiqlangan holda taqdim etilishini talab qilishi mumkinligi sharti bilan har doim u kelib chiqadigan hokimiyatlar tilida tuziladi.

Ushbu Konvensiyaning har bir tomoni bu Konvensiyadagi boshqa har bir tomonlarni boshqa davlat tomonidan unga sud topshiriqlarini yuborilishi maqbul deb hisoblanadigan yuqorida qayd etilgan usul va uslublar haqida xabardor qiladi.

Hozircha qaysidir davlatlar bunday bildirish qilmagan ekan, sud topshiriqlariga nisbatan undagi mavjud tartib kuchida qoladi.

Sud topshiriqlarining bajarilishi har qanday xarajat yoki chiqimlarni qoplash to'g'risidagi da'vo uchun asos bo'la olmaydi, ekspertiza xarajatlari bundan mustasno.

Ushbu moddada hech bir narsa mazkur Konvensiyada tomonlarning jinoyat ishlarida ularning o'z qonunlariga zid bo'lgan isbotlashning qaysidir shakli yoki usullarini qo'llash majburiyati sifatida talqin qilinmasligi kerak.

14-modda

Ushbu Konvensiyaning har bir tomoni mazkur Konvensiyada nazarda tutilgan jinoyatlarni tergov qilish natijalarini muvofiqlashtirish va markazlashtirish vazifasi topshirilgan organni ta'xis etadi va qo'llab-quvvatlaydi.

Bu organlar ushbu Konvensiyada nazarda tutilgan jinoyatlarni oldini olish va ularga jazo berishni yengillashtirish uchun to'planadigan barcha axborotlarni muvofiqlashtiradilar hamda bu organlar boshqa mamlakatlarning shunga o'xshash organlari bilan yaqin aloqada bo'ladilar.

15-modda

Bu ichki qonunchilik talablariga mos kelishi va bu 14-moddada ko'rsatilgan organlar bo'ysunadigan tegishli hokimiyatlar tomonidan tan olinishi sababli, ular boshqa davlatlardagi shunga o'xshash organlar bo'ysunadigan hokimiyatlarga quyidagi axborotlarni xabar qiladi:

1) ushbu Konvensiyada nazarda tutiladigan jinoyatlarning har biri to'g'risidagi va shunday jinoyatni sodir etishga har bir suiqasd to'g'risidagi batafsil ma'lumotlarni;

2) ushbu Konvensiyada nazarda tutiladigan jinoyatlarni sodir etishda aybdor shaxslarni qidirish, shuningdek jinoiy ta'qib qilish, qamoqqa olish, hukm qilish, qabul qilish va chiqarib yuborishni rad etishning barcha holatlari to'g'risida, jumladan bunday shaxslarning turar joylari o'zgarishi va ular bilan bog'liq boshqa har qanday foydali axborotlarni.

Shu yo'l bilan xabar qilinadigan axborotlar jinoyatchilarning tasvirini, ularning daktiloskopik izlarini, fotosuratlarini, ish usuli to'g'risidagi xabarni, politsiya ma'lumotnomalarini va sudlanganlik to'g'risidagi ma'lumotnomalarni o'z ichiga oladi.

16-modda

Ushbu Konvensiyada Tomonlar o'zlarining ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy va iqtisodiy xizmat ko'rsatish hamda boshqa shu bilan bog'liq xizmat ko'rsatish turlari sohasidagi hukumatga qarashli yoki xususiy muassasalari vositasida fohishalikka qarshi kurashish hamda fohishalik va mazkur Konvensiyada nazarda tutilgan jinoyatlar qurbonlarini normal ijtimoiy sharoitlarga qaytarish va moslashtirish yuzasidan barcha zarur choralarini ko'rish yoki rag'batlantirish majburiyatini oladilar.

17-modda

Ushbu Konvensiyada tomonlar immigratsiya va emigratsiyaga nisbatan ular tomonidan ushbu Konvensiyaga muvofiq fohishalik maqsadini ko'zlovchi ikkala jinsdagi odamlar savdosini to'xtatish uchun o'z zimmalariga olgan majburiyatlarga ko'ra talab qilinadigan hamma chora-tadbirlarni qabul qilish va amalga oshirishni zimmalariga oladilar.

Jumladan, ular quyidagi majburiyatni oladilar:

1) immigrant va emigrantlarni, ayniqsa, ayollar va bolalarni ular keladigan va jo'natiladigan joylarda muhofaza qilish uchun barcha zarur qarorlarni chiqarish;

2) eslatib o'tilgan savdo xavfi to'g'risida aholini tegishli ravishda xabardor qilish uchun choralar ko'rish;

3) temir yo'l stansiyalari, aviaportlar, portlar va boshqa jamoat joylarida kuzatuvni ta'minlash, shuningdek fohishalik maqsadini ko'zlaydigan xalqaro odam savdosining oldini olish uchun zarur choralar ko'rish;

4) mavjud "prima fasie" ma'lumotlari bo'yicha shu savdoning bosh aybdorlari, ishtirokchilari yoki qurbonlari bo'lgan shaxslar kelishi to'g'risida bildirish maqsadida hamma zarur choralarini ko'rish.

18-modda

Ushbu Konvensiyada tomonlar ularning o'z qonunlari belgilagan shartlarga ko'ra fohishabozlik bilan shug'ullanuvchi hamma chet elliklar to'g'risida ularning shaxsini va ijtimoiy ahvolini, shuningdek ularni o'z davlatini tashlab ketishga undagan shaxslarni aniqlash maqsadida ma'lumotlar to'plashga majburiyat oladilar. Bu ma'lumotlar ko'rsatilgan shaxslar kelib chiqqan davlati hokimiyatlariga ularni keyinchalik o'z vataniga qaytarish maqsadida xabar qilinadi.

19-modda

Ushbu Konvensiyada tomonlar ularning o'z qonunlarida belgilangan shartlarga muvofiq va shu qonunlarning buzilishidan kelib chiqadigan ta'qiblar yoki boshqa tadbirlardan bekor qilmagan holda iloji boricha quyidagilar bo'yicha majburiyat oladilar:

1) fohishalik maqsadlarini ko'zlaydigan xalqaro odam savdosining qurbonlari bo'lgan jabrlangan shaxslarni vataniga qaytarish bo'yicha yakuniy tadbirlar tugaguniga qadar ularga vaqtinchalik yordam ko'rsatish va qo'llab-quvvatlash yuzasidan tegishli choralar ko'rish;

2) 18-moddada ko'rsatilgan shaxslarni, agar ular shuni xohlasalar yoki ular ixtiyorida bo'lgan shaxslar tomonidan ularni o'z vataniga qaytarish talabi tushsa yoki ularni mamlakatdan chiqarib yuborish to'g'risida qonunda asoslangan buyruq mavjud bo'lsa,

ularni o'z vataniga qaytarish davlat bilan vataniga qaytariladigan shaxsning shaxsiyati va erishilgandan keyin fuqaroligini belgilash to'g'risida yoki uning xorijga kelish sanasi to'g'risida bitim tuzish amalga oshiriladi. Har bir tomon ushbu Konvensiyada bunday shaxsning o'z hududidan o'tishiga ko'maklashadi.

Avvalgi xatboshida ko'rsatilgan shaxslar o'z vataniga qaytish xarajatlarini o'zlari qoplay olmasalar va ularning ular kelib chiqqan yaqin chegaraga, jo'nash portigacha yoki aviaportgacha vataniga qaytish xarajatlarini to'laydigan na eri, na qarindoshlari, na vasiy bo'lmasa, unda xarajatlar mazkur shaxslar yashaydigan davlat tomonidan to'lanadi, shu bilan bog'liq boshqa xarajatlarni esa ular kelib chiqqan davlat o'z zimmasiga oladi.

20-modda

Ushbu Konvensiyada tomonlar ish qidirayotgan odamlarni, ayniqsa, ayollar va bolalarni ularni bo'lishi mumkin bo'lgan fohishalik maqsadlarida foydalanish xavfidan himoya qilish maqsadlarida odam yollash idoralari ustidan kuzatish yuzasidan zarur choralarini, agar shunday choralar ular tomonidan ko'rilmagan bo'lsa, ko'radilar.

21-modda

Ushbu Konvensiyada tomonlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga mazkur Konvensiya mavzusiga oid hamda ularning davlatlarida nashr etilgan qonun va qarorlar to'g'risida xabar beradi, shundan keyin har yili Konvensiya bilan bog'liq ravishda nashr etiladigan qonun va qarorlar, shuningdek mazkur Konvensiyaning qo'llanilishiga oid barcha ko'rilgan choralar to'g'risida xabar beradi. Ushbu ma'lumot Bosh kotib tomonidan vaqti-vaqti bilan e'lon qilib boriladi hamda Bosh kotib tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkilotining barcha a'zolariga, shuningdek mazkur Konvensiya 23-moddaga muvofiq rasmiy ravishda xabar qilingan Tashkilotning a'zosi bo'lmagan davlatlarga yuboriladi.

22-modda

Agar ushbu Konvensiyadagi tomonlar o'rtasida uning talqini yoki qo'llanishiga nisbatan bahs paydo bo'lsa va agar bu bahsni boshqacha yo'l bilan hal etishning iloji bo'lmasa, bahsda tomonlardan birining talabi bo'yicha Xalqaro sudga yuboriladi.

23-modda

Ushbu Konvensiya Birlashgan Millatlar Tashkiloti istalgan a'zosining nomidan, shuningdek Ijtimoiy va Iqtisodiy Kengash tomonidan tegishli taklif bilan murojaat qilingan istalgan boshqa davlat nomidan imzolash uchun ochiq.

Ushbu Konvensiya ratifikatsiya qilinishi kerak va ratifikatsiya aktlari Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga saqlash uchun topshiriladi.

Birinchi xatboshida ko'rsatilgan va ushbu Konvensiyani imzolamagan davlatlar unga qo'shilishi mumkin.

Qo'shilish Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga qo'shilish to'g'risidagi aktini saqlash uchun topshirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Ushbu Konvensiyada "davlat" so'zi mazkur Konvensiyani imzolagan yoki unga qo'shilgan davlatning hamma mustamlaka va vasiylikdagi hududlarni hamda shu davlat xalqaro mas'uliyat sezadigan hamma hududlarni o'z ichiga oladi.

24-modda

Ushbu Konvensiya ratifikatsiya qilish yoki qo‘shilish to‘g‘risidagi ikkinchi akt saqlash uchun topshirilgan sanadan keyin to‘qsoninchi kuni kuchga kiradi.

Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilayotgan yoxud saqlash uchun ratifikatsiya qilish yoki qo‘shilish to‘g‘risidagi ikkinchi akt topshirilgandan keyin unga qo‘shilayotgan har bir davlatga nisbatan mazkur Konvensiya davlat o‘zining ratifikatsiya qilish yoki qo‘shilish to‘g‘risidagi aktini saqlash uchun topshirganidan keyin to‘qson kun o‘tgach kuchga kiradi.

25-modda

Ushbu Konvensiya kuchga kirgan vaqtdan besh yil o‘tgach mazkur Konvensiyadagi tomonlardan biri uni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga bu haqda yozma ravishda bildirish yo‘li bilan denonsatsiya qilishi mumkin.

Bunday denonsatsiya bu haqida ariza bergan tomonga nisbatan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi uning arizasini olgan sanadan keyin bir yil o‘tgach kuchga kiradi.

26-modda

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Birlashgan Millatlar Tashkilotining barcha a‘zolariga hamda Tashkilotga a‘zo bo‘lmagan va 23-moddada qayd etilgan davlatlarga quyidagilar haqida bildiradi:

- a) 23-moddaga muvofiq olingan imzolash, ratifikatsiya qilish va qo‘shilish aktlari to‘g‘risida;
- b) 24-moddaga muvofiq ushbu Konvensiyaning kuchga kirish sanasi to‘g‘risida;
- c) 25-moddaga muvofiq olingan arizalarni denonsatsiya qilish to‘g‘risida.

27-modda

Ushbu Konvensiyaning har bir tomoni mazkur Konvensiyaning qo‘llanilishini ta‘minlash uchun o‘z konstitutsiyasiga muvofiq qonunchilik yoki boshqa zarur chora-tadbirlar ko‘rish majburiyatini oladi.

28-modda

Ushbu Konvensiya qoidalari, undagi tomonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlariga taalluqli bo‘lgani uchun, muqaddimaning ikkinchi xatboshisi 1, 2, 3 va 4-bandlarida qayd etilgan xalqaro aktlar qoidalarini bekor qiladi, bu aktlarning har biri ulardagi tomonlarning barchasi mazkur Konvensiyaning tomonlari bo‘lgach bekor bo‘lgan hisoblanadi.

YAKUNIY BAYONNOMA

Ushbu Konvensiyada hech narsa odam savdosi va fohishalik maqsadida boshqa shaxslarni ekspluatatsiya qilishga qarshi kurashishni ta‘minlaydigan qoidalarni amalga oshirish uchun mazkur Konvensiyada nazarda tutilgan shartlarga nisbatan qattiqroq shartlarni belgilaydigan muayyan qonunlar talablari bajarilishiga to‘sqinlik sifatida qaralmasligi kerak.

Ushbu Konvensiyaning 23–26-moddalari qoidalari mazkur Bayonnomaga nisbatan qo‘llaniladi.

CHET EL ARBITRAJLARI QARORLARINI TAN OLISH VA IJROGA QARATISH TO'G'RISIDAGI KONVENSIYA

BMTning diplomatik konferensiyasida 1958-yil 10-iyunda qabul qilingan

*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 22-dekabrda
184-I-sonli Qaroriga muvofiq qo'shilgan*

1-modda

1. Ushbu Konvensiya taraflari ham jismoniy, ham yuridik shaxslar bo'lishi mumkin bo'lgan nizolar bo'yicha chiqarilgan arbitraj qarorlarini tan olish va ijroga qaratish so'ralgan davlatdan boshqa davlatning hududida chiqarilgan arbitraj qarorlarini tan olish va ijroga qaratishga nisbatan qo'llaniladi. Shuningdek, u tan olinishi va ijroga qaratilishi so'raladigan davlatda ichki qarorlari hisoblanmaydigan qarorlarga nisbatan qo'llaniladi.

2. Arbitraj qarorlari atamasi nafaqat har bir aloxida ish bo'yicha tayinlangan arbitrlar tomonidan chiqarilgan arbitraj qarorlari, balki taraflar murojaat qilgan doimiy arbitraj organlari tomonidan chiqarilgan qarorlarni ham o'z ichiga oladi.

3. Ushbu Konvensiyani imzolash, ratifikatsiya qilish yoki unga qo'shilish yoki ushbu Konvensiyaning 10-moddasida nazarda tutilgan bildirishnoma asosida har qanday davlat o'zaro kelishuv asosida bu Konvensiyani faqat boshqa Ahdlashuvchi Davlat hududida chiqarilgan arbitraj hal qiluv qarorlarini tan olish va ijroga qaratishga nisbatan tatbiq etishini ma'lum qilishi mumkin. Shuningdek, u Konvensiyani faqat ushbu davlat milliy qonunchiligiga binoan tijoratga oid bo'lgan shartnomaviy yoki boshqa huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarga nisbatan qo'llanilishini bildirishi mumkin.

2-modda

1. Har bir Ahdlashuvchi Davlat, taraflari obyektivi hakamlilik sudining predmeti bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday o'ziga xos shartnomaviy yoki boshqa huquqiy munosabatlar bilan bog'liq ravishda yuzaga kelgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha yoki ayrim nizolarni arbitrajga topshirish majburiyatini olgan yozma bitimni tan oladi.

2. "Yozma bitim" atamasi taraflar tomonidan imzolangan yoki xatlar yoki telegrammalar almashinuvi ko'rinishidagi arbitraj bitimi yoki arbitraj haqidagi shartnoma shartini o'z ichiga oladi.

3. Ahdlashuvchi Davlat sudi, agar taraflar ushbu moddada nazarda tutilgan masala bo'yicha bitim tuzgan bo'lsa, taraflardan birining iltimosiga binoan, agar ushbu bitim haqiqiy emas yoki bekor qilingan yoki bajarilishi mumkin emas deb topilmagan bo'lsa, taraflarni arbitrajga yuborishi shart.

3-modda

Har bir Ahdlashuvchi Davlat arbitraj qarorlarini majburiy deb tan oladi va ularni quyidagi moddalarda belgilangan shartlarda, ushbu qarorlarni tan olish va ijroga qaratishi so'raladigan davlatning protsessual normalariga muvofiq amalga oshiradi. Ushbu Konvensiya qo'llaniladigan arbitraj qarorlarini tan olinishi va ijro etilishi bo'yicha ichki arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etish uchun mavjud bo'lganlariga ko'ra sezilarli darajada og'irroq shartlar yoki yuqori bojlar yoki to'lovlar belgilanishi mumkin emas.

4-modda

1. Avvalgi moddada aytib o'tilgan arbitraj qarorining tan olish va ijroga qaratilishi uchun tan olish va ijroga qaratishni so'rayotgan taraf, bunday so'rovni yuborishda quyidagilarni taqdim etadi:

a) belgilangan tartibda tasdiqlangan arbitraj qarorining asl nusxasi yoki uning tegishli tartibda tasdiqlangan nusxasi;

b) 2-moddada ko'rsatilgan bitimning asl nusxasi yoki uning tegishli tartibda tasdiqlangan nusxasi.

2. Agar arbitraj qarori yoki bitimi qaroni tan olish va ijroga qaratilishi so'ralgan davlatning rasmiy tilida yozilmagan bo'lsa, ushbu qarorni tan olish va ijroga qaratishni so'ragan tomon ushbu hujjatlarning rasmiy tilga tarjimasini taqdim etadi. Tarjima rasmiy yoki qasamyod qilingan tarjimon yoki diplomatik yoki konsullik idorasi tomonidan tasdiqlanadi.

5-modda

1. Arbitraj qarorini tan olish va ijroga qaratish o'ziga qarshi hal qiluv qarori qabul qilingan tarafning arizasiga ko'ra rad etilishi mumkin, agar taraf ushbu qarorning tan olinishi va ijroga qaratilishini so'rayotgan mamlakat vakolatli organiga:

a) 2-moddada ko'rsatilgan bitimning taraflari o'zlariga nisbatan qo'llaniladigan qonun bo'yicha qaysidir darajada muomalaga layoqatsiz bo'lganligini yoki arbitraj bitimini uning taraflari qaysi qonunga bo'ysundirilgan bo'lsalar, o'sha qonun bo'yicha, bunday ko'rsatma mavjud bo'lmaganda esa – hal qiluv qarori chiqarilgan mamlakatning qonuni bo'yicha haqiqiy emasligini, yoki

b) hal qiluv qarori o'ziga qarshi qaratilgan taraf arbitr tayinlanganligi to'g'risida yoki arbitraj muhokamasi to'g'risida tegishli tarzda xabardor qilinmaganligini yoki boshqa sabablarga ko'ra o'z tushuntirishlarini taqdim eta olmaganligini, yoki

c) arbitraj bitimi yoki arbitraj haqidagi shartnoma shartida nazarda tutilmagan yoki ularning shartiga tegishli bo'lmagan nizo bo'yicha hal qiluv qarori chiqarilganligini yoxud arbitraj bitimi yoki arbitraj haqidagi shartnoma shartidan tashqari chiqadigan masalalar bo'yicha qaror mavjudligini, bundan arbitraj bitimi yoki arbitraj haqidagi shartnoma sharti doirasidagi masalalar bo'yicha qarorlar qamrab olinmagan masalalar bo'yicha qarorlardan ajratib olinishi mumkin bo'lgan hollar mustasno,

d) arbitr organining tarkibi yoki arbitraj protsessi taraflarning kelishuviga muvofiq kelmaganligini yoki bunday shart bo'lmasa, arbitraj bo'lib o'tgan mamlakat qonuniga mos kelmaganligini, yoki

e) hal qiluv qarori taraflar uchun yakuniy bo'lmaganligini yoki u qabul qilingan va qonuni qo'llanilayotgan davlatning vakolatli organi tomonidan bekor qilinganligini yoxud ijrosi to'xtatilganligini tasdiqlovchi dalillarni taqdim etsa.

2. Shuningdek, chet el arbitraji hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish rad qilinishi mumkin, agar tan olish va ijroga qaratish soʻralayotgan davlat vakolatli organi:

a) nizo obykti ushbu mamlakat qonun hujjatlari boʻyicha arbitraj muhokamasining predmeti emas, yoki

b) ushbu hal qiluv qarorini tan olish va ijro yetish ushbu davlatning ommaviy tartibiga zid deb topsa.

6-modda

Agar arbitraj qarorini bekor qilish yoki ijrosini toʻxtatib turish toʻgʻrisida 5-moddaning 1-qismi (e) bandida koʻrsatilgan vakolatli organga iltimosnoma berilgan boʻlsa, hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratishni soʻragan organ, agar maqsadga muvofiq deb topsa, ushbu qarorning ijroga qaratilishi masalasini hal qilishni keyinga qoldirishi, shuningdek, ushbu qarorning ijroga qaratilishini soʻragan tarafning iltimosnomasiga binoan, boshqa tarafni tegishli darajada taʼminlashga majbur qilishi mumkin.

7-modda

1. Ushbu Konvensiyaning qoidalari Ahdlashuvchi Davlatlar tomonidan arbitraj qarorlarining tan olinishi va ijroga qaratilishi boʻyicha tuzilgan koʻp tomonlama yoki ikki tomonlama bitimlarning amal qilishiga taʼsir qilmaydi va har qanday manfaatdor tomonni har qanday arbitraj qaroridan foydalanish huquqidan mahrum qilmaydi, agar ushbu qarorni tan olish va ijroga qaratishni soʻrayotgan mamlakat qonunchiligi yoki xalqaro shartnomalari bilan ruxsat etilgan tartibda va darajada boʻlsa.

2. Ushbu Konvensiya Ahdlashuvchi Davlatlar uchun majburiy kuchga ega boʻlganidan keyin Arbitraj qoʻshimcha shartlari toʻgʻrisidagi 1923-yilgi Jeneva protokoli va 1927-yilgi Chet el arbitraj qarorlarini ijroga qaratish toʻgʻrisidagi Jeneva konvensiyasi ushbu davlatlar oʻrtasida oʻz kuchini yoʻqotadi.

8-modda

Ushbu Konvensiya Birlashgan Millatlar Tashkiloti har qanday aʼzosi nomidan, shuningdek Birlashgan Millatlar Tashkilotining har qanday ixtisoslashgan muassasasiga yoki Xalqaro sud Statusiga aʼzo boʻlgan yoki keyinchalik aʼzo boʻladigan har qanday davlat nomidan yoki Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan

taklif qilinadigan har qanday davlat nomidan 1958-yil 31-dekabrgacha imzolash uchun ochiq.

2. Ushbu Konvensiya ratifikatsiya qilinishi kerak va ratifikatsiya yorliqlari Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga topshiriladi.

9-modda

1. Ushbu Konvensiya 8-moddada koʻrsatilgan barcha davlatlarning qoʻshilishi uchun ochiqdir.

2. Qoʻshilish Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga qoʻshilish toʻgʻrisidagi hujjatni saqlashga topshirish orqali amalga oshiriladi.

10-modda

1. Har qanday davlat ushbu Konvensiyani imzolash, ratifikatsiya qilish yoki unga qoʻshilish paytida ushbu Konvensiya xalqaro aloqalar uchun javobgar boʻlgan barcha hududlarga yoki ayrimlariga tegishli ekanligini maʼlum qilishi mumkin. Bunday maʼlum

qilish ushbu Konvensiya mazkur davlatga nisbatan kuchga kirishi bilan bir vaqtda kuchga kiradi.

2. Yuqorida aytib o'tilganlardan keyin, bunday tadbiri qilish Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga yuborilgan xabarnoma orqali amalga oshirilishi mumkin va qaysi muddat kechroq tugashiga qarab Bosh kotib tomonidan ushbu bildirishnoma qabul qilingan kundan keyin to'qsoninchi kuni yoki ushbu Konvensiya tegishli davlatga nisbatan kuchga kirgan kundan boshlab kuchga kiradi.

3. Ushbu Konvensiya uni imzolash, ratifikatsiya qilish yoki unga qo'shilishda, ushbu Konvensiya tadbiri etilmagan hududlarga nisbatan, har bir manfaatdor davlat ushbu Konvensiyani bunday hududlar hukumatlarining rozilik sharti bilan ushbu hududlarga tatbiri etish uchun zarur bo'lgan choralarni amalga oshirish masalasini ko'rib chiqishi kerak.

11-modda

Federal va unitar bo'lmagan davlatlarga nisbatan quyidagi qoidalar qo'llaniladi:

a) ushbu Konvensiyaning federal hukumatning qonunchilik yurisdiksiyasiga taalluqli moddalariga binoan, federal hukumatning majburiyatlari tegishli darajada, federal davlat bo'lmagan Ahdlashuvchi Davlatlarning majburiyatlari bilan bir xil;

b) federatsiya konstitusion tizimiga muvofiq, qonuniy choralar ko'rishga majbur bo'lmagan federatsiyani tashkil qiluvchi davlatlar yoki provinsiyalarning qonunchilik hujjatlariga aloqador bo'lgan ushbu Konvensiyaning moddalariga kelsak, federal hukumat ushbu moddalarni o'zining ijobiy tavsiyalari bilan eng qisqa vaqt ichida davlatlar yoki provinsiyalarning tegishli organlarining e'tiboriga yetkazadi;

c) ushbu Konvensiyaning ishtirokchisi bo'lgan federal davlat, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi orqali yuborilgan boshqa har qanday Ahdlashuvchi Davlat talabiga binoan, ushbu Konvensiyaning federatsiya va uni tashkil qiluvchi tuzilmalar qonunchiligi va amaliyotiga aloqador bo'lgan xohlagan aniq bir qoidasiga tegishli bo'lgan bayonotini taqdim etadi, ushbu qoida qonuniy yoki boshqa choralar bilan qanchalik darajada hayotga tatbiri etilganligini ko'rsatgan holda.

12-modda

1. Ushbu Konvensiya uchinchi ratifikatsiya yorlig'i yoki qo'shilish to'g'risidagi hujjat depozitariyaga saqlash uchun topshirilgan sanadan boshlab to'qsoninchi kuni kuchga kiradi.

2. Ushbu Konvensiya uni ratifikatsiya qilgan yoki unga qo'shilgan har bir davlat uchun uning uchinchi ratifikatsiya yorlig'i yoki qo'shilish to'g'risidagi hujjat saqlash uchun depozitariyaga topshirilgan davlatlar uchun mazkur davlat tomonidan ratifikatsiya qilish va qo'shilish to'g'risidagi hujjat topshirilganidan keyin to'qsoninchi kuni kuchga kiradi.

13-modda

1. Har qanday Ahdlashuvchi Davlat Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga yozma bildirishnoma orqali ushbu Konvensiyani bekor qilish mumkin. Denonsatsiya Bosh kotib ushbu bildirishnomani olgan kundan bir yil o'tgach kuchga kiradi.

2. 10-moddaga binoan ariza yoki bildirishnoma bergan har qanday davlat, bundan keyin har qanday vaqtda, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga yuborilgan bildirishnomada ushbu Konvensiya tegishli hududga nisbatan mazkur bildirishnomani

Bosh kotib tomonidan qabul qilingan kundan bir yil o'tgach to'xtatilishini ma'lum qilishi mumkin.

3. Ushbu Konvensiyaning tan olinishi va ijroga qaratilishi bo'yicha ishlar denonsatsiya kuchga kirgunga qadar boshlangan arbitraj qarorlariga nisbatan qo'llaniladi.

14-modda

Hech bir Ahdlashuvchi Davlat ushbu Konvensiyani boshqa Ahdlashuvchi Davlatlarga qarshi foydalanish huquqiga ega emas, faqat mazkur Konvensiyani qo'llash majburiyati bo'lgan holatlar bundan mustasno.

15-modda

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi 8-moddada qayd etilgan davlatlarni quyidagilar haqida xabardor qiladi:

- a) imzolash va ratifikatsiya qilish to'g'risida (8-modda);
- b) qo'shilish to'g'risida (9-modda);
- c) arizalar va bildirishnomalar to'g'risida (1, 10, 11-moddalar);
- d) ushbu Konvensiya kuchga kiradigan sana to'g'risida (12-modda);
- e) bekor qilish va bildirishnomalar to'g'risida (13-modda).

16-modda

1. Ingliz, ispan, xitoy, rus va fransuz tilidagi matnlari bir xil kuchga ega bo'lgan ushbu Konvensiya Birlashgan Millatlar Tashkilotining arxivida saqlanadi.

2. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi ushbu Konvensiyaning tasdiqlangan nusxalarini 8-moddada atab o'tilgan davlatlarga yuboradi.

**TRANSMILLIY UYUSHGAN JINOYATCHILIKKA QARSHI KONVENSIYANI
TO'LDIRUVCHI ODAM SAVDOSINING, AYNIQSA, AYOLLAR VA BOLALAR
SAVDOSINING OLDINI OLISH HAMDA UNGA CHEK QO'YISH VA UNING UCHUN
JAZOLASH HAQIDAGI BAYONNOMA**

*BMT Bosh Assambleyasining 55/25-sonli rezolyutsiyasi bilan
2000-yil 15-noyabrda qabul qilingan*

*O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 8-iyuldagi
O'RQ-160-sonli Qonuniga muvofiq ratifikatsiya qilingan*

MUQADDIMA

Ushbu Bayonnomaning Ishtirokchi-davlatlari:

odam savdosining, ayniqsa, bolalar va ayollar savdosining oldini olish va unga qarshi kurashish yuzasidan samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun bunday savdoning oldini olish, u bilan shug'ullanayotgan shaxslarni jazolash hamda bunday savdo qurbonlarini himoyalashga qaratilgan choralarni o'z ichiga oluvchi, shuningdek ular xalqaro tan olingan inson huquqlarini himoya qilish yo'li bilan amalga oshiruvchi, keng qamrovli xalqaro yondashuv zarurligini ma'lum qilib,

odamlar, ayniqsa, ayollar va bolalardan foydalanishga qarshi kurashish bo'yicha amaliy choralar va normalarni nazarda tutgan bir qator xalqaro hujjatlar bo'lishiga qaramay, odam savdosining barcha jihatlarini o'zida mujassamlashtirgan universal hujjatning yo'qligini e'tiborga olib,

bunday hujjatning mavjud emasligi odam savdosi nuqtai nazaridan chorasiz ahvolga tushgan shaxslarning yetarli darajada himoyalansizligiga olib kelishi mumkinligidan tashvishlanib,

Bosh Assambleyaning 1998-yil 9-dekabrda 53/11-sonli rezolyutsiyasida bayon qilingan Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi keng qamrovli xalqaro konvensiyani ishlab chiqish hamda ayollar va bolalar savdosiga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro hujjatni ishlab chiqish to'g'risidagi masalani muhokama qilish uchun ochiq tarkibdagi hukumatlararo maxsus qo'mita ta'sis etish to'g'risidagi qaroriga havola qilib,

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasiga qo'shimcha – odamlar, ayniqsa, ayollar va bolalar savdosining oldini olish va to'xtatish, bu jinoyatlar uchun jazo tayinlash bo'yicha xalqaro hujjat sifatida bunday jinoyatlarning oldini olish va ular bilan kurashishda yordam berishiga ishonch bildirib,

quyidagilar to'g'risida bitim tuzdilar:

I. UMUMIY QOIDALAR

1-modda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasi bilan aloqadorlik

1. Ushbu Bayonnoma Birlashgan Millatlar Tashkilotining Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasini to'ldiradi. U Konvensiya bilan birgalikda sharhlanadi.

2. Konvensiya qoidalari mazkur Bayonnomaga, agar unda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, "mutatis mutandis" tartibida qo'llaniladi.

3. Mazkur Bayonnomaning 5-moddasiga muvofiq shunday e'tirof etilgan jinoyatlar Konvensiyaga muvofiq e'tirof etilgan jinoyatlar deb tan olinadi.

2-modda. Maqsadlari

Mazkur Bayonnoma maqsadlari quyidagilardan iborat:

a) odam savdosining oldini olish hamda ayollar va bolalarga alohida e'tibor bergan holda u bilan kurashish;

b) bunday savdo qurbonlarini ularning inson huquqlarini to'la hurmat qilgan holda himoya qilish va ularga yordam berish;

c) bu maqsadlarga erishishda Ishtirokchi-davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni rag'batlantirish.

3-modda. Atamalar

Mazkur Bayonnoma maqsadlarida:

a) "odam savdosi" – foydalanish maqsadida kuch ishlatish xavfi yoki uni qo'llash yoxud majburlashning boshqa shakllarini qo'llash, o'g'irlash, firibgarlik, aldash, hokimiyatni yoki qaramlik holatini suiiste'mol qilish yoxud to'lovlar yoki foyda ko'rinishida sotib olish yo'li bilan yoki shaxsni nazorat qiluvchi boshqa shaxsning roziligini olish uchun to'lovlar yoki foyda ko'rinishida sotib olish yo'li bilan insonlarni yollash, tashish, berish, yashirish va odamlarni qo'lga kiritishni anglatadi. Foydalanish kamida boshqa shaxslarning fohishabozligidan foydalanish yoki shahvoniy maqsadlarda foydalanishning boshqa shakllarini, majburiy mehnat yoki xizmatlarni, qullik yoki qullikka o'xshash urf-odatlarini, tutqunlik holatini yoki inson tana a'zolarini ajratib olishdan iborat bo'ladi;

b) ushbu moddaning "a" kichik bandida aytib o'tilgan odam savdosidan jabrlanganlarning o'zidan rejalashtirilgan foydalanishga bo'lgan roziligi, agar ushbu kichik bandeda ko'rsatilgan har qanday ta'sir etish chorasidan foydalanilgan bo'lsa, e'tiborga olinmaydi;

c) foydalanish maqsadlarida bolani yollash, tashish, berish, yashirish yoki topshirish ushbu moddaning "a" kichik bandida ko'rsatilgan ta'sir etishning biron-bir vositasini qo'llash bilan bog'liq bo'lmasa ham "odam savdosi" deb hisoblanadi;

d) "bola" – 18 yoshga yetmagan har qanday shaxsni anglatadi.

4-modda. Qo'llanish sohasi

Mazkur Bayonnoma, agar unda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, ushbu Bayonnomaning 5-moddasiga muvofiq shunday deb e'tirof etilishi munosabati bilan, agar bu jinoyatlar transmilliy xarakterga ega bo'lsa va uyushgan jinoiy guruh ishtirokida sodir etilgan bo'lsa, ularning oldini olishda, tergov qilishda va jinoiy ta'qib qilishda, shuningdek, bu jinoyatdan jabrlanganlarni himoya qilishda qo'llaniladi.

5-modda. Kriminallasuv

1. Har bir Ishtirokchi-davlat ushbu Bayonnomaning 3-moddasida ko'rsatilgan harakatlar qasddan sodir etilganda jinoiy jazoga loyiq deb tan olish uchun talab etilishi mumkin bo'lgan qonunchilik va boshqa choralarni ko'radi.

2. Har bir Ishtirokchi-davlat, shuningdek quyidagi harakatlarni jinoiy jazoga loyiq deb tan olish uchun talab etilishi mumkin bo'lgan qonunchilik va boshqa choralarni ko'radi:

a) o'z huquqiy tizimining asosiy prinsiplariga rioya qilish sharti bilan mazkur moddaning 1-bandiga muvofiq shunday deb e'tirof etilgan biron-bir jinoyatni sodir etishga suiqasd qilish;

b) mazkur moddaning 1-bandiga muvofiq shunday deb e'tirof etilgan biron-bir jinoyatni sodir etishda sherik sifatida qatnashish;

c) mazkur moddaning 1-bandiga muvofiq shunday deb e'tirof etilgan biron-bir jinoyatni sodir etish maqsadida boshqa shaxslarni tashkillashtirish yoki ularga boshchilik qilish.

II. ODAM SAVDOSIDAN JABRLANGANLARNI HIMOYA QILISH

6-modda. Odam savdosi qurbonlariga yordam ko'rsatish va ularni himoya qilish

1. Har bir Ishtirokchi-davlat tegishli hollarda va imkon qadar, o'zining ichki qonunchiligiga muvofiq, jumladan, bunday savdo bilan bog'liq ishlab chiqarishning (faoliyat) sir saqlanishi xususiyatini ta'minlash yo'li bilan odam savdosi qurbonlarining shaxsiy hayoti va shaxsini himoya qilishni ta'minlaydi.

2. Har bir Ishtirokchi-davlat, o'zining ichki huquqiy yoki ma'muriy tizimi, tegishli hollarda odam savdosi qurbonlariga quyidagilarni amalga oshirishga imkon beradigan choralarni nazarda tutishini ta'minlaydi:

a) ishlarni tegishli sud va ma'muriy tartibda ko'rish to'g'risidagi axborotlarni olish;

b) jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan jinoiy ish yuritishning tegishli bosqichlarida himoya huquqlariga zarar yetkazmagan holda ularning fikrlari va xavotirlanishlarini bayon qilish va ko'rib chiqishga imkon beruvchi yordamni olish.

3. Har bir Ishtirokchi-davlat odam savdosi qurbonlarining jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rehabilitatsiyasini ta'minlash, shu jumladan tegishli hollarda, nohukumat tashkilotlari, boshqa tegishli tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa elementlari bilan hamkorlikni ta'minlash bo'yicha, xususan, quyidagi choralarni amalga oshirish imkoniyatini ko'radi:

a) kerakli boshpana;

b) odam savdosi qurbonlariga tushunarli bo'lgan tilda, ayniqsa, ularning yuridik huquqlari bilan bog'liq konsultativ yordam va ma'lumotni;

c) tibbiy, ruhiy va moddiy yordam;

d) ish bilan ta'minlanish, ta'lim va kasbiy tayyorgarlik sohasidagi imkoniyatlar.

4. Har bir Ishtirokchi-davlat ushbu modda qoidalarini qo'llashda odam savdosi qurbonlarining yoshi, jinsi va alohida ehtiyojlarini, xususan bolalarning alohida ehtiyojlarini, shu jumladan, kerakli boshpana, ta'lim va parvarish olishga bo'lgan ehtiyojlarini hisobga oladi.

5. Har bir Ishtirokchi-davlat o'zining hududida odam savdosi qurbonlari bo'lgan davrlarida ularning jismoniy xavfsizligini ta'minlashga intiladi.

6. Har bir Ishtirokchi-davlat o'zining huquqiy tizimi odam savdosi qurbonlariga yetkazilgan zarar uchun kompensatsiya (tovon puli) olish imkoniyatini taqdim etish choralari nazarda tutishini ta'minlaydi.

7-modda. Qabul qiluvchi davlatlarda odam savdosi qurbonlarining maqomi

1. Mazkur Bayonnomaning 6-moddasiga muvofiq qo'llaniladigan choralarga qo'shimcha sifatida har bir Ishtirokchi-davlat odam savdosi qurbonlariga tegishli hollarda o'z hududida vaqtincha yoki doimiy asosda qolishlariga imkon beradigan qonunchilik yoki boshqa kerakli choralarni qabul qilish imkoniyatini ko'rib chiqadi.

2. Ushbu moddaning 1-bandida bayon qilingan qoidalarni amalga oshirishda har bir Ishtirokchi-davlat insonparvarlik mulohazalarini lozim darajada hisobga oladi va rahmshafqat ko'rsatadi.

8-modda. Odam savdosi qurbonlarini repatriatsiya qilish

1. Ishtirokchi-davlat odam savdosi qurboni uning fuqarosi bo'lgan yoki bunday shaxs qabul qiluvchi Ishtirokchi-davlat hududiga olib kirilguniga qadar uning hududida doimiy yashash huquqiga ega bo'lgan bo'lsa, bunda u bu shaxsning qaytishiga yordam ko'rsatadi va bu shaxsning xavfsizligini ta'minlash masalalarini lozim darajada hisobga olgan holda, uni asossiz yoki nooqilona kechiktirishlarsiz qabul qiladi.

2. Ishtirokchi-davlat odam savdosi qurbonlarini – bunday shaxs uning fuqarosi bo'lgan yoki qabul qiluvchi ishtirokchi-davlat hududiga kirish paytida doimiy yashash huquqiga ega bo'lgan ishtirokchi-davlatga qaytarilishini bu shaxsning xavfsizligini, shuningdek shaxsning odam savdosi qurboni bo'lishi bilan bog'liq holatlarda har qanday ish yuritish xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiradi, bundan tashqari, bunday qaytarish asosan ixtiyoriy hisoblanadi.

3. Qabul qiluvchi Ishtirokchi-davlat iltimosiga ko'ra, murojaat qiluvchi Ishtirokchi-davlat asossiz yoki oqilona bo'lmagan kechiktirishlarsiz odam savdosi qurboni bo'lgan shaxs uning fuqarosi bo'lganligini yoki bunday shaxs qabul qiluvchi Ishtirokchi-davlat hududiga kirish paytida hududda doimiy yashash huquqiga ega bo'lganligini tekshiradi.

4. Tegishli hujjatlarga ega bo'lmagan odam savdosi qurboni bo'lgan shaxsni qaytarishga ko'maklashish maqsadida uning fuqarosi bo'lgan yoki bunday shaxs qabul qiluvchi Ishtirokchi-davlat hududiga kirish paytida uning hududida doimiy yashash huquqiga ega bo'lgan Ishtirokchi-davlat qabul qiluvchi Ishtirokchi-davlatning iltimosiga ko'ra bu kabi kirish/chiqish hujjatlarini yoki bu shaxsni o'z hududiga qaytarish uchun talab etilishi mumkin bo'lgan boshqa ruxsatnomalarni berishga rozilik bildiradi.

5. Ushbu modda qabul qiluvchi Ishtirokchi-davlatning ichki qonunchiligining har qanday qoidasiga asosan odam savdosi qurbonlariga berilgan huquqlarga zarar yetkazmaydi.

6. Ushbu modda odam savdosi qurbonlarini qaytarish masalalarini to'liq yoki qisman tartibga soluvchi har qanday amaldagi ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama bitim yoki kelishuvlarga zarar yetkazmaydi.

III. OLDINI OLISH, HAMKORLIK VA BOSHQA CHORALAR

9-modda. Odam savdosining oldini olish

1. Ishtirokchi-davlatlar quyidagi maqsadlarda siyosat, dasturlar va boshqa choralarni majmuaviy asosda ishlab chiqadilar va qabul qiladilar:

a) odam savdosining oldini olish va unga qarshi kurashish;

b) odam savdosi qurbonlarini, ayniqsa, ayollar va bolalarni reviktimizatsiyadan himoya qilish.

2. Ishtirokchi-davlatlar odam savdosining oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan tadqiqotlarni, axborot kompaniyalarini, jumladan, ommaviy axborot vositalarida o'tkazish, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy tashabbuslarni amalga oshirish kabi choralarni ko'rishga intiladilar.

3. Ushbu moddaga muvofiq ishlab chiqiladigan va qabul qilinadigan siyosat, dasturlar va boshqa choralar tegishli hollarda, nohukumat tashkilotlar, boshqa tegishli tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa elementlari bilan hamkorlikni ham o'z ichiga oladi.

4. Ishtirokchi-davlatlar ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama hamkorlik yo'li bilan odamlar, ayniqsa, ayollar va bolalarni odam savdosi nuqtai nazaridan nochor holatga tushib qolishlariga olib keluvchi qashshoqlik, rivojlanishning past darajasi va teng imkoniyatlarning yo'qligi kabi omillar ta'sirini kamaytirishga qaratilgan choralarni ko'radilar yoki takomillashtiradilar.

5. Ishtirokchi-davlatlar odamlar, ayniqsa, ayollar va bolalarni ekspluatasiya qilishga olib keladigan har qanday shaklda foydalanish odam savdosiga olib kelgani uchun unga nisbatan bo'lgan talabni yo'qotishga qaratilgan ta'lim, madaniyat yoki ijtimoiy sohada ikki tomonlama va ko'p tomonlama hamkorlikni yo'lga qo'yish bo'yicha qonunchilik yoki tegishli boshqa choralarni ko'radilar yoki takomillashtiradilar.

10-modda. Axborot almashinuvi va kadrlarni tayyorlash

1. Ishtirokchi-davlatlarning huquqni muhofaza qiluvchi, migrasiya va boshqa tegishli organlar tegishli hollarda bir-birlari bilan o'zlarining ichki qonunchiligiga muvofiq quyidagilarni aniqlashga imkon beruvchi axborot almashinuvi yo'li bilan o'zaro hamkorlik qiladilar:

a) kirish/chiqish hujjatlarisiz yoki boshqa shaxslarga tegishli shunday hujjatlar bilan xalqaro chegarani kesib o'tayotgan yoki kesib o'tishga urinayotgan shaxslar odam savdogarlari yoki bunday savdo qurbonlari bo'lib hisoblanishlari;

b) odam savdosini amalga oshirish maqsadida xalqaro chegarani kesib o'tish uchun bunday shaxslar tomonidan foydalanilgan yoki foydalanishga uringan kirish/chiqishga bo'lgan hujjatlar turlari;

c) odam savdosini amalga oshirish maqsadida uyushgan jinoiy guruhlar tomonidan qo'llaniladigan usullar va vositalar, shu jumladan, jabrlanganlarni yollash va tashish, bunday savdo bilan shug'ullanuvchi alohida shaxslar va guruhlar o'rtasidagi yo'nalishlar va aloqalar, shuningdek bu guruhlar o'rtasidagi aloqalar hamda ularni aniqlash bo'yicha qo'llanilishi mumkin bo'lgan choralar.

2. Ishtirokchi-davlatlar huquqni muhofaza qiluvchi, migrasiya va boshqa tegishli organlar xodimlarining odam savdosining oldini olish masalalari bo'yicha tayyorgarligini ta'minlaydi yoki takomillashtiradi. Ko'rsatilgan tayyorgarlik bunday savdoning oldini olish, u bilan mashg'ul bo'lgan shaxslarni jinoiy ta'qib etish va jabrlanganlar huquqlarini himoya qilish, jumladan, ularni bunday savdo bilan shug'ullanuvchi shaxslardan muhofaza qilish metodlariga asoslanishi lozim. Tayyorgarlik ko'rish jarayonida, shuningdek inson huquqlarini, bolalar va gender muammolarini hisobga olish zarurligiga e'tibor qaratish lozim; tayyorgarlik davlatga qarashli bo'lmagan tashkilotlar, boshqa tegishli tashkilotlar

va fuqarolik jamiyatining boshqa elementlari bilan hamkorlikni amalga oshirishga ko'maklashishi kerak.

3. Axborotni oluvchi ishtirokchi-davlat uni taqdim etgan ishtirokchi-davlatning undan foydalanishga nisbatan cheklovlar qo'yish bilan bog'liq har qanday iltimosini bajaradi.

11-modda. Chegara nazorati choralari

1. Ishtirokchi-davlatlar odamlarning erkin ko'chib yurishiga oid xalqaro majburiyatlarga zarar etkazmagan holda, imkon qadar odam savdosining oldini olish va aniqlash uchun talab etiladigan chegara nazorati choralari belgilaydilar.

2. Har bir ishtirokchi-davlat mazkur Bayonnomaning 5-moddasiga muvofiq shunday deb e'tirof etilgan jinoyatlarni sodir etishda tijorat yuk tashuvchilari tomonidan foydalaniladigan transport vositalaridan iloji boricha foydalanishni oldini olish uchun qonunchilik yoki boshqa tegishli choralarni ko'radi.

3. Tegishli hollarda va amaldagi xalqaro konvensiyalar uchun zarar etkazmagan holda bunday choralar tijorat yuk tashuvchilari, shu jumladan, har qanday transport kompaniyasi yoki har qanday transport vositasining egasi yoxud operatori uchun hamma yo'lovchilarning qabul qiluvchi davlatga kirishi uchun zarur bo'lgan kirish/chiqish hujjatlariga ega ekanligiga ishonch hosil qilish majburiyatini nazarda tutadi.

4. Har bir ishtirokchi-davlat o'zining ichki qonunchiligiga muvofiq ushbu moddaning 3-bandida belgilangan majburiyatni buzganlik uchun sanksiyalarni nazarda tutish uchun zarur choralarni ko'radi.

5. Har bir ishtirokchi-davlat o'z ichki qonunchiligiga muvofiq mazkur Bayonnomaga ko'ra shunday deb e'tirof etilgan jinoyatlarni sodir etishga aloqador bo'lgan shaxslarning uning hududiga kirishini rad etish yoki ularning vizalarini bekor qilishga imkon beradigan choralarni qo'llash imkoniyatini ko'rib chiqadi.

6. Ishtirokchi-davlatlar Konvensiyaning 27-moddasiga zarar etkazmagan holda chegara nazorati organlari o'rtasida hamkorlikni, jumladan, to'g'ridan-to'g'ri aloqa yo'llarini joriy etish va qo'llab-quvvatlash orqali mustahkamlash imkoniyatini ko'rib chiqadi.

12-modda. Hujjatlarning ishonarliligi va ularni nazorat qilish

Har bir ishtirokchi-davlat mavjud imkoniyatlar doirasida quyidagilar uchun talab qilinishi mumkin bo'lgan choralarni ko'radi:

a) ularga berilgan kirish/chiqish hujjatlari yoki shaxsni tasdiqlovchi guvohnoma hujjatlarining ulardan noqonuniy foydalanish va ularni soxtalashtirish yoki qonunga xilof tarzda o'zgartirish, qayta tiklash yoki berishni maksimal darajada qiyinlashtiradigan sifatda bo'lishini ta'minlash;

b) ushbu ishtirokchi-davlat tomonidan yoki uning nomidan berilgan kirish/chiqish hujjatlari yoki shaxsiy guvohnomalarning himoyalanganlik va ishonarlilik darajasini, shuningdek noqonuniy tarzda tayyorlash, berish va ulardan foydalanishning oldini olishni ta'minlash.

13-modda. Hujjatlarning qonuniyligi va haqiqiyliigi

Ishtirokchi-davlat boshqa ishtirokchi-davlatning iltimosiga ko'ra, o'z ichki qonunchiligiga muvofiq, oqilona muddat ichida uning nomidan berilgan yoki berilishi mumkin bo'lgan hamda odam savdosi uchun foydalanishda gumon qilinayotgan

kirish/chiqish hujjatlari yoki shaxsiy guvohnomalarning qonuniyligi va haqiqiyligini tekshiradi.

IV. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

14-modda. Istisno etuvchi qoidalar

1. Mazkur Bayonnomadagi hech narsa xalqaro huquq, xalqaro gumanitar huquq va inson huquqlari sohasidagi xalqaro huquq va, xususan, qo'llash mumkin bo'lganda, 1951-yilgi Qochoqlar maqomi to'g'risidagi konvensiya va 1967-yilgi Bayonnoma hamda ularda mustahkamlangan mamlakatdan chiqarib yubormaslik prinsipiga muvofiq davlatlar va alohida shaxslarning javobgarligi, majburiyatlari va boshqa huquqlariga daxl qilmaydi.

2. Ushbu Bayonnomada nazarda tutilgan choralar odam savdosi qurbonlari bo'lganlari uchungina kamsitilishga asos bo'lmaydigan tarzda talqin etiladi va qo'llaniladi. Bu choralarni talqin etish va qo'llash xalqaro e'tirof etilgan kamsitilmaslik prinsiplariga muvofiq amalga oshiriladi.

15-modda. Nizolarning tartibga solinishi

1. Ishtirokchi-davlatlar mazkur Bayonnomani sharhlash yoki qo'llashga oid nizolarni muzokaralar yo'li bilan tartibga solishga harakat qiladilar.

2. Ikki yoki undan ko'p ishtirokchi-davlatlar o'rtasidagi Bayonnomani sharhlash yoki qo'llashga oid nizolarni oqilona vaqt ichida muzokaralar yo'li bilan tartibga solish mumkin bo'lmasa, bu Ishtirokchi-davlatlardan birining iltimosiga ko'ra, arbitraj muhokamasiga beriladi. Agar hakamlik haqida iltimos bilan murojaat qilingandan so'ng olti oy mobaynida ushbu Ishtirokchi-davlatlar uni tashkil etish to'g'risida kelisha olmasalar, bu Ishtirokchi-davlatlardan biron biri Xalqaro sudga Sud Statutiga muvofiq ariza bilan murojaat qilish orqali nizoni taqdim etishi mumkin.

3. Har bir Ishtirokchi-davlat mazkur Bayonnomani imzolash, ratifikatsiya qilish, qabul qilish yoki uni tasdiqlashda yoxud unga qo'shilishda o'zini ushbu moddaning 2-bandi qoidalari bilan bog'liq emasligi to'g'risida ma'lum qilishi mumkin. Boshqa Ishtirokchi-davlatlar shunday izoh bildirgan biron bir ishtirokchi-davlatga nisbatan mazkur moddaning 2-bandi qoidalari bilan bog'liq bo'lmaydilar.

4. Ushbu moddaning 3-bandiga muvofiq qo'shimcha shart qo'ygan har qanday ishtirokchi-davlat Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga bildirishnoma yuborish yo'li bilan istalgan vaqtda bu shartni olib tashlashi mumkin.

16-modda. Imzolash, ratifikatsiya qilish, qabul qilish, tasdiqlash va qo'shilish

1. Mazkur Bayonnoma barcha davlatlar tomonidan imzolanishi uchun 2000-yilning 12-dekabridan 15-dekabrigacha Palermo, Italiyada, so'ng Nyu-Yorkdagi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Markaziy muassasalarida 2002-yilning 12-dekabrigacha ochiq.

2. Mazkur Bayonnoma, shuningdek iqtisodiy integrasiyaning mintaqaviy tashkilotlarining, agar kamida bunday tashkilotga a'zo davlatlardan biri ushbu Bayonnomani mazkur moddaning 1-bandiga muvofiq imzolagan bo'lsa, imzolashi uchun ochiqdir.

3. Mazkur Bayonnoma ratifikatsiya qilinishi, qabul qilinishi yoki tasdiqlanishi kerak. Ratifikatsiya yorliqlari yoxud qabul qilish yoki tasdiqlash to'g'risidagi hujjatlar saqlash uchun Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga topshiriladi. Iqtisodiy integrasiyaning

mintaqaviy tashkiloti o'zining ratifikasiya yorlig'ini yoxud qabul qilish yoki tasdiqlash to'g'risidagi hujjatini, agar kamida a'zo-davlatlardan biri shunday ish tutgan bo'lsa, saqlash uchun topshirishi mumkin. Bu ratifikatsiya yorlig'ida yoxud qabul qilish yoki tasdiqlash to'g'risidagi hujjatda bunday Tashkilotning ushbu Bayonnoma bilan tartibga solinadigan masalalar bo'yicha o'z vakolati sohasi to'g'risida ma'lum qiladi. Bu Tashkilot, shuningdek depozitariyga o'z vakolati sohasining har qanday o'zgarishi to'g'risida ham xabar qiladi.

4. Mazkur Bayonnoma har qanday davlat yoki iqtisodiy integrasiyaning biron bir mintaqaviy tashkilotining, eng kamida a'zo davlatning biri ushbu Bayonnoma ishtirokchisi bo'lganda qo'shilish uchun ochiqdir. Qo'shilish to'g'risidagi hujjatlar saqlash uchun Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga topshiriladi. Qo'shilishda iqtisodiy integrasiyaning mintaqaviy tashkiloti ushbu Bayonnoma bilan tartibga solinadigan masalalar bo'yicha o'z vakolati sohasi to'g'risida bayonot beradi. Bu tashkilot, shuningdek depozitariyga o'z vakolati sohasining har qanday o'zgarishlari to'g'risida xabar qiladi.

17-modda. Kuchga kirishi

1. Mazkur bayonnoma qirqinchi ratifikasiya yorlig'i yoxud qabul qilish, tasdiqlash yoki qo'shilish to'g'risidagi hujjatlar saqlash uchun topshirilgan sanadan so'ng to'qsoninchi kunda kuchga kiradi, biroq u Konvensiya kuchga kurgunga qadar kuchga kirmaydi. Ushbu band maqsadlari uchun iqtisodiy integrasiyaning mintaqaviy tashkiloti tomonidan saqlash uchun topshirilgan har qanday bu kabi yorliq yoki hujjat bunday tashkilotning a'zo davlatlari tomonidan saqlash uchun topshirilgan yorliq yoki hujjatlarga qo'shimcha sifatida qaralmaydi.

2. Mazkur Bayonnomaning ratifikasiya qiluvchi, qabul qiluvchi yoki tasdiqlovchi yoxud unga qirqinchi ratifikasiya yorlig'i yoki bunday harakat to'g'risidagi hujjat saqlash uchun topshirilganidan keyin qo'shiluvchi har bir davlat yoki iqtisodiy integrasiyaning mintaqaviy tashkiloti uchun ushbu Bayonnoma bunday davlat yoki tashkilot tomonidan tegishli yorliq yoki hujjat saqlash uchun topshirilgan sanadan so'ng o'ttizinchi kuni yoxud keyinchalik nima bo'lishiga qarab mazkur moddaning 1-bandiga muvofiq ushbu Bayonnoma kuchga kirish sanasida kuchga kiradi.

18-modda. Tuzatishlar

1. Mazkur Bayonnoma kuchga kirgandan keyin besh yil o'tgach, bu Bayonnomaning Ishtirokchi-davlati tuzatish kiritishni taklif qilishi va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga yuborishi mumkin, so'ngra taklif qilingan tuzatishni ko'rib chiqish va u bo'yicha qaror qabul qilish maqsadida Ishtirokchi-davlatlarga va Konvensiya Ishtirokchilarining konferentsiyasiga yuboradi. Ishtirokchilar konferentsiyada qatnashayotgan mazkur Bayonnomaning Ishtirokchi-davlatlari har bir tuzatishga nisbatan konsensusga erishish uchun barcha sa'y-harakatlarni amalga oshiradilar. Agar konsensusga erishish uchun barcha sa'y-harakatlar amalga oshirilgan va kelishuvga erishilmagan bo'lsa, unda oxirgi chora sifatida tuzatishni qabul qilish uchun mazkur Bayonnoma Ishtirokchi-davlatlarining Ishtirokchilar konferentsiyasida hozir bo'lgan va ovoz berishda qatnashayotgan uchdan ikki qismining ko'pchilik ovozi talab etiladi.

2. O'zlarining vakolat doirasiga kiradigan masalalarda iqtisodiy integrasiyaning mintaqaviy tashkilotlari ushbu moddaga muvofiq o'z ovoz berish huquqini mazkur Bayonnoma ishtirokchisi bo'lgan a'zo-davlatlar soniga teng ovozlariga ega bo'lgan

holda amalga oshiradilar. Bunday tashkilotlar, agar ularning a'zo-davlatlari ovoz berish huquqini amalga oshirsa va aksincha bo'lsa, o'z ovoz berish huquqini amalga oshirmaydi.

3. Ushbu moddaning 1-bandiga muvofiq qabul qilingan tuzatish Ishtirokchi-davlatlar tomonidan ratifikatsiya qilinishi, qabul qilinishi yoki tasdiqlanishi kerak.

4. Ushbu moddaning 1-bandiga muvofiq qabul qilingan tuzatish Ishtirokchi-davlatga nisbatan ular tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga ratifikatsiya yorliqlari yoxud qabul qilish yoki tasdiqlash to'g'risidagi hujjatlar saqlash uchun topshirilgan sanadan to'qson kun o'tgach kuchga kiradi.

5. Tuzatish kuchga kirgandan so'ng, unga rioya etishga o'z roziligini bildirgan Ishtirokchi-davlatlar uchun majburiy hisoblanadi. Boshqa Ishtirokchi-davlatlar mazkur Bayonnoma qoidalari va ular tomonidan avvalroq ratifikatsiya qilingan, qabul qilingan yoki tasdiqlangan har qanday tuzatishlarni bajarishda davom etadilar.

19-modda. Denonsatsiya

1. Ishtirokchi-davlat ushbu Bayonnomaning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga yozma bildirishnoma yuborish orqali denonsatsiya qilishi mumkin. Denonsatsiya Bosh kotib tomonidan xabarnoma olingan sanadan bir yil o'tganidan so'ng kuchga kiradi.

2. Iqtisodiy integrasiyaning mintaqaviy tashkiloti mazkur Bayonnomaning barcha a'zo-davlatlari ushbu Bayonnomaning denonsatsiya qilganlarida uning ishtirokchisi hisoblanmaydi.

20-modda. Depozitariy va tillar

1. Mazkur Bayonnomaning depozitariysi etib Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi tayinlanadi.

2. Mazkur Bayonnomaning ingliz, arab, ispan, xitoy, rus va fransuz tilidagi matnlari aynan bir xil bo'lib, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga saqlash uchun topshiriladi.

KORRUPSIYAGA QARSHI KONVENSIYA

*BMT Bosh Assambleyasining 2003-yil 31-oktabrdagi 58/4-sonli
rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2003-yil 12-dekabrda
576-II-sonli Qaroriga muvofiq qo'shilgan*

MUQADDIMA

Mazkur Konvensiyaning Ishtirokchi davlatlari,
korrupsiya demokratik institutlar va qadriyatlar, etnik qadriyatlar va adolatga putur yetkazib hamda barqaror rivojlanish va huquqiy tartibga zarar keltirib, jamiyatning barqarorligi va xavfsizligi uchun vujudga keltiradigan muammo va tahdidlarning jiddiyligidan tashvishlanib,

shuningdek, korrupsiya va jinoyatchilikning boshqa shakllari, xususan, uyushgan va iqtisodiy jinoyatchilik o'rtasidagi aloqalar, shu jumladan noqonuniy pul mablag'larini legallashtirish kabi ko'rinishlardan xavotirlanib,

davlatlar resurslarining katta ulushini tashkil etishi mumkin bo'lgan va ushbu davlatlarning siyosiy barqarorligi va izchil rivojlanishini tahdid ostida qoldiradigan katta hajmdagi aktivlar bilan bog'liq bo'lgan korrupsiya holatlari kuzatilishi sababli hayajonga tushib,

endilikda korrupsiya lokal muammodan butun jamiyat va barcha mamlakatlar iqtisodiyotiga daxl qiladigan va bu bilan korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikning juda muhim ahamiyatini belgilaydigan transmilliy hodisaga aylanganligiga ishonch hosil qilib,

shuningdek, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi samarali kurashish uchun keng qamrovli va ko'p taraflama intizomiy yondashuv zarur ekanligiga ishonch bildirib,

hamda samarali ravishda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida salohiyatni kuchaytirish va institutlarni yaratish yo'li bilan davlatlar imkoniyatlarini kengaytirishda texnik yordam ko'rsatilishi muhim rol o'ynashi mumkinligini tan olib,

va ayni paytda, noqonuniy yo'l bilan shaxsiy mol-mulk orttirish demokratik institutlar, milliy iqtisodiyot va huquq-tartibotga jiddiy zarar yetkazishi mumkinligiga ishonch hosil qilib,

noqonuniy orttirilgan aktivlar xalqaro tartibda o'tkazilishini yanada samarali oldini olish, aniqlash va bunga barham berish hamda aktivlarni qaytarishga qaratilgan choralarni ko'rishda xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga dadillik bilan kirishishga tayyor bo'lib,

mulkiy huquqlarni aniqlash uchun jinoiy, fuqarolik yoki ma'muriy ish yuritish jarayonida qonunchilikda belgilangan huquqiy choralarni qo'llash borasidagi eng asosiy prinsiplarni e'tirof etib,

korrupsiyaning oldini olish va butkul barham berish – bu barcha davlatlarning vazifasi va bu sohada sa'y-harakatlar samaradorligini ta'minlash uchun fuqarolik jamiyati, nohukumat tashkilotlar va jamoalar negizida faoliyat yuritayotgan tashkilotlar kabi ommaviy sektor doirasidan tashqarida alohida shaxslar va guruhlar ko'magi hamda ishtirokida bir-biri bilan hamkorlik qilishlari lozimligini hisobga olib,

shuningdek, ommaviy ishlar va ommaviy mol-mulkni tegishli darajada boshqarish, adolat, mas'uliyat va qonun oldida tenglik hamda to'g'rilik va halollikni ta'minlash, shu bilan birga, korrupsiyani rad etadigan madaniyatni shakllantirishga ko'maklashish zarurligi prinsiplarini hisobga olib,

Jinoyatchilikning oldini olish va jinoiy odil sudlov komissiyasining hamda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Giyohvandlik va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasining ishini yuqori baholab,

ushbu sohada ish olib borayotgan boshqa xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, shu jumladan Afrika ittifoqi, Yevropa ittifoqi, Arab davlatlari ligasi, Amerika davlatlari tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti hamda Bojxona hamkorligi bo'yicha kengashi (shuningdek, Jahon bojxona tashkiloti deb yuritiladi) tomonidan olib borilayotgan ishlarni dalil sifatida keltirib,

korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha ko'p tomonlama hujjatlarni va, xususan, Amerika davlatlari tashkiloti tomonidan 1996-yil 29-martda qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Amerika konvensiyasi, Yevropa ittifoqi Kengashi tomonidan 1997-yil 26-mayda qabul qilingan Yevropa hamjamiyatining mansabdor shaxslariga yoki Yevropa ittifoqiga a'zo davlatlarning mansabdor shaxslariga daxl qilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha konvensiyasi, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti tomonidan 1997-yil 21-noyabrda qabul qilingan Xalqaro tijorat amaliyotlarida xorijiy mansabdor shaxslarga pora berishga qarshi kurashish bo'yicha konvensiyasi, Yevropa Kengashi Vazirlar qo'mitasi tomonidan 1999-yil 27-yanvarda qabul qilingan Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to'g'risidagi konvensiyasi hamda 1999-yil 4-noyabrda qabul qilingan Korrupsiya uchun fuqarolik-huquqiy javobgarligi to'g'risidagi konvensiyasi va Afrika ittifoqiga a'zo davlat va hukumatlar rahbarlari tomonidan 2003-yil 12-iyulda qabul qilingan Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga doir Afrika ittifoqi konvensiyasini mamnuniyat bilan inobatga olib,

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasi 2003-yil 29-sentyabrdan boshlab kuchga kirganligini ma'qullagan holda, quyidagilar yuzasidan kelishib oldilar:

I BOB. UMUMIY QOIDALAR

1-modda. Maqsadlar

Mazkur Konvensiyaning maqsadlari quyidagilardan iborat:

a) yanada samarali va ta'sirchan ravishda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan chora-tadbirlarni qabul qilish hamda mustahkamlashga ko'maklashish;

b) korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishda, shu jumladan aktivlarni qaytarish borasida xalqaro hamkorlik hamda texnik yordam ko'rsatilishini rag'batlantirish, osonlashtirish va qo'llab-quvvatlash;

c) halollik va sodiqlik, mas'uliyatlilik hamda ommaviy ishlar va ommaviy mol-mulkni talab darajasida boshqarishni rag'batlantirish.

2-modda. Atamalar

Ushbu Konvensiyaning maqsadlari uchun:

a) "ommaviy mansabdor shaxs" degani quyidagilarni anglatadi:

i) shaxsning mansab darajasidan qat'i nazar, doimiy yoki muvaqqat asosda, ish haqi uchun yoki ish haqini olmasdan Ishtirokchi-davlatning qonunchilik, ijroiya, ma'muriy yoki sud organida biron lavozimni egallab turgan har qanday tayinlanadigan yoki saylanadigan shaxs;

ii) biron ommaviy vazifani, jumladan ommaviy muassasa yoki ommaviy korxonaga uchun bajarayotgan yoki Ishtirokchi-davlat ichki qonunchiligida belgilanganidek va bu Ishtirokchi-davlatning huquqiy tartibga solishning tegishli sohasida qo'llaniladigan tartibda biron bir ommaviy xizmatni taqdim etayotgan har qanday boshqa shaxs;

iii) Ishtirokchi-davlatning ichki qonunchiligida "ommaviy mansabdor shaxs" sifatida belgilanadigan har qanday boshqa shaxs. Shunday bo'lsa-da, mazkur Konvensiyaning II bobida ko'zda tutilgan ayrim muayyan choralarni ko'rish maqsadida "ommaviy mansabdor shaxs" sifatida Ishtirokchi-davlatning ichki qonunchiligida belgilanganidek va bu Ishtirokchi-davlatning huquqiy tartibga solishning tegishli sohasida qo'llaniladigan tartibda biron bir ommaviy vazifani bajarayotgan yoki biron ommaviy xizmatni ko'rsatayotgan har qanday shaxs bo'lishi mumkin;

b) "xorijiy ommaviy mansabdor shaxs" – xorijiy davlatning qonunchilik, ijroiya, ma'muriy yoki sud organida biron lavozimni egallab turgan har qanday tayinlanadigan yoki saylanadigan shaxs va xorijiy davlat uchun, shu jumladan ommaviy muassasa yoki ommaviy korxonaga uchun biron ommaviy vazifani bajaradigan shaxs tushuniladi;

c) "ommaviy xalqaro tashkilotning mansabdor shaxsi" – xalqaro fuqaro xizmatchisi yoki bunday tashkilot tomonidan uning nomidan ish yuritish vakolati berilgan har qanday shaxsni anglatadi;

d) "mol-mulk" – har qanday moddiy yoki nomoddiy, ko'chmas va ko'char aktivlar, buyumlar yoki huquqlar orqali ifodalangan aktivlar hamda bunday aktivlarga mulkiy huquqni yohud ularga bo'lgan qiziqishni isbotlaydigan yuridik hujjatlar yoki dalolatnomalar kabi har qanday aktivlar tushuniladi;

e) "jinoiy daromadlar" – biron jinoyatni sodir etish natijasida bevosita yoki bilvosita, xarid qilingan yoki qo'lga kiritilgan har qanday mol-mulkni anglatadi;

f) "amaliyotlarni to'xtatib qo'yish (muzlatish)" yoki "xatlash" – mol-mulkni topshirish, shaklini o'zgartirish, begonalashtirish yoki ko'chirishni taqiqlash yoki bunday mulkka vaqtincha egalik qilishga kirishish yoxud sud yoki boshqa vakolatli organ qaroriga ko'ra vaqtincha uni nazorat qilishni anglatadi;

g) "musodara" sud yoki boshqa vakolatli organing qaroriga muvofiq mol-mulkdan butunlay mahrum etishni anglatadi;

h) "asosiy huquqbuzarlik" – jinoyat tarkibini tashkil etadigan va bunday harakatlar natijasida olingan daromadlarga nisbatan mazkur Konvensiyaning 23-moddasida keltirilgan jazo choralari qo'llaniladigan har qanday huquqbuzarlik tushuniladi;

i) “nazorat ostida yetkazib berish” – biron jinoyatni tergov qilish yoki unda ishtirok etgan shaxslarni aniqlash maqsadida vakolatli organlarning ruxsati bilan va nazorati ostida noqonuniy yoki shubha uygʻotadigan yuklar turkumlarini bir yoki bir necha davlatlar hududlaridan olib chiqish, ushbu hududlarga olib oʻtish yoki olib kirishga yoʻl qoʻyiladigan uslubni anglatadi.

3-modda. Foydalanish doiralari

1. Mazkur Konvensiya, uning qoidalariga muvofiq, korrupsiyaning oldini olish, tergov qilish va korrupsiya uchun jinoiy taʼqib qilish hamda ushbu Konvensiyaga muvofiq jinoyat yoʻli bilan orttirilgan, deb eʼtirof etilgan daromadlar bilan amaliyotlarni toʻxtatib qoʻyish (muzlatish), xatlash, musodara qilish va qaytarish uchun qoʻllaniladi.

2. Mazkur Konvensiyani amalga oshirish maqsadida, agar unda boshqacha tartib belgilanmagan boʻlsa, aytib oʻtilgan jinoyatlar sodir etilishi natijasida davlat mulkiga zarar yoki talafot yetkazilishi majburiy emas.

4-modda. Suverenitetni himoya qilish

1. Ishtirokchi-davlatlar oʻz majburiyatlarini mazkur Konvensiyaga muvofiq, suveren tenglik prinsiplari va davlatlarning hududiy yaxlitligi hamda boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsipiga asoslanib amalga oshiradilar.

2. Ushbu Konvensiyada hech narsa Ishtirokchi-davlatlarni boshqa davlatlar hududida ushbu davlatlarning ichki qonunchiligiga muvofiq faqat shu davlatlar organlarining vakolatiga kiradigan yurisdiksiya va funksiyalarni amalga oshirish huquqini bermaydi.

II BOB. KORRUPSIYANING OLDINI OLISH BOʻYICHA CHORALAR

5-modda. Korruptsiyaning oldini olish hamda unga qarshi harakat qilish siyosati va amaliyoti

1. Har bir Ishtirokchi-davlat, oʻz huquqiy tizimining asosiy prinsiplariga muvofiq, korrupsiyaga qarshi harakat qilish borasida jamiyat ishtirokiga yordam beradigan hamda huquq-tartibot, ommaviy ishlar va ommaviy mol-mulkni kerakli darajada boshqarish, halollik va sodiqlik, oshkorlik va masʼuliyatlilik prinsiplarini aks ettiradigan samarali va muvofiqlashtirilgan siyosatni ishlab chiqadi va amalga oshiradi yoki olib boradi.

2. Har bir Ishtirokchi-davlat korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan samarali amaliyot turlarini belgilash va ragʻbatlantirishga harakat qiladi.

3. Har bir Ishtirokchi-davlat korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish nuqtai nazaridan tegishli huquqiy hujjatlar va maʼmuriy choralarning muvofiqligini aniqlash maqsadida ularni vaqti-vaqti bilan baholashga harakat qiladi.

4. Ishtirokchi-davlatlar tegishli hollarda va oʻz huquqiy tizimlarining asosiy prinsiplariga muvofiq ushbu moddada keltirilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishga koʻmaklashishda bir-biri bilan hamda tegishli xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorlik qiladilar. Ushbu hamkorlik korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan xalqaro dastur va loyihalarda ishtirok etishni qamrab olishi mumkin.

6-modda. Korruptsiyaning oldini olish va unga qarshi harakat qilish organi yoki organlari

1. Har bir Ishtirokchi-davlat oʻz huquqiy tizimlarining asosiy prinsiplariga muvofiq quyida koʻrsatilgan choralarda yordamida, korrupsiyaning oldini olish ishlarini amalga oshiradigan organ yoki tegishli holatlarda, organlar mavjud boʻlishini taʼminlaydi:

a) mazkur Konvensiyaning 5-moddasida tilga olingan siyosatni olib borish va tegishli hollarda, bunday siyosat olib borilishini nazorat qilish va muvofiqlashtirish;

b) korrupsiyaning oldini olish masalalari bo'yicha bilimlarni kengaytirish va tarqatish;

2. Har bir Ishtirokchi-davlat mazkur moddaning 1-bandida bayon etilgan organ yoki organlarga, ular har qanday nomaqbul ta'sirdan xoli sharoitlarda o'z vazifalarini samarali bajarishlari mumkin bo'lishi uchun, o'z huquqiy tizimlarining asosiy prinsiplariga muvofiq zaruriy mustaqillikni ta'minlaydi. Ularga yuklatilgan funksiyalarni bajarish uchun talab etilishi mumkin bo'lgan kerakli moddiy resurslar va mutaxassis xodimlarni ta'minlash lozim.

3. Har bir Ishtirokchi-davlat Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga korrupsiyaning oldini olish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda boshqa Ishtirokchi-davlatlarga yordam berishi mumkin bo'lgan organ yoki organlarning nomi va manzilini xabar qiladi.

7-modda. Ommaviy sektor

1. Har bir Ishtirokchi-davlat, tegishli hollarda va o'z huquqiy tizimlarining asosiy prinsiplariga muvofiq, fuqaro xizmatchilarni va, tegishli vaziyatlarda, boshqa saylanmaydigan ommaviy mansabdor shaxslarni ishga qabul qilish, yollash, xizmatni o'tash, xizmat davomida mansabga erishish va iste'foga chiqishning quyidagilarga asoslanadigan tizimlarini yaratish, qo'llab-quvvatlash va mustahkamlashga harakat qiladi:

a) samaradorlik va oshkoralik prinsiplariga hamda benuqson faoliyat, adolat va qobiliyat kabi xolisona mezonlarga asoslanadi;

b) tegishli holatlarda korrupsiya va ma'lum holatlarda bunday lavozimlardagi tegishli kadrlar rotatsiyasi nuqtai nazaridan, ayniqsa zaif hisoblangan ommaviy lavozimlarni egallash uchun kadrlar tanlash va tayyorlashning tegishli tartib-taomillarini o'ziga kiritadi;

c) Ishtirokchi-davlatning iqtisodiy rivojlanganlik darajasini hisobga olgan holda, tegishli mukofot to'lash va adolatli maoshlarni belgilashga xizmat qiladi;

d) bunday shaxslar ommaviy vazifalarni to'g'ri, vijdonan va tegishli darajada

bajarish talablariga javob berishlari mumkin bo'lishi uchun ma'rifiy va o'quv dasturlarni amalga oshirishga ko'maklashadilar hamda korrupsiya bilan va o'z vazifalarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan xatarlarni chuqurroq anglashlari maqsadida ular ixtisoslashgan hamda muvofiq tayyorgarlikdan o'tishlarini ta'minlaydilar. Bu kabi dasturlarda kodekslarga asoslanishlar yoki amaliy sohalardagi axloq standartlari mavjud bo'lishi mumkin.

2. Shuningdek, ommaviy lavozimlarga nomzodlar va saylovlarga tatbiqan mezonlarni belgilash uchun har bir Ishtirokchi-davlat, mazkur Konvensiyaning maqsadlariga qarab va o'z ichki qonunchiligining asosiy prinsiplariga muvofiq, tegishli qonunchilik va ma'muriy choralar ko'rish imkoniyatlarini ko'rib chiqadi.

3. Shu bilan birga, saylanadigan ommaviy lavozimlarga nomzodlarni va, mumkin bo'lgan vaziyatlarda, siyosiy partiyalarni moliyalashtirishda oshkoralikni kuchaytirish uchun har bir Ishtirokchi-davlat, mazkur Konvensiyaning maqsadlariga qarab va o'z ichki qonunchiligining asosiy prinsiplariga muvofiq, tegishli qonunchilik va ma'muriy choralar ko'rish imkoniyatlarini ko'rib chiqadi.

4. Har bir Ishtirokchi-davlat, o'z ichki qonunchiligining asosiy prinsiplariga muvofiq, oshkoralikni ta'minlashga xizmat qiladigan hamda manfaatlar to'qnashuvi yuzaga

kelishining oldini oladigan tizimlarni yaratish, qo'llab-quvvatlash va mustahkamlashga harakat qiladi.

8-modda. Ommaviy mansabdor shaxslarning o'zini tutish kodekslari

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida har bir Ishtirokchi-davlat, o'z huquqiy tizimining asosiy prinsiplariga muvofiq, boshqa fazilatlar qatori, o'zining ommaviy mansabdor shaxslarining pokligi, halolligi va mas'uliyatligini rag'batlantiradi.

2. Xususan, ommaviy vazifalarni to'g'ri, vijdonan va tegishli darajada bajarish uchun har bir Ishtirokchi-davlat o'z institusional va huquqiy tizimlari doiralarida o'zini tutish kodekslari yoki standartlarni qo'llashga intiladi.

3. Mazkur moddaning qoidalarini amalga oshirish maqsadida har bir Ishtirokchi-davlat, tegishli hollarda va o'z huquqiy tizimining asosiy prinsiplariga muvofiq, mintaqaviy, mintaqalararo va ko'p tarmoqli tashkilotlarning tegishli tashabbuslarini e'tiborga oladi, masalan, BMT Bosh Assambleyasining 1996-yil 12-dekabrda 51/59-sonli qaroriga ilovada bayon etilgan Davlat mansabdor shaxslari o'zini tutishining xalqaro kodeksi.

4. Shuningdek, har bir Ishtirokchi-davlat, o'z ichki qonunchiligining asosiy prinsiplariga muvofiq, ommaviy mansabdor shaxslar o'z funksiyalarini bajarish vaqtida ularga ma'lum bo'lib qolgan korrupsion harakatlar to'g'risida tegishli organlarga xabar berishlariga xizmat qiladigan chora va tizimlarni belgilash imkoniyatlarini ko'rib chiqadi.

5. Har bir Ishtirokchi-davlat, tegishli hollarda va o'z ichki qonunchiligining asosiy prinsiplariga muvofiq, ommaviy mansabdor shaxslarni tegishli organlariga, boshqa ma'lumotlar qatori, ommaviy mansabdor shaxslar sifatidagi funksiyalarida manfaatlar to'qnashuvini yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan xizmatdan tashqari, faoliyat, mashg'ulotlar, investitsiyalar, aktivlar hamda muhim tuhfa yoki naflar to'g'risida deklaratsiyalarni taqdim etishga majbur qiladigan chora va tizimlarni belgilashga harakat qiladi.

6. Har bir Ishtirokchi-davlat, o'z ichki qonunchiligining asosiy prinsiplariga asosan, mazkur moddaga muvofiq belgilangan kodeks yoki standartlarni buzadigan ommaviy mansabdor shaxslarga nisbatan intizomiy yoki boshqa choralarni ko'rish imkoniyatlarini ko'rib chiqadi.

9-modda. Ommaviy xaridlar va ommaviy mablag'larni boshqarish

1. Har bir Ishtirokchi-davlat, o'z huquqiy tizimining asosiy prinsiplariga muvofiq, boshqa xususiyatlar qatori korrupsiyaning oldini olish nuqtai nazaridan, oshkoralik, raqobat va qarorlarni qabul qilishning xolisona mezonlariga asoslanadigan tegishli xarid tizimlarini yaratish uchun zaruriy choralarni ko'radi. Ulardan foydalanish bo'yicha tegishli oxirgi ko'rsatkichlarni ko'zda tutishi mumkin bo'lgan bunday tizimlar, boshqa jihatlar qatori, quyidagilarga daxldor:

a) savdolarning salohiyatli ishtirokchilariga ularning tender talabnomalarini tayyorlash va taqdim etish uchun yetarli vaqt berish maqsadida xarid qilish taomillari va sotib olish kontraktlariga tegishli bo'lgan axborotni, shu jumladan savdolarda ishtirok etishga takliflar haqidagi axborotni va kontraktlarni tuzish to'g'risidagi tegishli yoki o'rinli axborotni ommaviy tarqatish;

b) kontraktlarni tuzish to'g'risidagi tanlash va qarorlarni qabul qilish mezonlarini hamda savdolarni o'tkazish va e'lon qilish qoidalarini hisobga olgan holda, ishtirok etish shartlarini oldindan belgilash;

c) qoidalar va taomillar to'g'ri qo'llanilayotganligini kelgusida tekshirishga ko'maklashish maqsadida ommaviy xaridlar to'g'risida qabul qilingan qarorlar yuzasidan oldindan belgilangan va xolisona mezonlardan foydalanish;

d) mazkur bandga muvofiq belgilangan qoidalar yoki taomillarga rioya qilmagan vaziyatda huquq uchun kurashish va huquqiy himoya bo'yicha yuridik vositalarni ta'minlash uchun samarali ichki nazorat tizimi, shu jumladan norozilik shikoyatini taqdim etishning samarali tizimi;

e) tegishli holatlarda xaridlar uchun javobgar bo'lgan xodimlarga oid masalalarni tartibga solish, masalan, muayyan ommaviy xaridlarga bo'lgan manfaatdorlikni deklaratsiya qilish to'g'risida talabnoma, tekshirish taomillari va professional tayyorgarlikka qo'yiladigan talablar.

2. Har bir Ishtirokchi-davlat, o'z huquqiy tizimining asosiy prinsiplariga muvofiq, ommaviy mablag'larni boshqarishda oshkoralik va hisobdorlikka ko'maklashish bo'yicha tegishli choralarni ko'radi. Bunday choralar boshqa yo'nalishlar qatori quyidagilarni qamrab oladi:

a) milliy byudjetni tasdiqlash taomillari;

b) tushumlar va xarajatlar to'g'risidagi hisobotlarni o'z vaqtida taqdim etish;

c) buxgalteriya hisoboti va audit standartlari tizimi va bu bilan bog'liq nazorat;

d) xatarlarni boshqarish va ichki nazoratning samarali va ta'sirchan tizimlari;

e) tegishli hollarda, mazkur bandda belgilangan talablarga amal qilinmaganda muvofiqlashtirish.

3. Har bir Ishtirokchi-davlat ommaviy xarajatlar va daromadlarga tegishli bo'lgan buxgalteriya kitoblari, yozmalar, moliyaviy hujjatlar yoki boshqa hujjatlar butun saqlanishini ta'minlash uchun uning ichki qonunchiligining asosiy prinsiplariga muvofiq talab etilishi mumkin bo'lgan fuqarolik-huquqiy va ma'muriy choralarni ko'radi.

10-modda. Ommaviy hisobdorlik

Korrupsiyaga qarshi kurashish zarurligini hisobga olgan holda, har bir Ishtirokchi-davlat, o'z ichki qonunchiligining asosiy prinsiplariga muvofiq, uning ommaviy ma'muriyatining, shu jumladan uni tashkil etilishi, faoliyati va, tegishli hollarda, qarorlarni qabul qilish jarayonlariga tatbiqan, oshkoraligini kuchaytirish uchun talab etilishi mumkin bo'lgan choralarni ko'radi. Bunday choralarga, boshqa amallar qatori, quyidagilarni kiritishi mumkin:

a) aholiga, tegishli hollarda, ommaviy ma'muriyatni tashkil qilish, uning faoliyat yuritishi va qaror qabul qilishi jarayonlari to'g'risidagi, hamda xususiy hayot va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish zaruratini anglagan holda, aholi manfaatlariga daxldor qarorlar va yuridik amallar yuzasidan axborotga ega bo'lishga imkon beradigan taomil yoki qoidalarni qabul qilish;

b) tegishli hollarda, qarorlarni qabul qiluvchi vakolatli organlar huzuriga kirishda ommaviy imkonga ega bo'lishni osonlashtirish uchun ma'muriy taomillarni soddalashtirish;

c) ommaviy ma'muriyatda korrupsiya xatari haqidagi davriy hisobotlarni kiritishi mumkin bo'lgan axborotni e'lon qilish.

11-modda. Sud organlari va prokuratura organlariga doir choralar

1. Sud hokimiyatining mustaqilligi va u korrupsiyaga qarshi kurashishda hal qiluvchi rol o'ynashini hisobga olgan holda, har bir Ishtirokchi-davlat, o'z huquqiy tizimining

asosiy prinsiplariga muvofiq va sud organlari mustaqilligiga putur yetkazmagan ravishda, sudyalari va sud organlari xodimlari halolligi va pokligini kuchaytirish hamda ular orasida korrupsiya ildiz otishiga hech qanday imkon bermaslik choralarini ko'radi.

2. Mazkur moddaning 1 bandida bayon etilganga o'xshash choralar prokuratura organlari sud hokimiyati tarkibiga kirmaydigan, lekin sud organlarida bo'lgani kabi mustaqillikka ega bo'lgan Ishtirokchi-davlatlarning prokuratura organlarida qo'llanilishi mumkin.

12-modda. Xususiy sektor

1. Har bir Ishtirokchi-davlat, o'z ichki qonunchiligining asosiy prinsiplariga muvofiq, xususiy sektorda korrupsiyaning oldini olish, buxgalteriya hisoboti va audit standartlarini kuchaytirish va, tegishli hollarda, bunday choralarga rioya qilinmasligi uchun samarali, mutanosib va tiyib turuvchi ta'sir ko'rsatadigan fuqarolik-huquqiy, ma'muriy yoki jinoiy jazolarni belgilash choralarini ko'radi.

2. Bunday maqsadlarga erishishga qaratilgan choralar boshqalar qatori quyidagilarni qamrab olishi mumkin:

a) huquqni muhofaza qiluvchi organlar va tegishli xususiy tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikka ko'maklashish;

b) tegishli xususiy tashkilotlar faoliyatida halollikni ta'minlash uchun mo'ljallangan standart va taomillarni, shu jumladan tadbirkorlar va barcha tegishli kasb-hunarlar sohiblari o'z faoliyatlarini to'g'ri, vijdonan va tegishli darajada amalga oshirishlari uchun va manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishining oldini olish hamda tijorat korxonalar o'rtasidagi munosabatlarda va bunday korxonalar va davlat o'rtasidagi munosabatlarda halol tijorat amaliyoti qo'llanilishini rag'batlantirish uchun mo'ljallangan standart va taomillarni ishlab chiqishda ko'maklashish;

c) xususiy tashkilotlar faoliyatida oshkoralikni ta'minlashga ko'maklashish, shu jumladan, tegishli hollarda, korporativ tashkilotlarni yaratish va ularni boshqarishga daxldor bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarni solishtirish choralarini ko'rish;

d) xususiy tashkilotlar faoliyatini tartibga soluvchi, shu jumladan, ommaviy organlar tomonidan tijorat faoliyatini yuritish uchun taqdim etiladigan subsidiya va litsenziyalarga oid taomillar suiiste'mol qilinishining oldini olish;

e) sobiq ommaviy mansabdor shaxslarning professional faoliyatiga nisbatan yoki bunday ommaviy mansabdor shaxslar xususiy sektordan iste'foga yoki pensiyaga chiqqanlaridan keyin ularning ishiga nisbatan (qachonki bu kabi faoliyat yoki ish shunday ommaviy mansabdor shaxslar o'z lavozimlarini egallab turganda yoki bunday ishlar ustidan nazorat olib borganlarida ularning funksiyalari bilan bevosita bog'liq bo'lganda), tegishli vaziyatlarda va oqilona muddatga cheklolar belgilash yo'li bilan manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishining oldini olish;

f) korrupsiyaviy harakatlarning oldini olish va aniqlashda yordam berish hamda xususiy tashkilotlarning hisobraqamlari va talab qilinadigan moliyaviy hujjatlarini tegishli audit va sertifikatlashtirish tartib-taomillaridan o'tkazish uchun bunday xususiy tashkilotlar, ularning tuzilishi va hajmini hisobga olgan holda, ichki audit nazoratini yuritish uchun yetarli mexanizmlarga ega bo'lishlarini ta'minlash.

3. Korrupsiyaning oldini olish maqsadida har bir Ishtirokchi-davlat, o'z ichki qonunchiligi va buxgalteriya hisobini yuritish, moliyaviy hisobotlar hamda buxgalteriya hisoblari va standartlarini taqdim etishni tartibga soluvchi qoidalarga muvofiq, quyida

ko'rsatilgan va mazkur Konvensiya bilan e'tirof etilgan har qanday jinoyatni sodir etish uchun qo'llaniladigan harakatlarni taqiqlash uchun talab etilishi mumkin bo'lgan choralarni ko'radi:

- a) norasmiy hisobdorlikni tashkil etish;
- b) hisobga olinmagan yoki noto'g'ri ro'yxatga olingan amaliyotlarni o'tkazish;
- c) mavjud bo'lmagan xarajatlar hisobini yuritish;
- d) obyektini noto'g'ri identifikatsiya qilingan majburiyatlarni aks ettirish;
- e) soxta hujjatlardan foydalanish; va
- f) buxgalteriya hujjatlarini qonunchilikda belgilangan muddatlardan avval ataylab yo'q qilish.

4. Har bir Ishtirokchi-davlat mazkur Konvensiyaning 15 va 16-moddalariga muvofiq jinoyat tarkibining elementlaridan biri bo'lib, porani ifodalaydigan xarajatlar va, tegishli hollarda, korrupsion harakatlarga ko'maklashish maqsadida amalga oshirilgan boshqa xarajatlar soliq solinishidan ozod etilishini rad etadi.

13-modda. Jamoat ishtiroki

1. Har bir Ishtirokchi-davlat o'z imkoniyatlari doirasida va o'z ichki qonunchiligining asosiy prinsiplariga muvofiq, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish hamda jamiyat korrupsiya mavjudligi, uning sabablari, xavfli xususiyatlari va yuzaga keltiruvchi tahdidlarini yanada chuqurroq anglashi uchun fuqarolik jamiyat, nohukumat tashkilotlar va jamoatlar negizida faoliyat yurituvchi tashkilotlar kabi ommaviy sektorning tashqarisida alohida shaxslar va guruhlarining faol ishtirokiga ko'maklashish uchun tegishli choralarni ko'radi. Bu kabi ishtirokni quyidagi choralar yordamida mustahkamlash lozim:

a) aholini qarorlarni qabul qilish jarayonlariga jalb qilishga ko'maklashish va uning oshkoraligini oshirish;

b) aholi uchun axborotga ega bo'lishning samarali imkoniyatlarini ta'minlash;

c) aholiga korrupsiyaga nisbatan chidab bo'lmaydigan muhit yaratishga xizmat qiluvchi axborotni yetkazishga qaratilgan tadbirlarni o'tkazish hamda ommaviy ta'lim dasturlari, shu jumladan maktab va universitetlarda o'quv dasturlarni amalga oshirish;

d) korrupsiya to'g'risidagi axborotni izlash, olish, e'lon qilish va tarqatish erkinligini hurmat qilish, rag'batlantirish va himoya qilish. Bunday erkinlikning ma'lum cheklolari belgilanishi mumkin, lekin ular qonunchilikda nazarda tutilgan bo'ladi va quyidagilar uchun zarur:

i) boshqa odamlar huquqlari va obro'sini hurmat qilish uchun;

ii) aholining milliy xavfsizligini yoki ommaviy tartibini, yoki sog'lig'ini saqlash, yohud axloqini himoya qilish uchun.

2. Har bir Ishtirokchi-davlat ushbu Konvensiyada tilga olingan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tegishli organlar aholiga ma'lum bo'lishlarini ta'minlash uchun ma'lum choralarni ko'radi hamda mazkur Konvensiyaga muvofiq shunday deb e'tirof etilgan bironta jinoyatchilik sifatida qabul qilinishi mumkin bo'lgan har qanday hollar to'g'risida xabarlarini, shu jumladan anonim tarzda, taqdim etish uchun bunday organlar huzuriga kirish imkoni bilan ta'minlaydi.

14-modda. Pul mablag'larini legallashtirishning oldini olish bo'yicha tadbirlar

1. Har bir Ishtirokchi-davlat:

a) banklar va bankdan tashqari moliya muassasalariga nisbatan, shu jumladan pul mablagʻlari yoki qimmatliklarni oʻtkazish bilan bogʻliq rasmiy yoki norasmiy xizmatlarni taqdim etuvchi jismoniy yoki yuridik shaxslarga nisbatan hamda tegishli hollarda, pul mablagʻlarini legallashtirish nuqtai nazaridan, oʻz vakolati doiralarida, bunday mablagʻlarni legallashtirishning barcha shakllarini aniqlash va bunga yoʻl qoʻymaslik maqsadida keng qamrovli ichki tartibga solish va nazorat qilish rejimini belgilaydi, va shu bilan birga bunday rejim, birinchi navbatda, mijoz shaxsini aniqlashga oid talablarga va, tegishli hollarda, mulkdor-benifitsiarni identifikatsiya qilish, hisobotni yuritish va shubhali operatsiyalar toʻgʻrisida xabarlarini taqdim etishga asoslanadi;

b) mazkur Konvensiyaning 46 moddasiga zarar yetkazmagan holda, pul mablagʻlarini legallashtirishga qarshi kurash olib borayotgan maʼmuriy, tartibga soluvchi, huquqni muhofaza qilish va boshqa organlar (shu jumladan, bunday amal ichki qonunchilikka mos kelgan holatda, sud organlari ham) uning ichki qonunchiligi bilan belgilanadigan shartlarda, milliy va xalqaro darajalarda hamkorlik qilish va axborot almashishga qodir boʻlishlarini taʼminlaydi hamda shu maqsadlarda kuzatilishi mumkin boʻlgan pul mablagʻlarini legallashtirish holatlariga doir axborotni yigʻish, tahlil qilish va tarqatish boʻyicha milliy markaz sifatida faoliyat yuritadigan moliyaviy tezkor axborot boʻlinmasini taʼsis etish haqidagi masalani koʻrib chiqadi.

2. Ishtirokchi-davlatlar axborotdan tegishli darajada foydalanishni taʼminlashga qaratilgan kafolatlarga amal qilish hamda qonuniy kapitallar harakatlanishiga hech qanday toʻsqinlik qilmaslik sharti bilan, naqd pul mablagʻlari va tegishli aylanma mablagʻlar ularning chegaralaridan harakatlanishini aniqlash va bunday harakatlanish ketidan nazorat olib borish boʻyicha amalda qoʻllanilishi mumkin boʻlgan choralarni koʻrish masalasini koʻrib chiqadilar. Bunday choralar jismoniy shaxslar va tijorat korxonalar katta hajmdagi naqd pullarning transchegaraviy oʻtkazilishi va tegishli miqdordagi aylanma mablagʻlar topshirilishi toʻgʻrisida xabar berishlari lozimligi boʻyicha talabni oʻziga kiritishi mumkin.

3. Ishtirokchi-davlatlar moliya muassasalari, shu jumladan pul mablagʻlarini oʻtkazish muassasalari quyida koʻrsatib oʻtilganlarni amalga oshirishlari yuzasidan talab belgilash uchun tegishli va amaliyotda qoʻllash mumkin boʻlgan choralardan foydalanish haqidagi masalani koʻrib chiqadilar:

a) mablagʻlarni elektron shaklda oʻtkazish formulalariga va ular bilan bogʻliq xabarlariga joʻnatuvchi toʻgʻrisida aniq va mazmunli maʼlumot kiritish;

b) bunday axborotni toʻlovni amalga oshirishning butun zanjiri boʻylab saqlab turish;

c) joʻnatuvchi toʻgʻrisida toʻliq maʼlumotlar mavjud boʻlmagan vaziyatda oʻtkazilgan mablagʻlarning chuqurlashgan tekshiruvini amalga oshirish.

4. Mazkur moddaning qoidalariga muvofiq va ushbu Konvensiyaning har qanday boshqa moddasiga zarar yetkazmagan holda, tartibga solish va nazorat qilishning ichki rejimini belgilashda Ishtirokchi-davlatlarga mintaqaviy, mintaqalararo va koʻp tomonlama tashkilotlarning pul mablagʻlarini legallashtirishga qarshi kurashishga qaratilgan tegishli tavsiyalariga amal qilish tavsiya etiladi.

5. Pul mablagʻlarini legallashtirishga qarshi kurashish maqsadida Ishtirokchi-davlatlar sud va huquqni muhofaza qilish hamda moliyaviy tartibga solish organlari oʻrtasida global, mintaqaviy, submintaqaviy va ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish va ragʻbatlantirishga intiladilar.

III BOB. KRIMINALLASHTIRISH VA HUQUQNI MUHOFAZA QILISH FAOLIYATI

15-modda. Milliy ommaviy mansabdor shaxslarga pora berish

1. Har bir Ishtirokchi-davlat quyida ko'rsatilgan harakatlar ataylab sodir etilganda buni jinoiy javobgarlikka tortiladigan harakat sifatida e'tirof etish uchun talab qilinishi mumkin bo'lgan qonuniy va boshqa choralarni ko'radi:

a) ommaviy mansabdor shaxsga shaxsan yoki vositachilar orqali ushbu mansabdor shaxsning o'zi uchun yoxud boshqa jismoniy yoki yuridik shaxs uchun, ushbu mansabdor shaxs o'z lavozim vazifalarini bajarish vaqtida biron harakatni amalga oshirishi yoki harakat qilmasligi maqsadida, biron noqonuniy afzallikni va'da qilish, taklif etish yoki taqdim etish;

b) biron mansabdor shaxs o'z lavozim vazifalarini bajarish vaqtida biron bir harakat yoki harakatsizlik maqsadida mansabdor shaxsning o'zi uchun yoxud boshqa jismoniy yoki yuridik shaxs uchun biron noqonuniy afzallikni shaxsan ommaviy mansabdor shaxs tomonidan yoki vositachilar orqali talab qilib yoki qabul qilib olish.

16-modda. Xorijiy ommaviy mansabdor shaxslarga va ommaviy xalqaro tashkilotlarning mansabdor shaxslariga pora berish

1. Har bir Ishtirokchi-davlat xorijiy ommaviy mansabdor shaxsga yoki ommaviy xalqaro tashkilotning mansabdor shaxsiga shaxsan yoki vositachilar orqali mansabdor shaxsning o'zi uchun yoxud boshqa jismoniy yoki yuridik shaxs uchun, ushbu mansabdor shaxs xalqaro ishlarni yuritish yuzasidan tijorat yoki boshqa noqonuniy afzallikka ega bo'lish uchun o'z lavozim vazifalarini bajarish vaqtida biron harakatni amalga oshirishi yoki harakat qilmasligi maqsadida biron afzallikni va'da qilish, taklif etish yoki taqdim etish, qachonki ular atayin sodir etilganda, buni jinoiy javobgarlikka tortiladigan harakat sifatida e'tirof etish uchun talab qilinishi mumkin bo'lgan qonuniy va boshqa choralarni ko'radi.

2. Har bir Ishtirokchi-davlat xorijiy ommaviy mansabdor shaxsga yoki ommaviy xalqaro tashkilotning mansabdor shaxsiga shaxsan yoki vositachilar orqali mansabdor shaxsning o'zi uchun yoxud boshqa jismoniy yoki yuridik shaxs uchun, ushbu mansabdor shaxs o'z lavozim vazifalarini bajarish vaqtida biron harakatni amalga oshirishi yoki harakat qilmasligi maqsadida biron afzallikni va'da qilish, taklif etish yoki taqdim etish, qachonki ular atayin sodir etilganda, buni jinoiy javobgarlikka tortiladigan harakat sifatida e'tirof etish uchun talab qilinishi mumkin bo'lgan qonuniy va boshqa choralarni ko'rish imkoniyatini ko'rib chiqadi.

17-modda. Ommaviy mansabdor shaxs tomonidan mol-mulk talon-toroj qilinishi, noqonuniy o'zlashtirilishi yoki ko'zda tutilmagan maqsadlarda ishlatilishi

Har bir Ishtirokchi-davlat mansabdor shaxsning o'zi yoxud boshqa jismoniy yoki yuridik shaxs foyda olishi maqsadida xizmat mavqeiga ko'ra ushbu ommaviy mansabdor shaxsning qaramog'ida bo'lgan biron-bir mol-mulk, ommaviy yoki xususiy mablag'larni yoxud qimmatli qog'ozlar yoki istalgan boshqa qimmatli predmetni mansabdor shaxs tomonidan o'g'irlanishini, noqonuniy o'zlashtirilishini yoki ko'zda tutilmagan boshqa maqsadlarda ishlatilishini, qachonki ular atayin sodir etilganda, buni jinoiy javobgarlikka tortiladigan harakat sifatida e'tirof etish uchun talab qilinishi mumkin bo'lgan qonuniy va boshqa choralarni ko'radi.

18-modda. G'arazli maqsadlarda mavqeidan foydalanish

Har bir Ishtirokchi-davlat quyida ko'rsatilgan harakatlar ataylab sodir etilganda buni jinoiy javobgarlikka tortiladigan harakat sifatida e'tirof etish uchun talab qilinishi mumkin bo'lgan qonuniy va boshqa choralar ko'rish imkoniyatini ko'rib chiqadi:

a) ommaviy mansabdor shaxsga yoki istalgan boshqa shaxsga shaxsan yoki vositachilar orqali Ishtirokchi-davlatning ma'muriyati yoki ommaviy organidan ushbu harakatlarning birinchi tashabbuskori yoki istalgan boshqa shaxs uchun biron noqonuniy afzalliklarni olib berish maqsadida ushbu mansabdor shaxs yoki boshqa shunday shaxs o'zining haqiqiy yoki taxmin qilingan nufuzini suiiste'mol qilishi evaziga biron noqonuniy afzalliklarni va'da qilish, taklif etish yoki taqdim etish;

b) ommaviy mansabdor shaxs tomonidan yoki vositachilar orqali ommaviy mansabdor shaxs yoki boshqa shunday shaxs Ishtirokchi-davlatning ma'muriyati yoki ommaviy organidan shaxsan o'zi yoki boshqa shaxs uchun biron noqonuniy afzalliklarni olib berish maqsadida ushbu mansabdor shaxs yoki boshqa shunday shaxs o'zining haqiqiy yoki taxmin qilingan nufuzini suiiste'mol qilishi uchun biron noqonuniy afzalliklarni talab qilib yoki qabul qilib olish.

19-modda. Xizmat lavozimining suiiste'mol qilinishi

Har bir Ishtirokchi-davlat xizmat vakolatlaridan foydalanishni yoki xizmat lavozimini suiiste'mol qilishni, ya'ni ommaviy mansabdor shaxs o'z lavozim vazifalarini bajarish vaqtida qonunga xilof ravishda shaxsan o'zi yoki boshqa yuridik yoxud jismoniy shaxs uchun biron noqonuniy afzalliklarni olish maqsadida biron harakatni amalga oshirishi yoki harakat qilmasligini, qachonki ular atayin sodir etilganda, buni jinoiy javobgarlikka tortiladigan harakat sifatida e'tirof etish uchun talab qilinishi mumkin bo'lgan qonuniy va boshqa choralarni ko'rish imkoniyatini ko'rib chiqadi.

20-modda. Noqonuniy tarzda boylik orttirilishi

Har bir Ishtirokchi-davlat, o'z konstitutsiyasi va huquqiy tizimining eng muhim prinsiplariga rioya qilish shartida, noqonuniy tarzda boylik orttirilishini, ya'ni ommaviy mansabdor shaxs aktivlari uning qonuniy daromadlaridan oqilona asoslanib berila olmaydigan darajada oshib ketishini, qachonki ular atayin sodir etilganda, buni jinoiy javobgarlikka tortiladigan harakat sifatida e'tirof etish uchun talab qilinishi mumkin bo'lgan qonuniy va boshqa choralarni ko'rish imkoniyatini ko'rib chiqadi.

21-modda. Xususiy sektorda pora berish

Har bir Ishtirokchi-davlat iqtisodiy, moliyaviy yoki tijorat faoliyatida davomida quyida ko'rsatilgan harakatlar ataylab sodir etilganda buni jinoiy javobgarlikka tortiladigan harakat sifatida e'tirof etish uchun talab qilinishi mumkin bo'lgan qonuniy va boshqa choralar ko'rish imkoniyatini ko'rib chiqadi:

a) xususiy sektor ishini tashkil qilishga rahbarlik qilayotgan yoki ushbu tashkilotda istalgan lavozimda ishlayotgan shaxsning o'ziga yoki boshqa shaxsga, ushbu shaxs o'z xizmat vazifalariga xilof bo'lgan biron harakatni amalga oshirishi yoki harakat qilmasligi evaziga shaxsan yoki yoki vositachilar orqali biron afzallikni va'da qilish, taklif etish yoki taqdim etish;

b) xususiy sektor ishini tashkil qilishga rahbarlik qilayotgan yoki ushbu tashkilotda istalgan lavozimda ishlayotgan shaxsning o'ziga yoki boshqa shaxsga, ushbu shaxs o'z

xizmat vazifalariga xilof bo'lgan biron harakatni amalga oshirishi yoki harakat qilmasligi evaziga shaxsan yoki yoki vositachilar orqali biron noqonuniy afzallikni talab qilib yoki qabul qilib olish.

22-modda. Xususiy sektorda mulkning o'g'irlanishi

Har bir Ishtirokchi-davlat iqtisodiy, moliyaviy va yoki tijorat faoliyati davomida xususiy sektor ishini tashkil qilishga rahbarlik qilayotgan yoki ushbu tashkilotda istalgan lavozimda ishlayotgan shaxs tomonidan xizmat lavozimiga ko'ra ushbu shaxsning qaramog'ida bo'lgan mol-mulk, xususiy mablag'larni yoxud qimmatli qog'ozlar yoki istalgan boshqa qimmatli predmetning o'g'irlanishini, noqonuniy o'zlashtirilishini yoki ko'zda tutilmagan boshqa maqsadlarda ishlatilishini, qachonki ular atayin sodir etilganda, buni jinoiy javobgarlikka tortiladigan harakat sifatida e'tirof etish uchun talab qilinishi mumkin bo'lgan qonuniy va boshqa choralar ko'rish imkoniyatini ko'rib chiqadi.

23-modda. Jinoiy yo'l bilan topilgan daromadlarni legallashtirish

1. Har bir Ishtirokchi-davlat o'zining ichki huquqiy tizimining eng muhim prinsiplariga muvofiq quyida ko'rsatilgan harakatlar ataylab sodir etilganda buni jinoiy javobgarlikka tortiladigan harakat sifatida e'tirof etish uchun talab qilinishi mumkin bo'lgan qonuniy va boshqa choralarni qabul qiladi:

a) i) agar mol-mulk jinoiy yo'l bilan topilgani avvaldan ma'lum bo'lsa va uni jinoiy manbasini yashirish va sir tutish maqsadida yoki asosiy huquqbuzarlikni sodir etishda ishtirok etadigan istalgan boshqa shaxsga, u o'zining jinoiy hatti-harakatlari uchun javobgarlikdan bo'yin tovlashiga yordam berish maqsadida mol-mulknı konversiyalash (o'zgartirish) yoki o'tkazish;

ii) agar mol-mulk jinoiy yo'l bilan topilgani avvaldan ma'lum bo'lsa mol-mulkning haqiqiy tavsifini, manbasini, tasarruf etish usulini yoki uning kimga tegishli ekanini, joyini o'zgartirishni, mol-mulkkı bo'lgan huquqlarni yashirish va sir tutish;

b) o'zining huquqiy tizimining eng muhim prinsiplariga rioya qilish shartida:

i) agar mol-mulknı olayotganda ushbu mol-mulk jinoiy yo'l bilan topilgani avvaldan ma'lum bo'lsa ushbu mol-mulknı sotib olish, unga egalik qilish yoki undan foydalanish;

ii) mazkur moddaga muvofiq jinoyat deb tan olingan istalgan harakatlarning birida ishtirok etish, daxldor bo'lish yoki ushbu jinoyatni sodir etish maqsadida til biriktirish, uni sodir etishga urinish, shuningdek uni sodir etilishida sheriklik qilish, fitna uyushtirish va ko'mak berish.

2. Mazkur moddaning 1-bandini amalga oshirish yoki qo'llash maqsadida:

a) har bir Ishtirokchi-davlat mazkur moddaning 1-bandini asosiy huquqbuzarliklarning eng keng doirasiga qo'llashga intiladi;

b) har bir Ishtirokchi-davlat asosiy huquqbuzarliklar qatoriga, hech bo'lmaganda, ushbu Konvensiyaga muvofiq tan olingan jinoyatlarning keng qamrovli doirasini kiritadi;

c) yuqorida keltirilgan (b) kichik bandning maqsadlari uchun asosiy huquqbuzarliklar sirasiga tegishli Ishtirokchi-davlat yurisdiksiyasi doirasida ham, doirasidan tashqarida ham sodir etilgan jinoyatlar kiradi. Lekin biron Ishtirokchi-davlatning yurisdiksiyasi doirasidan tashqarida sodir etilgan jinoyatlar faqat mazkur jinoiy harakat sodir etilgan davlatning ichki qonunchiligiga ko'ra jinoiy jazoga loyiq deb topilsa va ushbu modda amalga oshirilayotgan yoki qo'llanilayotgan Ishtirokchi-davlatning ichki qonunchiligiga

ko'ra, agar bu jinoyat aynan shu davlatda sodir etilib, jinoiy jazoga loyiq deb tan olinsagina asosiy huquqbuzarliklar deb tan olinadi.

d) har bir Ishtirokchi-davlat Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga mazkur moddadagi holatlar amalga oshirilishini ta'minlovchi o'z qonunlarining matnini, shuningdek ushbu qonunlarga keyinchalik kiritilgan barcha o'zgartishlar yoki ularning ta'riflanishlarini taqdim etadi

e) agar Ishtirokchi-davlatdagi ichki qonunchilikning eng muhim prinsiplari buni talab qilsa, u holda mazkur moddaning 1-moddasida ko'rsatilgan jinoyatlar asosiy huquqbuzarliklarni sodir etgan shaxslarga tegishli bo'lmasligini ko'zda tutish mumkin bo'ladi.

24-modda. Jinoyatni yashirish

Har bir Ishtirokchi-davlat mazkur Konvensiyaning 23-moddasida keltirilgan holatlar uchun zarar yetkazmagan holda mazkur Konvensiyada jinoyat deb topilgan istalgan jinoiy harakatlar sodir etilganidan keyin ushbu jinoyatlar sodir etilishida ishtirok etmagan bo'lsada, tegishli shaxsga bu mol-mulk mazkur Konvensiyada jinoyat deb topilgan istalgan jinoiy harakatlar sodir etilishi natijasida orttirilgan mol-mulkni yashirish yoki doimiy ravishda ushlab turish kabi harakatlarni, qachonki ular atayin sodir etilganda, buni jinoiy javobgarlikka tortiladigan harakat sifatida e'tirof etish uchun talab qilinishi mumkin bo'lgan qonuniy va boshqa choralarni ko'rish imkoniyatini ko'rib chiqadi.

25-modda. Odil sudlovning amalga oshirilishiga to'sqinlik qilish

Har bir Ishtirokchi-davlat quyida ko'rsatilgan harakatlar ataylab sodir etilganda buni jinoiy javobgarlikka tortiladigan harakat sifatida e'tirof etish uchun talab qilinishi mumkin bo'lgan qonuniy va boshqa choralar ko'radi:

a) mazkur Konvensiyaga muvofiq jinoyat deb tan olingan harakatlar sodir etilganligi munosabati amalga oshirilayotgan jarayon davomida soxta ma'lumotlar berishga majbur qilish yoki ma'lumotlarni berish yoxud ma'lumotlarni taqdim etish jarayoniga aralashish maqsadida jismoniy kuch ishlatish, do'q-po'pisa qilish yoki qo'rqitish yoxud va'da berish yoki noqonuniy afzallikni taklif qilish yoki taqdim etish;

b) mazkur Konvensiyaga muvofiq jinoyat deb tan olingan harakatlar sodir etilganligi munosabati amalga oshirilayotgan jarayon davomida sud yoki huquqni muhofaza qilish organlarining mansabdor shaxsi tomonidan o'zining xizmat vazifalarini bajarishiga aralashish maqsadida jismoniy kuch ishlatish, do'q-po'pisa qilish yoki qo'rqitish. Mazkur kichik banddagi hech narsa Ishtirokchi-davlatlarning ommaviy mansabdor shaxslarning boshqa toifasi himoya qilinishini ta'minlovchi qonunchlikka ega bo'lish huquqiga zarar yetkazmaydi.

26-modda. Yuridik shaxslarning javobgarligi

1. Har bir Ishtirokchi-davlat, o'zining huquqiy prinsiplarini hisobga olgan holda, ushbu Konvensiyada deb tan olingan jinoyatlarda ishtiroki uchun yuridik shaxslarning javobgarligini aniqlash uchun talab qilinishi mumkin bo'lgan choralarni ko'radi.

2. Yuridik shaxslarning javobgarligi, Ishtirokchi-davlatning huquqiy prinsiplariga rioya qilish shartida, jinoiy, fuqarolik-huquqiy yoki ma'muriy bo'lishi kerak.

3. Bunday javobgarlikning yuklatilishi jinoyat sodir etgan jismoniy shaxslarning jinoiy javobgarligiga zarar yetkazmaydi.

4. Har bir Ishtirokchi-davlat, xususan, ushbu moddaga muvofiq javobgarlikka tortilayotgan yuridik shaxslarga nisbatan samarali, mutanosib va to'xtatuvchi ta'sirga ega bo'lgan jinoiy yoki jinoiy bo'lmagan choralar, shu jumladan pullik jarimalar qo'llanilishini ta'minlaydi.

27-modda. Ishtirok va suiqasd

1. Har bir Ishtirokchi-davlat mazkur Konvensiyada jinoyat deb tan olingan biron-bir jinoiy harakatni sodir etishda sherik, yordamchi yoki dalolatchi sifatida qatnashishni o'zining ichki qonunchiligiga muvofiq jinoiy javobgarlikka tortiladigan harakat deb tan olinishini talab qilishi mumkin bo'lgan qonuniy va boshqa choralarni ko'radi.

2. Har bir Ishtirokchi-davlat mazkur Konvensiyada jinoyat deb tan olingan biron-bir jinoiy harakatni sodir etishga suiqasd o'zining ichki qonunchiligiga muvofiq jinoiy javobgarlikka tortiladigan harakat deb tan olinishini talab qilishi mumkin bo'lgan qonuniy va boshqa choralarni ko'radi.

3. Har bir Ishtirokchi-davlat mazkur Konvensiyada jinoyat deb tan olingan biron-bir jinoiy harakatni sodir etishga tayyorgarlikni o'zining ichki qonunchiligiga muvofiq jinoiy javobgarlikka tortiladigan harakat deb tan olinishini talab qilishi mumkin bo'lgan qonuniy va boshqa choralarni ko'radi.

28-modda. Anglash, maqsad va qasd jinoyatning elementlari sifatida

Mazkur Konvensiyada jinoyat deb tan olingan biron-bir jinoiy harakatning elementlari sifatida talab etiladigan anglash, maqsad va qasd ishning obyektiv asl holatlaridan kelib chiqqan holda aniqlanishi mumkin.

29-modda. Da'vo muddati

Har bir Ishtirokchi-davlat, tegishli holatlarda, o'zining ichki qonunchiligiga mos ravishda, mazkur Konvensiyada jinoyat deb tan olingan istalgan jinoiy harakatlarga nisbatan ish qo'zg'atilishi uchun uzoq da'vo muddatini belgilaydi va jinoyatni sodir etishda gumon qilinayotgan shaxs odil sudlovdan bo'yin tovlayotgan hollarda da'vo uchun yanada uzoq muddatni yoki da'vo muddatini davom etishini to'xtatish imkoniyatini belgilaydi.

30-modda. Jinoiy ta'qib, sud qarorlarini chiqarish va sanksiya

1. Har bir Ishtirokchi-davlat mazkur Konvensiyada jinoyat deb tan olingan biron-bir jinoiy harakatlar sodir etilishi uchun ushbu jinoyatning xavflilik darajasini hisobga oluvchi jinoiy jazolar qo'llanilishini ko'zda tutadi.

2. Har bir Ishtirokchi-davlat o'zining huquqiy tizimi va konstitusion prinsiplariga muvofiq ravishda ommaviy mansabdor shaxslarga o'zlarining vazifalarini bajarishlari munosabati bilan taqdim etilgan istalgan immunitetlar yoki yurisdiksiyon imtiyozlar o'rtasidagi tegishli muvozanatlashtirishni belgilashi yoki ta'minlashi va zarurat tug'ilganida, mazkur Konvensiyada jinoyat deb tan olingan jinoiy xatti-harakatlar yuzasidan samarali tergov ishlarini olib borish hamda jinoiy ish qo'zg'atish va sud qarorini chiqarish imkoniyatini talab qilishi mumkin bo'lgan choralarni ko'radi.

3. Har bir Ishtirokchi-davlat mazkur Konvensiyada jinoyat deb tan olingan jinoiy xatti-harakatlarga nisbatan huquqni muhofaza qilish choralari maksimal darajada samarali bo'lishi maqsadida ushbu jinoyatlarni sodir etgan shaxsga nisbatan jinoiy ish qo'zg'atishga taalluqli o'zining ichki qonunchiligida ko'zda tutilgan istalgan diskresion

va yuridik vakolatlardan foydalanishni ta'minlashga intiladi hamda zaruratning lozim bo'lgan darajasida bu kabi jinoyatlar sodir etilishiga monelik ko'rsatadi.

4. Har bir Ishtirokchi-davlat mazkur Konvensiyada jinoyat deb tan olingan jinoiy xatti-harakatlarga nisbatan, o'zining ichki qonunchiligiga muvofiq va himoya huquqlarini lozim darajada hisobga olgan holda, sudgacha ozod qilish to'g'risidagi qaror yoki kassatsiya arizasi yoki qat'iy norozilik bildirilguniga qadar qabul qilinadigan qaror bilan bog'liq bo'lgan shartlarni belgilashda keyinchalik yuritiladigan jinoiy ish jarayonida ayblanuvchi albatta bo'lishini ta'minlash zaruratini hisobga olishni ta'minlash maqsadida tegishli choralar ko'radi.

5. Har bir Ishtirokchi-davlat jinoyat sodir etgan shaxslarni muddatidan oldin yoki shartli ravishda ozod qilish masalasini ko'rib chiqishda etegishli jinoyatlarning xavflilik darajasini hisobga oladi.

6. Har bir Ishtirokchi-davlat o'z huquqiy tizimining eng muhim prinsiplariga muvofiq bo'lgan darajada mazkur Konvensiyada jinoyat deb tan olingan jinoiy xatti-harakatlarni sodir etishda ayblanayotgan ommaviy mansabdor shaxs, aybsizlik prezumpsiyasi prinsipini hurmat qilish zaruratini hisobga olgan holda, tegishli holatlarda tegishli organ tomonidan o'z xizmat vazifalarini bajarishdan vaqtincha chetlatilishi yoki boshqa lavozimga o'tkazilishini belgilab beruvchi tartibotni o'rnatish imkoniyatlarini ko'rib chiqadi.

7. Har bir Ishtirokchi-davlat o'z huquqiy tizimining eng muhim prinsiplariga muvofiq bo'lgan darajada, agar jinoyatning xavflilik darjasini hisobga olganda ushbu holat asoslangan bo'lsa, mazkur Konvensiyada jinoyat deb tan olingan jinoiy xatti-harakatlarni sodir etishda ayblanayotgan shaxsni sud qarori yoki boshqa tegishli choralar yordamida o'zining ichki qonunchiligida belgilangan muayyan muddatga quyidagi huquqlardan maxrum qilish uchun tartibot belgilanishi imkoniyatlarini ko'rib chiqadi:

a) ommaviy lavozimni egallash;

b) to'liq yoki qisman davlat tasarrufida bo'lgan biron korxonada lavozim egallash.

8. Mazkur moddaning 1-bandi vakolatli organlar tomonidan fuqaro xizmatchilarga nisbatan intizomiy vakolatlar amalga oshirilishiga to'sqinlik qilmaydi.

9. Mazkur Konvensiyadagi hech bir holat har bir Ishtirokchi-davlatning ichki qonunchiligi doirasidagi mazkur Konvensiyada jinoyat deb tan olingan jinoiy xatti-harakatlarni belgilovchi va qo'llaniladigan yuridik e'tirozlar yoki xatti-harakatlarning qonuniyligini aniqlab beruvchi boshqa huquqiy asoslarga tayangan prinsiplarga ta'sir qilmaydi, bu kabi jinoyatlarga nisbatan jinoiy ishning qo'zg'atilishi va belgilaniladigan jazo ushbu ichki qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

10. Ishtirokchi-davlatlar mazkur Konvensiyada jinoyat deb tan olingan jinoiy xatti-harakatlarni sodir etgani uchun jazolangan shaxslarni jamiyatga reintegratsiya qilinishiga ko'maklashishga intiladilar.

31-modda. Amaliyotlarni to'xtatib qo'yish (muzlatish), xatlash va musodara

1. Har bir Ishtirokchi-davlat o'zining ichki huquqiy tizimi doirasida mumkin bo'lgan maksimal darajada quyidagilarni musodara qilish imkoniyatini ta'minlashni talab qilishi mumkin bo'lgan choralarni ko'radi:

a) mazkur Konvensiyada jinoyat deb tan olingan jinoiy xatti-harakatlar yo'li bilan orttirilgan daromadlar yoki qiymati ushbu daromadlar qiymatiga teng bo'lgan mol-mulk;

b) mazkur Konvensiyada jinoyat deb tan olingan jinoiy xatti-harakatlarni sodir etishda foydalanilgan yoki foydalanishga mo'ljallangan mol-mulk, uskunalar.

2. Har bir Ishtirokchi-davlat keyinchalik musodara qilish uchun mazkur moddaning 1-bandida sanab o'tilganlarning istalganini aniqlash, kuzatish, vaqtincha ishga solmaslik yoki xatlash imkonini ta'minlash uchun talab qilinishi mumkin bo'lgan chorani ko'radi.

3. Har bir Ishtirokchi-davlat o'zining ichki qonunchiligiga muvofiq mazkur moddaning 1- va 2-bandlarida ko'rsatilgan vaqtinchalik ishga solmay turilgan, xatlangan yoki musodara qilingan mol-mulkni vakolatli organlar tomonidan boshqarilishini tartibga solish uchun talab qilinishi mumkin bo'lgan qonuniy va boshqa choralarni ko'radi.

4. Agar bu kabi jinoiy daromadlar qisman yoki to'liq holda boshqa mol-mulkka aylantirilgan yoki o'zgartirilgan bo'lsa, u holda mazkur moddada ko'rsatilgan choralalar ushbu mol-mulkka nisbatan qo'llanadi.

5. Agar bu kabi jinoiy daromadlar qonuniy manbalardan olingan mol-mulkka qo'shib olingan bo'lsa, u holda mol-mulkning qo'shib olingan daromadlarning baholangan qiymatiga muvofiq bo'lgan qismi vaqtinchalik ishga solmaslik yoki xatlashga taalluqli istalgan vakolatlar uchun zarar yetkazilmagan holda musodara qilinadi.

6. Bu kabi jinoiy daromadlar tufayli, jinoiy daromadlarning boshqa mol-mulkka aylantirilgani yoki o'zgartirilgani tufayli yoxud bu kabi jinoiy daromadlarning mol-mulkka qo'shib olinganligi tufayli olingan foyda yoki boshqa afzalliklarga ham mazkur moddada ko'rsatilgan choralalar xuddi jinoiy yo'l bilan orttirilgan daromadlarga bo'lganidek va xuddi shunday darajada ko'riladi.

7. Mazkur modda va ushbu Konvensiyaning 55-moddasi maqsadlari uchun har bir Ishtirokchi-davlat o'zining sudlari yoki boshqa vakolatli organlariga bank, moliyaviy yoki tijoratga oid hujjatlarni taqdim etish yoki hibsga olish to'g'risidagi qarorlarni chiqarish vakolatlarini beradi. Ishtirokchi-davlat, bank sirini saqlash zaruratiga havola qilib, mazkur moddada keltirilgan holatlarga muvofiq choralarni ko'rishdan bosh tortmaydi.

8. Ishtirokchi-davlatlar jinoyat sodir etgan shaxs musodara qilinishi lozim bo'lgan bu kabi jinoiy yo'l bilan olinganligi taxmin qilinayotgan daromadlar yoki boshqa mol-mulkning qonuniyligini isbotlashini ichki qonunchiligining eng muhim prinsiplariga, shuningdek sudda va boshqa mahkamalarda muhokama qilinishi xususiyatlariga muvofiq darajada talab qilishni belgilash imkoniyatini ko'rib chiqishlari mumkin.

9. Mazkur moddaning holatlari halol uchinchi shaxslarning huquqlariga zarar yetkazadigan holda talqin etilmaydi.

10. Mazkur moddagi hech qanday holat unda bayon etilayotgan choralalar Ishtirokchi-davlatning ichki qonunchiligidagi holatlarga muvofiq, ularga rioya qilinishi shartida belgilanishi va amalga oshirilishi to'g'risidagi prinsipga daxl qilmaydi.

32-modda. Guvohlar, ekspertlar va jabrlanuvchilarning himoya qilinishi

1. Har bir Ishtirokchi-davlat o'z qonunchiligining ichki tizimiga muvofiq va o'z imkoniyatlari chegarasida mazkur Konvensiyada jinoyat deb topilgan jinoiy xatti-harakatlar munosabati bilan ko'rsatmalar berayotgan guvohlar va ekspertlarga nisbatan, tegishli holatlarda ularning qarindoshlari va ularga yaqin bo'lgan boshqa odamlarga nisbatan bo'lishi ehtimol tutilgan o'ch yoki do'q-po'pisalardan samarali himoya qilishni ta'minlovchi tegishli choralarni ko'radi.

2. Mazkur moddaning 1-bandida koʻzda tutilgan choralar, ayblanuvchining huquqlari, shu jumladan tegishli muhokama va ishni koʻrish huquqiga zarar yetkazmagan holda, oʻz ichiga quyidagilarni olishi mumkin:

a) ushbu shaxslarni jismoniy himoya qilish tartibotini belgilash, masalan, zarur boʻlgan va amaliy jihatdan amalga oshirilishi mumkin boʻlgan darajada – ularni boshqa joyga koʻchirish uchun va tegishli vaziyatlarda mumkin boʻlgan shunday holatlarni qabul qilish, ushbu shaxslarga shaxsan taalluqli va ularning joylashgan manzili bilan bogʻliq maʼlumotlarni oshkor etmaslik yoki maʼlumotlarning bunday oshkor etilishiga cheklov oʻrnatish;

b) guvohlar va ekspertlarga, ularni xavfsizligini taʼminlovchi tarzda koʻrsatmalar berishlariga imkon beruvchi, masalan video aloqa kabi aloqa vositalari yoki boshqa muvofiq aloqa vositalari yordamida koʻrsatmalar berishga ruxsat berishdek isbotlash qoidalarini qabul qilish.

3. Ishtirokchi-davlatlar mazkur moddaning 1-bandida koʻrsatilgan shaxslarni boshqa joyga koʻchirilishi xususida boshqa davlatlar bilan kelishuv yoki bitim tuzish imkoniyatini koʻrib chiqadilar.

4. Mazkur moddaning holatlari jabrlanuvchilarga nisbatan ham, ularning guvoh deb sanaluvchi darajasida qoʻllaniladi.

5. Har bir Ishtirokchi-davlat, oʻzining ichki qonunchiligiga rioya qilish shartida, jinoiy ish koʻrib chiqilishining tegishli bosqichlarida jabrlanuvchilarning jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan fikrlari va xavfsirashlarining bayon etilishi uchun himoya huquqlariga zarar yetkazmaydigan tarzda imkoniyat yaratadi.

33-modda. Maʼlumot beruvchi shaxslarni himoya qilish

Har bir Ishtirokchi-davlat vakolatli organlarga mazkur Konvensiyada jinoyat deb topilgan jinoiy xatti-harakatlar xususida istalgan dalillar toʻgʻrisida halol va oqilona asoslarga tayangan holda xabar berayotgan shaxslarni himoya qilishga qaratilgan tegishli choralarni oʻzining ichki huquqiy tizimiga kiritish imkoniyatlarini koʻrib chiqadi.

34-modda. Korrupsion harakatlarning oqibatlari

Har bir Ishtirokchi-davlat, uchinchi tomonlarning halollik bilan qoʻlga kiritgan huquqlarini tegishli tarzda hisobga olib turib, oʻzining ichki qonunchiligining eng muhim prinsiplariga muvofiq tarzda korrupsiya oqibatlari xususidagi masalani muvofiqlashtirish boʻyicha choralar koʻradi. Ishtirokchi-davlatlar bu kontekstda korrupsiyani, kontraktlarni bekor qilish yoki kuchdan qoldirish, konsessiyalarni yoki shunga oʻxshash amaliyotlarni qaytarish yoki yuzaga kelgan holatlarni toʻgʻrilashning boshqa choralari amalga oshirishda ahamiyat kasb etuvchi omil sifatida koʻrishlari mumkin.

35-modda. Zararni qoplash (kompensatsiya)

Har bir Ishtirokchi-davlat oʻzining ichki qonunchiligining prinsiplariga muvofiq tarzda biron korrupsion harakat oqibatida zarar koʻrgan yuridik yoki jismoniy shaxslar koʻrilgan zararni qoplash maqsadida ushbu zarar uchun javobgar boʻlgan shaxslarga nisbatan ish qoʻzgʻatish huquqiga ega boʻlishlari uchun talab qilinishi mumkin boʻlgan chorani koʻradi.

36-modda. Ixtisoslashgan organlar

Har bir Ishtirokchi-davlat o'zining ichki huquqiy tizimining asosiy prinsiplariga muvofiq tarzda korrupsiya bilan huquqbuzarliklarga qarshi chora-tadbirlar yordamida kurashishga ixtisoslashgan organ yoki organlar yoxud shaxslar bo'lishini ta'minlaydi. Bunday organ yoki organlar yoxud shaxslar, Ishtirokchi-davlatning ichki huquqiy tizimining asosiy prinsiplariga muvofiq, o'z vazifalarini samarali va biron-bir yoki tegishli bo'lmagan ta'sirsiz bajarishlari uchun zarur bo'lgan mustaqillik bilan ta'minlanadilar. Bunday shaxslar yoki bu kabi organning xodimlari o'z vazifalarini bajarishlari uchun tegishli malaka va resurslarga ega bo'lishlari lozim.

37-modda. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik

1. Har bir Ishtirokchi-davlat mazkur Konvensiyada jinoyat deb tan olingan biron jinoyi xatti-harakatlarda ishtirok etayotgan yoki ishtirok etgan shaxslarni vakolatli organlar uchun tergov ishlarini olib borish va isbotlash maqsadida foydali bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etishga va jinoyatchilarni jinoyi daromadlardan mahrum qilishga va bu kabi daromadlarni qaytarish bo'yicha choralar ko'rilishiga ko'maklashuvchi amaliy va aniq yordam berishga rag'batlantirishni ko'zda tutuvchi tegishli choralarni ko'radi.

2. Har bir Ishtirokchi-davlat mazkur Konvensiyada jinoyat deb tan olingan biron jinoyi xatti-harakatlar bilan bog'liq tergov ishlari yoki jinoyatni fosh etish davomida salmoqli darajada hamkorlik qilgan ayblanuvchi shaxsga nisbatan qo'llaniladigan jazoni yumshatish imkoniyatini ko'zda tutilishi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqadi.

3. Har bir Ishtirokchi-davlat, o'zining ichki qonunchiligining eng muhim prinsiplariga muvofiq, mazkur Konvensiyada jinoyat deb tan olingan biron jinoyi xatti-harakatlar bilan bog'liq tergov ishlari yoki jinoyatni fosh etish davomida sezilarli va ahamiyatli darajada hamkorlik qilgan shaxsga nisbatan jinoyi ish qo'zg'atilmaligi imkoniyatini ko'zda tutilishi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqadi.

4. Bunday shaxslarning himoyasi, "mutatis mutandis", mazkur Konvensiyaning 32-moddasida ko'zda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

5. Mazkur moddaning 1-bandida ko'rsatilgan shaxs bir Ishtirokchi-davlat hududida bo'la turib, ikkinchi Ishtirokchi-davlatning vakolatli organlari bilan ahamiyatli darajada hamkorlik qila olsa, u holda manfaatdor Ishtirokchi-davlatlar o'zlarining ichki qonunchiliklariga muvofiq bunday shaxs uchun mazkur moddaning 2 va 3-bandlarida ko'rsatilgan rejim taqdim etilishi mumkinligi xususida kelishuv va bitimlar tuzish imkoniyatini ko'rib chiqishlari mumkin.

38-modda. Milliy organlar o'rtasidagi hamkorlik

Har bir Ishtirokchi-davlat ichki qonunchiligiga muvofiq bir tomondan o'zining ommaviy organlari, shuningdek ommaviy mansabdor shaxslari va ikkinchi tomondan, sodir etilgan jinoyatlar bo'yicha tergov ishlarini olib borishga va jinoyatni fosh etish uchun mas'ul bo'lgan organlar o'rtasidagi hamkorlikni rag'batlantirish uchun talab etilishi mumkin bo'lgan choralarni ko'radi. Bu kabi hamkorlik quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

a) agar mazkur Konvensiyaning 15, 21 va 23-moddalariga muvofiq jinoyat deb tan olingan istalgan xatti-harakatlar sodir etilganini e'tirof etish uchun oqilona asoslar mavjud bo'lsa, bunday mas'ul organlarga o'zining shaxsiy tashabbusi bilan ma'lumotlar taqdim etilishi; yoki

b) tegishli iltimosga ko'ra, bunday organlarga barcha zarur ma'lumotlarning taqdim etilishi.

39-modda. Milliy organlar va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik

1. Har bir Ishtirokchi-davlat o'zining ichki qonunchiligiga muvofiq milliy tergov organlari va prokuratura organlari hamda xususiy sektor tashkilotlari, xususan moliyaviy muassasalar bilan mazkur Konvensiyada jinoyat deb tan olingan jinoiy xatti-harakatlarning sodir etilishi bilan bog'liq masalalar bo'yicha hamkorlikni rag'batlantirish uchun talab etilishi mumkin bo'lgan choralarni ko'radi.

2. Har bir Ishtirokchi-davlat odatda o'zining hududida istiqomat qiluvchi o'z fuqarolari va boshqa shaxslar milliy tergov organlari va prokuratura organlariga mazkur Konvensiyada jinoyat deb tan olingan jinoiy xatti-harakatlarning sodir etilgani to'g'risida xabar berishlarini rag'batlantirish masalasini ko'rib chiqadilar.

40-modda. Bank siri

Har bir Ishtirokchi-davlat mazkur Konvensiyada jinoyat deb tan olingan jinoiy xatti-harakatlar sodir etilishi bilan bog'liq ichki jinoiy tergov ishlari olib borilayotgan holatlarda, bank siri to'g'risidagi qonunchilik holatlari qo'llanilishi natijasida yuzaga keluvchi to'siqlarni yengish uchun o'zining ichki huquqiy tizimi doirasida zarur tegishli mexanizmlar bo'lishini ta'minlaydi.

41-modda. Sudlanganlik to'g'risidagi ma'lumotlar

Har bir Ishtirokchi-davlat jinoyatni sodir etishda gumon qilinayotgan shaxsga nisbatan boshqa davlatda ilgari chiqarilgan istalgan ayblov hukmini, mazkur Konvensiyada jinoyat deb topilgan jinoiy xatti-harakatlar bilan bog'liq jinoiy tergov ishlar olib borilishida ushbu ma'lumotdan foydalanish uchun o'zi lozim deb topgan shartlar va maqsadlarda hisobga olishi uchun talab qilinishi mumkin bo'lgan qonuniy va boshqa choralar ko'rishini mumkin.

42-modda. Sudlovga ta'luqlilik (Yurisdiksiya)

1. Har bir Ishtirokchi-davlat mazkur Konvensiyada jinoyat deb topilgan jinoiy xatti-harakatlarga nisbatan o'zining sud qilish huquqini belgilash uchun talab qilinishi mumkin bo'lgan choralarni ko'radi, qachonki:

a) jinoyat ushbu Ishtirokchi-davlatning hududida sodir etilsa, yoki

b) jinoyat sodir etilishi ushbu Ishtirokchi-davlatning bayrog'i ostidagi kemada yoki jinoyat sodir etilishi vaqtida ushbu Ishtirokchi-davlat qonunchiligiga muvofiq ro'yxatdan o'tgan havo kemasi bortida ro'y bersa.

2. Ishtirokchi-davlat, shuningdek mazkur Konvensiyaning 4-moddasiga rioya qilish shartida istalgan jinoyatga nisbatan sud qilish huquqini belgilashi mumkin, qachonki:

a) jinoyat ushbu Ishtirokchi-davlat fuqarosiga nisbatan sodir etilgan bo'lsa, yoki

b) jinoyat ushbu Ishtirokchi-davlat fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan, odatda, uning hududida istiqomat qiluvchi shaxs tomonidan sodir etilgan bo'lsa, yoki

c) jinoyat mazkur Konvensiyaning 23-moddasi, 1(b)(ii)-bandiga muvofiq tan olingan jinoyatlarning biri hisoblansa va ushbu Ishtirokchi-davlat hududining tashqarisida mazkur Konvensiyaning 23-moddasi, 1(a)(i) yoki (ii) yoki (b)(i)-bandiga muvofiq jinoyat deb topilgan jinoiy xatti-harakatlarni sodir etish maqsadida uning hududida amalga oshirilgan bo'lsa, yoki

d) jinoyat ushbu Ishtirokchi-davlatga qarshi sodir etilgan bo'lsa.

3. Mazkur Konvensiyaning 44-moddasining maqsadlari uchun har bir Ishtirokchi-davlat jinoyatni sodir etishda gumon qilinayotgan shaxs uning hududi chegaralarida bo'lsa-da, lekin faqatgina o'zining fuqarolaridan biri bo'lganligi sababli ushbu shaxsni ushlab bermayotgan bo'lsa, u holda mazkur Konvensiyada jinoyat deb topilgan jinoiy xatti-harakatlarga nisbatan o'zining sud qilish huquqini belgilash uchun talab qilinishi mumkin bo'lgan choralarni ko'radi.

4. Har bir Ishtirokchi-davlat, shuningdek, jinoyatni sodir etishda gumon qilinayotgan shaxs uning hududi chegaralarida bo'lib, u ushbu shaxsni ushlab bermasa, mazkur Konvensiyada jinoyat deb topilgan jinoiy xatti-harakatlarga nisbatan o'zining sud qilish huquqini belgilash uchun talab qilinishi mumkin bo'lgan choralarni ham ko'rish mumkin.

5. Agar o'zining sud qilish huquqini mazkur moddaning 1- yoki 2-moddasiga ko'ra amalga oshiruvchi Ishtirokchi-davlat boshqa Ishtirokchi-davlatlar xuddi o'sha harakatlar xususida tekshiruv, jinoiy ish yoki sud ishi olib borayotganlari haqida bildirish xati olsa yoki boshqacha tarzda bu haqda xabar topsa, u holda ushbu Ishtirokchi-davlatlarning vakolatli organlari, tegishli holatlarda, o'z harakatlarini muvofiqlashtirish maqsadida bir-birlari bilan o'zaro maslahatlashadilar.

6. Mazkur Konvensiya, umumiy xalqaro huquq me'yorlariga zarar yetkazmagan holda, Ishtirokchi-davlat tomonidan o'zining ichki qonunchiligiga muvofiq belgilangan istalgan jinoiy sud huquqini amalga oshirilishini istisno etmaydi.

IV BOB. XALQARO HAMKORLIK

43-modda. Xalqaro hamkorlik

1. Ishtirokchi-davlatlar mazkur Konvensiyaning 44–50-moddalariga muvofiq jinoiy-huquqiy masalalar bo'yicha hamkorlik qiladilar. Ishtirokchi-davlatlar, agar bu maqsadga muvofiq bo'lsa va o'zlarining ichki qonunchilik tizimlariga to'g'ri kelsa, korrupsiya bilan bog'liq bo'lgan fuqarolik-huquqiy va ma'muriy ishlarni tekshirish va amalga oshirish bo'yicha bir-birlariga ko'maklashish imkoniyatini ko'rib chiqadilar.

2. Agar xalqaro hamkorlik masalalari bilan bog'liq holatlarda tegishli harakatni jinoyat deb ikki tomonlama tan olish prinsipiga rioya qilinishi talab etilsa, so'ralayotgan Ishtirokchi-davlatning qonunchiligi tegishli harakatni jinoyatlar toifasiga kiritish yoki kiritmasligi yoki so'rov berayotgan Ishtirokchi-davlat uni ta'riflashda so'ralayotgan Ishtirokchi-davlat qo'llaydigan atamalar kabi atamalar bilan ta'riflashi yoki ta'riflamasligidan qat'i nazar, agar jinoyat tarkibini tashkil qiluvchi harakat ikkala Ishtirokchi-davlatning qonunchiligiga muvofiq jinoiy jazoga loyiq deb tan olingan bo'lsa, ushbu prinsipga amal qilingan hisoblanadi.

44-modda. Ushlab berish

1. Ushbu modda mazkur Konvensiyada jinoyat deb tan olingan jinoiy xatti-harakatlarga nisbatan, agar ushlab berilishi lozim bo'lgan shaxs so'rov berilgan Ishtirokchi-davlat hududida bo'lsa va sodir etilgan xatti-harakat so'rov berilgan Ishtirokchi-davlatda ham, so'rov berayotgan Ishtirokchi-davlatda ham jinoiy jazoga loyiq deb topilishi shartida qo'llaniladi.

2. Ishtirokchi-davlat, mazkur moddaning 1-bandida keltirilgan holatlardan qat'i nazar, o'zining ichki qonunchiligida jinoiy jazoga loyiq deb topilmagan, lekin mazkur

Kovensiyada ko'zda tutilgan biron jinoyat bilan bog'liq shaxsni, agar uning qonunchiligi bunga yo'l qo'ysa, ushlab berishga ruxsat berishi mumkin.

3. Agar ushlab berish to'g'risidagi iltimos bir nechta alohida jinoyatlar xususida bo'lsa va ularning hech bo'lmaganda bittasi mazkur moddaga ko'ra ushlab berilishga olib kelsa, boshqalari esa jazo berilishi muddatlari bo'yicha ushlab berishni istisno qilsayu, lekin mazkur Kovensiyada jinoyat deb tan olingan xatti-harakatlar sirasiga kirsam, so'rov berilayotgan Ishtirokchi-davlat ushbu jinoyatlarga nisbatan ham mazkur moddani qo'llashi mumkin.

4. Mazkur modda qo'llaniladigan va ushlab berilishiga olib keladigan jinoyatlarning har biri ushlab berish to'g'risida Ishtirokchi-davlatlar o'rtasida tuzilgan istalgan shartnomaga jinoyat sifatida kiritilgan deb hisoblanadi. Ishtirokchi-davlatlar, bu kabi jinoyatlarni, ushlab berilishiga olib keladigan jinoyatlar sifatida ushlab berish to'g'risidagi o'zaro tuziladigan shartnomalarga kiritish majburiyatini oladilar. Ishtirokchi-davlat, agar ushlab berish uchun asos sifatida mazkur Kovensiyadan foydalansa, mazkur Kovensiyada jinoyat deb topilgan istalgan jinoyat xatti-harakatlarni, agar uning qonunchiligi bunga yo'l qo'ysa, siyosiy jinoyat deb tan olmaydi.

5. Agar Ishtirokchi-davlat ushlab berishni shartnoma mavjudligi bilan shartlab beradigan bo'lsa, ushlab berish to'g'risida u bilan shartnoma tuzmagan boshqa Ishtirokchi-davlatdan ushlab berish haqida iltimosnoma olganida, u mazkur modda qo'llaniladigan istalgan jinoyat bilan bog'liq ushlab berish uchun mazkur Konvensiyani asos sifatida qo'llashi mumkin.

6. Ushlab berishni shartnomaning mavjudligi sharti bilan beruvchi Ishtirokchi-davlat:

a) o'zining ratifikatsiya yorlig'ini yoki mazkur Konvensiyani qabul qilishi yoki tasdiqlashi yoxud unga qo'shilishi to'g'risidagi hujjatni saqlash uchun topshirayotganida ushlab berish masalalari bo'yicha boshqa Davlatlar – ushbu Konvensiyaning boshqa ishtirokchilari bilan hamkorlik qilish uchun mazkur Kovensiyadan huquqiy asos sifatida foydalanishi to'g'risida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga ma'lumot beradi.

b) agar u ushlab berish masalalari bo'yicha mazkur Konvensiyadan huquqiy asos sifatida foydalanmasa, u holda mazkur moddani qo'llash maqsadida mazkur Konvensiyaning boshqa Ishtirokchi-davlatlari bilan, tegishli holatlarda, ushlab berish to'g'risidagi shartnomalarni tuzishga intiladi.

7. Ushlab berishni shartnomaning mavjudligi bilan shartlamaydigan Ishtirokchi-davlatlar bir-birlarining o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda mazkur modda qo'llaniladigan jinoyatlarni ushlab berishga olib keladigan jinoyat xatti-harakatlar deb tan oladilar.

8. Ushlab berish so'ralayotgan Ishtirokchi-davlatning ichki qonunchiligida ko'zda tutilgan shartlarga, shu jumladan, boshqa holatlar bilan bir qatorda, ushlab berishga nisbatan minimal jazo belgilanishi talablari bilan bog'liq shartlarga va so'ralayotgan Ishtirokchi-davlat ushlab berishni rad etishi mumkin bo'lgan asoslarga muvofiq amalga oshiriladi.

9. Ishtirokchi-davlatlar, mazkur modda qo'llaniladigan istalgan jinoyatga nisbatan, o'zlarining ichki qonunchiliklariga rioya qilish shartida, ushlab berish tartibotini tezlashtirish va u bilan bog'liq bo'lgan isbot-dalillarni taqdim etishni soddalashtirish uchun barcha imkoniyatlarini ishga soladilar.

10. Ishtirokchi-davlat yuzaga kelgan vaziyat shuni talab qilishini va kechiktirib bo'lmaydigan ekanligiga amin bo'lib hamda so'rov berayotgan Ishtirokchi-davlatning

iltimosiga ko'ra, o'zining ichki qonunchiligidagi holatlarga va ushlab berish to'g'risidagi o'zi imzolagan shartnomalarga rioya qilgan holda, o'zining hududida bo'lgan va ushlab berilishi so'ralayotgan shaxsni hibsga olishi yoki ushlab berish tartiboti jarayonida uning bo'lishi uchun boshqa tegishli choralar ko'rishi mumkin.

11. Ishtirokchi-davlat, o'zining hududida bo'lgan va mazkur modda qo'llanilayotgan jinoyatni sodir etishda gumon qilinayotgan shaxsni faqatgina ushbu shaxs o'zining fuqarosi bo'lgani sababli ushlab bermayotgan bo'lsa, ushlab berishni so'rayotgan Ishtirokchi-davlatning iltimosiga ko'ra, tergov olib borish maqsadida, asosanmagan kechiktirishlarsiz ishni o'zining vakolatli organlariga topshirishi kerak. Ushbu organlar o'z qarorlarini qabul qiladilar va mazkur Ishtirokchi-davlatning ichki qonunchiligiga asoslangan holda xavfli tavsifga ega istalgan boshqa jinoyatlarga nisbatan bo'lgani kabi tergov ishlarini amalga oshiradilar. Manfaatdor Ishtirokchi-davlatlar bu kabi jinoiy ishlar yuzasidan olib boriladigan tergov ishlari samarali kechishini ta'minlash maqsadida bir-birlari bilan, xususan, protsessual masalalar va isbot qilish masalalari bo'yicha hamkorlik qiladilar.

12. Ishtirokchi-davlatga, uning ichki qonunchiligiga ko'ra, o'z fuqarolarining birini ushlab berishga yoki boshqa yo'l bilan topshirishga faqatgina, ushbu shaxsning ushlab berilishini yoki topshirilishini so'rash bilan bog'liq bo'lgan sud muhokamasi yoki tergov ishlari natijasida chiqarilgan jazoni o'tash uchun mazkur Ishtirokchi-davlatga qaytarib berilishi shartida ruxsat berilgan va bu Ishtirokchi-davlat hamda ushbu shaxsni ushlab berilishini so'rayotgan Ishtirokchi-davlat bu kabi tartibga va ular maqbul deb hisoblagan boshqa shartlarga rozi bo'lgan barcha holatlarda, ushbu shaxsning bunday shartli ravishda ushlab berilishi yoki topshirilishi mazkur moddaning 11-bandida belilangan majburiyat bajarilishi uchun yetarli hisoblanadi.

13. Chiqarilgan hukmni ijro etish maqsadida so'ralgan ushlab berishga qidirilayotgan shaxs so'rov berilayotgan Ishtirokchi-davlatning fuqarosi bo'lganligi bois rad javobi berilsa, so'rov berilayotgan Ishtirokchi-davlat, agar uning ichki qonunchiligi bunga yo'l qo'ysa va bu holat bunday qonunchilikning talablariga javob bersa, so'rov berayotgan Ishtirokchi-davlatning murojaatiga binoan so'rov berayotgan Ishtirokchi-davlatning ichki qonunchiligiga muvofiq chiqarilgan hukmni yoki hukmning qolgan qismini ijro etish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqadi.

14. Mazkur modda qo'llaniladigan istalgan jinoyatni sodir etganligi bilan bog'liq bo'lgan tergov ishlari borilayotgan shaxsga nisbatan tergov ishlarining barcha bosqichlarida adolatli munosabatda bo'linishi, shu jumladan ushbu shaxs joylashgan Ishtirokchi-davlatning ichki qonunchiligida ko'zda tutilgan barcha huquq va kafolatlarning amalga oshirilishi kafolatlanadi.

15. Agar so'rov berilayotgan Ishtirokchi-davlatda ushlab berish to'g'risidagi iltimos biron shaxsning jinsi, irqi, diniy e'tiqodi, etnik kelib chiqishi yoki siyosiy qarashlari sababli ta'qib qilish yoki jazolash maqsadida qilinayotgani yoki ushbu iltimosning qondirilishi yuqorida sanab o'tilgan sabablar bo'yicha ushbu shaxsning holatiga zarar yetkazishi mumkinligi haqida salmoqli va yetarli asoslar bo'lsa, u holda mazkur Konvensiyaning hech bir holati ushlab berish majburiyatini belgilaydigan tarzda talqin qilinmaydi.

16. Ishtirokchi-davlatlar ushlab berish to'g'risidagi iltimosga faqat jinoyat soliq masalalari bilan bog'liq deb topilgan holatlardagina rad eta olmaydilar.

17. So'rov berilayotgan Ishtirokchi-davlat, ushlab berishga rad javobini berishdan avval, o'z fikrini bayon etishi uchun yetarli imkoniyat va ushlab berish to'g'risidagi

iltimosda bayon etilgan dalillar bilan bog'liq ma'lumotlar taqdim etilishi uchun, tegishli holatlarda, so'rov berayotgan Davlat bilan maslahatlar o'tkazadi.

18. Ishtirokchi-davlatlar ushlab berishni amalga oshirish yoki samaradorligini oshirish maqsadida ikki tomonlama va ko'p tomonlama bitimlar yoki kelishuvlar tuzishga intiladilar.

45-modda. Hukm etilgan shaxslarni topshirish

Ishtirokchi-davlatlar mazkur Konvensiyada jinoyat deb tan olingan xatti-harakatlari uchun qamoq jazosiga yoki ozodlikdan mahrum etishning boshqa turlariga hukm qilingan shaxslarni, ular jazo muddatini o'zlarining hududida o'tashlarini ta'minlash maqsadida, topshirish to'g'risidagi ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama kelishuv va bitimlar tuzish imkoniyatlarini ko'rib chiqishlari mumkin.

46-modda. O'zaro huquqiy yordam

1. Ishtirokchi-davlatlar mazkur Konvensiya bilan qamrab olingan jinoyatlar bilan bog'liq tergov ishlari, jinoiy qidiruv ishlari va sud muhokamalarida bir-birlariga eng keng miqyosdagi o'zaro huquqiy yordam ko'rsatadilar.

2. So'rov berayotgan Ishtirokchi-davlatda, mazkur Konvensiyaning 26-moddasiga ko'ra, yuridik shaxs javobgarlikka tortilishi mumkin bo'lgan jinoyat bilan bog'liq tergov ishlari, jinoiy qidiruv ishlari va sud muhokamasi uchun zarur bo'lgan va tegishli qonunlarga, xalqaro shartnomalarga hamda so'rov berilayotgan Ishtirokchi-davlatning kelishuv va bitimlariga muvofiq ko'rsatilayotgan o'zaro huquqiy yordam imkon qadar maksimal hajmda taqdim etiladi.

3. Mazkur moddaga muvofiq taqdim etilayotgan o'zaro huquqiy yordam quyidagi maqsadlarning istalgani uchun so'ralishi mumkin:

- a) ayrim shaxslardan guvohlik ko'rsatmalari yoki arizalarni olish;
- b) sud hujjatlarini topshirish;
- c) tintuv o'tkazish va xatlash, shuningdek amaliyotlarni to'xtatib turish (muzlatish);
- d) obyektlar va hudud uchastkalarini tekshiruvdan o'tkazish;
- e) ma'lumotlarni, ashyoviy dalillar va ekspertlarning chiqargan xulosalarini taqdim etish;
- f) tegishli hujjat va materiallar, shu jumladan hukumat, bank, moliyaviy, korporativ yoki tijorat hujjatlarining asl nusxalari va tasdiqlangan nusxalarini taqdim etish;
- g) isbotlash maqsadlarida jinoiy daromadlar, mol-mulk, jinoyat sodir etish vositalari yoki boshqa predmetlarni aniqlash yoki kuzatish;
- h) tegishli shaxslarning so'rov berayotgan Ishtirokchi-davlatning organlariga ixtiyoriy ravishda kelishiga ko'maklashish;
- i) so'rov berayotgan Ishtirokchi-davlatning ichki qonunchiligiga zid bo'lmagan istalgan boshqa turdagi yordamni ko'rsatish;
- j) mazkur Konvensiyaning V bobida keltirilgan holatlarga muvofiq jinoiy daromadlarni aniqlash, ishga solmay turish va kuzatish;
- k) mazkur Konvensiyaning V bobida keltirilgan holatlarga muvofiq aktivlarni musodara qilish (muomaladan chiqarish).

4. Ishtirokchi-davlatning vakolatli organlari, ichki qonunchilikka zarar yetkazmagan va zid bo'lmagan holda, jinoiy-huquqiy masalalarga taalluqli ma'lumotlarni boshqa Ishtirokchi-davlatning vakolatli organiga, bunday ma'lumotlar ushbu organga tergov

ishlarini va jinoiy qidiruv ishlarini amalga oshirishga yoki muvaffaqiyatli yakunlashga yoki ushbu Ishtirokchi-davlat tomonidan murojaatnoma tuzilishiga olib kelishiga yordam berishi mumkin deb hisoblasalar, dastlabki murojaatsiz topshirishlari mumkin.

5. Mazkur moddaning 4-bandiga muvofiq ma'lumotning berilishi ma'lumotni taqdim etayotgan davlatning vakolatli organlari tergov ishlari va jinoiy ish olib borilishiga zarar yetkazmagan holda amalga oshiriladi. Ma'lumot olayotgan vakolatli organlar ushbu ma'lumotning maxfiy xususiyatga ega jihatlarini, hattoki, vaqtinchalik asosda saqlash to'g'risidagi iltimosni bajaradilar yoki undan foydalanishga qo'yilgan cheklovlarga rioya qiladilar. Biroq, bu holat, ma'lumotni olgan Ishtirokchi-davlatga o'zida olib borilayotgan ish davomida ayblanuvchini oqlaydigan ma'lumotlarni aniqlashga to'sqinlik qilmaydi. Bunday hollarda, ma'lumot olgan Ishtirokchi-davlat, ma'lumotni oshkor qilishdan avval ma'lumotni taqdim etgan Ishtirokchi-davlatga xabar beradi va, agar bu haqda murojaat olinsa, ma'lumot taqdim etgan Ishtirokchi-davlat bilan maslahatlashadi. Agar, kamdan-kam uchraydigan hollarda, avvaldan xabar berishning imkoni bo'lmasa, ma'lumot olayotgan Ishtirokchi-davlat bu kabi oshkor etilish to'g'risida ma'lumot taqdim etayotgan Ishtirokchi-davlatga xabar beradi.

6. Mazkur moddaning holatlari biron boshqa, xoh ikki tomonlama, xoh ko'p tomonlama bo'lishidan qat'i nazar, o'zaro huquqiy yordamni to'liq yoki qisman muvofiqlashtiruvchi yoxud muvofiqlashtiradigan shartnoma bo'yicha majburiyatlarga taalluqli emas.

7. Mazkur moddaning 9–29-bandlari, agar tegishli Ishtirokchi-davlatlar o'zaro huquqiy yordam to'g'risidagi biron-bir shartnoma tuzmagan bo'lsalar, ushbu moddaga asosan jo'natilgan murojaatlarga nisbatan qo'llaniladi. Agar Ishtirokchi-davlatlar bu kabi shartnoma tuzgan bo'lsalar va Ishtirokchi-davlatlar ushbu shartnomaning tegishli holatlari o'rniga mazkur moddaning 9–29-bandlarini qo'llashga rozi bo'lmasalar, u holda shartnomaning aynan shu holatlari qo'llaniladi. Ishtirokchi-davlatlarga, agar bu hamkorlikka ko'mak beradigan bo'lsa, aynan shu bandlarni qo'llash tavsiya qilinadi.

8. Ishtirokchi-davlatlar bank sirini maxfiy tutishga asoslangan holda, mazkur moddaga ko'ra, o'zaro huquqiy yordam taqdim etilishini rad etmaydilar.

9. a) So'rov berilayotgan Ishtirokchi-davlat, agar tegishli xatti-harakat jinoyat deb ikki taraflama tan olinmagan bo'lsa, mazkur moddaga ko'ra yordam berilishi to'g'risida qilingan murojaatga javob berishda mazkur Konvensiyaning 1-moddasida ko'rsatilgan maqsadlarni e'tiborga oladi;

b) Ishtirokchi-davlatlar tegishli xatti-harakat jinoyat deb ikki taraflama tan olinmaganiga asoslangan holda mazkur moddaga ko'ra yordam taqdim etilishidan bosh tortishlari mumkin. Shu bilan birga, so'rov berilayotgan Ishtirokchi-davlat, huquqiy tizimlarining asosiy konsepsiyalariga muvofiq bo'lishi shartida va, agar bunday yordam majburiy choralari ko'rilishi bilan bog'liq bo'lmasa, yordamni taqdim etadi. Agar murojaat de minimis xususiyatiga ega bo'lgan masalalar bilan bog'liq bo'lsa yoki so'ralayotgan hamkorlik yoxud yordam mazkur Konvensiyaning boshqa holatiga muvofiq ta'minlanishi mumkin bo'lsa, bu kabi yordamning ko'rsatilishiga rad javobi berilishi mumkin;

c) har bir Ishtirokchi-davlat tegishli xatti-harakat jinoyat deb ikki taraflama tan olinmaganida mazkur moddaga binoan yordam ko'rsatishga qodir bo'lishi uchun talab qilinishi mumkin bo'lgan choralarni qabul qilish imkoniyatlarini ko'rib chiqishi mumkin.

10. Hibsga olingan va bir Ishtirokchi-davlat hududida qamoq muddatini o'tayotgan shaxsning mazkur Konvensiyada qamrab olingan jinoyatlar bilan bog'liq bo'lgan shaxsni aniqlanish, guvohlik berish yoki tergov ishi, ko'rilayotgan jinoiy ish uchun isbot-dalillar

olish maqsadlarida boshqa Ishtirokchi-davlatda bo'lishi talab qilinayotgan bo'lsa, u holda quyidagi talablarga rioya qilish sharti bilan ushbu shaxs boshqa Ishtirokchi-davlatga topshirilishi mumkin:

a) ushbu shaxs bunga o'zining ongli tarzda roziligini bersa;

b) ikkala Ishtirokchi-davlatning vakolatli organlari ushbu Davlatlar tegishli deb topishlari mumkin bo'lgan shartlarda kelishuvga erishsalar.

11. Mazkur moddaning 10-bandi maqsadlari uchun:

a) topshirilgan shaxsni qabul qilgan Ishtirokchi-davlat, agar ushbu shaxsni topshirgan Ishtirokchi-davlat boshqa choralarda qo'llanilishini so'ramagan yoki ruxsat bermagan bo'lsa, bu shaxsni qamoqda saqlashga haqli va qamoqda saqlashi lozim;

b) topshirilayotgan shaxsni qabul qilib olgan Ishtirokchi-davlat ushbu shaxsni topshirgan Ishtirokchi-davlatga qaytarib berish bo'yicha o'z majburiyatini avvalroq kelishib olinganidek yoki ikkala Ishtirokchi-davlatlarning vakolatli organlari tomonidan boshqacha tarzda kelishib olinganidek zudlik bilan bajaradi;

c) topshirilayotgan shaxsni qabul qilib olgan Ishtirokchi-davlat ushbu shaxsni topshirgan Ishtirokchi-davlatdan topshirish yoki qaytarish tartibotini qo'zg'atishni talab qilmaydi;

d) topshirilgan shaxsning uni topshirgan davlatda o'tayotgan qamoq muddatiga topshirilgan Ishtirokchi-davlatdagi uning qamoqda bo'lgan muddati ham qo'shiladi.

12. Mazkur moddaning 10 va 11-bandlariga muvofiq biron shaxsni topshirishi lozim bo'lgan Ishtirokchi-davlatning roziligisiz, topshirilayotgan davlat hududida ushbu shaxsning, fuqaroligi qanday bo'lishidan qat'i nazar, uni topshirgan davlat hududidan ketishidan avvalgi vaqt oralig'iga taalluqli bo'lgan harakatlar, bajarilmagan harakatlar yoki hukm chiqarilishi bilan bog'liq bo'lgan ta'qib qilinishiga, qamoqqa olinishiga, jazolanishiga yoki shaxsiy ozodligining boshqa cheklanishlariga yo'l qo'yilmaydi.

13. Har bir Ishtirokchi-davlat o'zaro huquqiy yordam berilishi haqidagi murojaatlarni qabul qilishga yoki ularni bajarishga yoxud ularni bajarish uchun vakolatli organlarga jo'natishga mas'ul va tegishli vakolatlarga ega bo'lgan markaziy organni tayinlaydi. Agar Ishtirokchi-davlatda o'zaro huquqiy yordam ko'rsatishning alohida tizimiga ega maxsus hudud yoki mintaqa bo'lsa, u ushbu hudud yoki mintaqada xuddi shunday vazifalarni bajaruvchi alohida markaziy organni tayinlashi mumkin. Markaziy organlar qabul qilingan murojaatlarni tezkor va tegishli tarzda bajarilishi yoki jo'natilishini ta'minlaydilar. Agar markaziy organ murojaatni bajarish uchun vakolatli organga jo'natayotgan bo'lsa, ushbu murojaat vakolatli organ tomonidan tezkor va tegishli ravishda bajarilishiga ko'maklashadi. Har bir Ishtirokchi-davlat o'zining ratifikasiya yorlig'ini yoki mazkur Konvensiyani qabul qilishi yoki tasdiqlashi yoki unga qo'shilishi to'g'risidagi hujjatini saqlash uchun topshirayotganida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi ushbu maqsadlarda tayinlangan markaziy organ haqida xabardor qilinadi. O'zaro huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risidagi iltimoslar va ularga taalluqli istalgan xabarlar Ishtirokchi-davlatlar tayinlangan markaziy organlar tomonidan jo'natiladi. Bu talab Ishtirokchi-davlatning bunday murojaatlar va xabarlarni diplomatik kanallari orqali va favqulodda vaziyatlarda, Ishtirokchi-davlatlar bu haqda avvaldan kelishib olgan bo'lsalar va, agar buning imkoni bo'lsa, Jinoiy politsiyaning xalqaro tashkiloti orqali unga yetkazilishini talab qilishdek huquqini cheklamaydi.

14. Murojaatlar yozma ko'rinishda yoki, agar buning imkoni bo'lsa, so'rov berilayotgan Ishtirokchi-davlat uchun maqbul bo'lgan tilda yozma matn tuzishning

va ushbu Ishtirokchi-davlatga uning asliga to'g'ri ekanligini aniqlash imkoniyatini beruvchi shartlarda istalgan vositalar yordamida jo'natiladi. Ratifikasiya yorlig'i yoki mazkur Konvensiyani qabul qilishi yoki tasdiqlashi yoki unga qo'shilishi to'g'risidagi hujjat saqlash uchun topshirilayotganida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi har bir Ishtirokchi-davlat uchun maqbul bo'lgan til yoki tillar to'g'risida xabardor qilinadi. Favqulodda vaziyatlarda va, agar Ishtirokchi-davlatlar tomonidan bu haqda avvaldan kelishib olingan bo'lsa, murojaatlar og'zaki ko'rinishda jo'natilishi mumkin, lekin bu og'zaki murojaatlar zudlik bilan yozma ravishda tasdiqlanadi.

15. O'zaro huquqiy yordam ko'rsatilishi to'g'risidagi murojaatda quyidagilar ko'rsatiladi:

a) iltimos bilan murojaat qilayotgan organning nomlanishi;

b) masalaning mohiyati va murojaatga taalluqli tekshiruv ishlari, qo'zg'atilgan jinoiy ish yoki sud muhokamasining tavsifi, shuningdek bu tekshiruv ishlari, qo'zg'atilgan jinoiy ish yoki sud muhokamasini amalga oshirayotgan organning nomlanishi va vazifalari;

c) sudga oid hujjatlarni topshirish bilan bog'liq iltimoslarni istisno qilganda, tegishli dalillarning qisqacha bayoni;

d) so'ralayotgan yordamning ta'rifi va so'rov berayotgan Ishtirokchi-davlat rioya qilinishi ta'minlanishini xohlayotgan istalgan aniq tartibot to'g'risida batafsil ma'lumot;

e) imkon boricha, istalgan tegishli shaxsning joylashgan yeri, fuqaroligi va shaxsi to'g'risidagi ma'lumotlar; va

f) dalillar, ma'lumot yoki choralar so'ralishidan maqsad.

16. So'rov berilayotgan Ishtirokchi-davlat qo'shimcha ma'lumotni, agar bu ma'lumot uning ichki qonunchiligiga muvofiq iltimos bajarilishi uchun zarur bo'lsa yoki agar bu ma'lumot bunday iltimos bajarilishini yengillashtiradigan bo'lsa, ularni so'rashi mumkin.

17. Iltimos so'rov berilayotgan Ishtirokchi-davlatning ichki qonunchiligiga muvofiq va so'rov berayotgan Ishtirokchi-davlatning ichki qonunchiligiga zid bo'lmagan darajada hamda, imkon qadar iltimosda ko'rsatilgan tartibotlariga binoan bajariladi.

18. Agar biron-bir shaxs Ishtirokchi-davlat hududida bo'lsa va guvoh yoki ekspert sifatida boshqa Ishtirokchi-davlatning sud organlariga guvohlik yoki ko'rsatma berishi kerak bo'lib va tegishli shaxsning so'rov berayotgan Ishtirokchi-davlatning hududida bo'lishining imkoni bo'lmasa yoki Ishtirokchi-davlatning hududida bo'lishi maqsadga muvofiq bo'lmasa, guvohlik yoki ko'rsatma berilishini, imkoniyat darajasida va ichki qonunchilikning eng muhim prinsiplariga muvofiq holda, birinchi Ishtirokchi-davlat boshqa Ishtirokchi-davlatning iltimosiga ko'ra videoaloqa yordamida amalga oshirishi mumkin. Ishtirokchi-davlatlar guvohlik va ko'rsatmalar berilishini so'rov berayotgan Ishtirokchi-davlatning sud organlari so'rov berilayotgan Ishtirokchi-davlatning sud organlari ishtirokida o'tkazishi to'g'risida kelishib olishlari mumkin.

19. So'rov berayotgan Ishtirokchi-davlat so'rov berilayotgan Ishtirokchi-davlat tomonidan taqdim etilgan ma'lumot va isbot-dalillardan, so'rov berilayotgan Ishtirokchi-davlatning avvaldan bergan roziligisiz, murojaatnomada ko'rsatilgan tergov ishlari yoki sud muhokamasidan boshqa tergov ishlari yoki sud muhokamasida foydalanmaydi. Mazkur bandedagi hech qanday holat so'rov berayotgan Ishtirokchi-davlat tomonidan uning hududida o'tayotgan tergov va tekshiruv ishlari jarayonida ayblanuvchini oqlovchi ma'lumotlar yoki isbot-dalillarni aniqlanishiga to'sqinlik qilmaydi. Bunday holatlarda, so'rov berayotgan Ishtirokchi-davlat, ma'lumotlar yoki isbot-dalillarni aniqlashdan avval, so'rov berilayotgan Ishtirokchi-davlatni bu haqda xabardor qiladi va, agar

maslahatlashish to'g'risida iltimos qilingan bo'lsa, so'rov berilayotgan Ishtirokchi-davlat bilan maslahatlar o'tkazadi. Agar, istisno qilingan holatlarda, avvaldan xabar berishning imkoni bo'lmasa, u holda so'rov berayotgan Ishtirokchi-davlat bu kabi oqlovchi ma'lumotlar yoki isbot-dalillar aniqlanganligi haqida zudlik bilan so'rov berilayotgan Ishtirokchi-davlatga xabar beradi.

20. So'rov berayotgan Ishtirokchi-davlat murojaatning bajarilishi uchun zarur bo'lgan narsalarni istisno qilganda, uning mavjudligi va uning mohiyati oshkora qilinmasligini so'rov berilayotgan Ishtirokchi-davlatdan talab qilishi mumkin. Agar so'rov berilayotgan Davlat oshkor qilinmaslik to'g'risidagi talabni bajara olmaydigan bo'lsa, u holda so'rov berayotgan Ishtirokchi-davlatni darhol bu to'g'risida xabardor qiladi.

21. O'zaro huquqiy yordam ko'rsatilishiga quyidagi holatlarda rad etilishi mumkin:

a) agar murojaat mazkur moddaning holatlariga muvofiq bo'lmagan tarzda berilsa;

b) agar so'rov berilayotgan Ishtirokchi-davlat murojaatning bajarilishi uning suvereniteti, xavfsizligi, ommaviy tartibiga yoki boshqa hayotiy muhim manfaatlariga zarar yetkazadi deb hisoblasa;

c) agar so'rov berilayotgan Ishtirokchi-davlatning ichki qonunchiligi istalgan bu kabi jinoyatga nisbatan, agar bunday jinoyat uning sud qilish huquqlari chegarasida olib boriladigan tekshiruv, tergov ishlari yoki sud muhokamasining predmeti hisoblanib, so'ralayotgan choralarni amalga oshirishni taqiqlaydigan bo'lsa;

d) agar murojaatning bajarilishi so'rov berilayotgan Davlatning huquqiy tizimidagi o'zaro huquqiy yordam masalalariga taalluqli qismiga zid bo'lsa.

22. Ishtirokchi-davlatlar o'zaro huquqiy yordam to'g'risidagi murojaatni faqat jinoyat, soliq masalalari bilan bog'liq deb hisoblangani sababli rad etishi mumkin emas.

23. O'zaro huquqiy yordam taqdim etilishiga nisbatan bildirilgan rad javoblarining barchasi asoslab berilishi lozim.

24. So'rov berilayotgan Ishtirokchi-davlat o'zaro huquqiy yordam ko'rsatilishi haqidagi murojaatni imkon qadar qisqa muddatlarda bajaradi va so'rov berayotgan Ishtirokchi-davlat tomonidan taklif qilinayotgan va, birinchi navbatda, murojaatning o'zida asosan berilgan istalgan eng qisqa muddatlarni imkon boricha to'liq hisobga oladi. So'rov berayotgan Ishtirokchi-davlat so'rov berilayotgan Ishtirokchi-davlat tomonidan uning iltimosini qondirish uchun ko'rilayotgan choralar maqomi va iltimosning bajarilishi bo'yicha ma'lumotlar taqdim etilishi to'g'risidagi oqilona so'rovlar bilan murojaat qilishi mumkin. So'rov berayotgan Ishtirokchi-davlat so'ralgan yordam zarurati qolmaganligi to'g'risida tezkor ravishda so'rov berilayotgan Ishtirokchi-davlatni xabardor qiladi.

25. O'zaro huquqiy yordam ko'rsatilishi amalga oshirilayotgan tekshiruv, jinoiy tergov ishlari yoki sud muhokamasiga to'sqinlik qilishi mumkinligi bilan asoslangan holda, so'rov berilayotgan Ishtirokchi-davlat tomonidan kechiktirilishi mumkin.

26. Mazkur moddaning 21-bandiga asosan iltimosga rad javobini berishdan yoki ushbu moddaning 25-bandiga asosan iltimos bajarilishini kechiktirishdan avval so'rov berilayotgan Ishtirokchi-davlat so'rov berayotgan Ishtirokchi-davlat tomonidan zarur deb topilgan shart va muddatlarda yordam ko'rsatilishi mumkinligini aniqlash maqsadida so'rov berayotgan Ishtirokchi-davlat bilan maslahatlashadi. Agar so'rov berayotgan Ishtirokchi-davlat bu kabi shartlarda yordam ko'rsatilishiga rozi bo'lsa, u holda bu shartlarga rioya qiladi.

27. So'rov berayotgan Ishtirokchi-davlatning iltimosiga ko'ra ushbu davlatning hududida o'tkazilayotgan tergov ishlarini amalga oshirishda yoki sud muhokamasida ko'rsatmalar berishga rozilik bergan guvoh, ekspert yoki boshqa shaxsning, mazkur moddaning 12-bandi qo'llanilishiga zarar yetkazmagan holda, uni topshirgan davlat hududidan ketishidan avvalgi vaqt oralig'iga taalluqli bo'lgan harakatlar, bajarilmagan harakatlar yoki hukm chiqarilishi bilan bog'liq bo'lgan ta'qib qilinishiga, qamoqqa olinishiga, jazolanishiga yoki shaxsiy ozodligining boshqa cheklanishlariga yo'l qo'yilmaydi. Agar guvoh, ekspert yoki boshqa shaxs, uning ushbu hududda bo'lishi sud organlariga talab qilinmasligi haqida rasmiy ravishda xabardor qilingan kundan boshlab ketma-ket o'n besh kun davomida yoki Ishtirokchi-davlatlar o'zaro kelishib olgan muddat davomida so'rov berayotgan Ishtirokchi-davlat hududidan chiqib ketish imkoniyatiga ega bo'lsa-da, lekin o'z ixtiyori bilan ushbu hududda qolsa yoki o'zining xohishiga ko'ra yana qaytib kelsa, u holda bunday shaxsiy xavfsizlik kafolatining amal qilishi tugaydi.

28. Murojaatni bajarish bilan bog'liq odatdagi xarajatlar, agar manfaatdor Ishtirokchi-davlatlar boshqa shartlar to'g'risida kelishib olmagan bo'lsalar, so'rov berayotgan Ishtirokchi-davlat tomonidan qoplanadi. Agar murojaatning bajarilishi jiddiy va favqulodda xarajatlarni talab qiladigan bo'lsa, Ishtirokchi-davlatlar murojaat qaysi shartlarda bajarilishi, shuningdek, xarajatlarni qoplash tartibi xususida maslahatlashib oladilar.

29. So'rov berilayotgan Ishtirokchi-davlat:

a) so'rov berayotgan Ishtirokchi-davlatga o'zida mavjud bo'lgan va ichki qonunchiligiga muvofiq ommaviy tarzda foydalanishga ruxsat berilgan hukumat tomonidan chiqarilgan materiallar, hujjatlar yoki ma'lumotlarning nusxalarini taqdim etadi;

b) o'zi lozim topgan hollarda so'rov berayotgan Ishtirokchi-davlatga, o'zi tegishli deb topgan shartlarga rioya qilish shartida o'zida mavjud bo'lgan va ichki qonunchiligiga muvofiq ommaviy tarzda foydalanishga ruxsat etilmagan hukumat tomonidan chiqarilgan materiallar, hujjatlar yoki ma'lumotlarning nusxalarini to'liq yoki qisman taqdim etadi.

30. Ishtirokchi-davlatlar, zarurat tug'ilishiga qarab, ushbu modda maqsadlariga javob beruvchi, uning amal qilishini ta'minlovchi yoki tutgan o'rnini mustahkamlovchi ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama kelishuvlar tuzish imkoniyatini ko'rib chiqadilar.

47-modda. Jinoiy ish yurituvini topshirish

Ishtirokchi-davlatlar mazkur Konvensiyada jinoyat deb tan olingan xatti-harakatlar munosabati bilan yuritilayotgan tekshiruv ishlarini, bu kabi o'zaro topshirishlar odil sudlov tegishli tarzda amalga oshirilishi manfaatlariga javob beradi deb hisoblansa, xususan, agar jinoiy ishlarni birlashtirish uchun bir nechta yurisdiksiyaga murojaat qilinishi lozim bo'lsa, o'zaro topshirish imkoniyatlarini ko'rib chiqadilar.

48-modda. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasidagi hamkorlik

1. Ishtirokchi-davlatlar mazkur Konvensiyada qamrab olingan jinoyatlarga qarshi kurashish uchun qo'llaniladigan qonuniy choralar samaradorligini oshirish maqsadida, o'zlarining ichki huquqiy va ma'muriy tizimlariga muvofiq tarzda, bir-birlari bilan yaqindan hamkorlik qiladilar. Ishtirokchi-davlatlar, xususan, quyidagilarga qaratilgan samarali choralarni ko'radilar:

a) mazkur Konvensiyada qamrab olingan jinoyatlarning barcha jihatlari to'g'risida, jumladan, agar Ishtirokchi-davlatlar buni zarur deb topsalar, jinoiy faoliyatning boshqa turlari bo'yicha ma'lumotlarning ishonchli va tezkor almashinuvini ta'minlash maqsadida Ishtirokchi-davlatlarning vakolatli organlari, muassasalari va xizmatlari o'rtasida aloqa kanallarini mustahkamlash va zarur bo'lgan holatlarda bu kabi aloqani o'rnatish;

b) mazkur Konvensiyada qamrab olingan jinoyatlar bilan bog'liq bo'lgan tekshiruv ishlarini olib borishda quyidagilarni aniqlash maqsadida hamkorlik qilish:

i) bu kabi jinoyatlarni sodir etishda gumon qilinayotganlarning shaxsi, joylashgan yeri va faoliyati yoki boshqa aloqador shaxslarning joylashgan yeri;

ii) bu kabi jinoyatlar sodir etilishi natijasida orttirilgan jinoiy daromadlar yoki mol-mulkning ko'chishi, joyini o'zgartirishi;

iii) bu kabi jinoyatlarni sodir etishda foydalanilgan yoki foydalanish uchun mo'ljallangan mol-mulk, uskunalar yoki boshqa vositalarning joydan joyga ko'chishi.

c) lozim bo'lgan holatlarda tahlil qilish yoki tekshiruv o'tkazish maqsadida zarur predmetlar yoki zarur bo'lgan miqdorda moddalarni taqdim etish;

d) zarur holatlarda boshqa Ishtirokchi-davlatlar bilan mazkur Konvensiyada qamrab olingan jinoyatlarni sodir etishda qo'llaniladigan aniq vositalar va usullar, jumladan qalbaki shaxsiy guvohnomalar, qalbaki, o'zgartirilgan yoki soxta hujjatlar va faoliyatini yashirishda qo'llaniladigan boshqa vositalar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan almashish;

e) ularning vakolatli organlari, muassasalari va xizmatlari o'rtasidagi samarali muvofiqlashtirishga ko'maklashish va xodimlar hamda boshqa ekspertlar bilan almashish, shu jumladan, manfaatdor Ishtirokchi-davlatlar tomonidan ikki tomonli kelishuvlar va bitimlar tuzilishi shartida aloqa bo'yicha xodimlarni jo'natish;

f) axborot almashinuvi va, lozim bo'lgan holatlarda, mazkur Konvensiyada qamrab olingan jinoyatlarni avvaldan aniqlash maqsadida qo'llaniladigan ma'muriy va boshqa choralarni muvofiqlashtirish.

2. Mazkur Konvensiyaning amaliy qo'llanilishi maqsadida Ishtirokchi-davlatlar o'zlarining huquqni muhofaza qiluvchi organlari bir-birlari bilan bevosita hamkorlik qilishlari to'g'risidagi ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama kelishuv va bitimlarni tuzish, agar bunday kelishuv va bitimlar mavjud bo'lgan holatlarda esa ularga o'zgartishlar kiritish imkoniyatini ko'rib chiqadilar. Manfaatdor Ishtirokchi-davlatlar o'rtasida bu kabi kelishuv va bitimlar mavjud bo'lmasa, ishtirokchilar mazkur Konvensiyani huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ushbu Konvensiya qamrab olgan jinoyatlarga qarshi kurashishdagi o'zaro hamkorligi uchun asos sifatida ko'rishlari mumkin. Ishtirokchi-davlatlar, lozim bo'lgan holatlarda, o'zlarining huquqni muhofaza qiluvchi organlari o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish uchun kelishuv va bitimlardan, shu jumladan, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarning mexanizmlaridan to'liqligicha foydalanadilar.

3. Ishtirokchi-davlatlar o'z imkoniyatlari doirasida, mazkur Konvensiyada qamrab olingan va zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish uchun hamkorlik qilishga intiladilar.

49-modda. Birgalikdagi tergov ishlari

Ishtirokchi-davlatlar bitta yoki bir nechta davlatlarda olib borilayotgan jinoiy ta'qib yoki sud muhokamasi uchun umumiy hisoblangan jinoyatlar bo'yicha birgalikdagi tergovni olib borish bo'yicha organlar tuzish to'g'risidagi manfaatdor vakolatli organlar

o'rtasida ikki tomonlama yoki ko'ptomonlama kelishuv yoxud bitimlarni tuzish imkoniyatini ko'rib chiqadilar. Bu kabi kelishuv yoki bitimlar bo'lmagan taqdirda, birgalikdagi tergov ishlari har bir alohida holat uchun tuzilgan kelishuv asosida olib boriladi. Tegishli Ishtirokchi-davlatlar hududida bunday tekshiruv va tergov ishlari olib borilayotgan Ishtirokchi-davlatning suvereniteti to'liq hurmat qilinishini ta'minlaydilar.

50-modda. Tergovning maxsus metodlari

1. Korrupsiyaga qarshi samarali kurashish maqsadida har bir Ishtirokchi-davlat ichki huquqiy tizimidagi eng muhim prinsiplari yo'l qo'yadigan darajada va uning ichki qonunchiligida belgilangan shartlarda, o'zining vakolatli organlari tomonidan tegishli tarzda nazorat ostida yetkazib berishga va o'zi lozim deb topgan holatlarda esa, elektron kuzatuv yoki kuzatuvning boshqa shakllarini qo'llashga, shuningdek o'zining hududida amalga oshiriladigan agentura operatsiyalari kabi tekshiruv ishlarini olib borishning maxsus metodlaridan, tegishli tarzda foydalanishga, bu kabi metodlar yordamida to'plangan dalillar sudga qo'yilishiga ruxsat berilishi uchun talab qilinishi mumkin bo'lgan choralarni ko'radi.

2. Mazkur Konvensiyada qamrab olingan jinoyatlar bo'yicha tekshiruv olib borish maqsadida, zarurat mavjud bo'lgan hollarda, tekshiruvning bunday maxsus metodlaridan xalqaro miqyosda hamkorlik qilish kontekstida foydalanish uchun Ishtirokchi-davlatlar tomonidan ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama kelishuv yoxud bitimlar tuzishi rag'batlantiriladi. Bunday kelishuv yoki bitimlar davlatlarning suveren tenghuquqlik prinsipiga to'la rioya qilgan holda tuziladi va amalga oshiriladi hamda ushbu kelishuv yoki bitimlarning shartlariga qat'iy amal qilgan holda qo'llaniladi.

3. 2-bandda ko'rsatilgan kelishuv va bitimlar mavjud bo'lmaganda tekshiruvning bunday maxsus metodlaridan xalqaro miqyosda foydalanish to'g'risidagi qaror har bir alohida holat uchun qabul qilinishi mumkin va, zarurat tug'ilganida, moliyaviy kelishuvlar hamda sud qilish huquqini amalga oshirishda manfaatdor Ishtirokchi-davlatlarning hamjihatligini hisobga oladi.

4. Nazorat ostida yetkazib berishdan halqaro miqyosda foydalanish to'g'risidagi qarorlar manfaatdor Ishtirokchi-davlatlarning roziligi bilan, yuklarni ushlab olib qolish va ularga tegmasdan qoldirish yoki ularni to'liq yoxud qisman muomaladan chiqarish yoki almashtirish kabi metodlarni o'z ichiga olishi mumkin.

V BOB. AKTIVLARNI QAYTARISH BO'YICHA CHORALAR

51-modda. Umumiy qoidalar

Mazkur bobga asosan aktivlarning qaytarilishi o'z mohiyatiga ko'ra ushbu Konvensiyaning eng muhim prinsipi hisoblanadi va Ishtirokchi-davlatlar bu yo'nalishda bir-birlari bilan keng miqyosda va yaqindan hamkorlik qiladilar hamda bir-birlariga yordam ko'rsatadilar.

52-modda. Jinoiy daromadlar boshqa joyga o'tkazilishini oldini olish va aniqlash

Har bir Ishtirokchi-davlat, mazkur Konvensiyaning 14-moddasiga zarar yetkazmagan holda, o'zining yurisdiksiyasi daxl qilishi mumkin bo'lgan moliya muassasalaridan mijozlar shaxsini aniqlashni, katta hajmdagi mablag'lar jamlangan hisob raqamlarida deponentlangan benefitsar mablag'lar egalarining shaxsini aniqlash uchun oqilona

choralarni ko'rishni, katta miqyosdagi va ahamiyatli ommaviy vakolatlarga bugungi kunda ega yoki avvalroq ega bo'lgan shaxslar, ularning oila a'zolari va ular bilan yaqindan aloqa qiladigan hamkorlar yoki yuqorida sanab o'tilgan shaxslar nomidan ochilmoqchi bo'lgan yoki olib borilayotgan hisob raqamlarini yanada kuchliroq nazorat qilinishini talab qilish uchun ushbu Ishtirokchi-davlatning ichki qonunchiligiga muvofiq talab qilinishi mumkin bo'lgan choralarni ko'radi. Bunday qat'iy choralar shubhali operatsiyalarni oqilona darajada aniqlash uchun qaratilgan bo'lib, vakolatli organlarga tegishli ma'lumotlar yetkazilishi uchun mo'ljallangan va moliya muassasasi istalgan qonuniy mijoz bilan ish yuritishiga to'sqinlik qiladigan yoki taqiqlaydigan tarzda talqin etilmasligi lozim.

2. Mazkur moddaning 1-bandida nazarda tutilgan choralar amalga oshirilishiga ko'maklashish maqsadida har bir Ishtirokchi-davlat o'zining ichki qonunchiligiga muvofiq hamda pul mablag'larini halolab olish bo'yicha mintaqaviy, mintaqalararo va ko'p tomonlama tashkilotlarning tegishli tashabbuslariga tayangan holda:

a) hisob raqamlariga o'zining yurisdiksiyasi daxl qiladigan moliya muassasalari tomonidan nazoratning yana-da qat'iyroq choralari ko'rilishi kutilayotgan jismoniy va yuridik shaxslarning toifalariga, alohida e'tibor berilishi lozim bo'lgan hisob raqamlari va operatsiyalarning turlariga, hamda hisob raqamlarini ochish va yuritish bo'yicha tegishli choralarga, shuningdek shu kabi hisob raqamlariga nisbatan qabul qilinuvchi hisob raqamlari bo'yicha olib boriladigan hisobot va moliyaviy hujjatlarga nisbatan tavsiyaviy ko'rsatmalar chiqaradi, va

b) tegishli holatlarda, o'zining yurisdiksiyasi daxl qiladigan moliya muassasalarini boshqa Ishtirokchi-davlatning iltimosi yoki o'ziing tashabbusiga ko'ra, bu kabi moliya muassasalari tomonidan nazoratning yanada qat'iyroq choralari ko'rilishi kutilayotgan hisob raqamlariga ega aniq jismoniy yoki yuridik shaxslar, moliya muassasasi tomonidan boshqacha tartibda aniqlanishi mumkin bo'lgan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarga qo'shimcha qilgan holda, xabardor qiladi.

3. Har bir Ishtirokchi-davlat, mazkur moddaning 2 (a)-bandi kontekstida o'zining moliya muassasalari, ushbu moddaning 1-bandida qayd etilgan shaxslarga daxldor bo'lgan hisob raqamlari va operatsiyalar to'g'risidagi va tarkibida kamida mijozning shaxsi, shuningdek, imkon qadar, benefitsiar egasiga taalluqli bo'lgan ma'lumotlari mavjud moliyaviy hujjatlar va hisobotlar tegishli muddat davomida saqlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan choralarni amalga oshiradi.

4. Mazkur Konvensiyada jinoyat deb tan olingan xatti-harakatlar natijasida topilgan jinoiy daromadlar boshqa joylarga o'tkazilishini oldini olish va aniqlash maqsadida har bir Ishtirokchi-davlat o'zining tartibga soluvchi va nazorat organlari, jismoniy ishtiroki bo'lmagan yoki biron muvofiqlashtiriladigan moliyaviy guruh bilan affilyatsiya qilinmagan bank muassasalari yordamida tegishli va amaliy choralarni amalga oshiradi. Undan tashqari, Ishtirokchi-davlatlar o'zlarining moliya muassasalariga nisbatan bu kabi moliya muassasalari bilan bank korrespondentlik munosabatlarni o'rnatishni yoki bunday munosabatlarni davom ettirishni rad qilish, shuningdek jismoniy ishtiroki bo'lmagan yoki biron muvofiqlashtiriladigan moliyaviy guruh bilan affilyatsiya qilinmagan banklar tomonidan hisob raqamlaridan foydalanishiga ruxsat beruvchi xorijiy moliyaviy muassasalar bilan munosabatlarni o'rnatishdan saqlanish kabi talablarni o'rnatish imkoniyatini ko'rib chiqishlari mumkin.

5. Har bir Ishtirokchi-davlat o'zining ichki qonunchiligiga muvofiq tegishli ommaviy mansabdor shaxslarga taalluqli moliyaviy ma'lumotlarni oshkor qilib berishni ko'zda tutuvchi samarali tizimlarni tashkil qilish imkoniyatlarini ko'rib chiqadi va ushbu talablarga rioya qilinmasligi uchun tegishli jazo choralari belgilaydi. Har bir Ishtirokchi-davlat, shuningdek, mazkur Konvensiyada jinoyat deb tan olingan xatti-harakatlar orqali topilgan jinoiy daromadlarni qaytarish maqsadida tekshiruv olib borish, huquqlarini bayon qilish va tegishli choralarni ko'rish uchun zarur bo'lgan holatlarda o'zining vakolatli organlariga boshqa Ishtirokchi-davlatning vakolatli organlari bilan bunday ma'lumotlar bilan almashishiga ruxsat berish uchun talab qilinishi mumkin bo'lgan choralarni qabul qilish imkoniyatini ko'rib chiqadi.

6. Har bir Ishtirokchi-davlat biron xorijiy mamlakatdagi biron-bir moliyaviy hisob raqamga nisbatan manfaatga yoki imzo qo'yish huquqiga yoxud boshqa vakolatga ega bo'lgan ommaviy mansabdor shaxslar uchun bu haqda tegishli organlarga xabar berish va bu kabi hisob raqamlarga taalluqli hisobot olib borish talabini belgilash uchun o'zining ichki qonunchiligiga muvofiq talab qilinishi mumkin bo'lgan choralarni qabul qilish imkoniyatini ko'rib chiqadi. Bu kabi choralar, shuningdek, bunday talablarga rioya qilmaslik uchun tegishli sanksiyalar qo'llanilishini ko'zda tutadilar.

53-modda. Mol-mulk bevosita qaytarilishi uchun choralar

Har bir Ishtirokchi-davlat o'zining ichki qonunchiligiga muvofiq:

a) boshqa Ishtirokchi-davlatga mazkur Konvensiyada jinoyat deb tan olingan hatti-harakatlar natijasida sotib olingan mol-mulkka nisbatan huquqiy unvon yoki egalik qilish huquqini talab qilish yuzasidan fuqarolik da'volarini o'zining sudlariga taqdim etishiga ruxsat berish uchun talab qilinishi mumkin bo'lgan choralarni ko'radi;

b) o'zlarining sudlariga mazkur Konvensiyada jinoyat deb tan olingan hatti-harakatlarni sodir etgan shaxslarga bunday jinoyat sodir etilishi oqibatida boshqa Ishtirokchi-davlatga yetkazilgan zararni o'rnini to'ldirish yoki qoplash to'g'risida farmoyish berishiga ruxsat berilishi uchun talab qilinishi mumkin bo'lgan choralarni ko'radi;

c) musodara qilish to'g'risidagi qarorlarni chiqarishda mazkur Konvensiyada jinoyat deb tan olingan xatti-harakatlar natijasida sotib olingan mol-mulkning qonuniy egasi sifatida boshqa Ishtirokchi-davlat tomonidan qo'yiladigan talablarni o'zlarining sudlari yoki vakolatli organlari tan olinishiga yo'l qo'yish uchun talab qilinishi mumkin bo'lgan choralarni ko'radi.

54-modda. Musodara qilish ishlari bo'yicha xalqaro hamkorlik vositasida mol-mulkni muomaladan chiqarish

1. Har bir Ishtirokchi-davlat mazkur Konvensiyada jinoyat deb tan olingan hatti-harakatlar natijasida sotib olingan yoki bu kabi jinoyatlarni sodir etilishida foydalanilgan mol-mulkka taalluqli o'zaro huquqiy yordamni mazkur Konvensiyaning 55-moddasiga asosan taqdim etish maqsadida o'zining ichki qonunchiligiga muvofiq:

a) boshqa Ishtirokchi-davlat sudlari tomonidan musodara qilish to'g'risida chiqarilgan qarorlarni o'zining vakolatli organlari ijro etishiga ruxsat berilishi uchun talab qilinishi mumkin bo'lgan choralarni ko'radi;

b) o'zining vakolatli organlariga, ularning yurisdiksiyasi doirasida pul mablag'larini legallashtirish bilan bog'liq jinoyatlar yoki uning yurisdiksiyasiga taalluqli bo'lishi mumkin bo'lgan boshqa jinoyatlar yuzasidan sud qarorini chiqarishda yoxud ichki

qonunchiligida ruxsat etilgan boshqa tartibotlardan foydalanishda kelib chiqishi xorijiy bo'lgan bunday mol-mulk musodara qilinishi to'g'risida qaror chiqarishlariga ruxsat berish uchun talab qilinishi mumkin bo'lgan choralarni ko'radi; va

c) vafot etganligi yashirilganligi yoki yo'qligi sababli jinoyatchi ta'qib etilishining imkoni bo'lmagan yoxud boshqa muvofiq holatlarda ko'rilayotgan jinoyat ishlar doirasida qaror chiqarmasdan turib bunday mol-mulkning musodara qilinishiga imkoniyat yaratish uchun talab qilinishi mumkin bo'lgan choralarni qabul qilish bo'yicha masalani ko'rib chiqadi.

2. Har bir Ishtirokchi-davlat mazkur Konvensiyaning 55-moddasi 2-bandiga asosan jo'natilgan iltimos bo'yicha o'zaro huquqiy yordamni taqdim etish maqsadida o'zining ichki qonunchiligiga muvofiq:

a) o'zining vakolatli organlariga so'rov berayotgan Ishtirokchi-davlatning sudi yoki vakolatli organlari tomonidan mol-mulkni muomaladan chiqarib ishga solmay qo'yish yoki hibsga olish to'g'risida chiqarilgan va so'rov berilayotgan Ishtirokchi-davlatga bu kabi choralar ko'rilishi uchun yetarli asoslar mavjud va, yakuniy natijada, ushbu mol-mulkka nisbatan mazkur moddaning 1(a)-bandi maqsadlari uchun musodara qilish to'g'risida qaror chiqariladi deb hisoblashga imkon beruvchi oqilona asoslar bayon etilgan qarorga asosan mol-mulkni ishga solmay qo'yishiga yoki hibsga olishiga ruxsat berish uchun talab qilinishi mumkin bo'lgan choralarni ko'radi;

b) o'zining vakolatli organlariga so'rov berilayotgan Ishtirokchi-davlatga bu kabi choralar ko'rilishi uchun yetarli asoslar mavjud va yakuniy natijada, ushbu mol-mulkka nisbatan mazkur moddaning 1(a)-bandi maqsadlari uchun musodara qilish to'g'risida qaror chiqariladi deb hisoblashga imkon beruvchi oqilona asoslar bayon etilgan murojaatga asosan mol-mulkni muomaladan chiqarib turib ishga solmay qo'yishiga yoki hibsga olishiga ruxsat berish uchun talab qilinishi mumkin bo'lgan choralarni ko'radi;

c) o'zining vakolatli organlariga musodara qilish maqsadlarida mol-mulkni saqlab qolishiga, masalan, bu kabi mol-mulkni sotib olinishi munosabati bilan xorijda chiqarilgan hibsga olish to'g'risidagi qaror yoki jinoyat ish qo'zg'atilishiga asoslangan holda, ruxsat berishi uchun qo'shimcha choralarni qabul qilish masalasini ko'rib chiqadi.

55-modda. Musodara qilish maqsadlaridagi xalqaro hamkorlik

1. Mazkur Konvensiyada jinoyat deb tan olingan biron hatti-harakat yurisdiksiyasiga taalluqli hisoblangan Ishtirokchi-davlatdan mazkur Konvensiyaning 31-moddasi 1-bandida qayd etilgan va o'z hududida joylashgan jinoyat daromadlarni, mol-mulkni, uskunalari va jinoyat sodir etishning boshqa vositalarini musodara qilish to'g'risida so'rov olgan Ishtirokchi-davlat o'zining ichki qonunchiligi doirasida mumkin bo'lgan maksimal darajada:

a) musodara qilish to'g'risidagi qarorni olish maqsadida bu so'rovni o'zining vakolatli organlariga yuboradi va shunday qarorni olgan taqdirda uni ijro etadi, yoki

b) o'zining vakolatli organlariga so'rov berayotgan Ishtirokchi-davlat hududida mazkur Konvensiyaning 31-moddasi 1-bandi va 54-moddasi 1(a)-bandiga muvofiq sud tomonidan musodara qilish to'g'risidagi chiqarilgan qarorni, murojaatda ko'rsatilgan hajmda va so'rov berilayotgan Ishtirokchi-davlati hududidagi 31-moddaning 1-bandida qayd etilgan jinoyat daromadlar, mol-mulk, uskuna yoki jinoyat sodir etishning boshqa vositalariga taalluqli bo'lgan darajada ijro etish maqsadida yuboradi.

2. So'rov berilayotgan Ishtirokchi-davlat mazkur Konvensiyada jinoyat deb tan olingan biron hatti-harakat yurisdiksiyasiga taalluqli hisoblangan Ishtirokchi-davlatdan murojaatnoma olganidan keyin 31-moddaning 1-bandida qayd etilgan jinoiy daromadlar, mol-mulk, uskuna yoki jinoyat sodir etishning boshqa vositalarini aniqlash, kuzatish, muomaladan chiqarib turib ishga solmay qo'yish yoki hibsga olish maqsadida va keyinchalik so'rov berayotgan Ishtirokchi-davlat tomonidan chiqariluvchi qarorga yoki ushbu moddaning 1-bandiga asosan qilingan murojaatga muvofiq, musodara qilish uchun choralar ko'radi.

3. Mazkur Konvensiyaning 46-moddasidagi holatlar ushbu moddaga nisbatan mutatis mutandis tarzda qo'llaniladi. Mazkur moddaga muvofiq yuborilayotgan iltimos tarkibida 46-moddaning 15-bandida ko'rsatilgan ma'lumotga qo'shimcha quyidagilar bayon etiladi:

a) mazkur moddaning 1(a)-bandida ko'zda tutilgan murojaat qo'llanishiga – musodara qilinishi lozim bo'lgan mol-mulkning ta'riflanishi, shu jumladan, imkon darajasida uning joylashgan yeri to'g'risidagi ma'lumotlar va, agar bu o'rinli bo'lsa, mol-mulkning baholangan qiymati va so'rov berayotgan Ishtirokchi-davlat havola qilayotgan va so'rov berilayotgan Ishtirokchi-davlat o'zining ichki qonunchiligiga muvofiq qaror chiqarishi uchun choralar ko'rishiga yetarli bo'lgan dalillar bayon etilgan ariza;

b) mazkur moddaning 1(b)-bandida ko'zda tutilgan murojaat qo'llanishiga – so'rov berayotgan Ishtirokchi-davlat murojaatini asoslab beruvchi va u tomondan berilgan musodara to'g'risidagi qarorning yuridik jihatdan yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan nusxasi, dalillarning bayoni keltirilgan ariza va qaror ijrosining so'ralayotgan hajmi to'g'risidagi ma'lumot, so'rov berayotgan Ishtirokchi-davlat halol uchinchi tomonlarga tegishli xabarnoma yuborishi va tegishli huquqiy tartiblarga rioya qilinishini ta'minlash uchun qabul qilingan choralar ko'rsatilgan ariza hamda musodara to'g'risidagi qaror qat'iy ekanligi to'g'risidagi ariza;

s) mazkur moddaning 1-bandida ko'zda tutilgan murojaat qo'llanishiga – so'rov berayotgan Ishtirokchi-davlat havola qilayotgan dalillar bayon etilgan ariza va qo'llanilayotgan choralarning ta'riflanishi, shuningdek, agar mavjud bo'lsa, murojaatni asoslab beruvchi qarorning yuridik jihatdan yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan nusxasi.

4. Mazkur moddaning 1 va 2-bandlarida ko'zda tutilgan qarorlar yoki choralar so'rov berilayotgan Ishtirokchi-davlat tomonidan uning ichki qonunchiligidagi holatlarga va uning protsessual normalari yoki istalgan ikki tomonlama yoxud so'rov berayotgan Ishtirokchi-davlat bilan munosabatlari asnosida bog'liq bo'lgan ko'p tomonlama kelishuvlar yoki bitimlarga muvofiq va ularga rioya qilish shartida qabul qilinadi.

5. Har bir Ishtirokchi-davlat Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga mazkur moddadagi holatlar amalga oshirilishini ta'minlovchi qonun va qoidalarining matnlarini, shuningdek ushbu qonunlar va qoidalarga keyinchalik kiritilgan barcha istalgan o'zgartishlarning matnlari yoki ta'riflanishlarini taqdim etadi.

6. Agar Ishtirokchi-davlat mazkur moddaning 1 va 2-bandlarida qayd etilgan choralar ko'rilishini muvofiq shartnoma mavjud bo'lishi bilan shartlashni xohlasa, u holda bu Ishtirokchi-davlat ushbu Konvensiyani zarur va yetarli bo'lgan shartnomaviy-huquqiy asos sifatida ko'radi.

7. Agar so'rov berilayotgan Ishtirokchi-davlat o'z vaqtida yetarli isbot-dalillar olmasa yoki, agar mol-mulk minimal qiymatga ega bo'lsa, mazkur moddaga asoslangan hamkorlikka rad javobi ham berilishi mumkin.

8. Mazkur moddaga muvofiq qabul qilingan istalgan ta'minlovchi choraning bekor qilinishidan avval so'rov berilayotgan Ishtirokchi-davlat, mumkin bo'lgan holatlarda, so'rov berayotgan Ishtirokchi-davlatga bunday chorani amalga oshirishni davom ettirish foydadan xoli bo'lmashligini asoslab berishi uchun imkoniyat taqdim etadi.

9. Mazkur moddaning holatlari halol uchinchi tomonlarning huquqlariga zarar yetkazadigan tarzda talqin qilinmaydi.

56-modda. Maxsus hamkorlik

Har bir Ishtirokchi-davlat, o'zining ichki qonunchiligiga zarar yetkazamagan holda, mazkur Konvensiyada jinoyat deb tan olingan xatti-harakatlar orqali orttirilgan daromadlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zining tekshiruv ishlariga, ko'rilayotgan jinoiy ishlariga yoki sud muhokamasiga zarar yetkazmasdan turib, agar bu kabi ma'lumotlarning oshkora qilinishi uni olayotgan Ishtirokchi-davlatga jinoiy ishni qo'zg'atish yoki tekshiruv ishlarini yoki sud muhokamasini o'tkazishiga ko'mak beradi yoxud ushbu Ishtirokchi-davlat tomonidan bu iltimosnomani Konvensiyaning ushbu moddasiga muvofiqlashtirishiga yo'naltiradi deb hisoblasa, boshqa Ishtirokchi-davlatga avvaldan iltimosnoma qilinmagan hollarda ham jo'natish imkoniyatini beruvchi choralar ko'rishga intiladi.

57-modda. Aktivlarni qaytarish va ularni tasarruf qilish

1. Ishtirokchi-davlat tomonidan mazkur Konvensiyaning 31-moddasiga yoki 55-moddasiga asosan musodara qilingan mol-mulkni, jumladan ushbu moddaning 3-bandiga ko'ra avvalgi qonuniy egalari qaytarilgan mol-mulkni Ishtirokchi-davlat mazkur Konvensiyaning holatlari va o'zining ichki qonunchiligiga muvofiq tasarruf etadi.

2. Har bir Ishtirokchi-davlat ichki qonunchiligining eng muhim prinsiplariga muvofiq, o'zining vakolatli organlariga, ular boshqa Ishtirokchi-davlat tomonidan yuborilgan iltimosnoma bo'yicha ish tutayotganlarida musodara qilingan mol-mulkni halol uchinchi tomonlarning huquqlarini hisobga olgan holda, mazkur Konvensiyaga muvofiq qaytarib berishiga ruxsatnoma talab qilinishi mumkin bo'lgan qonuniy va boshqa choralar ko'radi.

3. Ishtirokchi-davlat mazkur Konvensiyaning 46 va 55-moddalariga va ushbu moddaning 1 va 2-bandlariga muvofiq:

a) mazkur Konvensiyaning 17 va 33-moddalarida qayd etilganidek, ommaviy mablag'lar o'g'irlanganida yoki ommaviy mablag'lar halollashtirilganida, agar musodara 55-moddaga muvofiq va so'rov berilayotgan Ishtirokchi-davlat tomonidan chiqarilgan yakuniy qaror asosida amalga oshirilgan bo'lsa va aynan shu talab so'rov berilayotgan Ishtirokchi-davlat tomonidan bekor qilinishi mumkinligini e'tiborga olgan holda, musodara qilingan mol-mulkni so'rov berayotgan Ishtirokchi-davlatga qaytarib beradi;

b) mazkur Konvensiyada qamrab olingan istalgan jinoyat orqali daromad topilganida, agar musodara 55-moddaga muvofiq va so'rov berilayotgan Ishtirokchi-davlat tomonidan chiqarilgan yakuniy qaror asosida amalga oshirilgan bo'lsa, va aynan shu talab so'rov berilayotgan Ishtirokchi-davlat tomonidan bekor qilinishi mumkinligini e'tiborga olgan holda, agar so'rov berilayotgan Ishtirokchi-davlat so'rov berayotgan Ishtirokchi-davlatga ushbu musodara qilingan mol-mulkka egalik qilish huquqi avvaldan bor bo'lganini oqilona isbotlab bersa yoki so'rov berilayotgan Ishtirokchi-davlat so'rov berayotgan

Davlatga yetkazilgan zararni musodara qilingan mol-mulkni qaytarib berish uchun asos sifatida tan olsa, musodara qilingan mol-mulkni so'rov berayotgan Ishtirokchi-davlatga qaytarib beradi;

c) barcha boshqa holatlarda, birinchi navbatda, musodara qilingan mol-mulkni so'rov berayotgan Ishtirokchi-davlatga, bunday mol-mulkni uning avvalgi qonuniy egalari qaytarilishi yoki jinoyatdan jabr ko'rganlarga kompensatsiya to'lanishi masalasini ko'radi.

4. So'rov berilayotgan Ishtirokchi-davlat, tegishli holatlarda, agar faqat Ishtirokchi-davlatlar boshqa qarorni qabul qilmasalar, so'rov berilayotgan Ishtirokchi-davlat musodara qilingan mol-mulk qaytarilishiga yoki mazkur moddaga muvofiq tasarruf qilinishiga olib kelgan tergov ishlari, ko'rilgan jinoiy ish yoki sud muhokamasi vaqtida sarflangan oqilona xarajatlarni olib qolishi mumkin.

5. Ishtirokchi-davlatlar tegishli holatlarda musodara qilingan mol-mulkni uzilkesil tasarruf qilinishi xususida kelishuvlar yoki tomonlar uchun birdek maqbul bo'lgan bitimlar tuzish imkoniyatini har bir alohida holat uchun ko'rib chiqishlari mumkin.

58-modda. Tezkor moliyaviy ma'lumotlarni yig'ish uchun bo'linmalar

Ishtirokchi-davlatlar mazkur Konvensiyada jinoyat deb tan olingan hatti-harakatlar orqali topilgan jinoiy daromadlarning joydan joyga ko'chirilishini oldini olish va ularga qarshi kurashish, shuningdek bunday daromadlarni muomaladan chiqarish maqsadlarida bir-birlari bilan hamkorlik qiladilar va shu maqsadlarda shubhali moliyaviy operatsiyalar to'g'risida ma'lumotlar olish, ularni tahlil qilish va vakolatli organlarga jo'natish uchun mas'ul bo'lgan tezkor moliyaviy ma'lumot yig'ish bo'yicha bo'linmalarni tashkil qilish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqadilar.

59-modda. Ikki tomonlama va ko'p tomonlama kelishuvlar hamda bitimlar

Ishtirokchi-davlatlar Konvensiyaning mazkur bobiga asosan amalga oshiriladigan xalqaro hamkorlikning samaradorligini oshirish uchun ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama kelishuvlar va bitimlar tuzish imkoniyatlarini ko'rib chiqadilar.

VI BOB. TEXNIK YORDAM VA MA'LUMOT ALMASHISH

60-modda. Kadrlarni tayyorlash va texnik yordam

1. Har bir Ishtirokchi-davlat, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish uchun mas'ul bo'lgan o'z xodimlarini tayyorlash bo'yicha lozim deb topilgan darajada, dasturlarni ishlab chiqadi, amalga oshiradi yoki takomillashtiradi. Kadrlarni tayyorlash bo'yicha bunday dasturlar boshqalari bilan bir qatorda, quyidagi sohalarga tegishli bo'lishi mumkin:

a) korrupsiyaga oid harakatlarni oldini olish, aniqlash va tekshirish, shuningdek ular uchun jazolash, jumladan isbot-dalillar to'plash va tekshiruv metodlari bo'yicha samarali choralar;

b) korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha strategik siyosatni ishlab chiqish va rejalashtirish sohasida potensial yaratish;

c) mazkur Konvensiya talablariga javob beradigan o'zaro huquqiy yordam to'g'risidagi iltimosnomalarni tuzish masalalari bo'yicha vakolatli organlarning xodimlarini tayyorlash;

d) ommaviy xizmat muassasalari, boshqarmalarini va ommaviy moliyaviy mablag'lar, shu jumladan ommaviy xaridlar va xususiy sektor boshqarmalarini baholash va mustahkamlash;

e) mazkur Konvensiyada jinoyat deb tan olingan xatti-harakatlar orqali orttirilgan jinoiy daromadlarning joydan-joyga ko'chirilishini aniqlash, shuningdek bunday daromadlarni muomaladan chiqarish;

f) mazkur Konvensiyada jinoyat deb tan olingan hatti-harakatlar orqali orttirilgan jinoiy daromadlarning joydan-joyga ko'chirish bo'yicha operatsiyalarni aniqlash va to'xtatish;

g) mazkur Konvensiyada jinoyat deb tan olingan xatti-harakatlar orqali orttirilgan jinoiy daromadlarning joydan-joyga ko'chirilishini va joydan-joyga ko'chirish, yashirish va berkitish metodlarini kuzatish;

h) mazkur Konvensiyada jinoyat deb tan olingan xatti-harakatlar orqali orttirilgan jinoiy daromadlarni muomaladan chiqarishga yordam beruvchi tegishli va samarali huquqiy hamda ma'muriy mexanizmlar va metodlar;

i) jabrlanuvchilar va sud organlari bilan hamkorlik qiladigan guvohlarni himoya qilishda foydalaniladigan metodlar;

j) milliy va xalqaro qoidalarga, shuningdek tillarni o'rganishga taalluqli masalalar bo'yicha xodimlarni tayyorlash.

2. Ishtirokchi-davlatlar, o'z imkoniyatini hisobga olgan holda, bir-birlariga keng miqyosda, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar manfaatlar uchun, ularning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha muvofiq rejalar va dasturlari munosabati bilan tegishli texnik yordam berish, jumladan moddiy qo'llab-quvvatlash va mazkur moddaning 1-bandida ko'rsatilgan sohalarda kadrlar tayyorlash, shuningdek Ishtirokchi-davlatlar o'rtasidagi xalqaro hamkorlikni qo'llab-quvvatlash imkoniyatini yaratadigan kadrlarni tayyorlash va yordam ko'rsatish hamda tegishli tajriba va maxsus bilim almashish masalasini ko'rib chiqadilar.

3. Ishtirokchi-davlatlar, qanchalik lozim bo'lsa, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlardagi hamda tegishli ikki tomonlama va ko'p tomonlama kelishuvlar va bitimlar doirasidagi amaliy va o'quv tadbirlar samaradorligini maksimal oshirishga qaratilgan harakatlarini faollashtiradilar.

4. Ishtirokchi-davlatlar vakolatli organlar va jamiyat ishtirokida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha strategiyalar va rejalar ishlab chiqish maqsadida o'z mamlakatlaridagi korrupsiyaning turlari, sabablari, oqibatlari va zararlari bilan bog'liq bo'lgan baholashlar, tadqiqotlar va ishlanmalarni o'tkazish uchun, o'zaro iltimosnomalarga asosan, bir-birlariga yordam berish imkoniyatlarini ko'rib chiqadilar.

5. Mazkur Konvensiyada jinoyat deb topilgan xatti-harakatlar orqali orttirilgan jinoiy daromadlarni muomaladan chiqarishga yordam berish uchun Ishtirokchi-davlatlar ushbu maqsadga erishishda yordam ko'rsatishi mumkin bo'lgan ekspertlar nomlarini bir-birlariga taqdim etishda hamkorlik qilishlari mumkin.

6. Ishtirokchi-davlatlar hamkorlik va texnik yordamga ko'maklashish hamda o'zaro manfaatli muammolar, shu jumladan o'tish iqtisodiyotiga ega bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlarning alohida muammolari va talablarini muvofiq qilishni rag'batlantirish uchun submintaqaviy, mintaqaviy va xalqaro konferensiya va seminarlardan foydalanish imkoniyatlarini ko'rib chiqadilar.

7. Ishtirokchi-davlatlar rivojlanayotgan mamlakatlar va o'tish iqtisodiyotiga ega bo'lgan mamlakatlarning texnik yordam sohasidagi dastur va loyihalar vositasida

mazkur Konvensiyani qo'llash bo'yicha amalga oshirayotgan harakatlariga moliyaviy yordam berish maqsadida ixtiyoriy mexanizmlar yaratish imkoniyatini ko'rib chiqadilar.

8. Har bir Ishtirokchi-davlat rivojlanayotgan mamlakatlarda mazkur Konvensiyani qo'llash uchun Boshqarma orqali dastur va loyihalarni amalga oshirishga yordam berish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Giyohvandlik va jinoyatlar bo'yicha boshqarmasi ehtiyojlari uchun ixtiyoriy badallar kiritish imkoniyatini ko'rib chiqadi.

61-modda. Korrupsiya to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va ma'lumotlar almashish

1. Har bir Ishtirokchi-davlat ekspertlar bilan maslahatlashish, masahatlar o'tkazish, o'z hududidagi korrupsiya sohasidagi tendensiyalarni, shuningdek korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etiladigan shart-sharoitlarni tahlil qilish imkoniyatlarini ko'rib chiqadi.

2. Ishtirokchi-davlatlar, mumkin bo'lgan qadar, umumiy ta'riflanishlar, standartlar va metodologiyalarni ishlab chiqish maqsadida korrupsiyaga oid statistik ma'lumotlarni, tahliliy bilimlarni va shu jumladan, korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish ishida amaliyotning optimal turlari haqidagi ma'lumotlarni kengaytirish hamda xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar vositasida ushbu ma'lumotlarni almashish imkoniyatini ko'rib chiqadilar.

3. Har bir Ishtirokchi-davlat o'zining korrupsiyaga qarshi siyosati va kurashi bo'yicha profilaktik chora-tadbirlari ustidan nazoratni amalga oshirish, shuningdek ularning samaradorligi va ta'sirchanligini baholash imkoniyatlarini ko'rib chiqadi.

62-modda. Boshqa choralar: mazkur Konvensiyani iqtisodiy rivojlanish va texnik yordam asosida amalga oshirish

1. Ishtirokchi-davlatlar jamiyat uchun umuman, jumladan barqaror rivojlanish uchun korrupsiyaning salbiy oqibatlarini hisobga olgan holda, mumkin bo'lgan qadar, xalqaro hamkorlik vositasida mazkur Konvensiyani optimal amalga oshirilishiga yordam beruvchi choralarni ko'radilar.

2. Ishtirokchi-davlatlar, mumkin bo'lgan qadar hamda bir-birlari, shuningdek xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan muvofiqlashtirilgan tarzda quyidagilarga erishish uchun aniq chora-tadbirlarni ko'radi:

a) rivojlanayotgan mamlakatlarning korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida imkoniyatlarini mustahkamlash maqsadida ular bilan turli darajalarda hamkorlikni faollashtirish;

b) rivojlanayotgan mamlakatlarning korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida moliyaviy va texnik yordamni kengaytirish va ular mazkur Konvensiyani muvaffaqiyatli amalga oshirishlari uchun amaliy yordam ko'rsatish;

c) rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyotiga ega bo'lgan mamlakatlarga, ularning mazkur Konvensiyani amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga ko'maklashish maqsadida texnik yordam ko'rsatish. Buning uchun Ishtirokchi-davlatlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan aniq ushbu maqsadlar uchun tashkil qilingan moliyalashtirish mexanizmining hisob raqamiga muntazam ravishda yetarli miqdorda ixtiyoriy badallar kiritishga intiladilar. Ishtirokchi-davlatlar, shuningdek, o'zlarining ichki qonunchiligiga va mazkur Konvensiyaning holatlariga muvofiq, ushbu Konvensiyaning holatlariga muvofiq musodara qilingan pul mablag'lari yoki jinoiy daromadlar yoki mol-

mulkning tegishli qiymatining muayyan qismini yuqorida qayd etilgan hisob raqamiga o'tkazish imkoniyatini alohida ko'rib chiqishlari mumkin.

d) boshqa davlatlar va moliyaviy muassasalarni, tegishli holatlarda, mazkur moddaga muvofiq amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlarga qo'shilishga, shu jumladan, rivojlanayotgan mamlakatlar mazkur Konvensiyaning maqsadlariga erishishi uchun ularga kadrlarni tayyorlash bo'yicha dasturlarni va zamonaviy uskunalarni kattaroq hajmlarda taqdim etilishini ta'minlash yo'li bilan rag'batlantirish va ko'ndirish.

3. Bu chora-tadbirlar, mumkin bo'lgan qadar, xorijiy yordam yoki ikki tomonlama, mintaqaviy yoki xalqaro miqyosdagi moliyaviy hamkorlik to'g'risida tuzilgan boshqa bitimlarga taalluqli mavjud majburiyatlarga zarar yetkazmaydi.

4. Ishtirokchi-davlatlar, mazkur Konvensiyada ko'zda tutilgan xalqaro hamkorlikning samaradorligini ta'minlash, shuningdek korrupsiyani oldini olish va aniqlash, unga qarshi kurashish uchun zarur bo'lgan moliyaviy bitimlarni e'tiborga olgan holda, moddiy-texnik yordam to'g'risidagi ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama kelishuvlar yoxud bitimlar tuzishlari mumkin.

VII BOB. AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARI

63-modda. Konvensiyaning Ishtirokchisi bo'lgan davlatlar Konferensiyasi

1. Mazkur Konvensiyada belgilangan maqsadlarga erishish uchun Ishtirokchi-davlatlar imkoniyatlarini va ular o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish, shuningdek ushbu Konvensiyani amalga oshirishga ko'maklashish va uni amalga oshirilish jarayonini ko'rib chiqish maqsadida Konvensiyaning Ishtirokchisi bo'lgan davlatlar Konferensiyasi ta'sis etiladi.

2. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Ishtirokchi-davlatlar konferensiyasini mazkur Konvensiya kuchga kirgan kundan keyin bir yildan kechiktirmay chaqiradi. Keyinchalik Ishtirokchi-davlatlar konferensiyasi tomonidan qabul qilingan tartibotlarga muvofiq, Konferensiyaning navbatdagi kengashlari o'tkaziladi.

3. Ishtirokchi-davlatlar konferensiyasi mazkur moddada ko'rsatilgan faoliyat turlari amalga oshirilishini tartibga soluvchi tartibot va qoidalarni, jumladan kuzatuvchilarga ruxsat berilishi va ularning ishtiroki hamda ushbu faoliyat turlarini amalga oshirishda sarflangan xarajatlarni to'lash bilan bog'liq qoidalarni qabul qiladi.

4. Ishtirokchi-davlatlar konferensiyasi mazkur moddaning 1-bandida bayon etilgan maqsadlarga erishish uchun faoliyat turlari, tartibotlar va ishlash metodlarini kelishitiradi, shu jumladan:

a) Ishtirokchi-davlatlar faoliyatiga mazkur Konvensiyaning 60 va 62-moddalari va II-V boblariga asosan ko'maklashish, shu jumladan ixtiyoriy badallar safarbarligini rag'batlantirish yo'li bilan ham;

b) Ishtirokchi-davlatlar o'rtasida korrupsiyaning shakllari va bu sohadagi tendensiyalar to'g'risidagi, shuningdek korrupsiyani oldini olish, unga qarshi kurashish jinoiy daromadlarni qaytarish to'g'risidagi ma'lumotlar almashinuviga ko'maklashish, boshqalari bilan bir qatorda mazkur moddada qayd etilgan ma'lumotlarni chop etish;

c) tegishli xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar va mexanizmlar, shuningdek nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlik qilish;

d) korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish maqsadida boshqa xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar tayyorlagan mos bo'lgan ma'lumotlardan, ishlarning takrorlanishini oldini olish uchun tegishli tarzda foydalanish;

e) Ishtirokchi-davlatlar tomonidan mazkur Konvensiyaning amalga oshirilishi to'g'risidagi masalani davriy ravishda ko'rib chiqish;

f) mazkur Konvensiyani takomillashtirish va amalga oshirishga taalluqli bo'lgan tavsiyalarni berish;

g) mazkur Konvensiyaning amalga oshirilishi bilan bog'liq bo'lgan texnik yordamga ehtiyojlarni hisobga olish va shu munosabat bilan ushbu Konvensiya zarur deb topgan istalgan harakatlarga nisbatan tavsiyalarni berish.

5. Mazkur moddaning 4-bandi maqsadlari uchun Ishtirokchi-davlatlar konferensiyasi ushbu Konvensiyaning amalga oshirilishida Ishtirokchi-davlatlar tomonidan ko'rilgan choralar va bunda ular duch kelgan qiyinchiliklar to'g'risida ularga taqdim etilgan ma'lumotlar asosida va kuzatuv olib borishning Ishtirokchi-davlatlar konferensiyasi tomonidan tashkil qilinishi mumkin bo'lgan qo'shimcha mexanizmlar orqali zarur bo'lgan ma'lumotlarni oladi.

6. Har bir Ishtirokchi-davlat Ishtirokchi-davlatlar konferensiyasiga o'zining dasturlari, rejalari va amaliyoti, shuningdek mazkur Konvensiyani amalga oshirishga qaratilgan qonuniy va ma'muriy choralari haqida Ishtirokchi-davlatlar konferensiyasi talab qilgan ko'rinishda ma'lumot taqdim etadi. Ishtirokchi-davlatlar konferensiyasi bu kabi ma'lumotlarni va, shu jumladan, boshqalari bilan bir qatorda, Ishtirokchi-davlatlar va vakolatli xalqaro tashkilotlardan olingan ma'lumotlarni olishning eng samarali yo'llari va muvofiq qarorlar asosida qabul qilish to'g'risidagi masalani o'rganib chiqadi. Shuningdek, Ishtirokchi-davlatlar konferensiyasining qarori bilan tasdiqlangan tartibotlarga asosan tegishli tarzda akkreditatsiya qilingan nodavlat tashkilotlardan olingan materiallar ham ko'rib chiqilishi mumkin.

7. Ishtirokchi-davlatlar konferensiyasi, mazkur moddaning 4-6-bandlariga asosan, agar buni lozim deb topsa, Konvensiyani samarali amalga oshirishga ko'maklashish uchun istalgan muvofiq mexanizm yoki organ ta'sis etadi.

64-modda. Kotibiyat

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Ishtirokchi-davlatlar konferensiyasini zarur bo'lgan Kotibiyat xizmati bilan ta'minlaydi.

2. Kotibiyat:

a) Ishtirokchi-davlatlar konferensiyasiga mazkur Konvensiyaning 63-moddasida keltirilgan faoliyatni amalga oshirishda yordam beradi, shuningdek Ishtirokchi-davlatlar konferensiyasi sessiyalarini tashkil qiladi va ularga zarur xizmat ko'rsatilishini ta'minlaydi;

b) Ishtirokchi-davlatlarning iltimosiga ko'ra, mazkur Konvensiyaning 63-moddasi 5 va 6-bandalarida ko'zda tutilganidek, Ishtirokchi-davlatlar konferensiyasiga ularning ma'lumotlarini taqdim etishda yordam beradi;

c) boshqa tegishli xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarning Kotibiyatlari bilan zarur bo'lgan o'zaro muvofiqlashtirishni ta'minlaydi.

VIII BOB. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

65-modda. Konvensiyaning amalga oshirilishi

1. Har bir Ishtirokchi-davlat qonunchiligining eng muhim prinsiplariga muvofiq, mazkur Konvensiyaga asosan o'z majburiyatlarining amalga oshirilishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan choralarni, jumladan qonunchilik va ma'muriy choralarni ko'radi.

2. Har bir Ishtirokchi-davlat korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish uchun mazkur Konvensiyada ko'zda tutilgan choralarga qaraganda qat'iyroq yoki qattiqroq choralar ko'rish mumkin.

66-modda. Nizolarni hal qilish

1. Ishtirokchi-davlatlar mazkur Konvensiyaning talqin qilinishi va qo'llanilishi bo'yicha yuzaga keladigan nizolarni muzokaralar yo'li bilan hal qilishga intiladilar.

2. Ikki yoki undan ortiq Ishtirokchi-davlatlar o'rtasida mazkur Konvensiyaning talqin qilinishi yoki qo'llanilishi bo'yicha yuzaga kelgan va oqilona muddat davomida muvofiqlashtirila olmagan istalgan nizo, ushbu Ishtirokchi-davlatlardan birining iltimosiga ko'ra arbitraj muhokamasiga topshiriladi. Agar arbitraj to'g'risidagi iltimosnoma bilan murojaat qilinganidan keyin olti oy davomida Ishtirokchi-davlatlar uni tashkil qilish bo'yicha kelisha olmasalar, ushbu istalgan Ishtirokchi-davlat Sud Statutiga muvofiq ariza bilan murojaat qilib nizoni Xalqaro Sudga topshirishi mumkin.

3. Har bir Ishtirokchi-davlat mazkur Konvensiyani imzolashda, ratifikatsiya qilishda, qabul qilish yoki tasdiqlashda yohud unga qo'shilishda ushbu moddaning 2-bandidagi holatlar bilan bog'lamanganligi haqida e'lon qilishi mumkin. Boshqa Ishtirokchi-davlatlar shunday qo'shimcha shart qo'yan istalgan Ishtirokchi-davlatga nisbatan mazkur moddaning 2-bandi qoidalari bilan bog'liq emas.

4. Mazkur moddaning 3-bandiga muvofiq qo'shimcha shart qo'yan Ishtirokchi-davlat istalgan vaqtda bu qo'shimcha shartni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga bildirishnoma yuborish yo'li bilan bekor qilishi mumkin.

67-modda. Imzolash, ratifikatsiya qilish, qabul qilish, tasdiqlash va qo'shilish

1. Mazkur Konvensiya 2003-yilning 9-dekabridan 11-dekabrigacha Merida (Meksika), so'ngra 2005-yilning 9-dekabrigacha Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nyu-Yorkdagi markaziy muassasalarida barcha davlatlar tomonidan imzolanishi uchun ochiq.

2. Mazkur Konvensiya, shuningdek iqtisodiy integratsiyaning mintaqaviy tashkilotlari tomonidan, bunday tashkilotga a'zo davlatlardan kamida bittasi mazkur moddaning 1-bandiga muvofiq ushbu Konvensiyani imzolagan bo'lishi sharti bilan imzolanishi uchun ochiq.

3. Mazkur Konvensiya ratifikatsiya qilinishi, qabul qilinishi yoki tasdiqlanishi lozim. Ratifikatsiya yorliqlari yoxud qabul qilish yoki tasdiqlash to'g'risidagi hujjatlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga saqlash uchun topshiriladi. Iqtisodiy integratsiyaning mintaqaviy tashkiloti, agar uning a'zo-davlatlaridan kamida bittasi xuddi shunday yo'l tutgan bo'lsa, o'zining raktifikatsiya yorlig'ini yoxud qabul qilish yoki tasdiqlash to'g'risidagi hujjatini saqlash uchun topshirishi mumkin. Ushbu raktifikatsiya yorlig'i yoxud qabul qilish yoki tasdiqlash to'g'risidagi hujjatda bunday tashkilot mazkur Konvensiya bilan tartibga solinadigan masalalar bo'yicha o'zining vakolat doiralari to'g'risida bayon qiladi.

4. Mazkur Konvensiya har qanday davlat yoki a'zo davlatlarining hech bo'lmaganda bittasi mazkur Konvensiyaning ishtirokchisi hisoblangan har qanday iqtisodiy integratsiyaning mintaqaviy tashkilotiruv qo'shilishuv uchun ochiq. Qo'shilish to'g'risidagi hujjatlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga saqlash uchun topshiriladi. Iqtisodiy integratsiyaning mintaqaviy tashkiloti Konvensiyaga qo'shilish paytida mazkur Konvensiya bilan tartibga solinadigan masalalar bo'yicha o'zining

vakolat doiralari to'g'risida bayon qiladi. Bunday tashkilot, shuningdek o'z vakolati doirasida tegishli har qanday o'zgarishlar haqida depozitariya xabar beradi.

68-modda. Kuchga kirishi

1. Mazkur Konvensiya o'ttizinchi ratifikatsiya yorlig'i yoxud qabul qilish, tasdiqlash yoki qo'shilish to'g'risidagi hujjatlar saqlash uchun topshirilganidan keyin to'qsoninchi kuni kuchga kiradi. Mazkur bandning maqsadi uchun iqtisodiy integratsiyaning mintaqaviy tashkiloti tomonidan saqlash uchun topshirilgan har qanday bu kabi yorliq yoki hujjat, bunday tashkilotning a'zo davlatlari tomonidan saqlash uchun topshirilgan yorliq yoki hujjatlarga qo'shimcha sifatida ko'rib chiqilmaydi.

2. O'ttizinchi ratifikatsiya yorlig'i yoki ratifikatsiya qilish, qabul qilish, tasdiqlash yoki qo'shilish to'g'risidagi hujjat saqlash uchun topshirilganidan keyin mazkur Konvensiyani ratifikatsiya qilgan, qabul qilgan yoki tasdiqlagan yohud unga qo'shilgan har bir davlat yoki iqtisodiy integratsiyaning mintaqaviy tashkiloti uchun ushbu Konvensiya bunday davlat yoki tashkilot tomonidan tegishli yorliq yoki hujjatlar saqlash uchun topshirilgan sanadan boshlab o'ttizinchi kuni yoxud mazkur moddaning 1-bandiga muvofiq Konvensiyaning kuchga kirish sanasida keyinchalik yuzaga keladigan holatga ko'ra kuchga kiradi.

69-modda. Tuzatishlar

1. Mazkur Konvensiya kuchga kirgandan keyin besh yil o'tgach Ishtirokchi-davlat tuzatish kiritishni taklif qilishi va uni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga yuborishi mumkin, Bosh kotib taklif qilingan tuzatishni ko'rib chiqish va u bo'yicha qaror qabul qilish maqsadida ushbu taklifni Ishtirokchi-davlatlar va Konvensiyaning Ishtirokchi-davlatlari konferensiyasiga yuboradi. Ishtirokchi-davlatlar konferensiyasi har bir tuzatish bo'yicha konsensusga erishish uchun barcha sa'y-harakatlarni amalga oshiradi. Agar konsensusga erishish bo'yicha barcha sa'y-harakatlar amalga oshirilgan va kelishuvga erishilmagan bo'lsa, u holda tuzatishni qabul qilish uchun Ishtirokchi-davlatlar konferensiyasi majlisida yeg'ilgan va ovoz berishda ishtirok etayotgan Ishtirokchi-davlatlarning uchdan ikki qismining ovozi talab qilinadi.

2. Iqtisodiy integratsiyaning mintaqaviy tashkiloti o'z vakolatlari doirasiga kiradigan masalalarda ovoz berish huquqlarini mazkur moddaga binoan, mazkur Konvensiyaning ishtirokchisi hisoblangan o'zlarining tashkilotlariga a'zo davlatlar soniga teng ovozga ega bo'lgan holda amalga oshiradilar. Bunday tashkilotlar, agar ularga a'zo davlatlar o'zlariga tegishli ovoz berish huquqlarini amalga oshirayotgan bo'lsa, u holda o'zlarining ovoz berish huquqlaridan foydalanmaydilar va aksincha.

3. Mazkur moddaning 1-bandiga muvofiq qabul qilingan tuzatish Ishtirokchi-davlatlar tomonidan ratifikatsiya qilinishi, qabul qilinishi yoki tasdiqlanishi kerak.

4. Mazkur moddaning 1-bandiga muvofiq qabul qilingan tuzatish Ishtirokchi-davlatga nisbatan, u tomondan ushbu tuzatish qabul qilingani haqidagi ratifikatsiya yorlig'i yoki tasdiqlangani to'g'risidagi hujjat saqlash uchun Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga topshirilganidan keyin 90 kun o'tgach kuchga kiradi.

5. Tuzatish kuchga kirganidan keyin u bilan bog'liq bo'lishga rozilik bergan Ishtirokchi-davlatlar uchun ushbu tuzatish majburiy bo'ladi. Boshqa Ishtirokchi-davlatlar mazkur Konvensiyaning holatlari va ular tomonidan avvalroq ratifikatsiya qilingan, qabul qilingan yoki tasdiqlangan tuzatishlar bilan bog'lanib qolaveradilar.

70-modda. Denonsatsiya

1. Ishtirokchi-davlat Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga yozma bildirishnoma yuborish orqali mazkur Konvensiyani denonsatsiya qilishi mumkin. Bunday denonsatsiya Bosh kotib bildirishnomani olgan kundan boshlab bir yil o'tganidan keyin kuchga kiradi.

2. Iqtisodiy integratsiyaning mintaqaviy tashkiloti, agar uning barcha a'zo davlatlari mazkur Konvensiyani denonsatsiya qilsa, mazkur Konvensiyaning ishtirokchisi emas deb hisoblanadi.

71-modda. Depozitariy va tillar

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi mazkur Konvensiyaga depozitariy qilib tayinlanadi.

2. Mazkur Konvensiyaning ingliz, arab, ispan, xitoy, rus va fransuz tillarida yozilgan matnlari asliga to'g'ri bo'lib, asl nusxasi saqlash uchun Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga topshiriladi.

BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING MAHBUSLAR BILAN MUOMALA QILISH BO'YICHA MINIMAL STANDART QOIDALARI (MANDELA QOIDALARI)

*BMT Bosh Assambleyasining 2015-yil 17-dekabrda 70/175-sonli
rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan*

Birinchi dastlabki mulohaza

Quyidagi qoidalar penitensiar muassasalar namunaviy tizimini batafsil ta'riflashga qaratilmay, balki hozirgi zamon tafakkurining umume'tirof etilgan yutuqlari asosida va hozirgi vaqtdagi eng maqbul tizimlarning asosiy jihatlarini hisobga olgan holda mahbuslar bilan muomala qilish va qamoqxonalarni boshqarish borasidagi odatda prinsipial va amaliy nuqtai nazardan to'g'ri deb hisoblanadigan yondashuvni bayon qilishga mo'ljallangan.

Ikkinchi dastlabki mulohaza

1. Yuridik, ijtimoiy, iqtisodiy va geografik shart-sharoitlarning turfa xilligini e'tiborga olib, barcha ushbu qoidalarni har yerda va bir vaqtda qo'llash mumkin emasligi ochiq-oydin ko'rinib turibdi. Biroq mazkur qoidalar amaliy qiyinchiliklarni yengib o'tishga doim intilishga da'vat qilishi kerak, chunki umuman olganda, bu qoidalar Birlashgan Millatlar Tashkiloti maqbul deb hisoblagan eng minimal shart-sharoitlarni aks ettiradi.

2. Boshqa tarafdin, bu qoidalar tafakkur doim ilgarilab ketadigan faoliyat maydonini ham o'z ichiga oladi. Qoidalar ularda bayon qilingan prinsiplarga mos keladigan va ularda belgilangan maqsadlarga erishishga qaratilgan tajriba o'tkazishga va amaliyotni joriy etishga to'sqinlik qilmaydi.

Uchinchi dastlabki mulohaza

1. Qoidalarining I qismi qamoqxonalarni umumiy boshqarish xususida bo'lib, mahbuslarning barcha toifalariga nisbatan ular jinoyat ishi yoki fuqarolik ishi bo'yicha qamoqda saqlanayotganidan va faqatgina tergov vaqtida qamoqda saqlanayotganidan yoki jazoga hukm etilganidan qat'i nazar qo'llaniladi, shu jumladan qoidalarining bu qismi sudyalardan tomonidan "xavfsizlik chorasi" yoki axloq tuzatish choralari sifatida qamoqda saqlanayotgan mahbuslarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

2. Qoidalarining II qismida alohida toifalarga nisbatan qo'llaniladigan qoidalar bayon etilib, ular har bir bo'limda keltiriladi. Biroq A bo'limida qayd etilgan va jazoga hukm etilgan mahbuslarga taalluqli bo'lgan qoidalarni B, C va D bo'limlarida so'z boradigan

shaxslarga nisbatan ham, agar bu qoidalar mazkur toifadagi shaxslar uchun ishlab chiqilgan qoidalarga zid bo'lmasa va ularning ahvolini yaxshilasa, teng darajada qo'llash zarur.

To'rtinchi dastlabki mulohaza

1. Qoidalar voyaga yetmaganlarni qamoqda saqlash markazlari yoki tarbiya koloniyalari singari yosh bolalarga mo'ljallangan muassasalarni boshqarishni tartibga solishda tatbiq etilmaydi. Shunga qaramay, I qismni mazkur muassasalarda ham qo'llash mumkin.

2. Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha sudlarning vakolatiga kiradigan barcha yosh mahbuslarni yosh bolalar toifasiga kiritish zarur. Odatda, bunday yoshlarni qamoqda saqlashga hukm qilmaslik lozim.

I. UMUMIY QO'LLANILADIGAN QOIDALAR

Asosiy prinsiplar

1-qoida

Barcha mahbuslarga, ularning qadr-qimmatiga va inson sifatidagi qadriyatlariga qarab hurmat bilan munosabatda bo'lish zarur. Hech bir mahbus qiynoqqa solinishi va muomala yoki jazolashning boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan turlariga duchor qilinmasligi kerak, barcha mahbuslar bunday munosabatdan himoyalangan bo'lishi kerak va hech qanday holat ularni oqlay olmaydi. Mahbuslar, xodimlar, xizmat ko'rsatuvchi shaxslar va tashrif buyuruvchilarning himoyasi va xavfsizligi doim ta'minlangan bo'lishi kerak.

2-qoida

1. Ushbu qoidalarni betaraflik bilan qo'llash zarur. Irqi, tanasining rangi, jinsi, tili, diniy, siyosiy yoki boshqa e'tiqodi, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy holati, tug'ilishi yoki boshqa holati bo'yicha kamsitish mumkin emas. Mahbuslarning diniy e'tiqodini va axloqiy munosabatlari hurmat qilinishi kerak.

2. Qamoqxona ma'muriyatining kamsitilmaslik prinsipini amalda qo'llash maqsadida mahbuslarning, xususan, qamoqxona sharoitlarida mahbuslarning eng zaif toifalarining shaxsiy ehtiyojlarini hisobga olish lozim. Alohida ehtiyojlarga ega mahbuslarning huquqlarini himoya qilish va rag'batlantirish uchun choralar ko'rish va bunday choralar kamsituvchi deb hisoblanmasligi kerak.

3-qoida

Shaxslarni qamoqda saqlash va ularni tashqi dunyodan uzib qo'yadigan boshqa choralar bu shaxslarni o'z taqdirini o'zi belgilash huquqidan mahrum qilish bilan ularga azob beradi, chunki ularni ozodlikdan mahrum qiladilar. Shuning uchun alohida saqlash o'zini oqlaydigan yoki intizom nuqtai nazaridan talab qilingan hollardan tashqari boshqa hollarda qamoqxona tizimi bunday vaziyatdan kelib chiqadigan kuchliroq azob berilishiga yo'l qo'ymasligi kerak.

4-qoida

1. Qamoqda saqlash yoki shunga o'xshash tarzda ozodlikdan mahrum qilishning maqsadi, birinchi navbatda, jamiyatni jinoyatchilardan himoya qilish va jinoyatlarning

takrorlanish holatlarini kamaytirishdir. Ushbu maqsadlarga faqat, agar qamoqda saqlash muddatidan imkon qadar bunday shaxslar ozodlikka chiqqanidan so'ng ularning qonunga bo'ysunadigan va mustaqil hayot kechirishlari uchun ularni jamiyatga qayta integratsiyalashuvini ta'minlash maqsadida foydalanilsa, erishish mumkin.

2. Shu munosabat bilan qamoqxona ma'muriyati va vakolatli organlar ta'lim olish, kasbga tayyorlash va ishlash uchun tegishli va mavjud imkoniyatlarni, shuningdek yordam ko'rsatishning boshqa turlari, jumladan axloq tuzatish, axloqiy, ma'naviy, ijtimoiy, tibbiy va sportga oid yordamni taqdim etishi zarur. Barcha bunday dasturlar, tadbirlar va xizmatlar mahbuslarni qayta tarbiyalashda ularning shaxsiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak.

5-qoida

1. Qamoqxona rejimi qamoqxonadagi va ozodlikdagi hayot o'rtasidagi farqni imkon qadar kamaytirishga intilishi kerak. bu mahbuslarning mas'uliyat tuyg'usini kamaytiradi yoki inson sifatida ularning xislatlarini hurmat qiladi.

2. Qamoqxona ma'muriyati jismoniy, ruhiy yoki boshqa kamchiliklarga ega mahbuslar qamoqxonada teng huquqli asosda hayot kechirish imkoniyatiga to'liq ega bo'lishini ta'minlash uchun ularni joylashtirish va moslashtirish yuzasidan barcha mantiqli choralarni ko'radi.

Mahbuslarning shaxsiy ishlari bilan ishlash tartibi

6-qoida

Qamoqxonalarning barchasida mahbuslarning shaxsiy ishlari bilan ishlashning standartlashtirilgan tizimi bo'lishi kerak. Bunday tizim ro'yxatga olishning elektron ma'lumotlar bazasi yoki raqamlangan va imzolangan sahifalarga ega jurnal bo'lishi mumkin. Yuritiladigan hisob qaydnomalari ustidan ishonchli nazoratni ta'minlash va mazkur tizimda mavjud bo'lgan istalgan axborotdan ruxsatsiz foydalanishning yoki ularni o'zgartirishning oldini olish uchun tartib-taomillar nazarda tutilgan bo'lishi kerak.

7-qoida

Hech kim qamoqqa olish to'g'risidagi haqiqiy buyruqsiz qamoqqa qabul olinishi mumkin emas. Har bir mahbus keltirilishi bilan ularning shaxsiy ishlari bilan ishlash tizimiga quyidagi axborot kiritiladi:

a) mahbuslarning o'zining jinsi haqidagi shaxsiy idrokini hurmat qilgan holda ularning haqiqiy shaxsini aniqlash imkonini beradigan aniq ma'lumotlar;

b) qamoqqa olish sabablari hamda bunday qaror qabul qilish uchun javobgar organ, shuningdek qamoqqa olingan sana, vaqt va joy;

c) qamoqqa keltirilgan va qamoqdan chiqarilgan, shuningdek qamoqdan qamoqqa ko'chirilgan kun va soat;

d) har qanday ko'zga ko'rinadigan tan jarohatlari va avval bo'lgan qo'pol muomala ustidan shikoyatlar;

e) shaxsiy buyumlarning ro'yxati;

f) oila a'zolarining, shu jumladan, mumkin bo'lsa, bolalarining ismlari va ularning yoshi, joylashgan joyi va vasiylik yoki homiylik maqomi;

g) favqulodda vaziyatda aloqa qilish uchun batafsil axborot va mahbusning yaqin qarindoshlari to'g'risidagi ma'lumotlar.

8-qoida

Mahbuslar qamoqda bo'lgan vaqtda ularning shaxsiy ishlari bilan ishlash tizimiga, agar kerak bo'lsa, quyidagi axborot kiritiladi:

a) sud jarayoni bilan bog'liq axborot, shu jumladan sud eshituvlari sanalari va yuridik vakolatxona;

b) dastlabki baholash va malaka to'g'risidagi hisobotlar;

c) xulq-atvor va intizomga rioya etish to'g'risidagi axborot;

d) qiynoqlar yoki boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan muomala yoki jazo turlarini qo'llash to'g'risidagi iltimoslar va shikoyatlar, shu jumladan arizalar, agar ular maxfiy xususiyatga ega bo'lmasa;

e) intizomiy jazo choralarini qo'llash to'g'risidagi axborot;

f) har qanday tan jarohatlari yetkazilgan yoki o'limga olib kelgan holatlar va sabablari to'g'risida, ikkinchi holatda esa, qoldiqlar belgilangan joy to'g'risidagi axborot.

9-qoida

7 va 8-qoidalarda keltirilgan barcha hisob qaydlarini oshkor etilmaydi va faqat kasbiy majburiyatlari bunday hisob qaydlaridan foydalanishni talab qiladigan shaxslargagina taqdim etiladi. Har bir mahbus ichki qonun hujjatlariga muvofiq ruxsat berilgan qisqartmalar bilan o'ziga tegishli bo'lgan hisob qaydlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak va u ozod etilganda bunday hisob qaydlarining rasmiy ko'chirma nusxasini olish huquqiga ega.

10-qoida

Mahbuslarning shaxsiy ishlari bilan ishlash tizimlaridan ilmiy asoslantirilgan qarorlar qabul qilish uchun asos yaratish maqsadida qamoqxona kontingentini ifodalovchi tendensiyalar va uning o'ziga xos jihatlari, shu jumladan jazoni ijro etish muassasalardagi mahbuslar soni to'g'risida ishonchli ma'lumotlar olish uchun ham foydalaniladi.

Toifalarga bo'lib chiqish

11-qoida

Mahbuslarning turli toifalari alohida muassasalarda yoki ayni bir muassasaning turli qismlarida ularning jinsi, yoshi, avval sudlanganligi, ularni qamoqqa olishning yuridik sabablari va tayinlangan rejim turini hisobga olgan holda saqlanadi, shunday qilib:

a) erkaklar va ayollar imkon qadar alohida muassasalarda saqlanishi zarur; agar erkaklar va ayollar aynan bitta muassasada saqlansa, u holda ayollarni butunlay alohida uchastkalarda joylashtirish kerak;

b) tergov ostidagi mahbuslarni jazoga hukm qilinganlardan alohida joylashtirish kerak;

c) qarz majburiyatlarini bajarmaganligi uchun jazoga hukm qilingan shaxslarni va fuqarolik ishlari bo'yicha boshqa mahbuslarni jinoyat sodir etgan shaxslardan alohida joylashtirish kerak;

d) voyaga yetmagan huquqbuzarlarni kattalardan alohida saqlash kerak.

Xonalar

12-qoida

1. Mahbuslar tunni kameralar yoki xonalarda o'tkazadigan joyda, ularning har biri alohida kamera yoki xonaga ega bo'lishi kerak. Agar qamoqxona vaqtincha to'lib ketganligi bilan bog'liq o'ziga xos sabablarga ko'ra markaziy qamoqxona ma'muriyati bu qoidani qo'llashdan bosh tortadigan bo'lsa, ikki nafar mahbusni ayni bir kamera yoki xonaga joylashtirish maqsadga muvofiq emas.

2. Umumiy kameralar bor joyda, ularga joylashtiriladigan mahbuslarni ular bunday sharoitlarda yashay olishiga ishonch hosil qilish uchun yaxshilab tekshirish kerak. Tunlari qamoqxona xususiyatiga qarab muntazam nazorat olib borish zarur.

13-qoida

Mahbuslar foydalanadigan barcha xonalar, ayniqsa, yotoq xonalar barcha sanitariya talablariga javob berishi kerak, bundan tashqari, iqlim sharoitlariga, ayniqsa, mazkur xonalarning kub hajmiga, ularning eng minimal maydoniga, yoritilishiga, isitilishiga va shamollatilishiga zarur e'tibor qaratish kerak.

14-qoida

Mahbuslar yashaydigan va ishlaydigan xonalarda:

a) derazalar mahbuslarning kunduzgi yorug'likda o'qishi va ishlashi uchun yetarlicha o'lchamlarga ega bo'lishi kerak hamda sun'iy shamollatish tizimi mavjudligi yoki mavjud emasligidan qat'i nazar toza havo kirishini ta'minlash uchun mo'ljallangan bo'lishi lozim;

b) sun'iy yoritish mahbuslarning ko'rish qobiliyatiga ziyon yetkazmasdan o'qishi yoki ishlashi uchun yetarli darajada bo'lishi kerak.

15-qoida

Sanitariya qurilmalari har bir mahbus kerak bo'lgan payt, tozalikka va axloq qoidalariga rioya qilgan holda o'z tabiiy ehtiyojini qondira olishi uchun yetarli miqdorda bo'lishi kerak.

16-qoida

Hammom uchun jihozlar va dushlar soni har bir mahbus har bir iqlim uchun mos keladigan haroratda yil fasli va geografik joylashuvni hisobga olgan holda umumiy gigiyena shartlari talab qilganidek, ya'ni mo'tadil iqlimda, hech bo'lmaganda, haftada bir marta cho'mila olishi yoki dush qabul qilishi uchun yetarlicha bo'lishi kerak.

17-qoida

Mahbuslar muntazam foydalanadigan qamoqxonaning barcha qismlari har doim tartibli tartibda va toza holda saqlanishi kerak.

Shaxsiy gigiyena

18-qoida

1. Mahbuslardan o'zlarini ozoda saqlashini talab qilish kerak. Buning uchun ularni tozalik va salomatlikni saqlashda zarur bo'lgan suv va hojatxona buyumlari bilan ta'minlash zarur.

2. Mahbuslar o'zlarining insoniy qadr-qimmatiga mos bo'lgan tashqi ko'rinishni saqlab qolishlari uchun erkaklarga muntazam ravishda soqol olish imkoniyatini bergan holda, ularga sochini turmaklash va soqoliga qarash imkoniyatini berish zarur.

Kiyim-kechak va ko'rpa-to'shaklar

19-qoida

1. O'z kiyimini kiyish huquqi berilmagan mahbuslarga iqlimga mos keladigan va ularning salomatligini qoniqarli holatda saqlash imkonini beradigan formal kiyim to'plami berilishi kerak. Bu kiyim tahqirli yoki kamsituvchi xususiyatga ega bo'lmasligi kerak.

2. Kiyim toza va yaroqli holda saqlanishi kerak. Gigiyena talablariga muvofiq kiyimni yuvish va toza kiyimga almashtirib turish zarur.

3. Mahbus hokimiyatning ruxsati bilan qamoqxonani tark etadigan istisnoli holatlarda unga o'z kiyimini kiyishga yoki boshqa ko'zga tashlanmaydigan kiyim kiyishga ruxsat berilishi zarur.

20-qoida

Agar mahbuslarga o'z kiyimini kiyishga ruxsat berilsa, qamoqxonaga qabul paytida kiyim toza va kiyishga mos kelishi uchun choralar ko'rilishi zarur.

21-qoida

Har bir mahbus milliy yoki mahalliy normalarga muvofiq alohida yetarli darajadagi ko'rpa-to'shaklarga ega bo'lgan, shu bilan birga, ko'rpa-to'shaklar berilgan paytda toza, xizmatga yaroqli bo'lishi va ularning tozaligini saqlash uchun tez-tez almashtirib turiladigan alohida koyka bilan ta'minlanishi zarur.

Ovqatlanish

22-qoida

1. Qamoqxonona ma'muriyati odatiy soatlarda har bir mahbusni, uning sog'lig'i va kuchini saqlab qolish uchun yetarli darajada sifatli, yaxshi tayyorlangan va tortilgan to'yimli ovqat bilan ta'minlashi kerak.

2. Har bir mahbusga ichimlik suviga nisbatan ehtiyoj paydo bo'lganda uning ehtiyoji qondirilishi kerak.

Jismoniy mashqlar va sport

23-qoida

1. Toza havoda ish bilan band bo'lmagan har bir mahbus, agar qulay ob-havo sharoitida, har kuni hech bo'lmaganda, bir soat hovlida tegishli jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish huquqiga ega.

2. Tegishli jismoniy holatda bo'lgan voyaga yetmagan va boshqa tegishli yoshdagi mahbuslarga jismoniy mashg'ulot bilan shug'ullanish va mashqlar davridagi vaqtda o'ynash imkoniyati ta'minlanishi kerak. Buning uchun zarur maydonchalar, qurilmalar va uskunalar bo'lishi kerak.

Tibbiy-sanitariya xizmatlarini ko'rsatish

24-qoida

1. Mahbuslarga tibbiy-sanitariya xizmatlarini ko'rsatish davlatning majburiyati hisoblanadi. Mahbuslar jamiyatda mavjud bo'lgan standartdagi tibbiy-sanitariya xizmatlari bilan ta'minlangan bo'lishi va ularning huquqiy maqomi bo'yicha hech bir kamsitishlarsiz zarur tibbiy-sanitariya xizmatlaridan bepul foydalanish imkoniyati ta'minlanishi kerak.

2. Tibbiy-sanitariya xizmatlarini ko'rsatishni davlat sog'liqni saqlash organlari tizimi bilan uzviy hamkorlikda hamda davolash va qarov uzluksizligini, shu jumladan OIV, sil va boshqa yuqumli kasalliklarni, shuningdek giyohvandlikni davolash va ularga chalingan mahbuslarga qarash uzluksizligini ta'minlay oladigan tarzda tashkil etish zarur.

25-qoida

1. Har bir qamoqxona muassasasida tibbiy-sanitariya yordamiga alohida ehtiyoj sezadigan yoki ularni reabilitatsiya qilishga to'sqinlik qilayotgan sog'lig'i bilan bog'liq muammolarga ega bo'lgan mahbuslarga ko'p e'tibor bergan holda mahbuslarning jismoniy va ruhiy salomatligini baholash, saqlash, asrash va yaxshilash vazifasi yuklatilgan tibbiy-sanitariya xizmati bo'lishi kerak.

2. Tibbiy-sanitariya xizmati tarkibiga to'liq klinik mustaqillikka ega hamda psixologiya va psixiatriya sohasida yetarlicha tajriba va bilimga ega yetarli miqdordagi malakali xodimlardan iborat ko'p tarmoqli brigada kiritilishi kerak. Har bir mahbus malakali stomatolog xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

26-qoida

1. Tibbiy-sanitariya xizmati barcha mahbuslarning aniq, yangilangan va maxfiy shaxsiy tibbiy kartalarni tuzishi va yuritishi kerak hamda barcha mahbuslarga ularning talabiga ko'ra o'z tibbiy kartalaridan foydalanish imkoniyati taqdim etilishi lozim. Mahbus o'z tibbiy kartasidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish uchun uchinchi tomonni tayinlashi mumkin.

2. Tibbiy kartalar mahbus boshqa muassasaga o'tkazilgan taqdirda qabul qiluvchining tibbiy-sanitariya xizmatiga berilishi kerak, ularda keltirilgan tibbiy axborot esa maxfiy hisoblanadi.

27-qoida

1. Shoshilinch hollarda barcha qamoqxona muassasalari tibbiy yordamdan zudlik bilan foydalanish imkoniyatini berishi kerak. Mutaxassis xizmatlariga yoki jarrohlik aralashuviga muhtoj kasal mahbuslarni ixtisoslashtirilgan muassasalarga yoki fuqarolik kasalxonalariga o'tkazish zarur. Jazoni ijro etish xizmati o'z kasalxonalari mavjud bo'lganda, ular xodimlar bilan yetarli darajada ta'minlangan hamda u yerga yuboriladigan mahbuslarga qarash va ularni davolash uchun jihozlangan bo'lishi kerak.

2. Klinik qarorlar javobgar tibbiy mutaxassislar tomonidan qabul qilinishi mumkin va tibbiyot sohasiga aloqador bo'lmagan qamoqxona xodimi tomonidan bekor qilinishi yoki e'tiborsiz qoldirilishi mumkin emas.

28-qoida

Ayollarning qamoqxonasi muassasalari homilador ayollar va tug'ruqdagi ayollarni lozim darajada davolash va parvarish qilish uchun maxsus xonalarga ega bo'lishi kerak.

Imkoniyat bor joyda, tugʻruq qamoqxona emas, balki fuqarolik kasalxonasida oʻtkazilishi toʻgʻrisida qaygʻurish kerak. Agar bola qamoqxonada tugʻilgan boʻlsa, unda bu holat haqida tugʻilganlik toʻgʻrisidagi guvohnomada qayd etmaslik kerak.

29-qoida

1. Bolaga ota-onasidan biri bilan qamoqxonada qolishiga ruxsat berish haqidagi qaror bolaning eng ustuvor manfaatlariga asoslanishi kerak. Bolalarga ota-onasidan biri bilan qamoqxonada qolishga ruxsat berilgan joyda, quyidagilar zarur:

a) malakali xodimlarga ega bolalarga qarab turuvchi ichki yoki tashqi xizmatlar boʻlishini taʼminlash, bolalar oʻz ota-onasining gʻamxoʻrligidan foydalanmayotgan davrda ularni mazkur xizmatlarga joylashtirish;

b) bolalarga maxsus tibbiy-sanitariya xizmatlari, jumladan olib kelingan paytida sogʻligʻi holati tekshirilishini va mutaxassislar tomonidan ularning oʻsishini doimiy nazorat qilish.

2. Ota-onasidan biri bilan qamoqxonada boʻlgan bolalarga hech qachon mahbuslarga boʻlganidek munosabatda boʻlmaslik kerak.

30-qoida

Shifokor yoki boshqa malakali tibbiyot mutaxassislari, ular ushbu shifokorga hisobot berishi yoki bermasligidan qatʼi nazar, har bir mahbusni qabul qilishi, u bilan suhbatlashishi va u olib kelinganidan keyin imkon qadar tezroq, soʻngra esa zaruratga qarab uni tibbiy koʻrikdan oʻtkazishi kerak. Quyidagilarga alohida eʼtibor qaratish zarur:

a) tibbiy-sanitariya xizmatlariga boʻlgan ehtiyojlarni aniqlash va davolash uchun barcha zarur choralarni koʻrish;

b) keltirilgan mahbuslar qamoqxonaga qabul qilinishidan oldin duch kelishi mumkin boʻlgan har qanday shafqatsiz muomalani aniqlash;

c) ozodlikdan mahrum qilish tufayli boshidan oʻtkazayotgan ruhiy yoki boshqa stressning har qanday belgilarini, shu jumladan oʻz joniga qasd qilish yoki oʻz aʼzosini qasddan jarohatlash belgilarini, shuningdek giyohvand moddalar, tibbiyot preparatlari yoki alkogol isteʼmol qilish tufayli yuz bergan abstinensiya alomatlarini aniqlash hamda barcha zarur yakka tartibdagi choralarni koʻrish yoki tegishli ravishda davolash;

d) mahbuslarda yuqumli kasalliklar borligiga shubha qilingan hollarda bunday mahbuslarning klinik ajratib qoʻyilishini va karantin muddati davomida toʻgʻri davolanish taʼminlash;

e) zarur hollarda, mahbuslarning ishga, jismoniy mehnatga va boshqa faoliyatda ishtirok etishga yaroqliligini aniqlash.

31-qoida

Shifokor yoki boshqa malakali tibbiy mutaxassislar barcha kasal mahbuslar, jismoniy yoki ruhiy salomatligi bilan bogʻliq muammolardan yoki jarohatlardan shikoyat qilayotgan barcha mahbuslar va ularning alohida eʼtiborini tortgan istalgan mahbusning sogʻligʻini har kuni koʻzdan kechirish imkoniyatiga ega boʻlishi kerak. Barcha tibbiy koʻriklar toʻliq maxfiy sharoitlarda oʻtkazilishi kerak.

32-qoida

1. Shifokor yoki boshqa tibbiy mutaxassislar hamda mahbuslar o'rtasidagi munosabatlar jamiyatda bemorlarga nisbatan qo'llaniladigan axloqiy va kasbiy standartlar bilan tartibga solinishi kerak. Jumladan:

a) mahbuslarning jismoniy va ruhiy salomatligini asrash majburiy hamda kasallikni dastlabki klinik shartlari asosidagina davolash lozim;

b) mahbuslarning o'z salomatligiga mustaqil yondashish hamda shifokor va bemor o'rtasidagi munosabatlarda ongli rozilik prinsipiga rioya etish kerak;

c) tibbiy axborot bemorga yoki boshqa shaxslarga chinakam va to'g'ridan-to'g'ri xavf solmasa, maxfiy saqlanishi kerak;

d) qiynoqqa solish yoki boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan muomala yoki jazo turlari qo'llanishini ifodalashi mumkin bo'lgan harakatlarda, shu jumladan mahbusning sog'lig'iga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan tajribalarda, masalan, mahbusning hujayralari, organizmidagi to'qimalari va organlarini olishda faol yoki nafaol ishtirok etishni mutlaqo taqiqlash zarur.

2. Ushbu qoidaning 1 (a)-bandi nizomlarini buzmay, mahbuslar erkin va ongli ravishda rozilik berishi sharti bilan hamda amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq mahbuslarga, agar bu ularning sog'lig'iga bevosita va jiddiy foyda keltiradigan bo'lsa, klinik sinovlarda va jamiyatda qo'llaniladigan boshqa tibbiy tadqiqotlarda ishtirok etishga, shuningdek qarindoshlari uchun hujayralar, organizm to'qimalari va organlarni yetkazib beruvchi donorlar bo'lib xizmat qilishga ruxsat berilishi mumkin.

33-qoida

Shifokor mahbus uzoq vaqt qamoqda bo'lishi natijasida yoki qamoqda saqlashning biror-bir shartlari tufayli uning jismoniy yoki ruhiy salomatligi buzilgan yoki buzilishi mumkin deb hisoblasa, har safar bu haqda qamoqxona muassasi direktoriga ma'lumot beradi.

34-qoida

Agar mahbus keltirilganida uni tibbiy ko'rikdan o'tkazish yoki unga tibbiy yordam ko'rsatish paytida tibbiy mutaxassislarga qiynoqqa solinganlik va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan muomala yoki jazo turlari qo'llanganligidan darak beradigan biror-bir belgi ma'lum bo'lib qolsa, ular bunday hollarni hujjatlarda qayd etishi va ular bu haqda vakolatli tibbiy, ma'muriy yoki sud organlariga xabar berishi kerak. Mahbusga yoki u bilan bog'liq shaxslarga ziyon yetkazmaslik uchun zarur protsessual kafolatlarga rioya etish zarur.

35-qoida

1. Shifokor yoki sog'liqni saqlash sohasining vakolatli davlat organi muntazam tekshiruv o'tkazishi va quyidagi masalalar yuzasidan direktorga xabar berishi shart:

a) taom miqdori, sifati, uni tayyorlash va tarqatish sharoitlari;

b) muassasa va mahbuslar gigiyenasi hamda tozaligi;

c) qamoqxona muassasasidagi sanitariya, isitish, yoritish va ventilyatsiya;

d) mahbuslar kiyim-kechak va ko'rpa-to'shaklarining yaroqliligi va tozaligi;

e) bu ish ixtisoslashtirilgan xodimlarga yuklanmagan hollarda jismoniy tarbiya va sportga oid qoidalarga rioya qilish.

2. Qamoqxona muassasasi direktori ushbu qoidaning 1-bandi va 33-qoidaga muvofiq o'ziga yuboriladigan maslahat va ma'ruzalarni e'tiborga olishi hamda mazkur ma'ruzalarda keltirilgan maslahatlar va tavsiyalarni hayotga tatbiq etish yuzasidan darhol choralar ko'rishi kerak. Agar ushbu maslahat va tavsiyalar qamoqxona direktori vakolatlari doirasiga kirmasa yoki ularga qo'shilmagan holatlarda, direktor yuqori turuvchi organga darhol o'z ma'ruzasini yoxud shifokor yoki sog'liqni saqlash sohasidagi vakolatli davlat organining maslahat yoki tavsiyalarini taqdim etishi kerak.

Cheklovlar, intizom va jazo choralari

36-qoida

Intizom va tartibni faqat nazoratning ishonchliligini, qamoqxona muassasasining xavfsiz ishlashini va undagi yotoqxonaning tegishli qoidalariga rioya etilishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan cheklovlarni joriy etgan holda qo'llab-quvvatlash kerak.

37-qoida

Quyidagi jihatlar doim vakolatli ma'muriy organning qonunchilik yoki normativ-huquqiy hujjatlari bilan tartibga solinishi kerak:

- a) intizomiy qoidabuzarlikni ifodalaydigan xulq-atvor;
- b) mahbuslarga qo'llanilishi mumkin bo'lgan jazo choralari turi va davom etishi;
- c) bunday jazo choralari qo'llash huquqiga ega bo'lgan organ;

d) xoh intizomiy jazo sifatida bo'lsin, xoh tartib va xavfsizlikni saqlash uchun bo'lsin mahbuslarning umumiy kontingentidan majburan ayirishga, masalan, yolg'iz o'zini qamab qo'yish, ajratish, segregatsiya, karserga joylashtirish yoki saqlash shartlarini cheklashga qaratilgan har qanday choralar, shu jumladan har qanday majburan ajratish choralaridan foydalanishni va ularni qo'llash hamda bekor qilish tartibini qayta ko'rib chiqishni tartibga soladigan prinsiplar va tartib-taomillarni joriy etish.

38-qoida

1. Qamoqxona ma'muriyatiga intizomiy qoidabuzarliklarning oldini olish yoki nizolarni bartaraf etish uchun nizolarga yo'l qo'ymaslik, vositachilik qilish mexanizmlaridan yoki nizolarni hal etishning istalgan boshqa muqobil usullaridan imkon qadar foydalanish tavsiya etiladi.

2. Hozir ajratib qo'yilgan yoki avval ajratib qo'yilgan mahbuslarga nisbatan qamoqxona ma'muriyati ularni qamoqda saqlash bilan bog'liq salbiy oqibatlarni kamaytirish uchun zarur choralar ko'radi.

39-qoida

1. Mahbuslarga nisbatan jazo choralari qonun hujjatlarida yoki 37-qoidada qayd etilgan normativ-huquqiy hujjatlarda ko'rsatilgan shartlar hamda adolat va zarur huquqiy tartib-taomil prinsiplari asosida joriy etilishi mumkin. Mahbus hech qachon ayni bir qoidabuzarlik uchun takroriy jazoga tortilmasligi kerak.

2. Qamoqxona ma'muriyati intizomiy jazo va bunday jazo tayinlanishiga sabab bo'ladigan qoidabuzarlik teng bo'lishini ta'minlashi hamda barcha ko'rilgan intizomiy choralarning zarur hisobini yuritishi kerak.

3. Qamoqxona ma'muriyati intizomiy jazo berishdan avval mahbusning ruhiy kasalligi yoki uning aqliy zaifligi uning xulqiga va intizomiy jazo qo'llash uchun sabab

bo'lgan qoidabuzarlikni va qilmishni sodir etishga ta'sir etgan bo'lishi mumkinligi haqidagi masalani ko'rib chiqishi kerak. Qamoqxona ma'muriyati mahbusning ruhiy kasalligi yoki aqliy zaifligi oqibatida sodir etilgan deb hisoblangan biror-bir qilmish uchun jazo choralarini tayinlamasligi lozim.

40-qoida

1. Mahbuslarni qamoqxona muassasasiga xizmat ko'rsatishga doir ishlarga intizomiy tartibda tayinlamaslik lozim.

2. Biroq bu qoida o'zini o'zi boshqarish tizimi lozim darajada ishlashiga to'sqinlik qilmasligi kerak. Bunday tizimda ijtimoiy, ta'lim yoki sport faoliyatining muayyan turlari uchun javobgarlik ularni qayta tarbiyalash maqsadida tashkil etiladigan guruhlar tarkibida nazorat ostida ishlaydigan mahbuslarning o'ziga yuklatiladi.

41-qoida

1. U yoki bu mahbus tomonidan intizomiy qoidabuzarlik sodir etilgani to'g'risidagi har qanday arizalar darhol vakolatli organ e'tiboriga yetkazilishi kerak. Bu organ ularni kechikmay tekshirishi kerak.

2. Mahbuslarni ularga qo'yilayotgan ayblovlarning xususiyatini ular tushunadigan tilda darhol yetkazish zarur hamda ular o'z himoyasini tayyorlash uchun yetarlicha vaqt va shart-sharoitlar bilan ta'minlanishi kerak.

3. Mahbuslarga odil sudlov manfaatlari talab qilganda, jumladan intizomni jiddiy buzganlikda ayblash bilan bog'liq hollarda o'zini shaxsan yoki yuridik yordamdan foydalangan holda himoya qilishga ruxsat beriladi. Agar mahbuslar intizomiy tekshiruv doirasida sud tekshiruvi olib borilayotgan tilni tushunmasa yoki bu tilda so'zlashishni bilmasa, ularga malakali tarjimonning yordami bepul taqdim etiladi.

4. Mahbuslar o'zlariga berilgan intizomiy jazoni sudda qayta ko'rib chiqishga erishish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

5. Intizomning buzilishi jinoyat sifatida ta'qib qilingan hollarda mahbuslar jinoiy sud ishini yuritishga nisbatan qo'llaniladigan barcha zarur protsessual kafolatlardan, shu jumladan advokat xizmatlaridan moneliqsiz foydalanish huquqiga ega bo'lishi kerak.

42-qoida

Ushbu qoidalarda ko'rib chiqilayotgan mahbuslarni qamoqxonada saqlashning umumiy shart-sharoitlari, shu jumladan yoritish, ventilyatsiya, harorat, sanitariya, ovqatlanish, ichimlik suvi bilan ta'minlash, hovlida sayr qilish va jismoniy mashqlar qilish imkoniyati, shaxsiy gigiyena, salomatlikni asrash va zarur shaxsiy makon ajratish bilan bog'liq shart-sharoitlar hech bir istisnosiz barcha mahbuslarga yaratib berilishi kerak.

43-qoida

1. Hech bir holatda qiynoqqa solish yoki boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan muomala yoki jazo turlariga teng cheklovlar yoki intizomiy jazolarni qo'llash mumkin emas. Jumladan, quyidagi amaliyot turlarini qo'llashni taqiqlash zarur:

- a) noma'lum muddatga yolg'iz o'zini qamab qo'yish;
- b) uzoq vaqtga yolg'iz o'zini qamab qo'yish;

c) mahbusni chiroq bo'lmagan kameraga yoki doim yoritib turiladigan kameraga joylashtirish;

d) mahbusga tan jazosini qo'llash yoki uning ovqat rasionini yoki ichimlik suvini kamaytirish;

e) jamoaviy jazo.

2. Intizomiy qoidabuzarliklar uchun jazo choralari sifatida tinchlantiruvchi vositalarni hech qachon qo'llash mumkin emas.

3. Intizomiy jazolar yoki cheklovchi choralar mahbusning oilasi bilan aloqasini taqiqlashni o'z ichiga olmasligi kerak. Oilasi bilan aloqalarni cheklash uzoq davom etmaydigan muddatga hamda bu xavfsizlik va tartibni saqlash uchun talab etilgandagina o'rnatilishi mumkin.

44-qoida

Ushbu qoidalarning maqsadlari uchun yolg'iz o'zini qamab qo'yish kuniga 22 soat yoki undan ko'proq vaqt mobaynida mahbuslarga odamlar bilan mazmunli aloqada bo'lish imkonini bermay, ularning erkinligini cheklashni anglatadi. Uzoq vaqt yolg'iz o'zini qamab qo'yish ketma-ket 15 kundan ortiq muddat davomida yolg'iz o'zini qamab qo'yishni anglatadi.

45-qoida

1. Yolg'iz o'zini qamab qo'yishni alohida hollarda imkon qadar qisqa muddat davomida mustaqil nazorat qilib turish sharti bilan va vakolatli organning ruxsati bilan eng qattiq chora sifatida qo'llash zarur. Bu jazo mahbusga chiqarilgan hukm tufayli qo'llanmasligi kerak.

2. Yolg'iz o'zini qamab qo'yish shaklidagi jazo ruhiy holati buzilgan yoki jismoniy nuqsonlarga ega mahbuslarga nisbatan, agar bunday choralarning qo'llanilishi ular holatining yomonlashishiga olib kelsa, taqiqlanishi kerak. Ayollar va bolalar bilan bog'liq hollarda yolg'iz o'zini qamab qo'yishni va shunga o'xshash choralarni qo'llash avvalgidek taqiqlangan. Bu haqda Birlashgan Millatlar Tashkilotining jinoyatning oldini olish va jinoiy odil sudlov sohasidagi boshqa standartlari va normalarida so'z boradi.

46-qoida

1. Tibbiyot xodimlari intizomiy jazolar tayinlashda yoki boshqa cheklovchi choralar ko'rishda ishtirok etmasligi kerak. Biroq ular majburiy ajratib qo'yishning har qanday shakliga duchor qilingan mahbuslarning sog'lig'iga alohida e'tibor qaratishi, shu jumladan bunday mahbuslarning oldiga har kuni borishi va ularning yoki qamoqxona xodimlarining iltimosiga ko'ra zarur tibbiy yordam berishi va davolashi kerak.

2. Tibbiyot xodimlari intizomiy jazolarning yoki boshqa cheklovchi choralarning bunday jazolarga yoki choralarga duchor qilingan mahbusning jismoniy yoki ruhiy sog'lig'iga har qanday salbiy ta'siri haqida direktorga darhol xabar berishi va agar ular jazoni yoki jazo chorasini mahbusning jismoniy yoki ruhiy holati tufayli to'xtatish yoki o'zgartirishni zarur deb hisoblasalar, direktorga o'z fikrlarini bildirishlari kerak.

3. Tibbiyot xodimlari mahbusni majburan ajratib qo'yish uning sog'lig'i yomonlashishiga yoxud buzilgan ruhiy holati yoki jismoniy nuqsonlari kuchayishiga olib kelmasligi uchun mahbusni ajratib qo'yish tartibiga o'zgartirishlar kiritishni ko'rib chiqish va tavsia qilish huquqiga ega bo'lishi kerak.

Tinchlantirish vositalari

47-qoida

1. Qadr-qimmatni tahqirleydigan yoki og'riq beradigan kishanlardan, zanjirlardan yoki boshqa tinch-lantirish vositalaridan foydalanishni taqiqlash kerak.

2. Tinchlantirishning boshqa vositalaridan, agar bunga qonunda ruxsat berilgan bo'lsa, quyidagi hollardagina foydalanish zarur:

a) mahbuslar sud organlari yoki ma'muriy organlar oldida kishandan ozod etilishi sharti bilan tashish vaqtida qochib ketishning oldini olish uchun;

b) agar mahbus o'ziga yoki boshqalarga zarar yetkazishiga yoki moddiy ziyon yetkazishiga xalaqit berish kerak bo'lganda boshqa nazorat choralari samarasiz bo'lsa, qamoqxona muassasasi direktorining buyrug'iga ko'ra; bunday hollarda direktor darhol shifokorni yoki boshqa malakali tibbiyot mutaxassislarini ogohlantiradi va yuqori turuvchi ma'muriy organga ma'ruza taqdim etadi.

48-qoida

1. Agar tinchlantirish vositalaridan foydalanish 47-qoidaning 2-bandiga muvofiq ruxsat etilgan bo'lsa, quyidagi prinsiplar qo'llaniladi:

a) hech bir cheklovsiz tashish bilan bog'liq xatarlarni bartaraf etish uchun nazoratning nisbatan yumshoqroq shakllari samarasiz bo'lib chiqsa, tinchlantirish vositalaridan foydalanish kerak;

b) tinchlantirish usuli yuzaga keladigan xavf-xatarlar darajasi va xususiyatini hisobga olgan holda mahbusni tashishni nazorat qilish uchun zarur va qo'llash mumkin bo'lgan choralarning eng yumshoq usuli bo'lishi kerak;

c) tinchlantirish vositalaridan faqat zarur vaqt mobaynida foydalanish kerak va hech bir cheklovsiz harakatlanish bilan bog'liq xavf-xatar yo'q bo'lishi bilan imkon qadar ular tezroq olib tashlanishi kerak.

2. Tinchlantirish vositalari hech qachon ayollarga to'lg'oq vaqtida, tug'ish paytida va tug'ruqdan keyin darhol qo'llanilmasligi kerak.

49-qoida

Qamoqxona ma'muriyati tinchlantirish vositalaridan foydalanish zaruratiga imkon qoldirmaydigan yoki ularning keskin xususiyatini kamaytiradigan nazorat usullaridan foydalanishga, shuningdek ulardan foydalanishda professional tayyorgarlikni ta'minlashga intilishi kerak.

Mahbuslarni va kameralarni tintuv qilish

50-qoida

Mahbuslarni va kameralarni tintuv qilishni tartibga soluvchi qonunchilik va normativ-huquqiy hujjatlar tegishli qamoqxona muassasasidagi xavfsizlikni ta'minlash zarurligini e'tiborga olgan holda xalqaro-huquqiy majburiyatlarga mos kelishi hamda xalqaro standartlar va normalarni hisobga olishi kerak. Tintuv qilinayotgan shaxsning insoniy qadr-qimmatini va shaxsiy hayoti daxlsizligi hurmat qilingan, shuningdek mutanosiblik, qonuniylik va zarurlik prinsiplariga rioya etilishini ta'minlagan holda o'tkaziladi.

51-qoida

Tintuvlar mahbusni qo'rqitish, dahshatga solish yoki shaxsiy hayotining daxlsizligiga suiqasd qilish maqsadida o'tkazilmasligi kerak. Hisobdorlik maqsadida qamoqxona ma'muriyati tintuvlar to'g'risidagi, jumladan to'liq yechintirib va badan qismlari tekshirilib o'tkaziladigan tintuvlar to'g'risidagi tegishli hisobotlarni saqlashi kerak, shuningdek mazkur tintuvlarni o'tkazish sabablari, ularni o'tkazgan shaxslar to'g'risidagi axborot va tintuv natijalari ko'rsatiladi.

52-qoida

1. Intruziv tintuvlar, shu jumladan to'liq yechintiriladigan va badan qismlari tekshiriladigan tintuvlar faqat o'ta zarur holda o'tkazilishi kerak. Qamoqxona ma'muriyatiga tintuvlar o'tkazishning intruziv tintuv shakllari bilan bog'liq bo'lmagan tegishli muqobil usullarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish tavsiya etiladi. Intruziv tintuvlar yopiq eshiklar ortida o'tkaziladi hamda tayyorgarlikdan o'tgan, mahbus bilan bir jinsda bo'lgan xodim tomonidan amalga oshiriladi.

2. Badan qismlari tekshiriladigan tintuvlar faqat mahbuslarni parvarishlash uchun asosiy javobgar bo'lmagan malakali tibbiyot mutaxassislari yoki hech bo'lmaganda, gigiyena, sog'liqni saqlash va xavfsizlik standartlariga rioya qilish masalalari bo'yicha tibbiyot mutaxassislaridan zarur tayyorgarlikdan o'tgan xodimlar tomonidan amalga oshiriladi.

53-qoida

Mahbuslar o'z ish yurituviga taalluqli bo'lgan hujjatlardan foydalana olishi kerak yoki ularning ixtiyorida qamoqxona ma'muriyati foydalana olmaydigan hujjatlarning bo'lishiga ruxsat berilishi kerak.

Mahbuslarni xabardor qilish va ular tomonidan shikoyatlar taqdim etish

54-qoida

Qamoqxonaga qabul qilishda har bir mahbusga darhol quyidagilarga oid yozma axborot taqdim etilishi zarur:

- a) qamoqxona qonunchiligi va qamoqxona muassasasining amaldagi ichki tartib-qoidalari;
- b) uning huquqlari, axborot olishning ruxsat etilgan usullari bilan birga, yuridik maslahatlar, shu jumladan yuridik yordam ko'rsatish tizimi orqali maslahat olish, shuningdek ariza va shikoyatlar berish tartib-taomillari;
- c) uning majburiyatlari, jumladan qo'llaniladigan intizomiy jazo choralari;
- d) mahbusga qamoqxona muassasasida yashash sharoitlariga moslashish imkonini berish uchun zarur bo'lgan barcha boshqa masalalar.

55-qoida

1. 54-qoidada qayd etilgan axborot qamoqxona kontingentining ehtiyojlariga muvofiq eng keng foydalaniladigan tillarda taqdim etilishi kerak. Agar mahbus ushbu tillarning hech birini tushunmasa, unga tarjimon yordamini taqdim etish zarur.

2. Savodsiz mahbuslarni og'zaki ravishda xabardor qilish zarur. U yoki bu darajadagi mahbuslarga axborotni ularning ehtiyojlarini hisobga olgan holda taqdim etish zarur.

3. Qamoqxona ma'muriyati ushbu axborotning qisqacha bayonini qamoqxona muassasasining umumiy foydalanish xonalarini ko'rinadigan joyiga ilib qo'yishi kerak.

56-qoida

1. Har bir mahbus har kuni qamoqxona muassasasi direktoriga yoki u vakolat bergan xodimga arizalar yoki shikoyatlar bilan murojaat qilish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

2. Qamoqxona inspektorlari tomonidan inspeksiyalar o'tkazilgan vaqtda arizalar yoki shikoyatlar bilan ularga murojaat qilish imkoniyati berilishi kerak. Mahbuslar inspektor bilan yoki inspeksiyaning biror-bir boshqa xodimi bilan erkin va to'liq maxfiy sharoitda, direktor yoki muassasaning boshqa xodimlari yo'qligida gaplashish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

3. Har bir mahbus mazmun jihatidan senzura qilinmasligi lozim bo'lgan arizalar yoki shikoyatlar bilan qamoqxona boshqarmasi markaziy organlariga va sud yoki boshqa vakolatli organlarga, shu jumladan ishni qayta ko'rish yoki holatni to'g'rilash yuzasidan choralar ko'rishga vakolatli organlarga murojaat qilish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

4. Ushbu qoidaning 1-3-bandlarida nazarda tutilgan huquqlar mahbusning advokatiga nisbatan ham tatbiq etilishi kerak. Mahbusda ham, uning advokatida ham bunday huquqlarni amalga oshirish imkoniyati mavjud bo'lmagan hollarda mahbusning oila a'zolaridan biri yoki ish holatlari bilan tanish bo'lgan har qanday boshqa shaxs buni amalga oshirishi mumkin.

57-qoida

1. Barcha arizalar va shikoyatlar zudlik bilan ko'rib chiqilishi lozim va ularga hech bir kechikishsiz javob berish zarur. Ariza yoki shikoyat rad etilgan yoki asossiz qoldirilgan taqdirda ariza yoki shikoyat beruvchi ularni sud yoki boshqa organga yuborish huquqiga ega bo'lishi kerak.

2. Agar ariza yoki shikoyat beruvchi iltimos qilsa, mahbuslarga arizalar yoki shikoyatlar xavfsiz va maxfiy tarzda yuborish imkoniyatini ta'minlash uchun kafolatlar nazarda tutilgan bo'lishi kerak. 56-qoidaning 4-bandida qayd etilgan mahbus yoki boshqa shaxs ariza yoki shikoyat berganligi tufayli qasos olish, qo'rqitish yoki boshqa salbiy ta'sirga duchor bo'lmashligi kerak.

3. Mahbuslarni qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan muomala yoki jazo turlari to'g'risidagi fikrlar zudlik bilan ko'rib chiqilishi hamda 71-qoidaning 1 va 2-bandlariga muvofiq mustaqil davlat organi tomonidan darhol va xolis ko'rib chiqilishi kerak.

Tashqi dunyo bilan aloqalar

58-qoida

1. Mahbuslarga muntazam ravishda vaqti-vaqti bilan va lozim darajadagi nazorat ostida o'z oilasi yoki do'stlari bilan quyidagicha muloqot qilish imkoniyati berilishi kerak:

a) xat yozishmalari orqali va, agar bunday imkoniyat bo'lsa, telekommunikatsiya, elektron, raqamli va boshqa vositalardan foydalangan holda; va

b) uchrashuvlar davomida.

2. Er-xotinlarning uchrashuvlariga ruxsat berilgan holatlarda bu huquq biror-bir kamsitishsiz qo'llanilishi kerak va ayol mahbuslar bu huquqni erkaklar bilan teng ravishda amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak. Xavfsizlikni ta'minlash va qadr-qimmatini hurmat qilish masalalarini tegishli tarzda hisobga olgan holda adolatli

va teng foydalanishni ta'minlash uchun tartib-taomillar nazarda tutilishi va xonalar ajratilishi lozim.

59-qoida

Mahbuslar, imkon qadar, o'z uylari yoki ijtimoiy moslashuv joylari yaqinida joylashgan qamoqxona muassasalariga joylashtirilishi lozim.

60-qoida

1. Qamoqxona muassasasiga tashrif buyuruvchilarning kirishiga ruxsat berilishi tashrif buyuruvchilarning tekshiruvdan o'tishga roziligiga bog'liqdir. Tashrif buyuruvchi har qanday vaqtda rozilik berish qarorini o'zgartirishi mumkin va bunday holatda qamoqxona ma'muriyati kirishga ruxsat berishni rad qilishi mumkin.

2. Tashrif buyuruvchilarning tekshiruvdan o'tkazilishi va kirishiga ruxsat berilishi jarayoni kamsitadigan tarzda bo'lmasligi hamda kamida 50–52-qoidalarda bayon qilinganidek, himoya xususiyatiga ega bo'lishi kerak bo'lgan prinsiplar bilan tartibga solinishi kerak. Tana qismlarini tekshirish bilan bog'liq tintuvlar o'tkazmaslik va hech qachon bunday tintuvlarni bolalarga nisbatan qo'llamaslik zarur.

61-qoida

1. Mahbuslarga hech qanday kechiktirish, aralashish yoki senzurasiz va har qanday yuridik masala yuzasidan to'liq sir saqlangan sharoitda qo'llaniladigan ichki qonun hujjatlariga muvofiq o'zining shaxsiy tanlovi bo'yicha advokat yoki yuridik yordam ko'rsatadigan shaxs bilan uchrashuv, muloqot va maslahatlashuvlar uchun zarur imkoniyat, vaqt va sharoitlar taqdim etilishi lozim. Maslahatlashuvlar ko'zga ko'rinib turadigan, biroq qamoqxona xodimlari eshita olmaydigan joyda o'tkazilishi mumkin.

2. Mahbuslar mahalliy tilda so'zlashmaydigan hollarda, qamoqxona ma'muriyati mustaqil malakali tarjimon xizmatlaridan foydalanishni ta'minlashi kerak.

3. Mahbuslar samarali yuridik yordamdan foydalana olishi kerak.

62-qoida

1. Qamoqda saqlanayotgan chet el fuqarolariga o'z mamlakatining diplomatik va konsullik vakillari bilan aloqada bo'lishi uchun maqbul imkoniyat ta'minlanishi lozim.

2. Mazkur davlatda diplomatik yoki konsullik vakolatxonasi bo'lmagan mamlakatlarning fuqarolari hisoblangan mahbuslar, shuningdek qochoqlar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, ularning manfaatlarini himoya qilishni o'z zimmasiga olgan davlatning diplomatik vakillari yoki ularni himoya qilish bilan shug'ullanadigan har qanday milliy yoki xalqaro organ bilan aloqada bo'lish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

63-qoida

Mahbuslar e'tiboriga gazeta, jurnallar yoki qamoqxonaning maxsus nashrlarini o'qishga, radio eshitish va ma'ruzalarda ishtirok etishga ruxsat berish orqali yoki qamoqxona ma'muriy organlari tomonidan ruxsat etilgan va nazorat qilinadigan boshqa vositalar yordamida eng muhim yangiliklarni muntazam ravishda yetkazib turilishi lozim.

Kitoblar

64-qoida

Har bir qamoqxona muassasasi barcha toifadagi mahbuslar foydalana oladigan va ham ko'ngilochar, ham ta'lim mazmunidagi kitoblardan iborat kutubxonaga ega bo'lishi kerak.

Din

65-qoida

1. Agar qamoqxona muassasasida ayni bir dinga mansub mahbuslar soni yetarli miqdorda bo'lsa, mazkur dinning malakali xodimini tayinlash yoki unga u yerda tegishli marosimlarni o'tkazishga ruxsat berilishi kerak. Agar bunday mahbuslarning soni ancha ko'p va tegishli imkoniyatlar mavjud bo'lsa, bunday xodimini to'la vaqtga tayinlash lozim.

2. Mazkur qoidaning 1-bandiga asosan qamoqxona muassasasiga tayinlanadigan yoki kirishga ruxsat beriladigan malakali diniy xodimi diniy marosimlarni muntazam ravishda amalga oshirish va buning uchun ajratilgan vaqtda o'z diniga mansub mahbuslar bilan yolg'iz diniy mavzularda suhbatlashish uchun vaqti-vaqti bilan tashrif buyurish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

3. Mahbuslarni har qanday dinning malakali vakilidan foydalana olish imkoniyatidan mahrum qilish mumkin emas. Boshqa tomondan, agar mahbus diniy xodimining tashrifiga qarshi bo'lsa, uning bu nuqtai nazariga to'la hurmat bilan yondashish kerak.

66-qoida

Amaldagi imkoniyat doirasida har bir mahbus qamoqxona muassasasi devorlari orasida diniy marosimlarda ishtirok etish va diniy e'tiqodiga xos diniy yozuvlarga ega bo'lish orqali o'z diniy ehtiyojlarini qondirishiga ruxsat berilishi kerak.

Mahbuslarning mol-mulki saqlash

67-qoida

1. Mahbus qamoqxona muassasasiga qabul qilinganida qamoqxona muassasasida amalda bo'lgan qoidalarga binoan mahbus yonida saqlash huquqiga ega bo'lmagan pul, qimmatbaho buyumlar, kiyim-kechak va boshqa narsalar saqlash uchun topshiriladi. Bunday mol-mulk ro'yxati mahbus tomonidan imzolanadi. Uning yaxshi holatda saqlanishi uchun choralar ko'rilishi kerak.

2. Mahbus ozod etilganida, unga tegishli barcha mol-mulk va pullar qaytarib berilishi lozim, unga sarflash uchun ruxsat berilgan pul, qamoqxona muassasasidan tashqariga yuborishga ruxsat berilgan ashyolar yoki sanitariya nuqtai nazaridan yo'q qilinishi zarur bo'lgan kiyimlar bundan mustasno. Mahbus o'ziga tegishli pul va buyumlarni olganida imzo chekadi.

3. Bu mahbusning mazkur muassasada bo'lgan vaqtida oladigan har qanday pul va ashyolarga ham taalluqlidir.

4. Agar mahbus dori yoki tibbiyot dori-darmonlariga ega bo'lsa, ularni nima qilish haqidagi qaror shifokor yoki boshqa malakali tibbiyot xodimi tomonidan qabul qilinadi.

Xabarnomalar

68-qoida

Har bir mahbus o'z oilasi yoki aloqada bo'lish uchun shaxs sifatida tayinlangan boshqa shaxsni o'zining qamoqqa olingani, boshqa muassasaga ko'chirilgani va har qanday jiddiy kasalligi yoki tan jarohati to'g'risida zudlik bilan xabardor qilish huquqiga, shuningdek imkoniyatiga va vositalariga ega bo'lishi kerak. Mahbuslarning shaxsiy ma'lumotlarini taqdim etish ichki qonunchilik bilan tartibga solinadi.

69-qoida

Mahbus vafot etgan taqdirda, qamoqxona muassasasi direktori zudlik bilan mahbusning eng yaqin qarindoshini yoki favqulodda vaziyatda aloqada bo'ladigan shaxsni bu haqda xabardor qiladi. Mahbusning o'zi tomonidan uning sog'lig'i to'g'risidagi ma'lumotni olish maqsadida ko'rsatilgan shaxslar uning jiddiy kasalligi, tan jarohati yoki tibbiyot muassasasiga o'tkazilgani haqida direktor tomonidan xabardor qilinadi. Mahbusning kasalligi yoki tan jarohati haqida ayoli yoki erini yoxud yaqin qarindoshini xabardor qilmaslik bo'yicha aniq ifodalangan iltimosini hurmat qilish zarur.

70-qoida

Qamoqxona ma'muriyati mahbusni uning yaqin qarindoshi yoki boshqa biron-bir ahamiyatli bo'lgan shaxsning jiddiy kasalligi yoki vafoti to'g'risida darhol xabardor qiladi. Agar vaziyat imkon bersa, mahbusga qo'riqlash ostida yoki mustaqil ravishda uning yaqin qarindoshi yoki unga boshqa ahamiyatli bo'lgan shaxslarning jiddiy kasal bo'lgan holatlarda ularni borib ko'rishga yoxud yaqin qarindoshi yoki boshqa ahamiyatli bo'lgan shaxsning dafn marosimida ishtirok etishiga ruxsat berilishi kerak.

Tergov qilish

71-qoida

1. Ichki tergov qilish boshlanishidan qat'i nazar, qamoqxona muassasasining direktori qamoqxonadagi o'lim, yo'qolib qolish yoki og'ir tan jarohati yetkazilgan har qanday holat to'g'risida qamoqxona ma'muriyatiga tobe bo'lmagan hamda vaziyatni va bunday holatlarning sabablarini tez, xolis va samarali tergov qilish topshirilgan sud yoki boshqa vakolatli organni darhol xabardor qiladi. Qamoqxona ma'muriyati ushbu organ bilan to'liq darajada hamkorlik qilishi va barcha dalillarning saqlanishini ta'minlashi kerak.

2. Ushbu qoidaning 1-bandida ko'rsatilgan majburiyat, rasmiy shikoyat kelib tushganligidan qat'i nazar, qamoqxona muassasasida qiynoqqa solish yoki boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan muomala yoki jazo turlari sodir etilgan deb taxmin qilish uchun asoslar mavjud bo'lgan barcha hollarda teng ravishda qo'llaniladi.

3. Agar mazkur qoidaning 2-bandida qayd etilgan harakatlar sodir etilgan deb taxmin qilish uchun oqilona asoslar mavjud bo'lsa, barcha potensial aloqador bo'lgan shaxslar biror-bir tarzda tergov bilan bog'liq bo'lmasligi hamda guvohlar, jabrlanuvchi yoki jabrlanuvchining oilasi bilan hech qanday aloqada bo'lmasligi uchun shoshilinch choralar ko'riladi.

72-qoida

Qamoqxona ma'muriyati vafot etgan mahbusning jasadiga munosib ravishda va hurmat bilan munosabatda bo'lishi kerak. Vafot etgan mahbusning jasadi oqilona qisqa muddatlarda va kechi bilan tergov tugaganidan so'nguning yaqin qarindoshlariga qaytarib berilishi kerak. Qamoqxona ma'muriyati, agar buni o'tkazishni istagan yoki bunga qodir bo'lgan boshqa mas'ul tomon bo'lmasa, dafn marosimini madaniy an'analarni hisobga olgan holda o'tkazilishiga ko'maklashishi kerak hamda ushbu masala bo'yicha barcha materiallarni saqlashi lozim.

Mahbuslarning ko'chirilishi

73-qoida

1. Mahbuslar qamoqda saqlash joylariga yuborilganida yoki bir qamoqxonadan boshqasiga o'tkazilganida, ular imkon qadar atrofdagilarning nigohidan himoya qilinishi va ularni haqoratlashdan, ularga qiziqishdan va oshkoralikning har qanday turlaridan himoya qilish uchun barcha choralar ko'rilishi lozim.

2. Mahbuslarni shamollatish yoki yoritilishi yetarli darajada bo'lmagan yoxud boshqa har qanday jismoniy jihatdan og'ir sharoitlarda ko'chirilishi taqiqlanadi.

3. Mahbuslar qamoqxona ma'muriyati hisobidan ko'chiriladi, bunda ularning ko'chirilishi barcha uchun bir xil sharoitda amalga oshirilishi kerak.

Muassasalar xodimlari

74-qoida

1. Qamoqxona ma'muriyati barcha toifadagi xodimlarni sinchikovlik bilan tanlash haqida qayg'urishi kerak, chunki qamoqxona muassasasini tegishli tarzda boshqarish ushbu xodimlarning vijdonliligi, insonparvarligi, bilimliligi va shaxsiy fazilatlariga bog'liq.

2. Qamoqxona ma'muriyati o'z xodimlariga va umuman jamoatchilikka mazkur ish katta ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligiga ishonchni izchillik bilan singdirishi kerak. Bunday e'tiqodni mustahkamlash uchun qamoqxona ma'muriyati ijtimoiy axborot imkoniyatlaridan foydalanishi kerak.

3. Yuqorida ko'rsatilgan maqsadlarga erishish uchun xodimlar davlat xizmatchilari maqomidan foydalanadigan hamda ularning yaxshi xulqi, ishlarining samaradorligi va ularning zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishda jismoniy qobiliyatlarini hisobga olib, o'z lavozimida saqlanib qolishiga ishonadigan maxsus qamoqxona xodimi sifatida to'liq ish vaqtiga tayinlanishi lozim. Ularning ish haqi bu ish bilan shug'ullanishga qodir erkaklar va xotin-qizlarni jalb qilish va unda saqlab qolish imkoni bilan belgilanishi kerak. Bunday xodimlarga mazkur ishning juda og'ir sharoitlarini e'tiborga olgan holda tegishli mehnat imtiyozlari va sharoitlari ta'minlanishi kerak.

75-qoida

1. Qamoqxonaning barcha xodimlari yetarli darajada ma'lumotli hamda o'z vazifalarini professional tarzda bajarish imkoniyatiga va vositalariga ega bo'lishi kerak.

2. Barcha xodimlar ishga kirishdan oldin qamoqxona xodimining umumiy va muayyan vazifalarini hisobga olgan holda, jinoyat huquqi fanlarida zamonaviy, asoslangan eng yaxshi amaliyotni aks ettiruvchi tayyorgarlikdan o'tishi kerak. Qamoqxona muassasalariga

faqat bunday o'qish so'ngida nazariy va amaliy imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirgan nomzodlar ishga qabul qilinishi kerak.

3. Qamoqxona ma'muriyati o'z xodimlarining ishga qabul qilinganidan keyin va kelgusidagi butun faoliyati davomida ishdan ajralmagan holda, ularning bilimlari va professional malakasini saqlash va oshirish maqsadida doimiy ravishda o'quv kurslarini tashkil qilishi kerak.

76-qoida

1. 75-qoidaning 2-bandida qayd etilgan tayyorgarlik kamida quyidagi masalalar bo'yicha o'qishdan iborat bo'lishi kerak:

a) o'z ishida va mahbuslar bilan aloqalarda qamoqxona xodimlari qoidalariga amal qilishi lozim bo'lgan tegishli milliy qonunchilik, normativ-huquqiy hujjatlar va siyosat, shuningdek qo'llaniladigan xalqaro va mintaqaviy hujjatlar;

b) qamoqxona xodimlari o'z vazifalarini bajarishdagi huquqlari va majburiyatlari, jumladan barcha mahbuslarning inson qadr-qimmatini hurmat qilish va taqiqlangan xulq turlari, xususan, qiynoqlar va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan muomala yoki jazo turlari;

c) qo'riqlash va xavfsizlik, shu jumladan dinamik xavfsizlik konsepsiyasi, kuch va tinchlantirish vositalarini qo'llash hamda muzokara va vositachilik kabi ogohlantiruvchi usullarni va vaziyatni yengillashtirish usullarini lozim darajada hisobga olib, agressiv huquqbuzarlar bilan muomala qilish;

d) birinchi yordam ko'rsatish, mahbuslarning ruhiy-ijtimoiy ehtiyojlari va qamoqxona sharoitlarida tegishli dinamika, shuningdek ijtimoiy yordam va ko'mak, shu jumladan ruhiy sog'lig'i bilan bog'liq muammolarini oldindan aniqlash.

2. Muayyan toifadagi mahbuslar bilan ishlash uchun javobgar bo'lgan yoki ixtisoslashtirilgan vazifalarni bajarish topshirilgan qamoqxona muassasalari xodimlari tegishli masalalarga alohida e'tibor qaratiladigan tayyorgarlikdan o'tadi.

77-qoida

Qamoqxona muassasalarining barcha xodimlari har doim o'zlarini tutishlari va o'z vazifalarini mahbuslar uchun namuna bo'lib xizmat qiladigan va ularning hurmatiga sazovor bo'ladigan tarzda bajarishlari kerak.

78-qoida

1. Qamoqxona xodimlari imkoniyat doirasida yetarli miqdorda psixiatrlar, ruhshunoslar, ijtimoiy xodimlar, o'qituvchilar va hunarmandlik fanlari o'qituvchilari kabi mutaxassislardan iborat bo'lishi kerak.

2. Ijtimoiy xodimlar, o'qituvchilar va hunarmandlik fanlari o'qituvchilarini doimiy xodimlar sifatida tayinlash lozim, lekin to'liq ish kuni ishlamaydigan shaxslarni yoki ko'ngilli xodimlarni ham istisno qilmaslik zarur.

79-qoida

1. Qamoqxona muassasalari direktorlari lavozimiga o'z xarakteri, ma'muriy qobiliyati, zarur tayyorgarligi va tajribasiga ko'ra yetarli darajada malakali bo'lgan shaxslarni tayinlash lozim.

2. Qamoqxona muassasasi direktori o'zining butun vaqtini xizmat vazifalarini bajarishga bag'ishlashi va to'liq ish stavkasida ishlashi kerak. U o'ziga topshirilgan qamoqxona muassasasi hududida yoki bevosita unga yaqin joyda yashashi kerak.

3. Aynan bir direktor zimmasiga ikki yoki bir necha qamoqxona muassasalarini boshqarish yuklatilsa, u yetarli darajada qisqa vaqt oralig'ida ularning har biriga tashrif buyurishi shart. Ushbu muassasalarning har birini boshqarishni shu joyda yashaydigan mas'ul xodim zimmasiga yuklash lozim.

80-qoida

1. Qamoqxona muassasasi direktori, uning o'rinbosari va boshqa aksariyat xodimlari mahbuslarning ko'pchiligi so'zlashadigan tilni yoki ularning ko'pchiligiga tushunarli bo'lgan tilni bilishi kerak.

2. Zarur hollarda malakali tarjimon xizmatlaridan foydalanish lozim.

81-qoida

1. Ham erkaklar, ham ayollar saqlanadigan qamoqxona muassasalarida ayollar bo'linmasi mas'ul ayol xodim ixtiyorida bo'lishi, mazkur bo'linmaga kirish kalitlari esa uning qo'lida bo'lishi kerak.

2. Erkaklardan biror-bir xodim, agar unga ayol xodim hamroh bo'lmasa, ayollar bo'linmasiga kiritilmaydi.

3. Qamoqxonadagi ayollar haqida g'amxo'rlik qilish va ularni nazorat qilish faqat ayol xodimlar zimmasiga yuklanishi lozim. Biroq, bu erkak xodimlarga, xususan, shifokorlar va o'qituvchilarga ayollarning axloq tuzatish muassasalarida yoki qamoqxona muassasalarida ayollarga ajratilgan bo'linmalarda o'z professional vazifalarini bajarishga xalaqit bermasligi kerak.

82-qoida

1. Qamoqxona xodimlari mahbuslar bilan munosabatlarida faqat o'zini himoya qilgan taqdirda yoki qochishga urinishlar bo'lgan, shuningdek qonunchilik va normativ-huquqiy hujjatlarga asoslangan buyruqlarga faol yoki passiv qarshilik ko'rsatish holatlarida kuch ishlatish huquqiga ega. Kuch ishlatishga majbur bo'ladigan xodimlar zarur doirada qolishi va bunday hodisalar to'g'risida qamoqxona muassasasi direktorini darhol xabardor qilishi shart.

2. Qamoqxona muassasalari xodimlarining tajovuzkor niyatlarini ko'rsatgan mahbuslarni tinchlantirishga imkon beradigan maxsus jismoniy tayyorgarligi ta'minlanishi lozim.

3. Qamoqxona muassasalarining o'z vazifalarini bajarishda mahbuslar bilan bevosita aloqada bo'lgan xodimlari, istisno holatlaridan tashqari, qurol olib yurmasliklari kerak. Bundan tashqari, faqat tegishli tayyorgarlikdan o'tgan qamoqxona muassasasining xodimlari qurol olib yurish huquqiga ega bo'lishi kerak.

Ichki inspeksiyalar va tashqi tekshiruvlar

83-qoida

1. Qamoqxona muassasalari va jazoni ijro etish xizmatlarini muntazam tekshirishning ikki tomonlama tizimi mavjud bo'lishi kerak:

a) qamoqxona boshqarmasining markaziy organlari tomonidan o'tkaziladigan ichki yoki ma'muriy tekshiruvlar;

b) vakolatli xalqaro yoki mintaqaviy organ bo'lishi mumkin bo'lgan qamoqxona ma'muriyatidan mustaqil organ tomonidan o'tkaziladigan tashqi tekshiruvlar.

2. Har ikkala holatda tekshiruvlarning maqsadi qamoqxona muassasalarini boshqarish amaldagi qonunlar, normativ-huquqiy hujjatlar, siyosat va tartib-taomillarga muvofiq amalga oshirilishini, ularning ishi jazoni ijro etish va axloq tuzatish xizmatlari oldiga qo'yilgan vazifalarga mos kelishini hamda mahbuslarning huquqlari himoyalanganligini ta'minlashdan iborat bo'lish kerak.

84-qoida

1. Inspektorlar quyidagi huquqqa ega bo'lishi kerak:

a) qamoqda saqlash joylarida mahbuslar soni va bunday joylar soni hamda ularning joylashgan yeri haqidagi barcha axborotdan, shuningdek mahbuslar bilan muomala qilish, jumladan ularni hisobga olish hujjatlari va qamoqda saqlash sharoitlariga taalluqli barcha axborotdan foydalana olish;

b) o'zlari tashrif buyurishni istagan qamoqxona muassasalarini va suhbatlashmoqchi bo'lgan mahbuslarni qarshiliksiz, shu jumladan o'z tashabbusi bilan rejalashtirilmagan tekshiruvlar o'tkazish orqali tanlash;

c) tashriflar davomida mahbuslar va qamoqxona xodimlari bilan guvohlarsiz va to'la maxfiylik sharoitida suhbatlar o'tkazish;

d) qamoqxona ma'muriyati va boshqa vakolatli organlarga tavsiyalar berish.

2. Tashqi tekshirish guruhlari tarkibi vakolatli organ tomonidan tayinlanadigan malakali va tajribali inspektorlar, shu jumladan tibbiy mutaxassislardan iborat bo'lishi kerak. Erkaklar va ayollarning balans vakilligiga yetarli e'tibor qaratilishi lozim.

85-qoida

1. Har bir tekshiruv natijalari bo'yicha vakolatli organga yozma hisobot taqdim etilishi kerak. Tashqi tekshirishlar natijalari bo'yicha hisobotlarning e'lon qilinishiga zarur e'tibor qaratilishi lozim, mahbuslarning o'zlari aniq tarzda roziligini bermagan shaxsiy ma'lumotlar bundan mustasno.

2. Qamoqxona ma'muriyati yoki boshqa vakolatli organlar vaziyatga qarab oqilona muddat ichida tashqi tekshirish natijalari bo'yicha tavsiyalarni bajarishi yoki bajarmasligini ko'rsatib o'tishi kerak.

II. ALOHIDA TOIFALARGA QO'LLANILADIGAN QOIDALAR

A. MAHKUM ETILGAN MAHBUSLAR

Rahbariy prinsiplar

86-qoida

Mazkur qoidalarning 1-izohidan kelib chiqib, quyida bayon etiladigan rahbariy prinsiplar jazoni ijro etish muassasalarini boshqarish lozim bo'lgan muhitni va bu muassasalar amalga oshirishga intilishi kerak bo'lgan maqsadlarni aks ettiradi.

87-qoida

Jazo muddatini o'tash yakunlanishidan oldin mahbusni jamiyatdagi hayotga izchil qaytarish choralarini ko'rish maqsadga muvofiq. Ushbu maqsadga har bir huquqbuzar xususiyatlarini hisobga olgan holda ozod etilayotganlarga qamoqxona muassasasining o'zida yoki biror-bir boshqa muassasada alohida rejim joriy etib yoki mahbuslarni sinov muddatiga, ya'ni bu muddat davomida ham ular nazorat ostida qoladi, biroq

bunday nazorat politsiya hokimiyatiga yuklanmasligi va samarali ijtimoiy yordam bilan uyg'unlashtirilishi sharti bilan ozod qilish orqali erishish mumkin.

88-qoida

1. Mahbuslar bilan muomala qilishda, ularning jamiyatdan ajratib olinganini emas, balki ular jamiyatning a'zosi bo'lib qolishda davom etishini ta'kidlash lozim. Shuning uchun jamoat tashkilotlari mahbuslarni jamiyatdagi hayotga qaytarish maqsadida qamoqxona xodimlari bilan imkon qadar hamma yerda hamkorlik qilishga jalb qilinishi kerak.

2. Har bir qamoqxona muassasasi huzurida mahbusning o'z oilasi bilan maqbul munosabatlarini saqlab qolish va mustahkamlash haqida qayg'uradigan hamda unga ijtimoiy tashkilotlar bilan foyda keltirishi mumkin bo'lgan ijtimoiy xodimlar bo'lish lozim. Mahbuslar o'zlarining fuqarolik manfaatlari, ijtimoiy ta'minot va boshqa ijtimoiy imtiyozlar sohasidagi qonunga va hukmi shartlariga imkon qadar mos keladigan huquqlarini saqlab qolishlari uchun choralalar ko'rish kerak.

89-qoida

1. Ushbu prinsiplarning hayotga tatbiq etilishi mahbuslarga nisbatan individual yondashuvni va ularni guruhlar bo'yicha tasniflashning ixcham tizimi mavjudligini talab qiladi. Shuning uchun bunday guruhlar ularning har biri bilan ishlash uchun mos bo'lgan alohida qamoqxona muassasalariga joylashtirilishi maqsadga muvofiqdir.

2. Bunday qamoqxona muassasalarida har bir guruh uchun bir xil qo'riqlash choralarini ko'rish shart emas. Shuningdek, bunday choralarning qat'iyligini guruhga qarab bo'lish maqsadga muvofiqdir. Sinchkovlik bilan tanlanadigan mahbuslarni qayta tarbiyalashning eng qulay sharoitlari ochiq qamoqxona muassasalarida mavjud bo'lib, u yerda qochishning oldini olishning jismoniy vositalariga emas, balki o'zini intizomga bo'ysundirishga urg'u beriladi.

3. Mahbuslarga nisbatan individual yondashuvni qo'llash uchun yopiq qamoqxona muassasalarida saqlanayotgan mahbuslarning soni uncha ko'p bo'lmasligi maqsadga muvofiqdir. Ayrim mamlakatlarda bunday qamoqxona muassasalarida mahbuslarning soni 500 nafardan oshmasligi zarur, deb hisoblanadi. Ochiq qamoqxona muassasalarida iloji boricha kamroq mahbuslarni saqlash lozim.

4. Boshqa tomondan, qamoqxonalarda zarur imkoniyatlar va xizmat ko'rsatishni ta'minlash mumkin bo'lishi uchun ular yetarli o'lchamga ega bo'lishi kerak.

90-qoida

Jamiyatning vazifalari mahbusning ozod qilinishi bilan yakunlanmaydi. Shuning uchun ozodlikka chiqarilayotgan mahbuslar duch keladigan bid'atlarga qarshi kurashadigan va ularga jamiyat hayotida yana o'rin egallashida yordam beradigan, ular haqida chinakam qayg'ura oladigan davlat yoki xususiy organlarga ega bo'lishi zarur.

Mahbuslar bilan muomala qilish

91-qoida

Qamoqda saqlash yoki boshqa shu kabi jazo chorasiga hukm qilingan shaxslar bilan muomala qilishda ular o'tayotgan muddat davomiyligini hisobga olib, ularga qonunlarga bo'ysunish va ozod etilganidan keyin o'z hayotini ta'minlash istagini singdirishga,

shuningdek ularga yangi hayotga moslashishga yordam berishga intilish lozim. Ular bilan muomala qilish ularda o'z qadr-qimmatini his qilishni va o'z mas'uliyatini anglashni mustahkamlashi kerak.

92-qoida

1. Har bir mahbusning shaxsiy ehtiyojlarini, ijtimoiy va jinoiy o'tmishini, jismoniy va aqliy qobiliyatlarini va imkoniyatlarini, temperamentini, qamoqda saqlash muddati davomiyligini va ozod etilganidan keyin uning imkoniyatlarini e'tiborga olgan holda barcha maqbul choralarni ko'rish, shu jumladan mumkin bo'lgan mamlakatlarda diniy xizmat ko'rsatish, o'qitish, kasbga tayyorlash va yo'naltirish, muayyan ijtimoiy holatlarni o'rganish, ishga joylashtirish sohasida maslahatlashuvlar, jismoniy tarbiya va xarakterni mustahkamlash lozim.

2. Uzoq muddatga hukm qilingan har bir mahbusga nisbatan qamoqxona muassasasi direktori uni qabul qilganidan keyin imkon qadar tezroq mazkur qoidaning 1-bandida sanab o'tilgan masalalar bo'yicha batafsil ma'lumotlar olishi kerak. Bu ma'lumotlar har doim shifokor yoki boshqa malakali tibbiyot mutaxassisining mahbusning jismoniy va ruhiy holati haqidagi hisobotidan iborat bo'lishi kerak.

3. Bu hisobotlar va mahbusga tegishli boshqa hujjatlar uning shaxsiy ishiga tikib qo'yilishi kerak. Ish barcha yangi ma'lumotlar bilan to'ldirib turilishi va zarur bo'lgan hollarda tegishli xodimlar unga murojaat qila oladigan tarzda saqlanishi kerak.

Tasniflash va moslashtirish

93-qoida

1. Quyidagilar tasniflash maqsadlari hisoblanadi:

a) mahbuslarning jinoiy o'tmishi yoki xarakterining xususiyatlariga tufayli ularga yomon ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lganlardan ajratish;

b) mahbuslarni jamiyatdagi hayotga qaytarish maqsadida mahbuslarni ular bilan ishlashni yengillashtiradigan toifalarga bo'lish.

2. Mahbuslarning turli toifalari bilan ishlashni imkoniyatga qarab turli qamoqxona muassasalarida yoki aynan bir qamoqxona muassasasining turli bo'linmalarida olib borish lozim.

94-qoida

Yetarli darajada uzoq muddatga mahkum qilingan har bir mahbusni qabul qilishdan keyin eng qisqa muddatda uning xarakterini o'rganish asosida uning shaxsiy ehtiyojlari, qobiliyatlari va qiziqishlari haqida olingan ma'lumotlardan kelib chiqqan holda u bilan ishlash dasturini ishlab chiqish kerak.

Imtiyozlar

95-qoida

Har bir qamoqxona muassasasida imtiyozlar tizimiga ega bo'lishi va mahbuslarning yaxshi axloqini rag'batlantirish, ularda mas'uliyat hissini rivojlantirish, ularga qayta tarbiyalanishga bo'lgan qiziqishni uyg'otish va ularning hamkorligiga erishish uchun

turli toifadagi mahbuslar bilan muomala qilishning turli uslublarini ishlab chiqish kerak.

Ish

96-qoida

1. Sudlangan mahbuslar shifokor yoki boshqa malakali tibbiy mutaxassislar tomonidan jismoniy va ruhiy layoqatliligi aniqlangan taqdirda ishlash va/yoki o'zining reabilitatsiya qilinishida faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

2. Mahbuslar zimmasiga normal ish kunini to'ldirish uchun yetarli foydali ish yuklanishi lozim.

97-qoida

1. Mahbuslarning mehnati ularga azob keltirmasligi kerak.

2. Mahbuslar qullikda yoki majburiy holatda saqlanmasligi kerak.

3. Hech bir mahbus qamoqxona xodimlaridan birontasining shaxsiy yoki xususiy foydasiga ishlashga majbur emas.

98-qoida

1. Mahbuslarga ta'minlangan ish, ular ozod etilganidan keyin halol mehnat bilan shug'ullanishi uchun imkon qadar malakasini oshiradigan yoki malaka beradigan bo'lishi kerak.

2. Bundan foyda chiqarishga qodir mahbuslarni, ayniqsa, kichik yoshdagilarni foydali hunarlarga o'rgatish lozim.

3. Agar bu hunarni to'g'ri tanlash hamda ma'muriyat talablari va tegishli muassasadagi intizomga to'g'ri kelsa, mahbuslar o'z tanloviga ko'ra ishni bajarish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

99-qoida

1. Mahbuslar ozodlikdagi ish sharoitlarini o'rganishi uchun qamoqxona muassasalarida ishlashni tashkil etish va ish uslublari qamoqxona muassasalarining tashqarisida qabul qilingan ish uslublariga imkon qadar yaqinlashtirilgan bo'lishi kerak, shunda mahbuslar shu tarzda ozodlikdagi mehnat sharoitlariga o'rganadilar.

2. Shu bilan birga, mahbuslarning manfaatlarini va kasbiy tayyorgarligini qamoqxonadagi ishlab chiqarishdan moliyaviy foyda olish nuqtai nazari bilan bog'lamaslik lozim.

100-qoida

1. Axloq tuzatish muassasalarida sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini boshqarishni xususiy pudratchilarga emas, balki qamoqxona ma'muriyati zimmasiga yuklash yaxshiroqdir.

2. Qamoqxona ma'muriyati tomonidan nazorat qilinmaydigan ishni bajarayotgan mahbuslar qamoqxona muassasalari xodimlarining doimiy kuzatuvida bo'lishi kerak. Ish beruvchilar qamoqxona ma'muriyatiga mahbuslarning mehnat unumdorligini hisobga olgan holda, tegishli ish uchun to'lanishi lozim bo'lgan ish haqining to'liq stavkalarini to'lashi kerak, mahbuslar boshqa hukumat muassasalari uchun ish bajaradigan hollar bundan mustasno.

101-qoida

1. Ozod ishchilarning xavfsizligi va sogʻligʻiga taalluqli qoidalar qamoqxona muassasalarida ham qoʻllanilishi kerak.

2. Ishlab chiqarishda jarohatlanish yoki kasb kasalligiga chalingan holatlarda mahbuslarga tovon puli toʻlanishi lozim. Ushbu tovon pulining shartlari qonunda ozod ishchilar uchun nazarda tutilgan shartlardan kam boʻlmasligi kerak.

102-qoida

1. Ish kunining yoki haftasining maksimal davomiyligi erkin ishchilarning mehnat sharoitlari sohasidagi mahalliy qoidalarni yoki odatlarni hisobga olgan holda qonunchilikda yoki maʼmuriy qarorlar asosida belgilanadi.

2. Ish vaqti shunday taqsimlanishi lozimki, mahbuslar haftada kamida bir kun dam olishi hamda ularning qayta tarbiyalanishi uchun oʻqish va boshqa faoliyat turlari uchun yetarli vaqtga ega boʻlishi kerak.

103-qoida

1. Mahbuslar oʻz mehnati uchun tegishli tizim doirasida adolatli pul mukofoti olishi kerak.

2. Ushbu tizimga muvofiq mahbuslar oʻzlari ishlab topgan pullarining kamida bir qismini ruxsat etilgan shaxsiy buyumlarni sotib olishga sarflash va ish haqining bir qismini oilasiga yuborish imkoniyatiga ega boʻlishi kerak.

3. Ushbu tizim, shuningdek, mahbus tomonidan ishlab topilgan pullarning bir qismi qamoqxona maʼmuriyatida saqlanishini ham nazarda tutishi kerak, maʼmuriyat bu omonatlarni unga ozod etilgan paytda topshiradi.

Taʼlim va dam olish

104-qoida

1. Bundan foyda olishga qodir boʻlgan barcha mahbuslarga kelgusida taʼlim olish, jumladan ruxsat beriladigan mamlakatlarda diniy tarbiya olish imkoniyati taʼminlanishi lozim. Savodsiz mahbuslarni va kichik yoshdagi mahbuslarni oʻqitish majburiy hisoblanishi lozim va qamoqxona maʼmuriyati bunga alohida eʼtibor qaratishi kerak.

2. Ozod etilgan mahbuslar qiyinchiliksiz oʻqishlari uchun mahbuslarni oʻqitishni imkoniyat doirasida mamlakatning amaldagi taʼlim tizimi bilan bogʻlash lozim.

105-qoida

Barcha qamoqxona muassasalarida mahbuslar jismoniy va ruhiy sogʻlom boʻlishi uchun ularga dam olish va madaniy faoliyat bilan shugʻullanish imkoniyatlari taʼminlanishi kerak.

Ijtimoiy aloqalar va ozodlikdan keyin vasiylik

106-qoida

Mahbus va uning oilasi oʻrtasidagi aloqalarni saqlash va mustahkamlashga alohida eʼtibor qaratilishi lozim, ular zarur va ikkala tomon manfaatlariga xizmat qilishi nazarda tutiladi.

107-qoida

Qamoq muddatini o'tash boshlangan vaqtdan mahbusni ozod etilganidan keyin kutayotgan kelajagi haqida o'ylash kerak. Mahbusni rag'batlantirish, shuningdek unga qamoqxona tashqarisida jamiyat hayotiga qo'shilishida ko'maklashishga va oilasining ustuvor manfaatlarini himoya qilishga qodir bo'lgan shaxslar yoki muassasalar bilan aloqalarni saqlab qolish va mustahkamlashga yordam berish kerak.

108-qoida

1. Ozod etilgan mahbuslarga jamiyatda o'z o'rnini topishga yordam beradigan hukumat yoki boshqa xizmatlar va tashkilotlar, imkoniyat va zarurat bo'lganda, bunday mahbuslar zarur hujjatlar va shaxsini tasdiqlovchi guvohnomalar olishi, munosib turar joy va ish topishi, mazkur iqlim va yil fasli uchun mos va yetarli kiyim-kechakka hamda zarur joyga borish uchun va ular ozod etilgandan keyingi bevosita davri mobaynida yashashga yetarli mablag'ga ega bo'lishi haqida g'amxo'rlik qilishi kerak.

2. Shunday tashkilotlarning akkreditatsiyadan o'tgan vakillari qamoqxona muassasalariga va undagi mahbus shaxslarning oldiga tashrif buyurish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Ular bilan mahbuslarning qamoq muddati boshlangan vaqtdan boshlab ularning kelgusi hayoti istiqbollari haqida maslahatlashish lozim.

3. Bunday tashkilotlarning ishidan mumkin qadar samarali foydalanishni ta'minlash uchun ularning faoliyatini mumkin qadar markazlashtirish yoki muvofiqlashtirish asosida amalga oshirilishi lozim.

B. RUHIY KASALLIKLARI VA/YOKI SOG'LIG'I OG'IR HOLATDA BO'LGAN MAHBUSLAR

109-qoida

1. Jinoiy javobgarlikka tortilmagan deb topilgan yoki keyinchalik jiddiy ruhiy kasalliklar va/yoki sog'lig'i holatining og'irligi tashxisi qo'yilgan, ular uchun qamoqxonada bo'lish ularning ahvoli yomonlashishini anglatadigan mahbuslarni qamoqxona muassasalarida saqlamaslik lozim va ularni imkon qadar tezroq ruhiy kasalliklar shifoxonalariga o'tkazish choralari ko'rish kerak.

2. Zarurat bo'lgan hollarda, jiddiy ruhiy kasalliklar va/yoki sog'lig'i holati og'ir bo'lgan boshqa mahbuslar maxsus muassasalarda malakali tibbiyot mutaxassislari nazorati ostida bo'lishi va davolanishi mumkin.

3. Tibbiy xizmat bunday davolanishga muhtoj bo'lgan barcha boshqa mahbuslarga psixiatriya davolanishini ta'minlashi kerak.

110-qoida

Vakolatli muassasalar bilan kelishilgan holda, agar zarurat bo'lsa, ozod etilgan mahbuslarga psixiatriya yordamini ko'rsatish, shuningdek ularga ijtimoiy-psixiatrik homiylik qilish choralari ko'rish lozim.

C. QAMOQQA OLINGAN YOKI SUD JARAYONINI KUTAYOTGAN SHAXSLAR

111-qoida

1. Jinoyat sodir qilishda ayblov bo'yicha qamoqqa olingan yoki qamoqda saqlanayotgan, politsiya uchastkalarida yoki qamoqxona muassasalarida (tergov

izolyatorlarida) saqlanayotgan, lekin sudga hali chaqirilmagan va sudlanmagan shaxslar “tergov ostidagi” mahbuslar deb ataladi.

2. Tergov ostidagi mahbuslar aybsiz deb hisoblanadi va ular bilan tegishli muomalada bo‘lish lozim.

3. Shaxsning erkinligini himoya qilishga yoki tergov ostidagi mahbuslar bilan muomala qilish tartib-taomiliga oid qonun normalariga rioya qilishga to‘sqinlik qilmasdan, bu mahbuslarga quyidagi qoidalarda bayon qilingan alohida tartib qo‘llanilishi kerak va faqat ushbu tartibning asosiy talablari quyida tavsiflangan.

112-qoida

1. Tergov ostidagi mahbuslarni mahkumlardan alohida saqlash kerak.

2. Tergov ostida bo‘lgan yosh mahbuslarni kattalardan alohida va, umuman, alohida muassasalarda saqlash lozim.

113-qoida

Tunda tergov ostidagi mahbuslarni alohida xonalarga bittadan joylashtirish lozim, bunda iqlim sharoitlari bilan izohlanadigan mahalliy xususiyatlarni hisobga olish kerak.

114-qoida

Agar bu tegishli muassasa tartibini buzmasa, tergov ostidagi mahbuslarga, agar ular buni xohlasa, o‘z mablag‘lari hisobidan qamoqxona ma‘muriyati organlari yoki o‘zlarining oila a‘zolari yoxud do‘stlari orqali tashqaridan ovqat olishlariga ruxsat berilishi mumkin. Aks holda, mahbusning ovqatlanishini ma‘muriyat ta‘minlaydi.

115-qoida

Tergov ostidagi mahbuslar o‘z kiyimini, agar toza saqlasa va kiyinish odobiga rioya qilsa, kiyish huquqiga egadir. Agar tergov ostidagi mahbus qamoqxona kiyimini kiysa, u mahkumlarning kiyimidan farq qilishi kerak.

116-qoida

Tergov ostidagi mahbuslarga har doim mehnat qilish imkoniyati taqdim etilishi lozim, ammo ish ularning majburiyatiga kirmaydi. Agar bunday mahbus ishlashga qaror qilsa, uning mehnatiga haq to‘lanishi kerak.

117-qoida

Barcha tergovdagi mahbuslar o‘z mablag‘lariga yoki uchinchi shaxslar hisobiga kitob, gazetalar, yozish ashyolari va vaqt o‘tkazish imkonini beradigan boshqa buyumlarni, agar ular odil sudlovni amalga oshirish manfaatlariga, xavfsizlik talablariga va tegishli muassasada qabul qilingan tartibga mos kelsa, sotib olish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.

118-qoida

Tergov ostidagi mahbuslarga qamoqxonada bo‘lish vaqtida o‘z shifokori yoki tish shifokori xizmatidan foydalanishga, agar bu haqdagi iltimos oqlangan bo‘lsa va ular bu bilan bog‘liq xarajatlarni to‘lay olsalar, ruxsat berilishi lozim.

119-qoida

1. Har bir tergov ostidagi mahbus ushlab turilishi sabablari va o‘ziga taqdim etilayotgan har qanday ayblovlar haqida tez xabardor bo‘lish huquqiga ega.

2. Agar tergov ostidagi mahbusning o'z tanlovi bo'yicha advokati bo'lmasa, odil sudlov manfaatlari talab qilgan barcha hollarda va, agar tergov ostidagi mahbus yetarli pul mablag'larga ega bo'lmasa, tergov ostidagi mahbus tomonidan qandaydir haq to'lamasdan, uning sud yoki boshqa organ tomonidan tayinlangan advokatga oid huquqi bo'lishi kerak.

120-qoida

1. Tergov ostidagi mahbusning o'zini himoya qilish maqsadida advokat yoki yuridik yordam ko'rsatadigan shaxsdan foydalana olishini tartibga soladigan huquqlar va shartlar 61-qoidada ko'rsatilgan prinsiplar bilan tartibga solinadi.

2. Tergov ostidagi mahbusga uning talabiga ko'ra o'z himoyasi bilan bog'liq hujjatlarni, shu jumladan uning advokati yoki yuridik yordam ko'rsatadigan shaxsga maxfiy yo'riqnomalar tayyorlash uchun yozish ashyolari taqdim etilishi kerak.

D. FUQAROLIK ISHLARI BO'YICHA MAHBUSLAR

121-qoida

Qonun qarz majburiyatlari bajarilmaganligi uchun yoki sudning har qanday jinoiy bo'lmagan ishlar munosabati bilan ko'rsatmasi bo'yicha qamoqda saqlashga ruxsat berilgan davlatlarda bunday tartibda qamoqqa olingan shaxslarga ishonchli nazorat va tegishli tartibni saqlash uchun zarur bo'lgan talablardan ko'ra katta cheklovlar qo'yilmasligi yoki ular bilan keskinroq muomala qilinmasligi lozim. Bunday shaxslar bilan muomala qilish tergov ostidagi mahbuslarga qilinadigan muomaladan yumshoqroq bo'lmasligi kerak, ammo farq shundaki, ularning mehnati majburiy bo'lishi mumkin.

E. AYBLOV TAQDIM ETILMASDAN QAMOQQA OLINGAN YOKI QAMOQDA SAQLASH QO'LLANILGAN SHAXSLAR

122-qoida

Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 9-moddasi qoidalariga zarar yetkazmasdan ayblovni taqdim etmasdan qamoqqa olingan yoki qamoqda saqlash qo'llanilgan shaxslarga ushbu qoidalarining I qismi hamda II qismning C bo'limi bo'yicha shaxslarga beriladigan aynan o'sha himoya beriladi. Ushbu qoidalarining II qismi A bo'limining tegishli qoidalari, ularning qo'llanilishi qamoqqa joylashtirilgan ushbu alohida guruh shaxslariga foyda keltirishi mumkin bo'lgan hollarda, agar qandaydir jinoyat uchun sudlanmagan shaxslarga nisbatan tuzatish yoki qayta tarbiyalash uslublari qo'llanilishini nazarda tutuvchi choralar ko'rilmasa, qo'llaniladi.

MAHBUSLAR YOKI HIBSGA OLINGAN SHAXSLARNI QIYNOQ HAMDA JAZOLASHNING BOSHQA SHAFQATSIZ, G'AYRIINSONIY YOKI QADR-QIMMATNI KAMSITUVCHI TURLARIDAN HIMOYA QILISHDA SOG'LIQNI SAQLASH XODIMLARINING, AYNIQSA, SHIFOKORLARNING ROLIGA TAALLUQLI TIBBIYOT ETIKASI PRINSIPLARI

*BMT Bosh Assambleyasining 1982-yil 18-dekabrda
37/194-sonli rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan*

1-prinsip

Mahbuslar yoki hibsga olingan shaxslarga tibbiy xizmat ko'rsatilishini ta'minlovchi sog'liqni saqlash xodimlari, ayniqsa, shifokorlar ularning jismoniy va ruhiy sog'lig'ini muhofaza qilishlari hamda ularni xuddi mahbus bo'lmagan yoki hibsga olinmagan shaxslarga nisbatan bo'lgani kabi sifat va saviyada davolashlari shart.

2-prinsip

Sog'liqni saqlash xodimlari, ayniqsa, shifokorlar, basharti, qiynoqlar hamda muomala va jazolashning qattiq shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlarida ishtirok etish yoki ishtirokchilik qilish yoxud bunday kamsitishlar sodir etilishiga dalolatchilik qilish yoki sodir etishga urinish tarzidagi xatti-harakatlar bilan faol yoki passiv shug'ullansalar, amaldagi xalqaro hujjatlarga muvofiq tibbiyot etikasini qo'pol ravishda buzgan, shuningdek jinoyat sodir etgan bo'ladilar.

3-prinsip

Sog'liqni saqlash xodimlari, ayniqsa, shifokorlar, basharti mahbuslar yoki hibsga olingan shaxslarga nisbatan faqatgina ularni tibbiy ko'rikdan o'tkazish, muhofaza qilish yoki ularning sog'lig'ini jismoniy yoki ruhiy jihatdan yaxshilash maqsadini ko'zlab emas, balki har qanday boshqa professional munosabatlarga kirishsalar, tibbiyot etikasini buzgan bo'ladilar.

4-prinsip

Sog'liqni saqlash xodimlari, ayniqsa, shifokorlar, basharti:

a) mahbuslar va hibsga olingan shaxslarni so'roq qilishga ko'maklashish uchun o'z bilim va tajribalaridan ana shunday mahbuslar va hibsga olingan shaxslarning jismoniy yoki ruhiy jihatdan sog'lig'iga yoxud holatiga salbiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan va xalqaro hujjatlarga mos bo'lmagan tarzda foydalansalar;

b) mahbuslar yoki hibsga olingan shaxslarning sog'lig'i ularga nisbatan muomala yoki jazolashning har qanday turini qo'llash imkonini beradi, deb tasdiqlasalar yoki

tasdiqlashda ishtirok etsalar, ammo qoʻllanilgan muomala yoki jazo turi ularning sogʻligʻiga jismoniy yoki ruhiy jihatdan salbiy taʼsir koʻrsatsa va tegishli xalqaro hujjatlarga mos kelmaydigan muomala yoki jazoning har qanday turini qoʻllashda istalgan bir shaklda ishtirok etsalar, tibbiyot etikasini buzgan boʻladilar.

5-prinsip

Sogʻliqni saqlash xodimlarining, ayniqsa, shifokorlarning mahbus yoki hibsga olingan shaxsga nisbatan qoʻllaniladigan tinchlantirish mazmunidagi har qanday tartib-taomilda ishtirok etishi, basharti bunday harakat mahbus yoki hibsga olingan shaxsning boshqa mahbuslar yoki ushlangan shaxslarning yoki qoʻriqlash xodimlarining jismoniy yoxud ruhiy jihatdan sogʻligʻini yoki xavfsizligini saqlash uchun zarur tibbiy mezonlar taqozosi boʻlmasa va sogʻliqqa jismoniy yoki ruhiy jihatdan tahdid solmasa, tibbiyot etikasini buzganlik hisoblanadi.

6-prinsip

Qanday boʻlishidan qatʼi nazar, biror-bir asosni, shu jumladan favqulodda holatni asos qilib, yuqorida bayon etilgan prinsiplardan chetga chiqish mumkin emas.

SUD ORGANLARI MUSTAQILLIGINING ASOSIY PRINSIPLARI

BMTning Jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlar bilan muomala qilish bo'yicha 1985-yil 26-avgustdan 6-sentyabrgacha yettinchi kongressida qabul qilingan va BMT Bosh Assambleyasining 1985-yil 29-noyabrdagi 40/32-sonli rezolyutsiyasi bilan tasdiqlangan

*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 30-avgustdagi
508-I-sonli Qaroriga binoan qo'shilgan*

Jahon xalqlari BMT Ustavida inson huquqlari va erkinliklarini hurmat qilishni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash borasida hamkorlikni amalga oshirish maqsadidagi majburiyatlarga nisbatan odillik amalda bo'lishini ta'minlaydigan tegishli shart-sharoitlar yaratishga tayyor ekanliklarini bildirayotganliklarini e'tiborga olib,

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida, xususan, qonun oldida tenglik, aybsizlik prezumpsiyasi printsiplari hamda qonunga muvofiq ta'sis etilgan vakolatli, mustaqil va xolis sud tomonidan adolatli va oshkora sudda muhokamasiga bo'lgan huquqi qayd etilganligini hisobga olib,

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt hamda Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt ushbu huquqlarning amalga oshirilishini va bundan tashqari, Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi pakt asossiz kechikishlarsiz sudlanish huquqini ham kafolatlashini hisobga olib,

ushbu printsiplar haqidagi tasavvur va haqiqiy ahvol o'rtasida hanuzgacha nomuvofiqlik mavjudligini hisobga olib,

har bir mamlakatda odil sudlovni tashkil qilish va amalga oshirishda ushbu printsiplarga amal qilish lozimligini hamda ularning hayotga to'liq joriy etilishi uchun harakat qilish lozimligini hisobga olib,

sudyaning funksiyasini amalga oshirishga oid normalar sudyalarga ushbu printsiplarga muvofiq harakat qilish imkonini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi kerakligini hisobga olib,

sudyalarga fuqarolarning hayoti va o'limi, erkinligi, huquqlari, majburiyatlari va mol-mulkleri masalalari bo'yicha qat'iy qaror qabul qilish majburiyati yuklanganligini hisobga olib,

BMTning Jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlar bilan muomala qilish bo'yicha oltinchi kongressi o'zining 16-son rezolyusiyasida Jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha qo'mitasidan, birinchi navbatda, bajarilishi kerak bo'lgan vazifalar qatoriga sudyalarning mustaqilligi hamda sudyalarning va prokurorlarning tanlash, kasbiy tayyorgarligi va maqomiga oid rahbariy printsiplarni ishlab chiqishni kiritishni so'raganligini hisobga olib,

shu munosabat bilan, birinchi navbatda, sudyalarning odil sudlov tizimidagi roli hamda ularni tanlash, tayyorlash va ularning axloqi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqish kerakligini hisobga olib,

hukumatlar sud organlarining mustaqilligini ta'minlash va mustahkamlash vazifalarini hal qilishda a'zo-davlatlarga yordamlashish uchun bayon etilgan quyidagi asosiy printsiplarni o'zlarining milliy qonunchiligi va amaliyoti doirasida e'tiborga olishlari va hurmat qilishlari, sudyalari, advokatlar, ijro etuvchi va qonun chiqaruvchi organlarning xodimlari va keng jamoatchilik e'tiboriga etkazishlari lozim. Printsiplar asosan professional sudyalari uchun mo'ljallangan, ammo zarur bo'lganda, ularni professional bo'lmagan sudyalarga, agar ular bor bo'lsa, teng ravishda qo'llanilishi mumkin.

Sud organlari mustaqilligi

1. Sud organlarining mustaqilligi davlat tomonidan kafolatlanadi va mamlakat konstitutsiyasi yoki qonunlarida mustahkamlab qo'yiladi. Barcha davlat organlari va boshqa muassasalar ular mustaqilligini hurmat qilishlari va unga rioya etishlari shart.

2. Sud organlari o'zlariga topshirilgan ishlarni xolisona, faktlar asosida va qonunga muvofiq ravishda, hech bir taraf tomonidan va hech bir sababsiz, bevosita yoki bilvosita cheklashlarsiz, g'ayriqonuniy ta'sir ko'rsatishlarsiz, undashlar, majburlashlar, tahdidlar yoki aralashuvlarsiz hal qiladi.

3. Sud organlari sud xususiyatiga nisbatan barcha masalalar bo'yicha vakolatlarga egadirlar va ularga topshirilgan ish qonun bilan belgilangan o'z vakolatga kirishi haqida uzil-kesil qaror chiqarish huquqi berilgan.

4. Odil sudlov jarayoniga g'ayriqonuniy yoki ruxsat etilmagan aralashuvlar bo'lmashligi kerak hamda sudlar chiqargan qarorlar qayta ko'rilmaydi. Ushbu prinsip sudlov organlari chiqargan hukmlarning qonunga muvofiq ravishda sud tartibida qayta ko'rilishi yoki jazoning yengillashtirilishiga monelik qilmaydi.

5. Har bir inson ishning belgilangan yuridik choralari qo'llaniladigan oddiy sudlar yoki tribunallarda sud tartibida ko'rilishi huquqiga ega. Oddiy sudlar yoki sud organlarining vakolatlarini almashtirish maqsadida belgilab berilgan yuridik choralardan talab darajasida foydalanmaydigan tribunallar tuzilmasligi kerak.

6. Sud organlarining mustaqilligi prinsipi ularga qator huquqlar beradi va ulardan sudlov ishini adolatli olib borishni va tomonlar huquqlari tengligiga rioya qilinishini talab etadi.

7. Har bir a'zo-davlat sud organlariga talab darajasida o'z vazifalarini bajarishlariga imkon beruvchi tegishli vositalarni ta'minlab berishga majbur.

So'z va uyushmalar erkinligi

8. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga muvofiq, boshqa fuqarolar kabi sud organlari a'zolari ham so'z, diniy e'tiqod, uyushish va a'zo bo'lish erkinliklaridan foydalanadilar; biroq mazkur huquqlardan foydalanish davomida sudyalardan o'z lavozimlariga bo'lgan hurmatni ta'minlash va sud organlarining daxlsizligi va mustaqilligini saqlab qolish talab etiladi.

9. Sudyalari uyushmasini yoki boshqa tashkilotlarni tuzish erkinligiga va o'z manfaatlarini himoya qilish, kasbiy malakasini takomillashtirish va daxlsizligini saqlab qolish maqsadlarida ularga a'zo bo'lish huquqiga egadirlar.

Malaka, tanlov va tayyorgarlik

10. Sudyalik lavozimiga tanlab olingan shaxslar yuqori axloqiy sifatlar va qobiliyatlarga hamda huquq sohasida tegishli tayyorgarlik va bilimlarga ega bo'lishlari kerak. Sudyalarni tanlab olishning har qanday usuli g'ayriqonuniy dalillar bo'yicha sudyalarni tayinlashdan himoyani kafolatlashi lozim. Sudyalarni tanlab olishda mazkur shaxs irqi, terisining rangi, jinsi, dini, siyosiy va boshqa e'tiqodlari, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, moddiy, tabaqaviy yoki boshqa holatlariga bog'liq ravishda kamsitilmasligi kerak; biroq yuridik lavozimga nomzod tegishli davlat fuqarosi bo'lishi kerakligi haqidagi talabga kamsitilish sifatida qaralmasligi lozim.

Lavozim shartlari va vakolat muddatlari

11. Sudyalarning vakolat muddatlari, ularning daxlsizligi, xavfsizligi, munosib taqdirlanishlari, xizmat shartlari, nafaqa va nafaqaga chiqish yoshi tegishli tarzda qonun bilan belgilanishi va kafolatlanishi kerak.

12. Tanlab olingan yoki saylangan sudyalar majburiy pensiyaga chiqqunlari yoki vakolatlarning belgilangan muddatlari tugagunga qadar kafolatlangan vakolatlarga ega bo'ladi.

13. Sudyalarning mansab pog'onalaridan ko'tarilishlarini, agar shunday tizim mavjud bo'lsa, obyektiv omillar, xususan, ularning qobiliyati, axloqiy sifatleri va tajribasiga asoslanib amalga oshirish talab etiladi.

14. Sudlarda ishlarni sudyalar orasida taqsimlash sud ma'muriyatining ichki ishi hisoblanadi.

Kasbiy sir va daxlsizlik huquqi

15. Sudyalar ishlari bo'yicha kasbga oid sirlarni va o'z majburiyatlarini bajarish mobaynida olingan maxfiy ma'lumotlarni sir saqlashlari kerak, faqat bundan ochiq sudda ko'riladigan ishlar mustasno hamda ular bunday masalalar bo'yicha ko'rsatmalar berishga ham majbur qilinmasliklari lozim.

16. Qaysidir intizomiy tartiblar yoki milliy qonunchilikka muvofiq ravishda davlat tomonidan apellyatsiya yoki tovon huquqlarini buzmaganda, sudyalar o'z faoliyatlariga doir vazifalarini amalga oshirishlari chog'ida noto'g'ri harakatlar yoki kamchiliklarga yo'l qo'yishlari oqibatida keltirilgan moliyaviy zarar uchun fuqarolik da'volariga nisbatan shaxsiy daxlsizlikdan foydalanishlari lozim.

Jazolash, lavozimdan chetlatish va bo'shatish

17. Sudyaning xizmat yuzasidan sudlov yoki kasbiy majburiyatlarini bajarishi davomida uning ustidan tushgan ayblov yoki shikoyat arizasi tegishli chora-tadbirlarga muvofiq, zudlik bilan odilona ko'rib chiqilishi shart. Sudya javob berish va haqqoniy tekshiruv o'tkazilishi huquqiga ega. Agar sudyaning boshqa talabi bo'lmasa, dastlabki bosqichda shikoyat arizasini ko'rib chiqish maxfiy ravishda amalga oshiriladi.

18. Sudyalar o'z majburiyatlarini bajarishga layoqatsiz, deb topilsa yoki egallab turgan lavozimiga axloqiy jihatdan zid bo'lgan harakatlarni qilsa, lavozimdan vaqtinchalik chetlashtirilishi yoki bo'shatilishi mumkin.

19. Jazolash, lavozimdan chetlatish yoki bo'shatish bo'yicha barcha choralar sudyaning vakolatlarini to'xtatish, muddatidan ilgari tugatish asoslari va tartibiga muvofiq belgilanadi.

20. Ma'muriy jazolash, lavozimdan chetlatish yoki bo'shatish haqidagi qaror mustaqil tekshiruv predmeti bo'lishi lozim. Mazkur prinsip oliy sud qarorlariga yoki qonun chiqaruvchi organlarning ishlarni impeachment tartibida ko'rish yoki shunga monand choralarga rioya etish davomida qabul qilingan qarorlariga nisbatan qo'llanilmasligi mumkin.

YURISTLARNING ROLIGA OID ASOSIY PRINSIPLAR

*BMTning Jinoyatchilikning oldini olish
va huquqbuzarlar bilan muomala qilish bo'yicha sakkizinchi kongressi,
Gavana, 1990-yil 27-avgust – 7-sentyabr*

Jahon xalqlari BMT Ustavida inson huquqlari va erkinliklarini hurmat qilishni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash borasida hamkorlikni amalga oshirish maqsadidagi majburiyatlarga nisbatan odillik amalda bo'lishini ta'minlaydigan tegishli shart-sharoitlar yaratishga tayyor ekanliklarini bildirayotganliklarini e'tiborga olib,

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida barchaning qonun oldida tengligi, aybsizlik prezumpsiyasi, ishlarning qonunga muvofiq ta'sis etilgan vakolatli, mustaqil va xolis sud tomonidan oshkora va adolatli ko'rib chiqilishi, jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har qanday insonni himoya qilish uchun zarur kafolatlar olish huquqiga ega ekanligi to'g'risidagi prinsiplar kiritilganini e'tiborga olib,

Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktda asossiz ushlab turishsiz ham sudlanish huquqining hamda qonun asosida tuzilgan vakolatli, mustaqil va odil sud tomonidan ishning adolatli va oshkora ko'rilish huquqining e'lon qilinishini e'tiborga olib,

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktda davlatlarning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustaviga muvofiq, inson huquqlari va erkinliklariga rioya etish va ularni hurmat qilishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha majburiyatlari to'g'risida eslatib o'tilishini e'tiborga olib,

qanday shaklda bo'lmasin, ushlab turilgan yoki qamoqqa mahkum qilingan barcha shaxslarni himoya qilish Prinsiplari to'plamida qo'lga olingan shaxs yurist maslahatchisi yordamidan foydalanish, murojaat qilish va u bilan maslahatlashish huquqiga ega ekanligi nazarda tutilganini e'tiborga olib,

mahbuslar bilan muomala qilishning andozaviy minimal qoidalarida ishi tergov qilinayotganlarga yuridik yordam va advokat bilan maxfiy muloqot qilishni ta'minlab berish bayon etilganini e'tiborga olib,

o'lim jazosiga hukm qilinganlarning himoyasini kafolatlovchi chora-tadbirlarda o'lim jazosi belgilanishiga sabab bo'lgan jinoyatni sodir etishda gumon qilinayotgan har bir shaxs yoki ayblanuvchining huquqlari, Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 14-moddasiga muvofiq olib borilayotgan sud jarayonining barcha bosqichlarida tegishli yuridik yordam olish huquqlari tasdiqlanishini e'tiborga olib,

jinoyatdan va hokimiyat vakolatini suiiste'mol qilishdan jabrlanganlar uchun Odil sudlovning asosiy prinsiplari to'g'risidagi deklaratsiyada jinoyatdan jabr ko'rganlarning

odil sudlovga va adolatli muomalaga, mulkka nisbatan avvalgi huquqlarini tiklash (restitutsiya), kompensatsiya va yordamga ega bo'lishlarini yengillashtirish uchun xalqaro va milliy darajalarda qabul qilinadigan chora-tadbirlarning tavsiya etilishini e'tiborga olib,

iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari bo'ladimi yoki fuqarolikka oid va siyosiy huquqmi, hamma sohada insonlar foydalanishi lozim bo'lgan huquq va erkinliklarining tegishli himoyasini ta'minlab berish uchun, barcha insonlar mustaqil yuqori malakali yuristlar tomonidan ko'rsatiladigan yuridik xizmatlardan haqiqatan ham bahramand bo'la olishlari kerakligini e'tiborga olib,

yuristlarning kasbiy uyushmalariga o'z a'zolarini asossiz aralashuvlar va ta'qiblardan, noqonuniy cheklovlardan himoya qilishda kasbiy me'yorlar va etikaga rioya etilishini ta'minlashda, barcha ehtiyojmandlarga yuridik xizmatlar taqdim etishda va odil sudlov maqsadlarini amalga oshirishda hukumat va boshqa idoralar bilan hamkorlik qilish hamda davlat manfaatlarini himoyalashda muhim o'rin ajratilishini e'tiborga olib,

davlat boshqaruv organlaridan sud organlarining mustaqilligini ta'minlash va mustahkamlash vazifalarini hal etishda a'zo-davlatlarga yordam berish maqsadlarida tuzilgan quyida keltirilgan asosiy Prinsiplarni o'z milliy qonunlari va tajribalari doirasida e'tiborga olishlari va unga rioya etishlari hamda ulardan sudyalalar, ayblovchilar (qoralovchilar), advokatlar, ijrochi va qonun chiqaruvchi organlar xodimlari hamda keng jamoatchilik ommasini xabardor qilishlari talab etiladi. Prinsiplar asosan professional yuristlar uchun mo'ljallangan, biroq, zarur bo'lganda, professional maqomga ega bo'lmagan, yuristik vazifasini bajarayotganlar ham ulardan teng foydalanishlari mumkin.

Yuristlar va yuridik xizmatlardan foydalanish

1. Har bir inson himoya maqsadida yordam so'rab va ko'rilayotgan jinoyat ishining barcha bosqichlarida uning huquqlari va manfaatlari himoyasini ta'minlab berishni so'rab xohlagan yuristga murojaat qilish huquqiga ega.

2. Davlat o'z hududida bo'lgan va ularning yurisdiksiyasiga tushuvchi barcha fuqarolarga, hech bir kamsitishlarsiz, masalan, irqi, tanasining rangi, etnik kelib chiqishi, jinsi, tili, dini, siyosiy va boshqa qarashlari, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mol-mulki, tug'ilishi, moddiy va boshqa maqomiga ko'ra ajratmagan holda, yuristlar xizmatidan foydalanishda amaliy va teng imkoniyatlarni ta'minlashga doir samarali tartib va mexanizmlarni kafolatlashi kerak.

3. Hukumat zaruriyat yuzaga kelsa, nochor bo'lgan, noqulay ahvolga tushib qolgan shaxslarga ham yuridik xizmatlar ko'rsatish uchun yetarli moliyaviy mablag'lar va boshqa turdagi yordamlarning taqdim etilishini ta'minlaydi. Yuristlarning kasbiy uyushmalari xizmatlar, mablag'lar va boshqa resurslarni tashkil etish va ta'minlashda hamkorlik qiladilar.

4. Davlat va yuristlarning kasbiy uyushmalari insonlarni ularning qonunga muvofiq huquq va burchlari, asosiy erkinliklarini himoya qilishda yuristlarning tutgan muhim o'рни to'g'risida xabardor qilishga doir dasturlarni amalga oshirishda hamkorlik qiladilar. Ayniqsa, nochor va noqulay ahvolga tushib qolgan insonlarga, zaruriyat tug'lganda, o'z huquqlarini himoya qilish uchun yuristlarga yordam so'rab murojaat qilish imkoniyatlarini yaratishga alohida e'tibor qaratish talab etiladi.

Odil sudlov masalalaridagi maxsus kafolatlar

5. Davlat jinoiy javobgarlikda ayblangan har bir odamni hibsga olish yoki qo'lg'a tushirishda, uning o'z xohishiga ko'ra, yurist xizmatidan foydalanish huquqi borligi haqida vakolatli organlar darhol xabardor qilishlarini ta'minlaydi.

6. Odil sudlov talablari taqozo qilgan barcha holatlarda, o'z yuristiga ega bo'lmagan har bir kishi, garchi buning uchun yetarli mablag'i bo'lmasa ham, huquqbuzarlik xususiyatiga mos bo'lgan umumiy bilim, tajriba va vakolatga ega, unga samarali yuridik yordam ko'rsata oladigan bepul yurist yordamini olishi huquqiga egadir.

7. Shuningdek, davlat tomonidan jinoyat yuzasidan ayb qo'yilgan yoki qo'yilmaganidan qat'i nazar ushlab turilgan va qamoqqa olingan barcha shaxslar darhol, ya'ni ular hibsga olingan yoki ushlangan vaqtdan boshlab, qirq sakkiz soatdan kechiktirmasdan yuristga ega bo'lishlarini ta'minlab berilishi shart.

8. Barcha hibsga olinganlar, qo'lg'a tushganlar yoki qamoqdagi mahbuslar uchun ularning oldilariga yuristlarning kirishi uchun kechikmasdan, hech bir aralashuvlarsiz va senzurasiz, maxfiylikka rioya etilgan holda ular bilan aloqa bog'lashi va maslahatlar berishi uchun mutanosib imkoniyatlar, vaqt va sharoitlar yaratib beriladi. Bunday maslahat-uchrashuvlar huquqiy tartibni saqlash uchun mas'uliyatli shaxslarning ishtirokida amalga oshirilishi mumkin, biroq ularga suhbatdan voqif bo'lish imkoniyati yaratilmasligi kerak.

Malaka va kadrlar tayyorgarligi

9. Davlat, yuristlarning kasbiy uyushmalari va o'quv muassasalari yuristlarning kasbiy malakasi va tayyorgarligini, ularning kasbga doir talab va maqsadlar hamda axloqiy majburiyatlarni chuqur tushunib yetishlari, shuningdek, inson huquqlari va erkinliklari to'g'risida milliy va xalqaro qonunlar bilan mustahkamlab qo'yilgan bilimlarga ega bo'lishlarini ta'minlab beradilar.

10. Davlat, yuristlarning kasbiy uyushmalari va o'quv muassasalari har qanday shaxsning professional yuridik amaliyotni boshlashi yoki davom ettirishida unga zarar yetkazishi mumkin bo'ladigan ajratishlar, ya'ni irqi, terisining rangi, etnik kelib chiqishi, jinsi, tili, dini, siyosiy va boshqa e'tiqodlari, milliy va ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy, tabaqaviy, iqtisodiy va boshqa holatlari bo'yicha har qanday kamsitishlarga yo'l qo'yilmaslikni ta'minlaydilar. Bunda yurist tegishli mamlakatning fuqarosi bo'lishi kerak, degan talab kamsitish sifatida ko'rilmasligi kerak.

11. Yuridik xizmatlarga ehtiyojlar ta'minlab berilmaydigan, o'ziga xos madaniyatga, an'analar yoki tiliga ega bo'lgan, ilgari kamsitish va tahqirlashlar qurboni bo'lgan turli guruhlar, jamoalar mavjud mamlakatlarda davlat, yuristlarning kasbiy uyushmalari va o'quv muassasalari bunday guruhlar nomzodlarining yuridik ma'lumot olishlari hamda yurist kasbini egallashlari uchun imkoniyatlar yaratishga harakat qilishlari lozim.

Vazifa va majburiyatlar

12. Har qanday holatlarda ham yuristlar adliya sohasining mas'ul xodimlari sifatida, o'z kasblariga monand obro' va qadr-qimmatni saqlab qolishga harakat qiladilar.

13. Mijozlarga xizmat ko'rsatishda yuristlar quyidagi ishlarni bajaradilar:

a) mijozlarga ularning yuridik huquqlari va majburiyatlari yuzasidan va mijozlarning huquq va majburiyatlariga taalluqli bo'lgan huquqiy tizimning faoliyati haqida maslahatlar berish;

- b) mijozlarga har qanday imkon darajasidagi vositalar va ular yoki ularning manfaatlarini himoya qilish uchun ko‘rilgan qonuniy choralar bilan yordam ko‘rsatish;
- c) mijozlarga, zarur bo‘lganda, sudlarda, tribunallarda yoki ma‘muriy organlarda yordam ko‘rsatish.

14. Mijozlarning huquqlarini himoya qilishda va odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashishda yuristlar, shuningdek, milliy va xalqaro me‘yorlar tomonidan tan olingan inson huquqlari va asosiy erkinliklarini ham himoya qilishlari kerak; ular, ayni paytda qonunga va umume‘tirof etilgan me‘yorlarga, shu bilan birga, yuristlik kasbi etikasiga muvofiq ravishda erkin va halol xatti-harakatlarni amalga oshirishlari kerak.

15. Yuristlar doim o‘z mijozlari manfaatlarini himoya qilishga qat‘iy rioya etadilar.

Yuristlarning o‘z majburiyatlarini bajarishlari bo‘yicha kafolatlar

16. Davlat yuristlar o‘z majburiyatlarini bajarishlari uchun quyidagilarni ta‘minlab beradi:

a) o‘z kasbiy vazifalarini qo‘rqitishsiz, to‘siqlarsiz, ta‘qibsiz yoki asossiz aralashuvlarsiz bajara olishini;

b) o‘z mijozlari bilan muloqot qilishi uchun ularga mamlakat ichida yoki uning tashqarisida erkin harakatlanib yurishini (harakatlanish erkinligini);

c) umumqabul qilingan kasbiy majburiyatlari, andozalar va axloqiy me‘yorlarga muvofiq ravishda amalga oshirayotgan xatti-harakatlari uchun ta‘qibdan, ta‘qib xavfidan yoki sud, ma‘muriy, moddiy va boshqa javobgarlikdan himoy qilishni.

17. Kasbiy majburiyatlarini bajarayotgan yuristlarning xavfsizligiga nisbatan xatar tug‘ilsa, davlat tomonidan ularga muvofiq himoya ta‘minlab beriladi.

18. Yuristlar vazifalarini bajarishlari natijasida o‘z mijozlari yoki ular manfaatlarini bilan tenglashtirilmasligi kerak.

19. Advokat huquqi tan olinadigan birorta ham sud yoki ma‘muriy organ yuristning sudda o‘z mijozlari manfaatlarini himoya qilish huquqini rad etmaydi, faqat bundan yuristning milliy qonunchilik va amaliyotlarga hamda mazkur prinsiplarga muvofiq o‘z kasbiy faoliyatini bajarish huquqidan mahrum qilingan holatlar mustasno.

20. Yuristlar sudda yoki boshqa birorta sudga doir yoki ma‘muriy organda o‘zlarining xizmat vazifalarini bajarishda ular tomonidan yozma yoki og‘zaki shaklda qilingan vijdonan bayonotlari uchun fuqarolik va jinoiy immunitetga ega bo‘lishlari kerak.

21. Vakolatli organlarning majburiyati–yuristga hokimiyat ixtiyorida yoki nazorati ostida bo‘lgan tegishli ma‘lumot, fayl yoki hujjatlardan mijozlariga zarur yuridik yordam ko‘rsatish uchun yetarli vaqt davomida foydalanish imkoniyatini ta‘minlab berishdan iborat. Bunday imkoniyat imkon qadar tezroq ta‘minlanishi kerak.

22. Hukumat yuristlar va ularning mijozlari o‘rtasidagi barcha suhbatlar va maslahatlashuvlarning maxfiyligini tan oladi va uni ta‘minlab beradi.

E‘tiqod va uyushmalar erkinligi

23. Yuristlar ham boshqa fuqarolar singari o‘z fikrlarini, e‘tiqod va qarashlarini erkin ifoda etish huquqiga egadirlar. Xususan, ular huquqiy masalalarga, inson huquqlarini himoya qilishni ta‘minlash va qo‘llab-quvvatlashga doir munozaralarda ishtirok etish va mahalliy, milliy hamda xalqaro tashkilotlarning a‘zolari bo‘lish yoki tashkil etish va ularning majlislarida qatnashish huquqiga egadirlar, bunda o‘zlarining qonunga muvofiq yoki qonuniy tashkilotlarning a‘zolari sifatida olib borayotgan kasbiy faoliyatlarida

hech bir to'siqlarga duch kelmasliklari kerak. Mazkur huquqlarni amalga oshirish davomida yuristlar o'z xatti-harakatlarida ayni paytda qonunga va umume'tirof etilgan me'yorlarga, shuningdek, yuristik kasbi etikasiga amal qiladilar.

Yuristlarning kasbiy uyushmalari

24. Yuristlar ularning manfaatlarini ifoda etadigan, bilimlarini uzluksiz takomillashtirib borish va tayyorgarlik ko'rishlariga hamda ularning kasbga doir manfaatlarini himoya qilishga yordam beradigan mustaqil kasbiy uyushmalarni tuzish va ularga a'zo bo'lish huquqiga egadirlar. Kasbiy uyushmalarning ijrochi organlari a'zolar orasidan tayinlanadi va ular o'z vazifalarini tashqaridan hech bir aralashuvlarsiz amalga oshiradilar.

25. Yuristlarning kasbiy uyushmalari barcha shaxslarning amaliy va yuridik xizmatga teng ega bo'lishlarini ta'minlash va yuristlar qonunlarga, tan olingan andozalar va axloqiy me'yorlarga muvofiq, mijozlarga maslahatlar berish va yordam ko'rsatish ishlarini noqonuniy aralashuvlarsiz bajarish imkoniyatiga ega bo'lishlari yo'lida hukumat bilan hamkorlik qiladilar.

Intizomiy chora-tadbirlar

26. Yuristlar o'zlarining tegishli idoralari va qonunchilik organlari orqali milliy qonunlarga muvofiq, an'analar hamda tan olingan xalqaro andozalar va hujjatlar asosida yuristlarning kasbga doir axloqiy kodekslarini ishlab chiqadilar.

27. Yuristlar ustidan ularning kasbiy faoliyatiga bog'liq ravishda kelib tushgan ayblov va shikoyatlar kechiktirilmasdan hamda odilona, tegishli chora-tadbirlarga muvofiq ko'rib chiqiladi. Yuristlar ishning adolat bilan ko'rib chiqilishi va o'z tanlovi bo'yicha yuridik yordam olish huquqiga egadirlar.

28. Yuristlarga nisbatan qo'llaniladigan ma'muriy chora-tadbirlar huquqshunoslar tomonidan tashkil etilgan xolis intizomiy qo'mitalar, qonunda ko'zda tutilgan mustaqil organlar tomonidan yoki sudlarda ko'riladi hamda mustaqil sud nazoratiga olinadi.

29. Barcha axloqiy chora-tadbirlar kasbga doir axloqiy kodekslar va yuristlarning kasbiy etikasi va andozalari hamda ushbu prinsiplarga muvofiq belgilanadi.

SUD TA'QIBINI AMALGA OSHIRUVCHI SHAXSLARNING ROLIGA TAALLUQLI RAHBARIY PRINSIPLAR

*BMTning Jinoyatchilikning oldini olish
va huquqbuzarlar bilan muomala qilish bo'yicha sakkizinchi kongressi,
Gavana, 1990-yil 27-avgust – 7-sentyabr*

Jahon xalqlari Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomida, xususan, adolatga rioya etish mumkin bo'ladigan shart-sharoitlar yaratishga qaror qilganliklarini hamda irqi, jinsi, tili va dinidan qat'i nazar inson huquqlari va asosiy erkinliklariga bo'lgan hurmatni rag'batlantirish hamda rivojlantirishda xalqaro hamkorlikni amalga oshirishni asosiy maqsadlaridan biri sifatida e'lon qilganliklarini e'tiborga olib,

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida qonun oldida tenglik, aybsizlik prezumpsiyasi prinsiplari hamda ish mustaqil va xolis sud tomonidan ochiq va adolatning barcha talablariga rioya etgan holda ko'rib chiqilishi huquqi qayd etilganligini e'tiborga olib,

ko'p hollarda hali ham ushbu prinsiplar asosini tashkil etgan maqsadlar va real voqelik o'rtasida nomuvofiqlik mavjudligini e'tiborga olib,

har bir mamlakatda odil sudlovni tashkil etish va amalga oshirish ushbu prinsiplar asosida qurilishi kerakligi hamda ularni hayotga to'liq tatbiq etish maqsadida choralar ko'rilishi zarurligini e'tiborga olib,

sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslarning adolatli sud qilishda hal qiluvchi rol o'ynashini va ularning muhim vazifalarni bajarishlarini tartibga soluvchi normalar ular tomonidan yuqorida bayon etilgan prinsiplarning hurmat qilinishi hamda ularga rioya etilishiga ko'maklashishi, shu bilan adolatli va teng huquqli jinoiy odil sudlov va fuqarolarni jinoyatchilikdan samarali himoya qilishga yordam berishi kerakligini e'tiborga olib,

sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslarning o'z vazifalarini bajarishlari uchun zarur bo'lgan tegishli kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishlarini ta'minlash muhim ekanligini, bunga kadrlarni yollash va professional yuridik tayyorgarlik uslublarini takomillashtirish orqali hamda ular tomonidan jinoyatchilikka, ayniqsa, uning yangi shakllari va ko'lamlariga qarshi kurash bilan bog'liq o'z vazifalarining tegishli ravishda bajarilishi uchun barcha zarur choralarni ta'minlash orqali erishilishini e'tiborga olib,

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlar bilan muomala qilish bo'yicha beshinchi kongressining tavsiyasiga ko'ra Bosh Assambleya o'zining 1979-yil 17-dekabrda 34/169-sonli rezolyutsiyasida Huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslarning axloq kodeksini qabul qilganligini e'tiborga olib,

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlar bilan muomala qilish bo'yicha oltinchi kongressi 16-sonli rezolyutsiyasida Jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha qo'mitasini sudyalarning mustaqilligiga hamda sudyalarning va sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslarni tanlash, kasbiy tayyorgarligi va maqomiga oid Rahbariy prinsiplarni ishlab chiqishni o'zining birinchi navbatdagi masalalari jumlasiga kiritishga da'vat etganligini e'tiborga olib,

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlar bilan muomala qilish bo'yicha yettinchi kongressi Bosh Assambleyaning 1985-yil 29-noyabrdagi 40/32-son va 1985-yil 13-dekabrdagi 40/146-sonli rezolyutsiyalari bilan ma'qullangan Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplarini qabul qilganligini e'tiborga olib,

jinoiyatlar va hokimiyatni suiiste'mol qilish qurbonlari uchun Odil sudlovning asosiy prinsiplari deklaratsiyasida jinoiyat qurbonlariga odil sudlovning ochiq bo'lishi va adolatli muomala, restitutsiya, zarar o'rnini qoplash hamda yordam ko'rsatish sohasidagi vaziyatni yaxshilash maqsadida xalqaro va milliy darajalarda choralar ko'rish tavsiya etilganligini e'tiborga olib,

7-sonli rezolyutsiyada yettinchi Kongress Qo'mitani sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslarni tanlash, kasbiy tayyorgarligi va maqomiga, xususan, ularning taxmin qilingan majburiyatlari va xulq-atvori, jinoiy odil sudlov tizimining mukammal ishlashini ta'minlashdagi hissasini oshirish yo'llari va polisiya bilan hamkorligini kengaytirishga, ixtiyoriy vakolatlari doirasi va jinoiy sud ishlarini yuritishda ularning roliga taalluqli rahbariy prinsiplarni ishlab chiqish zaruratini ko'rib chiqishga hamda ushbu masala bo'yicha ma'ruzalarni Birlashgan Millatlar Tashkilotining kelgusi kongresslariga taqdim qilishga chaqirganligini e'tiborga olib,

quyida keltirilgan a'zo-davlatlarga sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslarning samaradorligini, mustaqilligi va adolatligini ta'minlash va oshirish vazifalarini hal etishda yordam ko'rsatish uchun ishlab chiqilgan Rahbariy prinsiplarga jinoiy ish yuritishda rioya etilishi hamda hukumatlar tomonidan o'zlarining milliy qonunchiligi va amaliyoti doirasida e'tiborga olinishi hamda prokurorlar, shuningdek sudyalarning, advokatlar, ijro etuvchi va qonunchilik organlarining mansabdor shaxslari kabi boshqa shaxslarning va umuman, aholining e'tiboriga yetkazilishi kerak. Mazkur Rahbariy prinsiplar jamoat ayblovchilariga moslab ishlab chiqilgan, biroq ular tegishli hollarda teng darajada maxsus asosda tayinlangan ayblovchilarga nisbatan qo'llaniladi.

Malaka, tanlab olish va kasbiy tayyorgarlik

1. Sud ta'qibini amalga oshirish uchun tanlab olingan shaxslar yuksak axloqiy sifatlar va qobiliyatga, shuningdek tegishli tayyorgarlik va malakaga ega bo'lishlari kerak.

2. Davlatlar quyidagilar bo'yicha ta'minlaydilar:

a) sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslarni tanlash mezonlari adolatsizlik yoki noto'g'ri qarashlarga asoslangan tayinlashga qarshi kafolatlarni va biror-bir shaxsga nisbatan uning irqi, tanasining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodi, milliy, ijtimoiy yoki etnik kelib chiqishi, mulkiy, tabaqaviy, moddiy yoki boshqa holatlari belgisiga ko'ra har qanday kamsitishni istisno qilish, shu bilan birga, sud ta'qibini amalga oshirishni nazarda tutadigan lavozimga muayyan mamlakat fuqarosini nomzod qilib tayinlash tartibi kamsitish sifatida ko'rilmaligini o'z ichiga olishini;

b) sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslarning tegishli ta'lim va tayyorgarlikka ega bo'lishini, ushbu lavozimga xos ideal va etika normalarini anglashlarini hamda ayblanayotgan shaxslar va jabrlanuvchilarning huquqlarini muhofaza qilish bo'yicha konstitusiyaviy va normativ choralar, shuningdek milliy va xalqaro huquq tomonidan e'tirof etilgan inson huquqlari va asosiy erkinliklari to'g'risida xabardor bo'lishlarini ta'minlaydi.

Xizmat maqomi va shartlari

3. Sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslar jinoiy odil sudlovni amalga oshirish tizimining juda muhim vakillaridan biri bo'lib, o'z kasblarining obro'si va qadr-qimmatini doimo saqlaydilar.

4. Davlat sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslarning o'z kasbiy majburiyatlarini tajovuzlar, qarshiliklar, qo'rqitishlar, keraksiz aralashuv yoki asossiz ravishda fuqarolik, jinoiy yoxud boshqa javobgarlikka tortishdan holi bajarishlarini ta'minlaydi.

5. Sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslar va ularning oilalari sud ta'qibini amalga oshirish bo'yicha o'z vazifalarini bajarishlari natijasida ularning xavfsizligiga tahdid mavjud bo'lgan hollarda hokimiyat tomonidan jismoniy himoya bilan ta'minlanadi.

6. Sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslarning xizmatining oqilona sharlari, ularni tegishli mukofotlash hamda bu qo'llaniladigan joyda, ularning vakolat muddati, pensiya ta'minoti va pensiyaga chiqish yoshi qonun yoki e'lon qilingan normalar yoxud qoidalar bilan belgilanadi.

7. Shunday tizim mavjud bo'lganda, sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslarning lavozimini oshirish ob'ektiv omillarga, xususan, ularning kasbiy malakasiga, qobiliyatiga, axloqiy xislatlari va tajribasiga asoslanadi hamda bu to'g'risidagi qaror adolatli va adolatli tartib-taomillarga muvofiq qabul qilinadi.

E'tiqod va uyushmalar erkinligi

8. Sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslar boshqa fuqarolar kabi fikr bildirish, e'tiqod, uyushmalar va yig'ilishlar erkinligi huquqiga ega. Xususan, ular huquq, odil sudlovni amalga oshirish va rag'batlantirish hamda inson huquqlarini himoya qilish masalalarining ommaviy muhokamasida ishtirok etish, o'zlarining qonuniy xatti-harakatlari yoki qonuniy tashkilotga a'zoliq oqibatida o'z kasbiy faoliyatlarida cheklovlarga duchor bo'lmagan holda mahalliy, milliy yoki xalqaro tashkilotlarga kirish yoxud bunday tashkilotlar tuzish va ularning yig'ilishlarida qatnashish huquqiga ega. Sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslar mazkur huquqlarni ro'yobga chiqarar ekan, o'z faoliyatida doimo huquqqa hamda o'z kasbining e'tirof etilgan normalari va etikasiga amal qiladilar.

9. Sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslar o'z manfaatlarini himoya qiluvchi, kasbiy tayyorgarligini oshiruvchi va o'zlarining maqomini himoya qiluvchi kasaba uyushmalar yoki boshqa tashkilotlar tuzish yoki ularga qo'shilish huquqiga ega.

Jinoyat muhokamasidagi roli

10. Sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslarning lavozimi sud vazifalarini bajarishdan qat'iy ajratiladi.

11. Sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslar jinoyat muhokamasida, shu jumladan, ish qo'zg'atishda va agar bunga qonunda ruxsat etilgan bo'lsa yoki mahalliy amaliyotga muvofiq bo'lsa, jinoyatni tergov qilishda, bunday tergovlarning qonuniyligini nazorat

qilishda va boshqa vazifalarni davlat manfaatlarini ifodalovchi vakillar sifatida amalga oshirishda faol rol o'ynaydilar.

12. Sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslar o'z majburiyatlarini qonunga muvofiq adolatli, izchil va jadal bajaradilar, insoniy qadr-qimmatni hurmat qiladi va himoya qiladilar hamda inson huquqlarini himoya qiladilar, shu bilan jinoiy odil sudlov tizimining tegishli jarayonini va uzluksiz ishlashini ta'minlashga ko'maklashadilar.

13. Sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslar o'z majburiyatlarini bajarishda:

a) o'z vazifalarini beg'araz bajaradilar hamda siyosiy e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, irqi, madaniyati va jinsiga asoslangan har bir kamsitishlarga yoki boshqa har qanday shakldagi kamsitishlarga yo'l qo'ymaydilar;

b) davlat manfaatlarini himoya qiladilar, xolisona harakat qiladilar, gumon qilinuvchi va jabrlanuvchining ahvolini lozim darajada hisobga oladilar hamda ishga aloqasi bo'lgan barcha holatlarga, ular gumon qilinuvchi uchun foydali yoki foydali emasligidan qat'i nazar, e'tibor beradilar;

c) agar o'z majburiyatlarini bajarish yoki odil sudlov nuqtai nazaridan boshqacha talab bo'lmasa, kasbiy sirni saqlashga rioya etadilar;

d) jabrlanuvchilarning shaxsiy manfaatlariga daxl qilinganda ularning fikrlari va tashvishlarini ko'rib chiqadilar hamda jabrlanuvchilarning Jinoyatlar va hokimiyatni suiiste'mol qilish qurbonlari uchun odil sudlovning asosiy prinsiplari deklaratsiyasiga muvofiq o'z huquqlari bilan tanishishlarini ta'minlaydilar.

14. Sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslar, odilona tergov ayblovning asossiz ekanligini ko'rsatgan hollarda sud ta'qibini qo'zg'atmaydi yoki uni davom ettirmaydi yoxud sud muhokamasini to'xtatish uchun imkon qadar barcha harakatlarni qiladi.

15. Sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslar davlat xizmatchilari tomonidan sodir etilgan jinoyatlar, xususan, korrupsiya, hokimiyatni suiiste'mol qilish, inson huquqlarining jiddiy buzilishi va xalqaro huquqda e'tirof etilgan boshqa jinoyatlar uchun sud ta'qibiga hamda agar bunga qonunda ruxsat etilgan yoki mahalliy amaliyotga muvofiq bo'lsa, bunday huquqbuzarliklarni tergov qilishga alohida e'tibor qaratadilar.

16. Sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslar ixtiyoriga gumonlanuvchilarga qarshi o'zlariga ma'lum bo'lganidek yoki ular gumonlanuvchining noqonuniy usullar yordamida inson huquqlari qo'pol ravishda buzilishini, ayniqsa, qiynoqlar yoxud muomala yoki jazolashning shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitish yoxud inson huquqlarining boshqa buzilishlarini qo'llash bilan bog'liq deb hisoblashi uchun oqilona asosga ega bo'lgan dalillar kelib tushganda, ular bu kabi dalillardan bunday usullarni qo'llaganlardan tashqari, har qanday shaxsga qarshi foydalanishni rad etadilar yoki tegishli ravishda sudni xabardor qiladi hamda bunday usullarni qo'llashga mas'ul bo'lgan shaxslarning sudga jalb qilinishini ta'minlash uchun barcha zarur choralarni ko'radilar.

Ixtiyoriy vazifalar

17. Sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslarga ixtiyoriy vazifalarni bajarish bo'yicha vakolatlar berilgan mamlakatlarda qonun yoki e'lon qilingan normalar yoxud qarorlar sud ta'qibi, jumladan, sud ta'qibini qo'zg'atish yoki bekor qilish jarayonida qarorlar qabul qilishda adolat va izchillikni oshirish uchun rahbariy prinsiplarni ta'minlaydi.

Sud ta'qibiga muqobil usullar

18. Sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslar milliy qonun hujjatlariga muvofiq shu bilan birga gumonlanuvchi (gumonlanuvchilar) va jabrlanuvchining (jabrlanuvchilarning)

inson huquqlarini to'liq hurmat qilgan holda, sud ta'qibini bekor qilish, muhokamani shartli yoki shartsiz ravishda to'xtatib qo'yish to'g'risidagi yoki jinoyat ishlarini odil sudlovning rasmiy tizi midan olib tashlash to'g'risidagi masalani tegishli tarzda ko'rib chiqadilar. Ushbu maqsadlarda davlatlar nafaqat sudlarning haddan tashqari ish hajmi yuklanganligini kamaytirish uchun, balki sudga qadar ushlab turish, ayblash va hukm qilish bilan bog'liq bo'lgan sharmandalikning, shuningdek qamoq jazosi ning ehtimol tutilgan salbiy oqibatlarini oldini olish uchun ishlarni bekor qilish dasturlarini qabul qilish imkoniyatini to'liq o'rganishlari kerak.

19. Sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslarga voyaga yetmaganga nisbatan ish qo'zg'atish yoki qo'zg'atmaslik to'g'risida qaror qabul qilishga doir ixtiyoriy vazifalarni bajarish bo'yicha vakolatlar berilgan mamlakatlarda huquqbuzarlikning xususiyati va jiddiyligi, jamiyatni himoya qilish fikr-mulohazalari hamda voyaga yetmaganning xarakteri va rivojlanish darajasi alohida ko'rib chiqiladi. Ushbu qarorni qabul qilishda sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslar tegishli qonunlar doirasida mavjud bo'lgan sud ta'qibiga muqobil usullarni va voyaga yetmaganlarga nisbatan odil sudlovni amalga oshirishning tartib-taomillarini alohida ko'rib chiqadi. Sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslar voyaga yetmaganlarning sud ta'qibi faqat qat'iy zarur doiralarda o'tishi uchun barcha imkoniyatlardan foydalanadi.

Boshqa hukumat organlari yoki muassasalari bilan aloqalar

20. Sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslar sud ta'qibining adolatli va samarali bo'lishini ta'minlash uchun polisiya, sudlar, yuristlar, jamoat qoralovchilari va hukumatning boshqa organlari yoki muassasalari bilan hamkorlik qilishga harakat qiladilar.

Intizomiy jazolar

21. Sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslarga nisbatan intizomiy jazoni qo'llash to'g'risidagi muhokama qonun yoki normativ hujjatlarga asoslanadi. Sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslarning o'z xatti-harakatlari bilan kasbiy standartlarni ochiq-oydin buzganligini tasdiqlovchi shikoyatlar tegishli tartib-taomilga muvofiq darhol va haqqoniy ravishda ko'rib chiqiladi. Sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslar adolatli muhokama huquqiga ega. Chiqariladigan qaror mustaqil tomon tekshiruvdan o'tkaziladi.

22. Sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslarga intizomiy jazoni qo'llash to'g'risidagi muhokama ob'ektiv baholash va ob'ektiv qaror qabul qilishni kafolatlaydi. Muhokama qonun, Kasb axloqi kodeksi hamda boshqa belgilangan mezonlar va etika normalari hamda ushbu Rahbariy prinsiplarga muvofiq o'tkaziladi.

Rahbariy prinsiplarga rioya etish

23. Sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslar ushbu Rahbariy prinsiplarga rioya etadi. Ular, shuningdek imkon qadar Rahbariy prinsiplarning har qanday buzishining oldini oladi va bunday buzilishlarga qarshi faol kurashadi.

24. Sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslar ushbu Rahbariy prinsiplarning buzilishi sodir bo'lgan yoki tez orada sodir bo'lishi mumkin deb hisoblash uchun asosga ega bo'lsa, bu haqda o'zlarining yuqori turuvchi boshliqlariga va zarur hollarda, bunday buzilishlarni muhokama qilish yoki tuzatish bo'yicha vakolatlar yuklatilgan boshqa tegishli organlar yoki hokimiyatlarga xabar beradi.

HUQUQIY TARTIBOTNI SAQLASH BO'YICHA MANSABDOR SHAXSLARNING KUCH VA O'QOTAR QUROL ISHLATISHINING ASOSIY PRINSIPLARI

*BMTning Jinoyatchilikning oldini olish
va huquqbuzarlar bilan muomala qilish bo'yicha sakkizinchi kongressi
Gavana, 1990-yil 27-avgust – 7-sentyabr*

Huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslar katta ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligini va shu bois ushbu mansabdor shaxslarning mehnat sharoiti va ahvolini lozim darajada saqlash va zarur bo'lganda, yaxshilash lozimligini hisobga olib,

huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslarning hayoti va xavfsizligiga tahdid umuman jamiyatning barqarorligiga tahdid sifatida qaralishi lozimligini hisobga olib,

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida kafolatlanganidek, Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktida tasdiqlanganidek, huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslar insonning yashash, erkinlik va xavfsizlikka ega bo'lish huquqini himoya qilishda nihoyatda muhim o'rin tutishini hisobga olib,

Mahbuslar bilan muomala qilishning standart minimal qoidalarida turmalarning xodimlari o'z vazifalarini bajarish paytida kuch ishlatishlari mumkin bo'lgan holatlar nazarda tutilganligini hisobga olib,

Huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslar axloq kodeksining 3-moddasida huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslar faqat oxirgi zarurat hollaridagina va o'z vazifalarini bajarishlari uchun talab etilgan darajadagina kuch ishlatishlari mumkinligi haqida so'z yuritilishini hisobga olib,

Italiyaning Varenne shahrida bo'lib o'tgan BMTning Jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlar bilan muomala qilish bo'yicha yettinchi kongressiga tayyorgarlik majlisida huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslar kuch va o'qotar qurol ishlatishini cheklash borasida kelajakda amalga oshiriladigan ishlar davomida ko'rib chiqiladigan elementlar kelishib olinganligini hisobga olib,

Yettinchi kongress o'zining 14-son rezolyutsiyasida, jumladan huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslarning inson huquqlarini lozim darajada hurmat qilgan holda kuch va o'qotar qurolni ishlatishi kerakligini ta'kidlaganligini hisobga olib,

Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash 1986-yil 21-maydagi 1986/10-son rezolyutsiyasining IX bo'limida a'zo-davlatlarga Kodeksni amalga oshirishda huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslarning kuch va o'qotar qurol ishlatishi masalalariga alohida e'tibor berishni taklif qilganligini, Bosh Assambleya esa o'zining 1986-yil 4-dekabrda 41/149-son rezolyutsiyasida, jumladan, Kengashning ushbu tavsiyasini qo'llab-quvvatlaganligini hisobga olib,

huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslarning shaxsiy xavfsizligiga lozim darajada e'tibor qaratib, ularning odil sudlovni amalga oshirish, insonning yashash, erkinlikka va xavfsizlikka ega bo'lish huquqlarini himoya qilish, ularning davlat xavfsizligini va jamoat tartibini ta'minlash borasidagi vazifalari hamda malakalari, tayyorgarliklari va xulqining ahamiyati munosabati bilan ularning o'rnini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqligini hisobga olib,

hukumatlar quyida bayon etilgan hamda a'zo-davlatlarga ularning huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslarning tegishli rolini bajarishini ta'minlash va bunda ko'maklashishdan iborat vazifalarini bajarishlarida yordam ko'rsatish maqsadida ishlab chiqilgan Asosiy prinsiplarni e'tiborga olishlari hamda o'zlarining milliy qonunchiligi va amaliyoti doirasida rioya etishlari; hamda ushbu prinsiplarni huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslarga, shuningdek boshqa shaxslar, xususan, sudyalari, prokuratura xodimlari, yuristlar, ijroiya hokimiyat va qonun chiqaruvchi hokimiyat organlari va umuman aholiga ma'lum qilishlari lozim.

Umumiy qoidalar

1. Hukumatlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslarning kuch va o'qotar qurolni odamlarga qarshi ishlatishi to'g'risidagi normalar va normativ qoidalarni qabul qiladi va amalga oshiradi. Bunday normalar va qoidalarni ishlab chiqishda hukumatlar va huquqni muhofaza qilish organlari kuch va o'qotar qurol ishlatish bilan bog'liq axloqiy masalalarni doimo hisobga oladi.

2. Hukumatlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar iloji boricha kengroq vositalarni ishlab chiqadilar hamda huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslarni kuch va o'qotar qurolni tanlab qo'llash imkonini beruvchi turli xil qurollar va o'q-dorilar bilan ta'minlaydilar. Ular qatoriga zarur hollarda, odam o'ldirish yoki shikastlashga qodir bo'lgan vositalardan foydalanish sohalarini iloji boricha toraytirish maqsadida o'limga olib kelmaydigan, lekin zararsizlantiradigan turdagi qurollarni ishlab chiqish kiradi. Xuddi shu maqsadlarda har qanday turdagi quroldan foydalanish zaruratini kamaytirish uchun huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslar o'zlarini qalqon, dubulg'a, o'q teshmaydigan transport vositalari bilan ta'minlash imkoniyatlariga ega bo'lishlari zarur.

3. Begona shaxslarga ziyon yetishi xavfini iloji boricha kamaytirish hamda quroldan foydalanishga nisbatan qat'iy nazoratni amalga oshirish uchun o'limga olib kelmaydigan, ammo zararsizlantiradigan qurol turlarini ishlab chiqish va qo'llash haqidagi masalani puxta ko'rib chiqish lozim.

4. Huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslar o'z vazifalarini bajarishda iloji boricha ularni kuch yoki o'qotar qurol ishlatishga majbur etmagunlaricha zo'rlikka asoslanmagan vositalardan foydalanadilar. Ular faqat boshqa vositalar samarasiz bo'lgan yoki ko'zlangan natijaga erishish uchun hech qanday umid bermaydigan holatlardagina kuch va o'qotar qurolni ishlatishlari mumkin.

5. Kuch yoki o'qotar qurolni ishlatish muqarrar bo'lgan barcha holatlarda huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslar:

a) bunday kuch ishlatishda vazmin bo'ladilar hamda huquqbuzarlikning jiddiyligi va erishilishi lozim bo'lgan qonuniy maqsaddan kelib chiqib harakat qiladilar;

b) ziyon yetkazish va jarohatlash imkoniyatini iloji boricha kamaytiradilar va inson hayotini muhofaza qiladilar;

c) har qanday jarohatlangan yoki jabrlangan shaxsga eng qisqa muddatda tibbiy va boshqa yordam ko'rsatilishini ta'minlaydilar;

d) jarohatlangan va jabrlangan shaxslarning qarindoshlari yoki yaqin do'stlari iloji boricha qisqa muddatda xabardor qilinishini ta'minlaydilar.

6. Huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslarning kuch yoki o'qotar qurol ishlatishi jarohatlanishga yoki o'limga olib kelsa, 22-prinsipga muvofiq, ular bu haqda darhol yuqori turuvchi boshliqqa xabar beradilar.

7. Hukumatlar huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslarning kuch yoki o'qotar qurolni o'zboshimchalik bilan yoki g'arazli maqsadda ishlatishlari ularning qonunlariga muvofiq jinoyiy javobgarlik sifatida jazolanishlarini ta'minlaydi.

8. Ichki siyosiy beqarorlik kabi favqulodda vaziyatlar yoki boshqa har qanday favqulodda ijtimoiy hodisalar ushbu Asosiy prinsiplardan voz kechishni oqlay olmaydi.

Maxsus qoidalar

9. Huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslar odamlarga qarshi o'qotar qurolni ishlatmaydilar, o'zlarini himoya qilish yoxud boshqa shaxslarni muqarrar o'lim xavfidan yoki jiddiy shikastlanishdan himoya qilish hollari yoki o'ta og'ir, hayot uchun katta xavf tug'diruvchi jinoyatlar sodir etilishining oldini olish bunday xavf tug'diruvchi, ularning hokimiyatiga qarshilik ko'rsatuvchi shaxsni hibsga olish yoki uning qochishining oldini olish va uncha qat'iy bo'lmagan choralar ushbu maqsadlarga erishish uchun yetarli bo'lmagan hollar bundan mustasno. Har qanday holda ham, hayotni himoya qilish uchun mutlaqo zarur bo'lgan taqdirdagina bila turib o'limga olib keladigan kuch ishlatilishi mumkin.

10. 9-prinsipda nazarda tutilgan holatlarda, huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslar o'zlarini shunday shaxslar sifatida tanishtiradilar va o'qotar qurol ishlatishni mo'ljallayotganligi haqida aniq ogohlantiradilar, ushbu ogohlantirishga javob qaytarilishi uchun yetarli vaqt beradilar; bunday harakatlar huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslar uchun keraksiz xavf tug'dirgan yoxud boshqa shaxslarga o'lim yoki jiddiy ziyon yetkazish xavfini tug'dirgan yoki yuzaga kelgan to'qnashuv (mojaro) sharoitida noo'rin yoki keraksiz ekanligi aniq bo'lgan hollar bundan mustasno.

11. Huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslarning o'qotar qurol ishlatishlari haqidagi normalar va qoidalarga rahbariy prinsiplar kiradi. Ular:

a) huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslarning o'qotar qurolni olib yurishga vakolatli bo'lgan holatlarni belgilaydi hamda o'qotar qurol va o'q-dorilarning ruxsat etilgan turlarini keltirib o'tadi;

b) o'qotar qurol tegishli sharoitlardagina va haddan tashqari ziyon yetkazish xavfini kamaytirishga imkon beradigan tarzdagina ishlatilishini ta'minlaydi;

c) haddan tashqari og'ir jarohat yetkazadigan yoki oqlanmaydigan tavakkal manbai bo'lib xizmat qiladigan turdagi o'qotar qurollarning ishlatilishini taqiqlaydi;

d) o'qotar qurolning tekshirilishi, saqlanishi va topshirilishini, jumladan huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslarning ularga berilgan o'qotar qurol va o'q-dorilar uchun hisobdorligini ta'minlovchi tartiblarni belgilaydi;

e) tegishli hollarda o'qotar qurolni ishlatishdan avval qilinadigan ogohlantirishni belgilaydi;

f) huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslar xizmat vazifalarini bajarishda o'qotar qurol ishlatadigan barcha hollarda hisobdorlik tizimini nazarda tutadi.

G'ayriqonuniy yig'ilishlar o'tkazilgan hollarda tartibni saqlash

12. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi hamda Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktida bayon etilgan prinsiplarga binoan, har bir inson qonuniy va tinch yig'ilishlarda ishtirok etishi mumkinligi sababli, hukumatlar hamda huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha muassasalar va mansabdor shaxslar kuch va o'qotar qurol faqat 13 va 14-prinsiplarga muvofiq ishlatilishi mumkinligini tan oladilar.

13. Kuch ishlatishga asoslanmagan g'ayriqonuniy yig'ilishlar tarqatib yuborilayotganida huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslar kuch ishlatishdan qochadilar yoki, agar buning imkoni bo'lmasa, bunday kuch ishlatishni minimal darajagacha yetkazadilar.

14. Zo'ravonlik ko'rinishidagi yig'ilishlar tarqatib yuborilayotganida huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslar o'qotar quroldan faqat xavfi kamroq vositalarni qo'llash mumkin bo'lmagan hollardagina va eng kam darajadagina ishlatishlari mumkin. Huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslar 9-prinsipda keltirilgan sharoitlardan boshqa hollarda o'qotar qurolni ishlatmaydilar.

Qamoqda saqlanayotgan va ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarni nazorat qilish

15. Huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslar qamoqda saqlanayotgan va ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar bilan muomala qilishda kuch ishlatmaydilar, axloq tuzatish muassasasida xavfsizlikni va tartibni saqlash uchun qat'iy zarur bo'lgan yoki shaxsiy xavfsizlik uchun tahdid yuzaga kelgan hollar bundan mustasno.

16. Huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslar mahbuslar yoki mahkumlar bilan muomala qilishda o'qotar qurol ishlatmaydilar, o'zini yoki boshqalarni bevosita o'lim yoki jiddiy shikastlanish xavfidan himoya qilish hollari yoxud xavfli mahbus yoki mahkum qochishining oldini olish uchun mutlaqo zarur bo'lgan hamda 9-prinsipda qayd etilgan holatlar bundan mustasno.

17. Yuqorida keltirilgan prinsiplar turmular xodimlarining Mahbuslar bilan muomala qilish bo'yicha minimal standart qoidalarida, ayniqsa, 33, 34 va 54-qoidalarida bayon etilgan huquqlari, funksiyalari va vazifalariga ziyon yetkazmagan holda qo'llaniladi.

Malaka, tayyorgarlik va maslahat berish

18. Hukumatlar hamda huquqni muhofaza qilish organlari barcha huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslarning o'z funksiyalarini samarali bajarish uchun tanlovning zarur tartiblari yordamida tanlanishini, tegishli axloqiy, psixologik va jismoniy sifatlarga ega bo'lishlarini hamda uzluksiz va puxta kasbiy tayyorgarlikdan o'tishlarini ta'minlaydi.

19. Hukumatlar hamda huquqni muhofaza qilish organlari barcha huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslarning tayyorgarlikdan o'tishlarini hamda kuch ishlatiladigan sharoitlardagi harakatlar uchun maxsus tayyorgarlik nuqtai nazaridan tekshirilishini ta'minlaydi. O'qotar qurol olib yurishlari lozim bo'lgan huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslar ularni ishlatish yuzasidan maxsus ta'lim kursini tugatganlaridan keyingina tegishli ruxsat oladilar.

20. Hukumatlar hamda huquqni muhofaza qilish organlari huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslarni tayyorlashda, ayniqsa, tergov olib borish jarayonida kuch va o'qotar qurol ishlatishni cheklash maqsadida politsiya axloqi va inson huquqlari masalalariga, kuch va o'qotar qurolni ishlatishning muqobillariga, jumladan, nizolarni

tinch yo'l bilan bartaraf etish, ko'p sonli odamlarning xulqini tushunishga hamda ishontirish, muzokaralar olib borish va vositachilik usullariga, shuningdek texnika vositalariga alohida e'tibor beradilar. Huquqni muhofaza qilish organlari o'zlarining o'quv dasturlarini va operativ tartib-taomillarini (protseduralari) muayyan mojarolar nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqishlari lozim.

21. Hukumatlar va huquqni muhofaza qilish organlari kuch va o'qotar qurol qo'llaniladigan vaziyatga tushadigan huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslarning ruhiy tang holatga tushib qolgan taqdirda maslahat berishga alohida e'tibor qaratadilar.

Bildirgilar taqdim etish va ularni tekshirish tartibi

22. Hukumat va huquqni muhofaza qilish organlari 6 hamda 11(f)-prinsiplarda keltirilgan barcha mojarolarga nisbatan bildirgilar taqdim etish va ularni tekshirishning samarali tartib-taomilini belgilaydilar. Ushbu prinsiplarga muvofiq tarzda bildirgilar taqdim etilgan mojarolar bo'yicha tekshiruvlar o'tkazishning samarali jarayonini hamda zarur sharoitlarda hukumatlar va huquqni muhofaza qilish organlarni mustaqil ma'muriy organlar yoki sud ta'qibini amalga oshiruvchi organlarning yurisdiksiyasini amalga oshirishi uchun imkoniyat yaratadilar. Odam o'lgan va jiddiy jarohatlangan taqdirda yoki boshqa og'ir oqibatlar sodir bo'lganda ishning mustaqil ma'muriy tekshirilishi va sud nazorati o'tkazilishi uchun mas'ul vakolatli organlarga darhol batafsil bildirgi yuboriladi.

23. Kuch va o'qotar qurol ishlatilishidan jabrlangan shaxslar yoki ularning qonuniy vakillari muztaqil jarayon, jumladan, sud jarayonidan foydalanishlari mumkin. Bunday shaxslar o'lgan taqdirda ushbu qoida tegishli ravishda ularning qaramog'idagi shaxslarga nisbatan qo'llaniladi.

24. Hukumat va huquqni muhofaza qilish organlari qaramog'idagi huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslar g'ayriqonuniy tarzda kuch yoki o'qotar qurol ishlatganligi yoki ishlatganligi haqida ma'lum bo'lgan yoki ma'lum bo'lishi kerak bo'lgan hamda bunday hollarning oldini olish, to'xtatib qolish yoki bu haqda xabar berish uchun ixtiyoridagi barcha mavjud choralarni ko'rmagan yuqori turuvchi mansabdor shaxslarning javobgarlikka tortilishini ta'minlaydilar.

25. Hukumatlar va huquqni muhofaza qilish organlari huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslarning axloq kodeksi va ushbu Asosiy prinsiplarga muvofiq kuch yoki o'qotar qurol ishlatish to'grisidagi buyruqni bajarishdan bosh tortgan yoki boshqa mansabdor shaxslarning kuch yoki o'qotar qurolni ishlatganliklari haqida xabar bergan huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslarga nisbatan hech qanday jinoiy yoki intizomiy choralar ko'rilmaligini ta'minlaydilar.

26. Agar huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslar kuch yoki o'qotar qurolni ishlatish haqida berilgan va bajarilishi biror-bir shaxsning o'limiga yoki jiddiy yaralanishiga olib keladigan buyruqning aniq g'ayriqonuniy ekanligini bilgan hamda uni ijro etishdan bosh tortish uchun oqilona imkoniyatga ega bo'lsa, yuqori turuvchi mansabdor shaxslar buyruqlarini bajarish ularni oqlay olmaydi. Har qanday holatda ham mas'uliyat g'ayriqonuniy buyruqlar bergan yuqori turuvchi mansabdor shaxslarga ham yuklanadi.

SUDYALAR AXLOQINING BANGALOR PRINSIPLARI

*Xalqaro sudyalar yig'ilihi tomonidan 2002-yil 26-noyabrda qabul qilingan,
EKOSOS 2006/23-son qarori bilan tasdiqlangan*

Har bir inson, uning huquqlari va burchlarini belgilash va unga qo'yilgan jinoiy aybning nechog'li asoslanganligini aniqlash uchun, batamom tenglik sharoitida, o'z ishi oshkora, adolatning barcha talablariga rioya etilib, mustaqil va xolis sud tomonidan ko'rib chiqilishi huquqiga egaligini asosiy prinsip sifatida e'tirof etgan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini e'tiborga olib,

Barcha fuqarolar sudlar oldida tengligi, har bir shaxs o'ziga qo'yilayotgan har qanday jinoiy ayblov ko'rib chiqilayotganda yoki biror-bir fuqarolik jarayonida uning huquq va burchlari aniqlanayotganida, mazkur ish qonunga muvofiq tuzilgan malakali, mustaqil va xolis sud tomonidan adolatli hamda oshkora ko'rib chiqilishi huquqiga egaligini kafolatlaydigan Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktini e'tiborga olib,

Yuqorida ko'rsatilgan asosiy prinsiplar va huquqlar, shuningdek, inson huquqlari bo'yicha mahalliy aktlar, milliy konstitutsiyalar, statutli va umumiy huquqda, sudga oid urf-odatlar va an'analarda tan olinishi yoki o'z aksini topishini e'tiborga olib,

Sud organlarining malakaliligi, mustaqilligi va xolisligi inson huquqlarini himoya qilish masalasida katta ahamiyatga egaligi, chunki boshqa barcha huquqlarning amalga oshirilishi odil sudlovni tegishli ravishda ro'yobga chiqarilishiga bog'liq ekanini e'tiborga olib,

Sud organlarining malakaliligi, mustaqilligi va xolisligi sudlarning konstitutsiyaviylik va huquqiy tartibotni qo'llab-quvvatlashdagi rolini bajarishda katta ahamiyatga egaligini e'tiborga olib,

Jamiyatning sud tizimiga, shuningdek, uning obro'si hamda sud organlarining ma'naviyati, halolligi va vijdonliligiga oid masalalarga nisbatan ishonchi zamonaviy demokratik jamiyatda birinchi darajadagi ahamiyatga egaligini e'tiborga olib,

Sudyalar jamiyat tomonidan o'zlariga bildirilgan ishonch darajasini anglagan holda, yakka va jamoaviy tartibda, o'z lavozimiga hurmat va sharaf bilan yondashishlari hamda ular sud tizimiga bo'lgan ishonchni qo'llab-quvvatlash va yanada rivojlantirish uchun barcha sa'y-harakatlarni ishga solishlari zarurligini e'tiborga olib,

Sudyalar axloqiga doir yuksak andozalarni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash har bir davlat sud organlarining bevosita majburiyati ekanini e'tiborga olib,

Shuningdek, Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari sud organlarining mustaqilligini ta'minlash va qo'llab-quvvatlashga hamda asosan davlatlarga qaratilganini e'tiborga olib,

Quyida sanab oʻtilgan prinsiplar sudyalarning axloq qoidalarining andozalarini belgilash maqsadini oʻzida mujassam etadi. Ular sudyalarga dasturilamal sifatida foydalanish uchun hamda sud organlariga sudyalarning axloqini belgilashning asosiy prinsiplari sifatida qoʻllanish uchun moʻljallangan. Bundan tashqari, ular ijro va qonun chiqaruvchi hokimiyat vakillari, advokatlar va umuman, jamiyat tomonidan odil sudlovni amalga oshirish jarayonini yanada yaxshi anglashi va qoʻllab-quvvatlashiga koʻmaklashishga qaratilgan. Mazkur prinsiplar sudyalarning oʻz axloqi yuzasidan sud andozalarini qoʻllab-quvvatlash uchun tuzilgan, xolis va mustaqil ravishda harakat qiladigan, sudyalarga aloqador axloqqa doir amaldagi meʼyorlar va qoidalar ahamiyatini kamaytirish emas, balki oshirish maqsadida faoliyat yuritadigan tegishli organlarga hisobdor ekanini nazarda tutadi.

1-koʻrsatkich: Mustaqillik

Prinsip

Sud organlarining mustaqilligi huquq-tartibotni taʼminlashning omili hamda sudda ishning odil hal etilishining asosiy kafolatidir. Demak, sudya sud organlarining mustaqilligi prinsipini uning yakka tartibdagi va institutsional jihatlarida himoya qilishi va roʻyobga chiqarishi lozim.

Qoʻllanilishi

1.1. Sudya oʻzining suddagi vazifasini mustaqil, faqat faktlarni baholash asosida, huquqni ongli ravishda tushunishga muvofiq, har qanday tashqi taʼsir, daʼvat, bosim, tahdid yoki har qanday tomondan amalga oshiriladigan va har qanday maqsadlarni koʻzlaydigan bevosita yoki bilvosita aralashuvdan qatʼi nazar, bajarishi lozim.

1.2. Sudya umuman jamiyatga hamda u qaror chiqarishi lozim boʻlgan sud ishining muayyan tomonlariga nisbatan mustaqil pozitsiyani saqlab qoladi.

1.3. Sudya nafaqat lavozimga mos kelmaydigan har qanday oʻzaro munosabatlarni yoki hokimiyatning ijro etuvchi va qonun chiqaruvchi tarmoqlari tomonidan taʼsirni istisno etadi, balki, hatto tashqi kuzatuvchiga ham aniq boʻlishi uchun buni qiladi.

1.4. Ish boʻyicha qaror sudyaning oʻzi tomonidan qabul qilinishi lozim boʻlgan hollarda u sud tarkibidagi boshqa hamkasblarining fikridan mustaqil ravishda harakat qiladi.

1.5. Sudya sudyalarning institutsional va operativ mustaqilligini saqlab qolish va yuksaltirish maqsadida sudyalarning oʻz majburiyatlarini bajarishi kafolatlarini himoya qiladi hamda qoʻllab-quvvatlaydi.

1.6. Sudya sud organlarining mustaqilligini qoʻllab-quvvatlash uchun birinchi darajali ahamiyatga ega boʻlgan sud organlariga jamiyatning ishonchini mustahkamlash maqsadida sudyalarning axloqiga doir yuqori standartlarini namoyish etadi va ragʻbatlantiradi.

2-koʻrsatkich: Xolislik

Prinsip

Sudyaning xolisligi u oʻz majburiyatlarini lozim darajada bajarishining shartidir. Xolislik nafaqat chiqarilayotgan qaror mazmunida, balki uni qabul qilishda kechadigan barcha protsessual harakatlarda namoyon boʻladi.

Qo'llanilishi

2.1. Sudya o'z majburiyatlarini bajarishda har qanday afzal ko'rishlar, soxta fikrlar yoki taxminiylikdan xolidir.

2.2. Sudyaning sud majlisi davomida va suddan tashqaridagi axloqi jamiyat, yuridik kasb vakillari va sud jarayoni tomonlarining sudya va sud organlarining xolisligiga ishonchini qo'llab-quvvatlash va oshirishga xizmat qilishi lozim.

2.3. Sudya o'zini sud majlislarida ishtirok etish va sud ishlari bo'yicha qarorlar chiqarish huquqidan mahrum etishga sabab bo'ladigan harakatlarni qilishdan imkon qadar o'zini cheklashi darkor.

2.4. Ishni (ko'rib chiqilishi avvaldan ma'lum bo'lgan yoki faqat taxmin qilinayotgan) ko'rib chiqish oldidan sudya vaziyatga oqilona baho berishdan kelib chiqib, shu ishning yakuniga qandaydir ta'sir qilishi yoki jarayonning adolatli amalga oshirilishini shubha ostiga qo'yishi mumkin bo'lgan har qanday sharhlardan o'zini tiyadi. Sudya oshkora yoki boshqa sharhlardan o'zini tiyadi, aks holda bu qandaydir shaxs yoki masalaga nisbatan ishning xolisona ko'rib chiqilishiga to'sqinlik qilishi mumkin.

2.5. Sudya ish bo'yicha xolis qaror chiqarishning imkoni yo'q, deb o'ylagan, yoki, chetdagi kuzatuvchida sudyaning xolisligi haqida shubhalar paydo bo'lishi mumkin bo'lgan hollarda, u ishni ko'rib chiqishda ishtirok etishdan o'zini chetga oladi. Quyida shunday hollarning ayrim misollari sanab o'tilgan:

2.5.1. sudyada tomonlarning biriga nisbatan soxta fikr yoki taxminiy munosabat shakllansa yoki sudyaga uning shaxsiy manbalari orqali ko'rilayotgan ishga aloqador qandaydir isbotlovchi dalillar ma'lum bo'lsa;

2.5.2. avval bahsning aynan shu predmetini ko'rib chiqishda sudya advokat sifatida ishtirok etgan yoki muhim guvoh sifatida jalb qilingan bo'lsa; yoki

2.5.3. sudya yoki uning oila a'zolari ko'rilayotgan ishning natijasidan moddiy manfaatdor bo'lsa. Ushbu ishni ko'rib chiqish uchun boshqa sud tayinlanishining iloji bo'lmagan holda yoki ishning shoshilinch xususiyatga ega ekani, uni hal qilishni kechiktirish sudning jiddiy xatosiga olib kelishi mumkinligi sharoitida sudya ishni ko'rib chiqishda ishtirok etishidan chetlashtirilishi mumkin emas.

3-ko'rsatkich: Halollik va vijdonlilik

Prinsip

Halollik va vijdonlilik sudyaning o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarishining zarur shartlaridir.

Qo'llanilishi

3.1. Sudya hatto chetdan kuzatuvchining nazarida ham benuqson axloqni namoyish etadi.

3.2. Sudyaning harakat tarzi va axloqi jamiyatning sud organlari halolligi va vijdonligiga ishonchini qo'llab-quvvatlashi lozim. Shunchaki odil sudlovni amalga oshirish yetarli emas, buni jamiyat uchun oshkora qilish lozim.

4-ko'rsatkich: Axloq me'yorlariga rioya etish

Prinsip

Axloq me'yorlariga rioya etish, bunga amal qilishni namoyish etish sudyalarning faoliyatining ajralmas qismidir.

Qo'llanilishi

4.1. Sudya o'z lavozimi bilan bog'liq har qanday harakatlarni amalga oshirishda noto'g'ri axloq ko'rinishlariga yo'l qo'ymasdan, axloq me'yorlariga rioya etadi.

4.2. Jamoatchilik tomonidan doimiy e'tibor sudyalarning zimmasiga qator cheklovlarni yuklaydi; va, oddiy fuqaroga bunday cheklovlar qiyinchilik tug'diradigandek tuyulishiga qaramay, sudya ularni ixtiyoriy ravishda va chin ko'ngildan qabul qiladi. Xususan, sudyaning axloqi lavozimining yuksak martabasiga mos bo'lishi lozim.

4.3. Sudya ishni ko'rib chiqayotgan sudda doimiy faoliyat yuritadigan advokatlar bilan o'zaro shaxsiy munosabatlarda o'zida soxta fikrlar yoki taxminiy munosabat mavjudligi haqida shubha yoki tasavvur tug'dirishi mumkin bo'lgan vaziyatlardan ehtiyot bo'ladi.

4.4. Sudya o'zining oila a'zolaridan biri ishning qaysidir tomoni vakili sifatida ishtirok etsa yoki ishga boshqacha tarzda aloqador bo'lsa, ishni ko'rishda ishtirok etmaydi.

4.5. Sudya o'z turar joyini mijozlarni qabul qilish yoki hamkasblar bilan uchrashish uchun boshqa advokatlarga taqdim etmaydi.

4.6. Sudyaga, har qanday boshqa fuqaroga bo'lgani kabi, din erkinligi, yig'in va birlashmalarda ishtirok etish erkinligi kafolatlanadi, ammo bu huquqlarni amalga oshirishda u doimo sudyalik yuksak rutbasini saqlash haqida qayg'uradi hamda sud organlarining xolisligi va mustaqilligiga mos kelmaydigan harakatlarga yo'l qo'ymaydi.

4.7. Sudya o'zining maxfiy xususiyatdagi shaxsiy va moddiy manfaatlarini bilishi hamda o'z oilasi a'zolarining moddiy manfaatlari to'g'risidagi axborotga ega bo'lish uchun oqilona choralar ko'rishi lozim.

4.8. Sudya o'z oilasi a'zolarining ijtimoiy va boshqa o'zaro munosabatlarga, uning sudyalik vazifalarini bajarish bilan bog'liq harakatlariga nisbatan hamda sud qarorlarini qabul qilishiga noto'g'ri ta'sir ko'rsatishiga yo'l qo'ymasligi kerak.

4.9. Sudya o'z lavozimi mavqeidan sudyalarning, ular oila a'zolari va har qanday boshqa shaxslarning shaxsiy manfaatlariga erishish uchun foydalanishi yoki foydalanishga ruxsat berishga haqli emas. Sudya o'z vakolatlarini amalga oshirishda kimdir noto'g'ri ta'sir ko'rsatishiga olib kelishi mumkin harakatlarni qilmasligi yoki boshqa shaxslarga shunday harakat qilishga yo'l qo'ymasligi kerak.

4.10. Lavozimi munosabati bilan sudyaga ma'lum bo'lgan maxfiy ma'lumot o'z majburiyatlarini bajarishga doir har qanday boshqa maqsadlarda ishlatilishi yoki boshqalarga oshkor etilishi mumkin emas.

4.11. O'z majburiyatlarini lozim darajada bajarishi sharoitida sudya quyidagilarni qilishga haqli:

a) adabiy, pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish, ma'ruzalar o'qish, huquq, qonunchilik, odil sudlovni amalga oshirish va boshqa shunga o'xshash masalalar bilan bog'liq faoliyatda ishtirok etish;

b) ishlarni oshkora ko'rishda rasmiy organ oldida huquq, qonunchilik, odil sudlovni amalga oshirish va boshqa shunga o'xshash masalalarga doir savollar bo'yicha so'zga chiqish;

c) rasmiy organ, hukumat qo‘mitasi, komissiya, maslahat organida a‘zo bo‘lish, agar bunday a‘zolik sudyaga xolis bo‘lib qolish va siyosiy neytral pozitsiyani saqlab qolish imkonini bersa; yoxud

d) sudya lavozimining oliy rutbasiga mos bo‘lgan hamda sudyalik majburiyatlarini bajarishga har qanday darajada to‘sqinlik qilmaydigan boshqa faoliyat bilan shug‘ullanish.

4.12. Sudyalik lavozimini egallab turgan davrda sudya yuridik amaliyot bilan shug‘ullanishga haqli emas.

4.13. Sudya sudyalar uyushmalarini tuzish yoki ularga a‘zo bo‘lish, sudyalar manfaatlarini ifoda etuvchi boshqa tashkilotlarga a‘zo bo‘lishga haqli.

4.14. Sudya va uning oila a‘zolari sudya o‘z lavozim majburiyatlarini bajarishi munosabati bilan sodir etgan, sodir etmoqchi bo‘lgan harakatlari yoki harakatsizligi oqibatida har qanday sovg‘a, ssudalar, vasiyatlar yoki boshqacha shakldagi yordamni talab etish yoki qabul qilishga haqli emas.

4.15. Sudya sud xodimlari, shuningdek sudyaning ta‘siri, tobeligi yoki rahbarligi ostida bo‘lgan boshqa shaxslarga, agar sudyaga bu o‘z lavozim majburiyatlarini bajarishi munosabati bilan amalga oshirgan, oshirmoqchi bo‘lgan vazifalari yoxud harakatlari yoki harakatsizligi oqibatida ro‘y berishi avvaldan ma‘lum bo‘lsa, har qanday sovg‘a, ssudalar, vasiyatlar yoki boshqacha shakldagi yordamni talab etish yoki qabul qilishga ruxsat berishga haqli emas.

4.16. Qonunda nazarda tutilgan taqiqlar yoki ommaviy oshkora fosh etish bilan bog‘liq boshqa qonuniy cheklovlar bo‘lmasa, sudya, agar ular qandaydir tarzda ularning o‘z lavozim majburiyatlarini bajarishiga ta‘sir ko‘rsatmasdan qilingan bo‘lsa yoki boshqa g‘arazli niyatlari bo‘lmasa, tegishli hollarda esdalik sovg‘alari, mukofot va imtiyozlar olishga haqli.

5-ko‘rsatkich: Tenglik

Prinsip

Sud majlisining barcha tomonlari uchun teng muomalada bo‘lishni ta‘minlash sudya o‘z majburiyatlarini lozim darajada bajarishida birinchi darajali ahamiyatga ega.

Qo‘llanilishi

5.1. Sudya jamiyatning xilma-xilligi hamda turli manbalar, shu jumladan, boshqalar qatorida irqiy mansublik, tananing rangi, jins, din, milliy kelib chiqish, kasta, mehnatga layoqatsizlik, yosh, oilaviy ahvol, jinsiy moyillik, ijtimoiy-iqtisodiy ahvol va shunga o‘xshash boshqa sabablardan (“ishga aloqador bo‘lmagan asoslar”) kelib chiqadigan farqlarni anglashi va tasavvur qilishi kerak.

5.2. O‘z majburiyatlarini bajarishda sudya ishga aloqador bo‘lmagan sabablarga ko‘ra, har qanday shaxs yoki shaxslar guruhiga nisbatan so‘zi yoki muomalasida tarafkashlik yoki soxta fikr munosabatini namoyish etmasligi lozim.

5.3. Sudya suddagi vazifalarni barcha shaxslar, xususan, sud ishi tomonlari, guvohlar, advokatlar, sud xodimlari va sud tarkibidagi hamkasblarining manfaatlarini tegishli tarzda hisobga olgan holda, bunday vazifalarni lozim darajada bajarish uchun ahamiyatsiz, ishga aloqador bo‘lmagan asoslardan kelib chiqib ajratmasdan bajaradi.

5.4. Sudya ongli ravishda sud xodimlari yoki sudyaning ta‘siri, tobeligi yoki rahbarligi ostida bo‘lgan boshqa shaxslar sud tomonidan ko‘rilayotgan ish bo‘yicha ko‘rsatilgan

shaxslarga nisbatan ishga taalluqli bo'lmagan har qanday asoslarda tabaqalashtirilgan yondashuvga yo'l qo'ymasligi kerak.

5.5. Sudya sud muhokamasida ishtirok etayotgan barcha advokatlardan so'z yoki muomala orqali ishga taalluqli bo'lmagan asoslarda tarafkashlik yoki soxta fikr munosabatini namoyish qilishdan o'zlarini tiyishlarini talab qiladi, sud muhokamasi predmeti uchun huquqiy ahamiyatga ega hamda qonuniy jihatdan oqlanishi mumkin bo'lgan holatlar bundan mustasno.

6-ko'rsatkich: Malakalilik va tirishqoqlik

Prinsip

Malakalilik va tirishqoqlik sudyaning o'z majburiyatlarini bajarishining zarur shartlaridir.

Qo'llanilishi

6.1. Sudyaning sudyalik vazifalari faoliyatning boshqa turlaridan ustundir.

6.2. Sudya o'z kasbiy faoliyatini sudyalik vazifalarini bajarishga bag'ishlaydi, bu nafaqat sud muhokamasida sud va lavozim majburiyatlarini bajarish hamda qarorlar chiqarish, balki suddagi lavozim yoki sud faoliyatiga aloqador bo'lgan boshqa vazifalarni ham o'z ichiga oladi.

6.3. Sudya o'z bilimlarini saqlash va kengaytirish, amaliy tajribasi va o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarishda zarur bo'lgan shaxsiy fazilatlarini takomillashtirish uchun oqilona choralar ko'radi, bu maqsadda o'quv vositalari hamda sudlov nazorati sharoitida sudyalar uchun yaratilgan boshqa imkoniyatlardan foydalanadi.

6.4. Sudya xalqaro qonunchilikdagi tegishli o'zgarishlardan, jumladan, inson huquqlariga nisbatan amal qiladigan normalarni belgilaydigan xalqaro konvensiyalar va boshqa hujjatlardan xabardor bo'lishi kerak.

6.5. Sudya o'zining barcha majburiyatlarini, jumladan, kechiktirilgan qarorlar chiqarishda oqilona, adolatli va muayyan tezlik bilan bajaradi.

6.6. Sudya barcha sud muhokamalarida tartibni saqlaydi va odob-axloq qoidalariga rioya qiladi hamda o'zini sud majlisining tomonlari, maslahatchilar, guvohlar, advokatlar va sudya rasmiy ravishda muloqot qiladigan boshqa shaxslarga nisbatan sabrli, munosib va xushmuomala munosabatda bo'ladi. Sudya tomonlarning qonuniy vakillari, sud xodimlari hamda sudya ta'siri, unga bo'ysinuvchi yoki nazorati ostida bo'lgan boshqa shaxslardan ham xuddi shunday muomalani talab qilishi kerak.

6.7. Sudya sud vazifalarini tirishqoqlik bilan bajarishga mos kelmaydigan faoliyat bilan shug'ullanmasligi lozim.

Amaliyotga tatbiq etish

Sud lavozimining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, milliy sud organlari ko'rsatilgan prinsiplarni, agar bunday mexanizmlar ularning yurisdiksiyasi doirasida hali mavjud bo'lmasa, amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini yaratish uchun samarali choralarni ko'rishi lozim.

HUQUQIY TARTIBOTNI SAQLASH BO'YICHA MANSABDOR SHAXSLARNING AXLOQ KODEKSI

*BMT Bosh Assambleyasining 1979-yil 17-dekabrda
34/169-sonli rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan*

1-modda

Huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslar ularning o'z kasbi talab etadigan yuksak darajadagi mas'uliyatga muvofiq jamiyatga xizmat qilib va barcha shaxslarni g'ayriqonuniy harakatlardan himoya qilib, qonun bilan o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni doimiy ravishda bajaradilar.

Sharh

a) "huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslar" atamasi huquqni qo'llashga aloqador bo'lgan politsiya vakolatlariga, ayniqsa, huquqbuzarlarni ushlab turish vakolatlariga ega bo'lgan barcha tayinlanadigan yoki saylanadigan mansabdor shaxslarni o'z ichiga oladi.

b) politsiya vakolatlarini maxsus formadagi yoki fuqaro kiyimidagi harbiy hokimiyat vakillari yoxud davlat xavfsizlik kuchlari tomonidan amalga oshiriladigan mamlakatlarda "huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslar" tushunchasi bunday xizmatlarning xodimlarini o'z ichiga oladi.

c) jamiyatga xizmat qilish, xususan, jamiyatning shaxsiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa favqulodda xususiyatga ega bo'lgan sabablarga ko'ra shoshilinch yordamga muhtoj bo'lgan a'zolariga xizmat ko'rsatish va ko'maklashishni o'z ichiga olishi nazarda tutiladi.

d) ushbu qoida nafaqat barcha zo'rvonlik, talonchilik yoki zararli harakatlarni qamrab olishi, balki jinoyat qonunlariga muvofiq o'rnatilgan barcha turdagi taqiqlarga ham taalluqli ekanligi nazarda tutiladi. U, shuningdek, jinoiy javobgarlikni o'tay olmaydigan shaxslarning xulqiga ham taalluqlidir.

2-modda

Huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslar o'z vazifalarini bajarish davomida inson qadr-qimmatini hurmat qiladilar va himoya qiladilar hamda barcha shaxslarga nisbatan inson huquqlarini qo'llab-quvvatlaydilar va himoya qiladilar.

Sharh

a) mazkur inson huquqlari milliy va xalqaro huquq bilan belgilanadi va himoya qilinadi. Tegishli xalqaro hujjatlarga Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Barcha shaxslarni qiynoqlar hamda muomala va jazolashning boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni

kamsituvchi turlaridan himoya qilish to'g'risidagi deklaratsiya, Irqiy kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi deklaratsiya, Irqiy kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi xalqaro konvensiya, Aparteid jinoyatini to'xtatish va uning uchun jazolash to'g'risidagi xalqaro konvensiya, Genotsid jinoyatining oldini olish va uning uchun jazolash to'g'risidagi xalqaro konvensiya, Mahbuslar bilan muomala qilish bo'yicha minimal standart qoidalari va Konsullik aloqalari to'g'risidagi Vena konvensiyasi kiradi.

b) ushbu qoidaga berilgan milliy sharhlarda ushbu huquqlarni belgilovchi va himoyalovchi mintaqaviy yoki milliy qoidalar ko'rsatilishi kerak.

3-modda

Huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslar faqat oxirgi zarurat hollaridagina va o'z vazifalarini bajarishlari uchun talab etilgan darajadagina kuch ishlatishlari mumkin.

Sharh

a) ushbu qoidada huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslarning kuch ishlatishi istisnoli xususiyatga ega bo'lishi kerakligi ta'kidlanadi; garchi ushbu qoida huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslar muayyan holatlarda oqilona darajada kuch ishlatish vakolatiga ega bo'lishlari mumkinligini nazarda tutsa ham, jinoyatlarning oldini olish maqsadida yoki huquqbuzarlarni yoxud gumon qilinayotgan huquqbuzarlarni qonunga muvofiq ushlab yoki bunday ushlab vaqtida yordam ko'rsatish chog'ida ushbu maqsadlar uchun zarur bo'lgan doiradan chiqadigan kuch qo'llanilishi mumkin emas.

b) milliy qonunchilik odatda huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslarning kuch ishlatishini mutanosiblik prinsipiga muvofiq cheklaydi. Buni mazkur qoidani talqin etishda ushbu mutanosiblik milliy prinsiplari hurmat qilinishi kerak, deb tushunish lozim. Ushbu qoida erishish zarur bo'lgan qonuniy manfaatga nomutanosib bo'lgan kuchni qo'llashga vakolat beradi, deb aslo talqin etilmaydi.

c) o'qotar quroldan foydalanish oxirgi chora hisoblanadi. O'qotar quroldan foydalanishni, ayniqsa, bolalarga qarshi qo'llashni istisno qilish uchun barcha sa'y-harakatlarni amalga oshirish kerak. Odatda, gumon qilinuvchi huquqbuzar qurolli qarshilik ko'rsatayotgan yoki boshqalarning hayotini o'zgacha tarzda xavf ostiga qo'yayotgan hamda kamroq istisnoli xususiyatga ega bo'lgan boshqa choralar gumon qilinayotgan huquqbuzarning masalasini muhokama qilish yoki uni ushlab uchun yetarli bo'lmagan holatlarni istisno qilgan holda o'qotar qurol qo'llanilmaydi. O'qotar qurol qo'llanilgan har bir holat to'g'risida vakolatli hokimiyat idoralariga darhol xabar berilishi kerak.

4-modda

Agar majburiyatlar yoki odil sudlov talablarini ijro etish boshqacha ish tutishni talab etmasa, huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslar oladigan maxfiy xususiyatga ega bo'lgan ma'lumotlar sir saqlanadi.

Sharh

Huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslar o'z vazifalarining xususiyatiga ko'ra, boshqa shaxslarning shaxsiy hayotiga taalluqli bo'lgan yoki bunday

shaxslarning manfaatlariga va ayniqsa ularning obroʻsiga ziyon yetkazishi ehtimoli boʻlgan axborotni oladilar. Bunday axborotni saqlash va undan foydalanishda juda ehtiyot boʻlishi kerak. U faqat majburiyatlarni bajarish uchun yoki odil sudlov maqsadida oshkor qilinadi. Bunday axborotni boshqa maqsadlarda har qanday oshkor etish qonunga butunlay ziddir.

5-modda

Hech bir huquqiy tartibotni saqlash boʻyicha mansabdor shaxs qiynoq hamda muomala va jazolashning boshqa shafqatsiz, gʻayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitishdan iborat boʻlgan har qanday harakatni amalga oshirishi, bunga undashi yoki toqat qilishi mumkin emas va hech bir huquqiy tartibotni saqlash boʻyicha mansabdor shaxs qiynoq hamda muomala va jazolashning boshqa shafqatsiz, gʻayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlarini oqlash uchun yuqori turuvchi shaxslarning farmoyishlari yoxud urush holati yoki xavfi, milliy xavfsizlikka tahdid, ichki siyosiy beqarorlik yoki har qanday boshqa favqulodda holat kabi istisnoli holatlarni vaj qilib koʻrsatishi mumkin emas.

Sharh

a) ushbu taqiq Bosh Assambleyaning Barcha shaxslarni qiynoq hamda muomala va jazolashning boshqa shafqatsiz, gʻayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlaridan himoya qilish toʻgʻrisidagi deklaratsiyasidan kelib chiqadi. Ushbu Deklaratsiyaga koʻra:

“[bunday harakat] inson qadr-qimmatini haqoratlash [hisoblanadi] va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomining maqsadlarini buzish hamda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida [va inson huquqlariga taalluqli boshqa xalqaro hujjatlarda] eʼlon qilingan inson huquqlari va asosiy erkinliklarini buzish sifatida qoralanadi”.

b) Deklaratsiyada qiynoqlar quyidagicha belgilangan:

“... qiynoq” taʼrifi har qandaydir shaxsga undan yoki uchinchi shaxsdan u yoki uchinchi shaxs sodir etgan yoki u sodir etishda gumon qilinayotgan harakatlarining jazolanishi uchun maʼlumotnomalar yoki iqornomasini olishda qasddan jismoniy yoki ruhiy kuchli ogʻriq yoki azob yetkazilishi, shuningdek uni yoki uchinchi shaxsni qoʻrqitish yoki majburlash yoxud bunday ogʻriq yoki azob davlatning mansabdor shaxsi yoki rasmiy sifatidagi boshqa shaxs yoxud ularning igʻvogarligi bilan yoki ularning maʼlumoti yoki indamay roziligi bilan biror bir xususiyatdagi kamsitishlarga asoslangan har qanday sababga koʻra yetkaziladigan harakatni anglatadi. Bu taʼrifga faqat qonuniy sanksiyalar natijasida paydo boʻladigan shu sanksiyalardan ajralmas yoki ulardan tasodifan kelib chiqadigan ogʻriq yoki azoblarni oʻz ichiga olmaydi”.

c) “muomala va jazolashning qattiq, shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlari” iborasini Bosh Assambleya taʼriflamagan, ammo uni ham jismoniy, ham psixologik xususiyatga ega boʻlgan suiisteʼmolchiliklardan iloji boricha keng himoya qilish mumkin boʻladigan qilib talqin etish lozim.

6-modda

Huquqiy tartibotni saqlash boʻyicha mansabdor shaxslar oʻzlari ushlagan shaxslarning sogʻligʻi toʻliq saqlanishini taʼminlaydilar va, xususan, zarur boʻlganda tibbiy yordam koʻrsatilishi uchun darhol chora koʻradilar.

Sharh

a) har qanday tibbiy xodim, jumladan, tegishli guvohnomaga ega bo'lgan amaliyotchi shifokorlar hamda yordamchi tibbiyot xodimlari ko'rsatadigan xizmatlarni anglatuvchi "tibbiy yordam" zarur bo'lganda yoki iltimosga javoban ko'rsatiladi.

b) tibbiyot xodimlari odatda huquqiy tartibotni saqlash faoliyatiga sadoqatliligi sababli, huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslar hibsga olingan shaxsga huquqiy tartibotni saqlash faoliyatida ishtirok etmaydigan tibbiyot xodimlari orqali yoki maslahatlashib tegishli tibbiy yordam ko'rsatishni tavsiya qilganida ushbu xodimlarning fikrini inobatga olishlari kerak.

c) huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslar huquqbuzarliklar qurbonlari yoki huquqbuzarliklar paytida sodir bo'lgan baxtsiz hodisalar qurbonlariga tibbiy yordam ko'rsatishni ta'minlashlari tushuniladi.

7-modda

Huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslar hech bir korrupsiya harakatini sodir etmaydilar. Ular, shuningdek har qanday bunday harakatlarga har tomonlama to'sqinlik qiladilar va ularga qarshi kurashadilar.

Sharh

a) har qanday korrupsiya harakati boshqa har qanday hokimiyatni suiiste'mol qilish singari, huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxsning xizmat mavqeiga mutanosib emas. Korrupsiya harakatini sodir etgan huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha har qanday mansabdor shaxsga nisbatan qonun to'raligicha qo'llanilishi kerak, chunki hukumatlar o'zlarining mansabdor shaxslari o'z muassasalari doirasida qonuniylikka rioya etishini ta'minlay olmasa yoki buni istamasa, fuqarolarning huquqiy tartibga rioya etishlarini umid qilmasa ham bo'ladi.

b) garchi "korrupsiya" tushunchasi milliy huquqqa mos tarzda ta'riflanishi kerak bo'lsa-da, ushbu tushuncha talab qilinayotgan yoki qabul qilingan sovg'alar, va'dalar yoki rag'batlar natijasida o'z vazifalarini bajarish paytida yoki bajarish bilan bog'liq ravishda qandaydir harakatni sodir etish yoki sodir etmaslikni yoxud bunday harakat yoki harakatsizlik mavjud bo'lgan holda har safar ushbu sovg'alar, va'dalar yoki rag'batlarning g'ayriqonuniy olinishini qamrashini tushunish lozim.

c) yuqorida so'z yuritilgan "korrupsiya harakati" iborasini mansabdor shaxsni sotib olish bilan bog'liq harakat sifatida tushunish lozim.

8-modda

Huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslar qonunni va ushbu Kodeksni hurmat qiladilar. Ular, shuningdek, barcha imkoniyatlarini ishga solib, barcha huquqiy tartibotni buzish hollarining oldini oladilar va bunday holatlarga har tomonlama to'sqinlik qiladilar.

Huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslar ushbu Kodeks buzilgan yoki buziladi deb hisoblash uchun asoslarga ega bo'lgan taqdirda yuz bergan voqea haqida yuqori turuvchi instansiyalarga zarur bo'lsa, nazorat qilish yoki huquqiy tekshirish vakolatlariga ega boshqa tegishli instansiyalar yoki organlarga xabar beradilar.

Sharh

a) ushbu Kodeks milliy qonunchilikka yoki amaliyotga kiritilgan barcha hollarda unga rioya etiladi. Agar qonunchilik yoki amaliyotda ushbu Kodeks qoidalariga qaraganda qat'iyroq qoidalar nazarda tutilgan bo'lsa, milliy qonunchilik va amaliyotdagi qoidalarga rioya etiladi.

b) ushbu modda, bir tomondan, muassasaning jamiyat xavfsizligi ko'proq darajada bog'liq bo'lgan ichki intizomi bo'lishi zarurati hamda ikkinchi tomondan, insonning asosiy huquqlari buzilishiga qarshi kurash zarurati o'rtasidagi muvozanatni saqlab qolishga qaratilgan. Huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslar tartibot buzilishlari haqida instansiyalar bo'yicha xabar beradilar va boshqa barcha imkoniyatlar mavjud yoki samarali bo'lmagan taqdirdagina instansiyalar doirasidan tashqarida boshqa huquqiy choralarni ko'radilar. Huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslar ushbu Kodeks buzilganligi yoki buzilishi mumkinligi haqida xabar berganliklari uchun ularga nisbatan ma'muriy yoki boshqa jazo choralari qo'llanilmasligi tushuniladi.

c) "nazorat qilish yoki huquqiy tekshirish vakolatlariga ega boshqa tegishli instansiyalar yoki organlar" tushunchasi milliy huquq asosida tartibni saqlash muassasasi doirasida ham, undan mustaqil ravishda ham mavjud bo'lgan va ushbu Kodeksning amal qilish sohasidagi qoidabuzarliklar bilan bog'liq ravishda yuzaga keladigan shikoyatlar va da'volarni ko'rib chiqishning statutli, oddiy yoki boshqa vakolatlariga ega bo'lgan har qanday muassasa yoki organni o'z ichiga oladi.

d) bir qator mamlakatlarda ommaviy axborot vositalari yuqoridagi "c" kichik bandda tavsiflangan shikoyatlarga o'xshash shikoyatlarni ko'rib chiqish funksiyasini bajaruvchi muassasalar sifatida qaralishi mumkin. Shuning uchun huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslar asosli ravishda oxirgi chora sifatida va o'z mamlakatlarining qonunlari va odatlariga, shuningdek ushbu Kodeksning 4-moddasidagi qoidalarga muvofiq, mazkur qoidabuzarliklarga ommaviy axborot vositalari orqali jamoatchilikning e'tiborini qaratishlari mumkin.

e) ushbu Kodeksning qoidalariga rioya etuvchi huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslar jamiyat, o'zlari xizmat qilayotgan huquqiy tartibotni saqlash muassasasi hamda huquqiy tartibotni saqlash bilan mashg'ul shaxslar hurmat ko'rsatishiga, to'liq qo'llab-quvvatlashiga va hamkorlik qilishiga loyiqdir.

INSON HUQUQLARI BO'YICHA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY MARKAZI

**BMTNING JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHISH
VA ODIL SUDLOVGA OID XALQARO SHARTNOMALARI
TO'PLAMI**

Nashr uchun mas'ul
Muharrirlar
Kompyuterda sahifalovchi

M. Tillabayev
M. Palnova, L. Ruzikulova
A. Jumaniyazov

Chop etishga 2024-yil 30-avgustda ruxsat etildi.
Bichimi 70x100 1/16.
«PT Serif» garniturasida ofset usulda bosildi.
Shartli bosma tabog'i 11,0. Nashr tabog'i 8,8.
Adadi 100 nusxa. Buyurtma № .

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi
Milliy markazida chop etildi.
100029, Toshkent, Islom Karimov ko'chasi, 15.